“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika ko’p tarmoqli, ilmiy KONFERENSIYA

#18

SEPTEMBER

2024

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI

№ 18-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
27-SENTABR 2024-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES

18th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
SEPTEMBER 27, 2024

EKOTURIZMNI IQTISODIY - IJTIMOIY TIZIM SIFATIDA O‘RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Qudratov Erali Sherali o'g'li
ToshDAU, magistranti
qudiratoverali@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ekoturizmni iqtisodiy - ijtimoiy tizim sifatida o‘rganishning nazariy asoslari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: Ekoturizmini rivojlantirish, ekoturistik resurslar, ekoturizm salohiyati, ekoturistik hududlar.

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических основах изучения экотуризма как экономико-социальной системы.

Ключевые слова: Развитие экотуризма, экотуристические ресурсы, экотуристический потенциал, районы экотуризма.

Annatation. This article provides information on the theoretical basis of studying Ecotourism as an economic-social system.

Key words: Development of ecotourism, ecotourism resources, ecotourism potential, ecotourism areas.

Kirish. Tabiat quchog‘iga sayyohat qilishni tashkillashtirish to‘g‘risida fikr yuritganda, ko‘pincha “ekoturizm” atamasi tilga olinadi. Aslida ekoturizm, bir tomondan, turistik bozorda jadal o‘sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomondan esa insoning tabiatga ijobiy ta’siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, faqat g‘oyagina emas, balki, umumiy turizmning aniq turi, hisoblanadi. Uning atrof-muhitga ta’siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo‘lishi mumkin. “Ekoturizm” qo‘riqxona, o‘rmon hududlari va tabiiy bog‘larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo‘llanilmoqda. Bu sayyohat turining dunyo miqyosida jadal o‘sishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar–tog‘ bag‘ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg‘oqlari, tekisliklar va o‘rmonzorlar borgan sari ko‘proq o‘zlashtirilayotganligi hamdir.

“Ekoturizm” atamasi o‘rniga ko‘pincha boshqa atamalar, ya’ni, “tabiiy turizm”, “barqaror turizm”, “yashil turizm”, “mas’uliyatli turizm” va “hayriya turizmi” kabi atamalar ham ishlatiladi. Ba’zi unsurlari bir xil bo‘lsa ham, Ular aslida bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o‘rnini egallamaydi. Ekoturizm – tabiiy turizm (tabiatga sayyohat) ning bir turi. U tabiiy turizmning ba’zi bo‘laklarini, masalan, sarguzashtli turizm–otda sayr qilish yoki kanoeda suzish kabilarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ekoturizmning quyidagi ta’rifi ko‘proq ishlatiladi: “Ekoturizm” tabiiy turizm bo‘lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o‘z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo‘lib, “tabiiy muhit” madaniy tarkiblarni, “ekologik barqarorlik” mahalliy aholi uchun tegishlicha daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o‘z ichiga oladi.

Ekoturizm turizmning boshqa turlari kabi ekologik barqaror bo‘lishi, sayyohlarga zavq-shavq baxsh etishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga “mos tushishi” kerak. “Mos tushishi” degan so‘zlarning ma’nosi shuki, bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko‘lami va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to‘g‘ri kelishi zarur.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ta’rifiga ko‘ra, “ekologik turizm yoki ekoturizm tabiat muhitiga nisbatan mas’uliyat bilan sayohat qilishga, hududlarni tabiatiga ziyon yetkazmagan holda o‘rganish hamda betakror, go‘zal joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko‘maklashadi, atrof- muhitga “yumshoq” ta’sir etadi, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta’minlaydi[5]”

Turizm jamiyati esa “ekoturizmni tabiiy hududlarga mas’uliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi[6]”, deb hisoblaydi.

“Ekologik turizm” tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko‘prog‘ini chuqurroq tushunish uchun I. Zorin va V. Kvartalnov o‘zaro bog‘langan “ekotizim”, “ekologiya”, “ekologik sayyohat etikasi” kabi tushunchalar tizimini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.

Qozog‘istonlik yana bir mutaxassis R.Xabiraxmonovning ta’kidlashicha, “ekoturizm alohida soha bo‘lishi, uning rivojlanishi uchun esa alohida ko‘riladigan hududlar va obyektlar, aynan qo‘riqxonalar, milliy va tabiiy bog‘lar, tabiat yodgorliklari, tarixiy-memorial bog‘lar bo‘lishi lozim”. J. Aliyeva ham ekoturizm o‘z rivojida alohida qo‘riqlanadigan hudud resurslariga tayanishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “ekoturizm” noyob va yo‘qolib borayotgan hayvonlar, o‘simliklar, ekotizimlar va tabiiy komplekslarni muhofaza qilishni; inson salomatligini ruhan va jismonan tiklashni; ekologik bilim va tarbiyani o‘z ichiga oladi.

J.Aliyevaning fikricha, ekologik turizmga ko‘pincha ommaviy turizmning muqobili sifatida qaraladi, hozir u turistik faoliyatning eng istiqbolli va dinamik

rivojlanuvchi shakllaridan hisoblanadi. “Ekologik turizm” tushunchasi ta’riflari tahlili ko‘rsatadiki, umumlashtirgan holda uning quyidagi belgilarini farqlash lozim:

– yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;

–atrof-muhitga minimal zarar yetkazish;

– odamga rekratsion va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;

– yangi landshaft manzillari bilan tanishish, flora va faunalar muhofaza qilinishi uchun ularning namunalarini o‘rganish;

– ekoturizmdan tushgan mablag‘lardan dunyodagi barcha hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish;

– barcha turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar.

“Ekologik turizm” tushunchasini umumlashtirish quyidagi xulosalarga asos bo‘la oladi: turizmni tashkil qilishning yuqorida ko‘rsatilgan alomatlarida shakllangan tamoyillar lokal emas, balki, global xarakterga ega. Shuning uchun bu tamoyillar jahonning ayrim qismlari yoki yer, suv va havo bo‘shlig‘ining ayrim qismlarida emas, balki, butun dunyodagi turistik faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lishi lozim.

Shuningdek, “ekologik turizm” tushunchasini nazariy asoslash mintaqada yashovchi ko‘pchilik aholining ongini ekoturizm talablariga moslashtirishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiiy boyliklarga zarar yetkazmagan holda turistik faoliyatni rivojlantirishning optimal texnologiyasini asta-sekin shakllantira borish uchun zamin bo‘ladi.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Ular bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar ta’tillari, ornetologik turlar, ilmiy turlar va ekspeditsiyalar, dam olish ekskursiyalari, bolalar dam olish maskanlari va hokazolarni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida berilgan ta’riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, fikrimizcha, ekoturizm – bu, turizmning tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan hamda tabiatning tabiiy muhitda uyg‘unlashuvini targ‘ib qiladigan va mahalliy aholining turmush tarzini o‘zgartiruvchi maxsus sohasidir.

Ekoturizmni rivojlantirishga sabab bo‘ladigan asosiy omillar tabiatga sayyohat va uni muhofaza qilishni o‘zaro birlashtiradi hamda shu tariqa atrof-muhit himoyasining iqtisodiy rag‘bati bo‘lib xizmat qiladi. Yana bir afzalligi shundaki, u yovvoyi tabiat bilan jamiyatning turli-tuman madaniy qadriyatlari orasidagi munosabatni yaxshiroq tushunish hamda bu haqda ko‘proq axborotlar

olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa ekoturistik soha tijorat jihatidan o‘zini oqlashi, ekologik jihatdan barqaror bo‘lishi va madaniyatga nisbatan mas’uliyat bilan yondashuv mexanizmini yaratishdan iborat.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Dr.Martha Honey. Ekotourism and Sustainable Development, Second Edition: Who Owns Paradise. 2nd Edition. Island Press; 2 edition (August 4, 2008). USA, 2008.
2. Megan Epler Wood. Ekotourism: principles, practices and policies for sustainability. UNEP. First edition, 2002. United nations publication.
3. Soliev A.S., Usmanov M.R. Turizm geografiyasi. SamDU, 2005.
4. Hayitboev R., Sattarov A. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi. Samarqand. 2009.
5. Hayitboev R., Matyoqubov U. Ekologik turizm. Sam ISI, 2010.
6. Aleksandrova A.YU. MejdunarodnO‘y turizm. Ucheb.–M.: KNORUS, 2010.
7. Papiryan G.A. Ekonomika turizma.–M.: FinansO‘ i statistika, 1998
8. Saidov A. O’zbekistonda turizm: Istiqbol va muammolar.–T.: Mehnat, 1992.
9. Tuxliev N., Taksanov A. Ekonomika bolshogo turizma.–T.: O‘ME, 2001.
10. Sergeeva T.K. Ekologicheskiy turizm.-M.: FinansO‘ i statistika, 2004.
11. *EBS «Universitetskaya biblioteka online»* http://www.biblioclub.ru/
12. Xrabovchenko V.V. Ekologicheskiy turizm. Moskva, 2003.
13. O.H.Hamidov. O‘zbekistonning ekoturistik salohiyati. Monografiya.–T.: Fan.

FRANSUZ VA O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI, ERTAK JANRI

Majidova Laziza Baxtiyorovna
Buxoro viloyati Vobkent tumani
14-maktab fransuz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fransuz va o'zbek bolalar adabiyoti, ertak janri haqida so`z yuritilgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi.

**Kalit so`zlar:** adabiyot, tilshunoslik, fransuz tili, o`zbek tili, bolalar adabiyoti, so`z san`ati, ertak, janr, yozuvchi.

Bolalar adabiyoti so‘z san’ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g‘oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo`lishi zarur. Eng muhimi mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak. Bolalar adabiyoti

yoshlami imon-e’tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda mustaqil mamlakatimizning qudratli qurolidir. Faqat chinakam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadí. Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g‘oyaviy mazmunini aniq va ¡fodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxoniarga tez va oson yetkazadi. Alisher Navoiy «Mahbubul qulub»da tilni «ko‘ngil xazinasining qulfi», deb ta'riflaydi. Buyuk shoir kishilami qisqa va mazmunli, chuqur mantiq bilan so‘zlashga chaqiradi. Bu talab, shubhasiz, bolalar yozuvchilariga ham taalluqlidir. Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim. Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi, so‘z boyligini oshiradi. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ulami yurtimizning munosib farzandlari bo`lishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi, flm-fanga muhabbatini oshiradi. Kitob xalqimizning o‘tmishi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg‘ularini o‘stiradi. Bugungi kunda qudratli qurol bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas.

Jahon bolalar adabiyoti deganimizda yer yuzidagi barcha xalqlarning atoqli yozuvchilari yaratgan, nafaqat o’z xalaqlari balki barcha xalqlar bolalari uchun sevimli bo’lib ulgurgan badiiy asar namunalarini tushunamiz. Jahon bolalar yozuvchilari deganimizda o’zbek bolalari uchun ham allaqachon sevimli Sh.Perro, Daniel Defo, Jonatan Svift, aka-uka Yakob va Vilgelm Grimmlar, Karlo Kollodi, Mark Tven, Frensis Bret Gart, Xans Kristian Andersen, Redyard Jozef Kipling, Antuan de Sent-Ekzyuperi, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, L.N.Tolstoy, K.I.Chukovskiy, S.Y.Marshak, N.N.Nosov kabi atoqli adiblar yodimizga tushadi. Chunki buyuk *fransuz ertakchisi* Sh.Perroning „Qizil Shapkacha“, „Zolushka“ va „Etik kiygan mushuk“, ingliz adibi Daniel Defoning “Robinzo Kruzo”, mashhur ingliz yozuvchisi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari”, nemis adiblari akauka Yakob va Vilgelm Grimmlarning ajoyib ertaklari, italiya adibi Karlo Kollodining “Pinokkioning boshidan kechirganlari”, aerikaning mashhur yozuvchisi Mark Tven qalamiga mansub “Shahzoda va gado”, “Tom Soyerning sarguzashtlari”, “Ovsar Vilson”, “Geklberri Finning boshidan kechirganlari”, yana bir amerikalik yozuvchi Frensis Bret Gartning “Cho’ldan topilgan bola”, daniyalik

mashhur Xans Kristian Andersen ertaklari, ingliz adibi Redyard Jozef Kipling qalamiga mansub “Jungli kitobi”, “Shunchaki kichkintoylar”, “Maugli”, fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda”, buyuk shoir A.S.Pushkinning „Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak“, „Baliqchi ham baliq haqida ertak“, „O’lik malika va yetti bahodir haqida ertak“, „Oltin xo’roz haqida ertak“, “Shoh Saltan haqida ertak” kabi ertak-dostonlari , N.A.Nekrasovning “Sasha”, “Ayoz hukmdor”, “Kuzak”, “Bulbullar”kabi go’zal she’rlari, ulug rus yozuvchisi L.N.Tolstoy qalamiga mansub “Fillipok”, “Danak”, “Chol bilan nabira”, “Arslon bilan it”, “Akula”, “Sakrash” kabi ertak va hikoyalari, K.I.Chukovskiyning “Barmaley”, “Doktor Aybolit”, S.Y.Marshakning “Ahmoq sichqoncha haqida ertak”, “Kecha va bugun”, N.N.Nosovning “Bilmasvoy va do’stlarining sarguzashtlari”, “Bilmasvoy Quyosh shahrida”, “Bilmasvoy Oyda” kabi asarlarini butun dunyo bolalari, shu jumladan o’zbek bolalari ham sevib o’qiydilar. Jahon bolalar adiblarining ijod namunalari o’zbek xalqi ma`naviy merosining bir bo’lagiga aylanib ulgurgan.

Xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko‘plab ertaklarda bolalarning o‘ziga xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko‘p maxsus ertaklar yaratilgan. Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog‘lanishi, insonlarga axloqiy va ma’naviy yo`ldosh bo‘lib kelishidadir. Ertaklar insonning ma’naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o‘ziga dushman bo‘lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi.

Ertaklar sodda va tushunarli bo‘lgani uchun har qanday kitobxonga tez yetib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi. Bu hol ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertakda aks etgan. O‘tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchilik kurashi o‘zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir.

Xalqning kelajakka bo‘lgan komil ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug‘likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g‘oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklarida el-yurtni ko‘z qorachig‘iday avaylab saqlovchi ajoyib qahramonlar ulug‘lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma’qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik , epchillik , dovyuraklik , mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g‘oyalari ulug`lanadi.

Xullas, kimki xalq og‘zaki ijodiga mehr qo‘ysa, ayniqsa, ertaklarni ko‘proq o ‘qisa hayotda kam bo‘lmaydi.

IJTIMOIY ADOLAT VA TENGLIK

Sadullayeva Shaxnoza Bahodirovna
SamDChTI Gumanitar fanlar va
Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy adolat va tenglik haqida so`z yuritilgan. Adolat – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Kishilar ijtimoiy siyosiy ongida katta rol o‘ynaydi. Tenglik — jamiyatdagi barcha shaxs, qatlam, guruh, partiya va shu kabining qonun oldida baravarligini ifodalovchi tushuncha; adolatli jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri.

Abstract. This article talks about social justice and equality. Justice is a socio-philosophical, moral and legal concept. It plays a major role in people's social and political consciousness. Equality is a concept that expresses the equality of all individuals, strata, groups, parties and the like in society before the law; one of the main principles of a just society.

Абстракт. В этой статье говорится о социальной справедливости и равенстве. Справедливость – это социально-философское, морально-правовое понятие. Он играет важную роль в общественном и политическом сознании людей. Равенство есть понятие, выражающее равенство всех лиц, слоев, групп, партий и т.п. в обществе перед законом; один из основных принципов справедливого общества.

Kalit so`zlar: erkinlik, tenglik, adolat, mafkuralar, fikrlar, huquqiy davlat, demokratiya, huquq, erkinlik, oila, jamiyat, davlat, aybsizlik.

Ключевые слова: свобода, равенство, справедливость, идеологии, мнения, правовое государство, демократия, право, свобода, семья, общество, государство, невиновность.

Key words: freedom, equality, justice, ideologies, opinions, rule of law, democracy, law, freedom, family, society, state, innocence.

Erkinlik, tenglik, adolat, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi, hokimiyatning saylov asosida vujudga kelishi, hokimiyatlar bo‘linishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud qarorisiz mahrum etib bo‘lmasligi, aybsizlik prezumpsiyasi bularning barcha-barchasi demokratiyaning eng muhim belgilari bo‘lib, demokratik davlatlar konstitutsiyalarining muhim prinsiplarini tashkil etadi.

Tenglik — jamiyatdagi barcha shaxs, qatlam, guruh, partiya va shu kabining qonun oldida baravarligini ifodalovchi tushuncha; adolatli jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri. Tenglik ta’minlangan jamiyatda uning barcha a’zolari yashash, ta’lim olish, mehnat qilish, erkin kasb tanlash, mulkdor bo‘lish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, qariganda, mehnat layoqatini yo‘qotganda ijtimoiy ta’minot olish, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi, saylash va saylanish kabi huquqlarga ega bo‘ladi.

Har qanday jamiyat farovonligida ijtimoiy tenglik tamoyili juda muhim o‘rin tutadi. Bu tamoyil aholining turli qatlamlariga berilgan iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlar keskin farq qilmasligi kerakligini ta’kidlaydi. Hatto o‘ta kapitalistlashgan jamiyatlarda ham daromadlar aholining turli qatlamlari o‘rtasida nisbatan teng taqsimlanishiga qaratilgan siyosat olib boriladi.

Tenglik prinsipi asosida odamlarning adolat haqidagi qarashlari yotadi. Falsafada adolatga ikki xil qarash bo‘lib, biri hamma boylik va imkoniyatlar hammaga teng taqsimlanishi kerak deydi (bu taqsimiy yoki distribyutiv adolat deb ataladi), ikkinchisi boylik va imkoniyatlar har kimning qilgan mehnati va yutuqlariga qarab bo‘linishi kerak deydi (bu hissaviy yoki kontribyutiv adolat deb ataladi). Bu ikki yondashuv juda keskin bo‘lib, ularning biriga amal qilgan jamiyat tezda ichki muammolar yukidan aziyat cheka boshlaydi va tanazzulga uchraydi.

Distribtyutiv adolat tarafdorlari hamma mutlaqo teng bo‘lgan jamiyat va shunga monand iqtisodiy tuzum yaratishga intiladilar. Sovetlar qurgan davlat ana shu tamoyilga asoslangan bo‘lib, mafkuraga ko‘ra unda daromadlar ham, imkoniyatlar ham har kimga teng berilishi, jamiyatda boy va kambag‘allar, savodli va savodsizlar bo‘lmasligi kerak. Bu yondashuvning afzalligi juda ko‘p: har kim qonun oldida barobarligi, har kim bepul ta’lim va tibbiy yordam olishi kabi qadriyatlar aynan shu falsafaga asoslangan. Ammo distribyutiv adolat jiddiy bir muammoni ham keltirib chiqaradi: umumiy manfaatlardan hamma bilan teng ulush olgan odam hech narsaga intilmay qo‘yadi, o‘z mehnati samaradorligini oshirmaydi. Bunday muhitda odam hech nima qilmasa ham, hamma qatori jamiyat ne’matlaridan bahramand bo‘laveradi. Va aksincha – ko‘p mehnat qilgan va jamiyatga ko‘p foyda keltirgan odam ham undan kamroq harakat qilganlar qatori ulush oladi. Natijada jamiyatda yangilikka intilish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish orqaga ketadi. Jamiyat o‘sishdan to‘xtaydi.

Bu muammoni kontribyutiv adolat prinsipi hal qiladi: u har kimga uning mehnati va umumiy farovonlikka qo‘shgan hissasiga qarab ulush berish kerakligini targ‘ib qiladi. Bu yondashuv ham kuchli fazilatlarga ega: intiluvchan yoshlarga rag‘bat berish, yaxshi mehnatni mukofotlash kabi qadriyatlar shu falsafaga asoslangan. Ammo bu yondashuvda ham bir yaqqol kamchilik bor: u jamiyatda

sinflar paydo bo‘lishiga, bu sinflar bir-biridan keskin uzoqlashishiga va dushmanlashishiga olib keladi. Bu yondashuvning asosiy quroli raqobat bo‘lib, odamlarga hech bir qoidasiz ochiq raqobat qilishga qo‘yib berilsa, ular me’yorni bilmaydilar. Bunday muhitda boyning bolasi hech bir iste’dodga ega bo‘lmasa ham, bilim olish uchun barcha imkoniyat va sharoitga ega bo‘ladi, kambag‘al bolasi esa kuchli iste’dodi bo‘lsa ham, bilim olish imkoniyatida keskin cheklangan bo‘ladi. Natijada boy tabaqa avlodlar osha boyligicha – nochorlar nochorligicha qoladi.

Jamiyat muvozanatda bo‘lishi va farovon yashashi uchun, shu ikki tamoyil uyg‘unlikda ishlashi lozim. Bunda eng asosiy e’tiborni shunga qaratish kerakki, **daromadlar** taqsimlanishida **kontribyutiv** adolat tamoyiliga amal qilinsa, **imkoniyatlar** taqsimlanishida **distribyutiv** adolat tamoyiliga amal qilish kerak.

Daromadlar taqsimlanishida har kim o‘z mehnati va umumiy farovonlikka qo‘shgan hissasiga qarab ulush olishi kerak. Shunda o‘z iqtidorini o‘stirgan, mehnatdan qochmagan, jamiyatga iqtisodiy naf keltirgan odam shu harakatlariga monand rag‘bat oladi. A’lo o‘qigan o‘quvchi va talabani odil rag‘batlantirish, yaxshi ishlagan xodimni mukofotlash kerak. Bunday muhitda olimlarda yangiliklar yaratishga, ijodkorlarda yaxshiroq ijod qilishga, tadbirkorda mahsulot va xizmat sifatini yaxshilashga intilish kuchli bo‘ladi. Iqtisodning barcha sohasi jadal rivojlanadi.

Shu bilan birga, har kimga teng imkoniyatlar berilishi kerak. Yashash, sog‘lom bo‘lish, bilim olish, o‘z iqtidorini rivojlantirish o‘zi sevgan kasbda mehnat qilish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar distribyutiv adolat prinsipiga ko‘ra taqsimlanishi lozim. Qonun har kimning shaxsiy va tijorat huquqlarini bir xil himoya qilishi lozim, har qanday yangi biznes egasi ham o‘z ishini qonuniy yuritish va o‘sish uchun boshqalar bilan teng imkoniyatga ega bo‘lishi darkor. Maktablar hamma o‘quvchiga bir xil ta’lim berishi, shifoxona hamma bemorga bir xil qarashi kerak. Shunda astoydil bilim olib, mehnat qilishga tayyor quyi qatlam vakillari ham o‘z hayotlarini yaxshilay oladilar.

Ayniqsa, kishilik jamiyati vujudga kelgan vaqtdan boshlab, insonlar tenglik haqida, davlatchilik munosabatlari kelib chiqqan vaqtdan boshlab esa, hurlik va ozodlik haqida fikrlay boshlaganlar. Tarixiy manbalarning ma’lumot berishicha, insonlar o‘rtasida lozim bo‘lgan tenglik gohida to‘liq, gohida faqat rasman, gohida ayrim tabaqa vakillari o‘rtasida, gohida barcha insonlarga tegishli bo‘lishi g‘oyalari ilgari surilgan. O‘rta Osiyoga islom dini kirib kelguniga qadar asosiy ko‘pchilik insonlar e’tiqodiga aylangan zardushtiylik, manixeizm va mazdakiylik kabi din va g‘oyaviy oqimlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Masalan, qadimgi

mutafakkirlar: yunon faylasuflari Protogor va Alkidamant barcha insonlarning teng bo‘lib tug‘ilganligi haqida fikr bildirgan.

Tarixdan ma’lumki, ijtimoiy tenglik, jamiyatda insonlar imkoniyatlarining tengligini ta’minlash maqsadida qo‘zg‘olonlar va boshqa faol harakatlar amalga oshirilgan. Masalan, bunga Qadimgi Rimdagi Spartak qo‘zg‘oloni, Muqanna qo‘zg‘oloni, Angliyadagi 1381-yilgi Uot Tayler qo‘zg‘oloni, Chexiyadagi Yan Gus harakati va boshqa ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

XVII asrda G‘arbiy Yevropadagi inqilobiy harakatlar tenglik g‘oyasini yoqlovchilarning chinakam g‘alabasi bo‘lganligini bemalol aytish mumkin. Shu paytdan boshlab, siyosiy huquqiy ta’limotlar sohasidagi g‘oyalar dastlabki demokratiya qonunchiligini shakllantirishga asos bo‘ladigan individualizm va tenglikning aniq ideologiyasini vujudga kelishiga olib kelgan. Bu jarayonlarda asosiy rolni albatta huquq o‘ynaganligini ta’kidlash lozim.

Shundan keyingi yirik nazariyotchilar Gugo Grotsiy tabiiy huquq tushunchasi orqali tenglikni ta’minlash haqida fikrlar bildirgan bo‘lsa, Tomas Gobbs huquqiy tenglik atamasini keng qo‘llaganligi bilan ajralib turadi. Fransuz mutafakkiri Monteskye esa, erkinlik barchaga beriladigan huquq degan g‘oyani ilgari surgan va boshqa ko‘plab o‘sha zamon olimlari tomonidan insonlar o‘rtasida tenglik, birodarlik va erkinlik g‘oyalarining nazariy asoslari ko‘rsatib berilgan.

Huquq manbalari tarixidagi keyingi hujjatlarda ham tenglik qoidalari bayon qilina boshlangan. Biroq insoniyat tenglikni ta’minlash asnosida ko‘plab inqirozlarni ham boshdan kechirgan. Barcha odamlarning bir-biridan farqli ravishda dunyoga kelishi va rivojlanishi, aql va tafakkurda, iste’dodda ham teng emasligini inobatga olish taqozo etilgan.

Tenglik insoniyat siviliziyatsiyasida bir necha asrlar davomida shakllangan muhim qadriyat, demokratiyaning tamal toshi, bashariyat tamaddunining yutug‘i va barcha xalqlar uchun qadrli bo‘lgan ezgu g‘oya hisoblanadi. Tenglik har bir fan tarmog‘i uchun eng asosiy tamoyillardan biri sanaladi va buning eng yorqin namunasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hamda Bosh Qomusimiz bo‘lgan Konstitutsiyada ifodalanganligidir.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 7-moddasida “Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo‘lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir” deyilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida ham “....qonun oldida tengdirlar” degan mantiqan to‘g‘ri qoida mustahkamlangan. Ushbu hujjatlardagi umumiy ma’nodada qo‘llanilgan “qonun” so‘zi bilan qamrab olingan huquq oldidagi tenglikni

ta’minlash qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilgan qoidalarni barcha shaxslarga birdek qo‘llashni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qati nazar, qonun oldida tengdirlar”, deb mustahkamlab qo‘yilgani, yurtimizda istiqomat qilayotgan bir yuz o‘ttizdan ortiq millat va elat vakillarining xuddi bir onaning farzadlaridek ahil-inoq bo‘lib yashashlari qonun bilan mustahkamlab qo‘yilganligining o‘zi bu yurtda har bir insonning baxtli-saodatli bo‘lib yashashlariga ochib berilgan keng imkoniyatlar eshigidir.

Aslida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qonun oldida tengligi qoidasi odatda, quyidagilarni qamrab olishini ko‘rsatib o‘tish o‘rili:

birinchidan, u nafaqat fuqarolarning, balki ular faoliyati natijasi bo‘lgan huquq subyektlari - yuridik shaxslarning huquq oldida tengligi;

ikkinchidan, qonun oldida tenglik garchand konstitutsiyaviy g‘oya bo‘lsada, fuqarolarning nafaqat konstitutsiyaviy huquq va majburiyatda tenglikni, balki boshqa subyektiv huquqlarda ham tengligini anglatadi;

uchinchidan, qonun oldidagi tenglik ma’suliyat va huquq buzilganda bir xil javobgarlikni nazarda tutadi.

Umuman olganda, tenglik – ahamiyati, tutgan o‘rni, mavqei nufuzi, haq – huquqlari jihatidan o‘xshash, bir xil baravar, bir biridan qolishmaydigan bo‘lishdir. Tenglik nafaqat ma’lum bir hayot sohasini balki ijtimoiy munosabatlarning hamma bosqichlarini qamrab olgan bo‘lishi kerak. Mazkur tenglikning buzilishi esa o‘z navbatida diskriminatsiyaga olib kelishi va mazkur holatdan ma’lum bir insonlar toifasi jabrlanishi mumkin hisoblanadi.

Qonun oldida tenglik prinsipi O‘zbekiston Respublikasining asosiy, bosh qomusi, qonuni hisoblangan Konstitutsiyadan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 5-moddasi “Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi” deb nomlanib, unda jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar deyilgan.

Biroq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va xalqaro hujjatlarda belgilangan fuqarolarning qonun oldida tengligi qoidasini buzish huquqiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi, hattoki fuqarolarning qonun oldida tengligiga daxl qilish jinoyat sifatida ta’qib qilinadi. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 141-moddasi “Fuqarolarning teng huquqliligini buzish” deb nomlangan bo‘lib, unga ko‘ra, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy yoki ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, fuqarolarning

huquqlarini bevosita yoki bilvosita buzish yoki cheklash yoxud fuqarolarga bevosita yoki bilvosita afzalliklar berish jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘lishi belgilab qo‘yilganining o‘zi fikrimizning isbotidir.

Bir so‘z bilan aytganda, respublikamizning amaldagi barcha qonun hujjatlarida qonun oldida tenglik prinsipining quyidagi muhim elementlarini ko‘rishimiz mumkin:

birinchidan, shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega ekanligi;

ikkinchidan, odil sudlov fuqarolarning, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar barcha uchun bir xilda amalga oshirilishi;

uchinchidan, sud va davlat organlari ish yurituvida barcha fuqarolar teng nuqtayi nazaridan ko‘rilishi;

to‘rtinchidan, **b**archa fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo‘lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egaligi;

beshinchidan, jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo‘l qo‘yilmasligi;

oltinchidan, **ayol va erkakning, shu jumladan, o**ilaviy munosabatlarda teng huquqliligi, ichki oilaviy masalalarni birgalikda hal etishi kabilardir**.**

Xulosa qilib aytganda, tenglik – demokratiyaning eng ustuvor talabi, adolatning muhim mezoni bo‘lib, demokratik-huquqiy davlatning ajralmas shartidir. Bu orqali fuqarolarga ijtimoiy, iqtisodiy, mehnat, oilaviy, sud sohasidagi va boshqa munosabatlarda teng huquqlarga, imkoniyatlarga ega bo‘lishni, shuningdek ularga jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, huquqlarni muayyan tarzda cheklashga va yoki afzalliklar belgilashga yo‘l qo‘ymaslikni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusupov E. Istiqlol yo`lida. Toshkent. «Fan», 1996.
2. O`zbekiston Respublikasi. Ensiklopediya, 1997.
3. Jo`rayev N., Fayzullayev T., Usmonov Q. O`zbekiston tarixi. Toshkent. «Sharq», 1998
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.– Т.: «Ўзбекистон» НМИУ,2017

5. O`zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent. «O`zbekiston», 1992.
6. Н.А.Шермухаммедова “Фалсафа.”2009 й

INTELLEKT TARAQQIYOTIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Inatullayeva Saboxat

Annotatsiya. Intellekt bu ilmiy dialektik ta’limotga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning mahsulidir. Odatda psixika tashqi dunyo (olam, borliq)ni sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta’sir etishi asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida, shaxsning xususiyatlari va holatlarida, xis-tuyg‘usi va xarakter hislatlari (fazilatlari, sifatlari)da, uning diqqati, qiziqishi va ehtiyojlarida o‘z ifodasini topadi.

Kalit so'zlar: Intellekt, diqqat, ong, assotsatsiya, rivojlanish, e'tiqod, qobiliyat, tafakkur, bilim, kunikma.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlarning javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari psixik hodisalarning fiziologik asoslari hisoblanadi va ular tashqi ta’sirning natijasida hosil bo‘ladi. Bosh miya vujudga keladigan muvaqqat nerv bog‘lanishlari I.P.Pavlovning nerv jarayonlarini irradiatsiyasi va konsentratsiyasi hamda o‘zaro induksiyasi qonunlari zamirida ro'y beradi. Bu qonunlar turli yo'sindagi muvaqqat bog‘lanishlar, assotsiatsiyalar qanday yuz berayotganligini, qanday shart-sharoitlarda tormozlanishini (ko‘zg‘alishini), muvaqqat bog‘lanishlarning yo‘qolayotganligini yoki paydo bo‘layotganligini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog‘lanishlarining birlashish mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta’sirida hosil bo‘ladi.

Psixikaning tadqiq etish insonning butun ongli faoliyatini uning ham nazariy, ham amaliy hayot va faoliyatini o‘rganishdir.

Odam zotining ongliligi uning turli-tuman faoliyatida, xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi (ongsizlik - onglilik- ostonglilik).

Inson aqli har xil shakl va mazmunga ega bo‘lgan nazariy hamda amaliy faoliyatlarda tarkib topa boradi. Bunda muhit, irsiy belgilar, tarbiya asosiy omil hisoblanadi.

Insonning bilish faoliyati rivojlanishi unga o‘zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to'larok, to'g‘rirok va aniqroq aks ettirish imkonini yaratadi

hamda u dunyoning asl mohiyatini, turli yo'sindagi o‘zaro bog‘lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tobora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, vokelikka, jismlarga, kishilarga va o‘z-o‘ziga nisbatan munosabati vujudga keladi

Xulosa qilib aytganda intellekt inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy falsafa ta’limoticha insonning moddiy turmushi, u hayot kechirayotgan tuzumning asosigina emas, balki uni kurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, e’tikodlari, dunyoqarashlari, ijtimoiy munosabatga intilishlari, faoliyatlari, ijod mahsullari va xatti-harakatlarining majmuasidir (usish - rivojlanish - balog‘at - etuklik - kamolot - taraqqiyot).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova.O.A. ―Oila, farzand va jamiyat. T.:―O‘qituvchi,1991.
2. O.Hasanboyeva, "Oila pedagogikasi"- Aloqachi nashryoti, 2007y
3. Ochilov M. “Muallim – qalb me’mori” T.: “O’qituvchi” 2001.
4. R.Mavlonova, O.To’rayeva, K. Xoliqberdiyev." Pedagogika" Toshkent, O’qituvchi nashriyoti. 2006y.
5. Raximjonov N. “Yoshlar iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda oilaning roli” T., 2005 (B.M.I.)
6. Yoldoshev.H.Q. "Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla,
7. maktab hamkorligi konsepsiyasi". T.: 2004.

ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA JAMOATCHILIK VAKILI – MUTAXASSIS IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xushvaktova Nodira Akramovna

Annotasiya. Maqola ishni sudga qadar yuritishga mas’ul davlat organlari va mansabdor shaxslarning tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv hamda dastlabki tergov bosqichlarida mutaxassis va tarjimon ishtirokini ta’minlashga oid masalalariga bag’ishlangan. Jinoyatlarni tergov qilishda mutaxassis va tarjimon haqiqatni aniqlashga, aybi bo‘lmagan hech bir shaxs javobgarlikka tortilmasligi va hukm qilinmasligi uchun aybdorlarni fosh etish hamda qonunning to‘g‘ri tatbiq etilishini, shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga ko’maklashadilar. Muallif mazkur maqolada tergovga qadar tekshiruv va tergov organi mansabdor shaxslari tomonindan mutaxassis hamda tarjimonlarning kompetensiyasini aniqlash va ularni ishga jalb qilish tartibini takomillashtirishga oid bir qator takliflarini ilgari surgan.

Tayanch so’zlar: ishni sudga qadar yuritish, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, mutaxassis, tarjimon, kompetensiya, hamkorlik, memorandum, yagona elektron baza.

Bugungi kunda yurtimizda jadal sur'atlar bilan olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar negizida, avvalambor, Konstitutsiyamizda belgilangan xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbai ekanligi hamda davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi haqidagi qoidani amalda tatbiq etish g‘oyasi ilgari surilmoqda. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil, barcha bo‘g‘indagi rahbarlar faoliyatining asosiy qoidasiga aylanmog‘i lozim[1].

Davlat rahbari tomonidan «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi» PF-60-sonli Farmonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish lozimligi belgilab berildi[2].

Jumladan, jinoyat ishni sudga qadar yuritish bosqichini ham jamoatchilik ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. 2015 yil 12-19-aprel kunlari Doha shahrida o‘tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining o‘n uchinchi Kongressida jinoyatchilikning oldini olish va odil sulovni yuritish borasida jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga oid Doha deklaratsiyasining qabul qilinganligi ham mazkur masalaning nechog‘lik muhimligidan dalolat beradi.

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv hamda dastlabki tergovda jamoatchilik ishtirokining shakli sifatida mutaxassis ishtirokiga alohida to‘xtalish zarur. JPKning 69-moddasi talablaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, quyidagi maqsadlarda mutaxassislar chaqiriladi:

1) tergov va sud muhokamasini o‘tkazishda dalillarni topish;
2) dalillarni mustahkamlashda yordam berish;
3) himoyachining iltimosnomasiga ko‘ra tushuntirish berish;
4) ilmiy-texnika vositalarini qo‘llash.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. http://uza.uz/oz/programs/sog-lom-bola-yili/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-22-12-2017/ (30.01.2021)

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi» PF-60 sonli Farmoni https://strategy.uz/index.php?static=o_strategii (Murojaat qilingan sana: 31.01.2022)

Biroq, mutaxassislarning tergov harakatlarini o‘tkazishda ishtirok etishi haqli ravishda tergov samaradorligining ajralmas sharti deb atash mumkin. U nafaqat ishtirok etishi shart bo‘lgan, balki ishtirok etish imkoni bo‘lgan barcha hollarda tergov harakatlariga jalb etilishi lozim[3].

Bugungi kunda amaliyotimizda, tergov harakatlarida mutaxassis ishtirokini ta'minlash borasida ham bir qator muammolar mavjud. Sababi, mutaxassis kimligi, unga qo‘yiladigan talablar, va uni ishda ishtirok etishga jalb qilish tartibi yetarli tarzda jinoyat protsessual qonunchiligida yoritilmagan. Bu esa, olimlar va amaliyotchilar o‘rtasida turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda[4].

Umuman olganda, mutaxassislarning bilimlaridan yetarli darajada foydalanmaslikning asosiy sabablaridan biri, bu mutaxassislarining ixtisosligi, ularning faoliyati, qaerda xizmat olib borishi haqidagi ma'lumotlarning yetishmasligi deb hisoblash mumkin[5]. Uning yechimi sifatida bir olimlar tergovchilarga xizmatda foydalanish grifi orqali ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar, jamoat birlashmalari (madaniy, tarixiy, numizmatik va boshqa)ning manzili va telefon raqamlari aks etgan ma'lumotnomalar[6] yoki reestrlar[7] yaratishni taklif etgan. Boshqa mualliflar esa, qachon qaysi mutaxassisni chaqirishni aniqlab beruvchi dastur yaratish g‘oyasini ilgari surgan[8].

Fikrimizcha, jamoatchilikni tergovga qadar tekshiruv va tergov organlari bilan bog‘laydigan eng yaxshi yo‘l bu – bizga zarur bo‘lgan mutaxassislar faoliyat olib boradigan mutassaddi tashkilotlar va IIV o‘rtasida o‘zaro hamkorlikka oid memorandumlar tuzish. Mazkur memorandum asosida korxona tashkilot va muassasalar tavsiyanomasi va shaxsning yozma roziligi orqali, tergov harakatlarida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan mutaxassislar va tarjimonlar, ularning shaxsini hamda kompetensiyasini tasdiqlovchi hujjatlar, ish staji va faoliyati, yashash va ishlash manziliga, telefon raqamlari, elektron manziliga oid ma'lumotlar jamlangan, yagona elektron bazaning yaratilishi zarurdir.

---

[3] Константинов А.В. Процессуальные и организационные проблемы участия специалиста в уголовном судопроизводстве на стадии предварительного расследования: дис. . канд. юрид. наук. Москва, 2006. С. 89

[4] Дрозденко А. О., Янин М. Г. Проблема роли заключения специалиста в уголовном процессе // Вестник Челябинского государственного университета. Серия: Право. 2021. Т. 6, вып. 1 – С.60-61

[5] https://t.me/Science_and_Innovation_uz/203 So’rovnoma

[6] Константинов А.В. Процессуальные и организационные проблемы участия специалиста в уголовном судопроизводстве на стадии предварительного расследования 12.00.09 «Уголовный процесс; криминалистика; теория оперативно-розыскной деятельности» : диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Константинов Алексей Валентинович ; Российская Таможенная академия. – Москва, 2006 – С. 138.

[7] Гуськова А.В. Функция переводчика в уголовном процессе 12.00.09 «Уголовный процесс; криминалистика; теория оперативно-розыскной деятельности» : диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук / Гуськова Анна Вячеславовна; Министерство внутренних дел Российской Федерации Нижегородская академия. – Нижний Новгород, 2018 – С. 126.

[8] Шувалова М.А. Участие психолога и педагога в уголовном судопроизводстве: дисс. . канд. юрид. наук: 12.00.09/ Шувалова Мария Александровна. - Санкт-Петербург, 2019. – С.129.

Jumladan, buning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi «Ishni sudga qadar yuritishda yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-105-son qarori asosida, «Elektron surishtiruv va dastlabki tergov» yagona axborot tizimi doirasida mutaxassis va tarjimonlarning reestrini yuritish hamda ular bilan mazkur tizim orqali axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish taklif etiladi. Bunda, mutaxassis yoki tarjimon jinoyat ishida ishtirok etishga jalb etilganida, bevosita mazkur baza orqali qayd etilishi, uning rahbariga xodimi haqiqatda tergovda ishtirok etayotganligini bilishga, mutaxassisning ish vaqti uchun to‘lovi saqlanib qolinishiga hamda IIO tomonidan tergovdagi ishtiroki uchun pul to‘lanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bunday bazaning yaratilishi, bizga bir qator afzalliklar beradi:

birinchidan, mutaxassis va tarjimonlarning ish joyi, mutaxassisligi, ixtisosligi, telefon raqamlari ko‘rsatilgan holda baza shakllantiriladi va bu ularni ishga jalb qilishda qulaylik tug‘diradi;

ikkinchidan, mazkur bazaga tashkilotlar tavsiya qilgan mutaxassis va tarjimonlar bilan bir qatorda, tergovchi va surishtiruvchilar o‘zlari jalb qilgan mutaxassis va tarjimonlarning kiritib borilishi, ularning xizmatlarining xodimlar tomonidan baholab borilishi kelgusida raqobat muhitini paydo qilib ko‘rsatilayotgan xizmatning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi;

uchinchidan, bazada mutaxassis va tarjimonning ishni sudga qadar yuritish jarayoniga necha marotaba jalb qilinganligi, tarjimonlarning qancha hajmdagi ishni tarjima qilganligi aks etishi, ularga nisbatan sarflanadigan protsessual chiqimlarni, shuningdek, ularning asosiy ish o‘rnida bo‘lmagan vaqtini asoslashga xizmat qiladi.

to‘rtinchidan, jinoyat ishlarini yuritish sifati va samaradorligi oshadi, chunki aynan ishtiroki talab etilayotgan mutaxassisni qayerdan qidirish va kimni qidirish lozimligi aniqlanadi.

beshinchidan, mazkur hamkorlik mutassaddi tashkilotlar o‘rtasidagi memorandum asosida tuzilgach, sansalorlikka yo‘l qo‘yilishining oldini oladi.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra respondentlarning 92% mazkur taklifni qo‘llab-quvvatlaganlar[9].

O‘ylaymizki, mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi ishni sudga qadar yuritish bosqichida jamoatchilik ishtirokidan yanada samarali foydalanish imkonini beradi.

[9] https://t.me/Science_and_Innovation_uz/205 so‘rovnoma natijalari

MILLIY O‘QUV DASTURI - HAYOT VA FAN ZARURATI

Meyliqulova Manzura
Surxondaryo viloyati Angor tumani xalq ta’limi bo‘limi ona tili va adabiyoti fani uslubchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy o‘quv dasturining amaldagi dasturdan farqi, milliy dasturning o‘quvchilar nutqiy kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni va roli xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: milliy dastur, darslik, xalqaro tajriba, nutqiy kompetensiya, til rivoji, XXI asr o‘quvchisi

Key words: national program, textbook, international experience, speech competence, language development, 21st century student

Annotation. This article discusses the difference between the national curriculum and the actual program, the role and role of the national curriculum in the formation of students' speech competence.

Ключевые слова: национальная программа, учебник, международная практика, речевая компетенция, развитие языка, ученик 21-века

Аннотация: В данной статье говорится о разнице национальной учебной программа с действующей программой, роль и место национальной программы в развитии речевой компетенции учащихся

O‘zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko‘zda tutadi.

Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo ilm va fan va ta’lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq O‘zbek ta’limini rivojlantirish, ta’limni shakllantirishni chet ellarga tenglasha oladigan ta’lim darajasiga ko‘tarish uchun hukumatimiz tomonidan bir-birini

takrorlamaydigan qarorlar va farmonlar imzolanmoqda va amaliyotda qo‘llash uchun pedagoglarga va ilm ahliga yetkazilmoqda. Mamlakatimiz innovatsion rivojlanish yo‘lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yoshlarni hayotga tayyorlash, ilg‘or fikrlaydigan, qat’iyatli, o‘z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar kerak. Bunday shaxslar iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o‘zgartira oladi. Milliy o‘quv dasturiga XXI asr ko‘nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalash milliy o‘quv dasturining asosiy maqsadi qilib olindi. O‘tgan 2020 yil 30 oktabr kunidagi Prezidentimiz raisligidagi mamlakatda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishida Prezidentimiz xalq ta’limi vazirligiga dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari asosida Milliy o‘quv dasturini ishlab chiqish vazifasini topshirgan edi. Bu borada Finlyandiya tajribasi misol qilib keltirilgan edi. Ushbu mamlakat tabiiy fan va matematikadan tashqari, umumiy savodxonlik bo‘yicha eng ilg‘or mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Dunyodagi zamonaviy o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikalarini o‘rganib, yurtimiz umumta’lim maktablariga joriy qilish muhimligi ta’kidlanib ushbu tajriba asosida milliy o‘quv dasturini ishlab chiqib 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab ta’lim jarayoniga sinov tariqasida tatbiq etish vazifasi qo‘yildi va amaliyotga tatbiq etildi. Milliy o‘quv dasturining amaldagi dasturdan farqi shundaki, avvalgi o‘quv dasturi mazmuni 90% nazariyadan iborat bo‘lib, o‘qitish metodikasi yodlatishga yo‘naltirilgan edi, bu esa o‘quvchilarni erkin va tanqidiy fikrlashdan yiroq qilib, ularni qobiqqa tushirib qo‘ygan edi. Chunki o‘quvchi darslikdagi mavjud manbani yodladi. Nima ma’lumot berilgan bo‘lsa o‘ziday qilib aytdi, erkin fikrlamadi, o‘z fikrini bildirmadi. Milliy o‘quv dasturi va darsliklarda asosiy e’tibor o‘quvchilarga qoidalar va ma’lumotlarni yodlatishga emas, mustaqil hayotda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratildi. Milliy o‘quv dasturida nazariy mavzular qisqartirilib, ko‘proq amaliy jihatiga e’tibor berildi. Hozir milliy o‘quv dasturida amaliy mavzular hajmi 20%dan 60%gacha oshdi. Bolani hayotga tayyorlaydigan, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan mavzular olib qolindi.

Milliy o‘quv dasturining oldingi standartdan farqi — XXI asrda o‘quvchi muvaffaqiyatga erishishi uchun kerak bo‘lgan asosiy kompetensiyalarni rivojlantirishni maqsad qilib olindi. Bular — tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kommunikativlik (muloqotga kirishish), axborot bilan ishlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va faol fuqarolik. Bizga qanday avlod kerak? Bizga ilg‘or fikrlaydigan, qat’iyatli, o‘z maqsadi sari harakat qiladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammoni ijobiy yechadigan shaxslar kerak. Bunday shaxslar

iqtisodiyotni rivojlantira oladi, jamiyatni boshqara oladi, hayotimizni o‘zgartira oladi. Milliy o‘quv dasturiga XXI asr ko‘nikmalarini singdirish orqali shunday shaxslarni tarbiyalashga harakat qilamiz.

Yana bir muhim jihati — agar 2017 yilda tasdiqlangan davlat ta’lim standartlari uchta komponentdan iborat bo‘lsa, milliy o‘quv dasturida yana uchta komponent qo‘shildi. Yangi qo‘shilgan komponentlar — fanni o‘qitish konsepsiyasi, metodologiya va baholash. 2017 yilgi standartlar ko‘proq yod olishga asoslangan edi. Ma’ruza metodi ustun edi, ya’ni o‘qituvchi gapirardi, o‘quvchilar esa tinglardi. O‘quvchida qaror qabul qilish ko‘nikmasi rivojlanmagan bo‘ladi. Natijada bu o‘quvchi hayotda mustaqil harakat qila olmaydi. Milliy o‘quv dasturida esa buning aksi o‘rin tutadi. O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda milliy o‘quv dasturi juda ham muhim ahamiyatga ega, dasturda loyihalar asosida o‘qitish taklif qilinayapti. O‘quvchilar nimanidir bajaradi, yasab ko‘radi. Loyihalar ustida ishlayotganda o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlashni o‘rganishadi. Jamoa bilan ishlashda esa yaxshi bir lider, menejer, yaxshi suhbatdosh, yaxshi jurnalist, yaxshi rassom paydo bo‘lishi mumkin. Ertangi kelajak avlodni hayotga tayyorlashda, ularning ko‘p tinglovchi oldida dovdirab qolmasligi, tanqidiy fikrlashni o‘rganishi, o‘z nutqini erkin va ravon ifodalay olishi, eng asosiysi, ularda nutqiy layoqatning rivojlanishi uchun tatbiq etilayotgan milliy o‘quv dasturi eng kerakli vosita bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi darsliklarimizda amaldagi darsliklardan farqli o‘laroq, o‘quvchilar o‘zlari fikr bildirishga majbur bo‘ladigan, ularni munozaraga chorlaydigan mavzu va matnlar o‘rin olgan bo‘lib, sinfda partaning eng oxirida o‘tirib faqat erkin tinglaydigan o‘quvchi ham ishtirok etishga majbur bo‘ladigan metodlar o‘rin olgan. Bu metodlar uz mohiyatiga ko‘ra ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘kuv-bilish faolligini oshirish. ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya kilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga ragbatlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yangi darslikdagi mavjud metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi o‘quvchida muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogik mahorat: Metodik qo’llanma. N.Erkaboyeva, M.Usmonboyeva, M.Irgashova. N.Xujanazarova. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.

2. 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «Xalq ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida»gi PF-134 Farmoni.
4. Sh.Sattorov., Respublika ta’lim markazi ma’ruza, 2021yil

PILLACHILIK-MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR

Mamatojiev Sharip Ikromovovich
FarDU, q.x.f.n.dotsent.

Eshpulatov Shavkat Yaxshiyevich
FarDU, q.x.f.n.

Annotatsiya. O'tgan yillar davomida pillachilikga e'tibor berilmay kelindi, ayniqsa tut darahtlarining “egasi” yo'qligi, turli sabablarga ko'ra va fermer xo'jaliklarining paxta va bug'doydangina manfaatdor bo'lganliklari, parvarish qilinayotgan ipak qurtini boqish va pilla yetishtirish fermer xo'jaliklariga qimmatga tushayotganligi, manfaatdorlikning yo'qligi sababli pillachilikga qiziqish umuman bo'lmadi.

Yangi tashkil etilgan Respublika “O'zbekipaksanoat” uyushmasi va uning joylardagi xududiy bo'limlari tomonidan yetishtirilgan pillaga naqd pul to'langanligi, pilla qurti boquvchilarini moddiy rag'batlantirilganligi bu sohaga e'tibor berilayotganligini na'munasi bo'ldi.

Kalit so'zlar: pillachilik, tut darahtlari, ipak qurti, “O'zbekipaksanoat” uyushmasi, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari, tut plantatsiyalari, maxsus guruxlar, tut daraxtlarini sho'rga chidamliligi, kimyoviy vositalar va texnik jixozlar.

Аннотация. На протяжении многих лет выращиванием тутового шелкопряда пренебрегали, особенно из-за отсутствия «владельцев» тутовых деревьев, по разным причинам и из-за того, что фермеры интересуются только хлопком и пшеницей, кормление тутовых шелкопрядов и коконов обходится фермерам дорого, отсутствие интереса к шелкопрядам.

Примером внимания, уделяемого этой сфере, является выплата наличных денег за выращивание коконов недавно созданной Республиканской ассоциацией «Узбекипаксаноат» и ее местными филиалами, материальное стимулирование производителей коконов.

Ключевые слова: шелководство, тутовые деревья, тутовые шелкопряды, Ассоциация «Узбекипаксаноат», многопрофильные хозяйства, тутовые плантации, особые группы, солеустойчивость тутовых деревьев, химическая свойства и техника.

Annotation. Over the years, silkworm breeding has been neglected, especially due to the lack of "owners" of mulberry trees, for various reasons and the fact that farms are interested only in cotton and wheat, feeding silkworms and cocoons are expensive for farms, lack of interest in silkworms.

An example of the attention paid to this area is the payment of cash for cocoons grown by the newly established Republican Association "Uzbekipaksanoat" and its local branches, as well as financial incentives for cocoon breeders.

Keywords: silkworm breeding, mulberry trees, silkworms, Uzbekipaksanoat Association, cocoon breeders, diversified farms, mulberry plantations, special worms for feeding worms, special groups, salt resistance of mulberry trees, chemical means and technical equipment.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2017 yil 22-23 iyun` kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida “O'zbekipaksanoat” uyushmasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va boshqa bir qator vazirlik va idoralar bilan birgalikda respublikada pillachilikni yanada rivojlantirish, tut plantatsiyalarini barpo qilish uchun yer maydonlarini ajratish, qo'shimcha imtiyozlar berish, qishloq xo'jaligi oliy ta'lim muassalarida ipakchilik yo'nalishini ochish, ipakchilik ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashda ishlab chiqarish korxonalari va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini yo'lga qo'yish, pillachilik va ipak sanoatini rivojlantirish borasida xorijiy davlatlar bilan chuqur hamkorlik va tajriba almashish tizimini joriy qilish bo'yicha chora-tadbirlarni nazarda tutgan vazifalarni bajarish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2017 yil 9-oktyabrdagi”Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni hamda 2017 yil 10 – oktyabrdagi “Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora – tadbirlar to'g'risida”gi qarori, 2020 yil 10 noyabrdagi O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston respublikasi pillachilik va qorako'lchilikni rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori pillachilik va ipak qurtining ozuqa manbai bo'lgan tut daraxtlariga e'tiborni yaxshilashda muhim dasturilamal bo'ldi.

O'tgan yillar davomida pillachilikga e'tibor berilmay kelindi, ayniqsa tut darahtlarining “egasi” yo'qligi, turli sabablarga ko'ra va fermer xo'jaliklarining paxta va bug'doydangina manfaatdor bo'lganliklari, parvarish qilinayotgan ipak qurtini boqish va pilla yetishtirish fermer xo'jaliklariga qimmatga tushayotganligi, manfaatdorlikning yo'qligi sababli pillachilikga qiziqish umuman bo'lmadi.

Yangi tashkil etilgan Respublika “O'zbekipaksanoat” uyushmasi va uning joylardagi xududiy bo'limlari tomonidan yetishtirilgan pillaga naqd pul to'langanligi, pilla qurti boquvchilarini moddiy rag'batlantirilganligi bu sohaga e'tibor berilayotganligini na'munasi bo'ldi.

Ma'lumki, asosiy tut daraxtlari dala chetlarida ekilgan bo'lib, birinchi navbatda

ularni parvarishlash ayniqsa asosiy zararkunandasi xisoblangan tut parvonasiga qarshi kurash tadbirlarini sifatli va unumli o'tkazishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Bundan tashqari g'o'za ekinining asosiy zararkunandalaridan biri hisoblangan o'rgimchakkana hashoratining ko'p qismi aynan shu tut daraxtlarida qishlashi va erta bahordan g'o'za ekin maydonlariga o'tib g'o'zaga zarar yetkazishi, buning oqibatida paxta hosildorligini keskin kamayish xolatlari yuz bermoqda.

Prezidentimiz Farmon va qarorlarida belgilangan topshiriq va vazifalarni bajarish maqsadida quyidagi taklif va mulohazalarni bildiraman:

1. Yangidan tashkil etiladigan ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari tarkibida pillachilik

tarmog'ini tashkil etish.

2. Tut plantatsiyalari tashkil etish uchun bu fermer xo'jaliklariga Markaziy Farg'ona xududidan yer maydonlari ajratish.

3. Tashkil etilgan tut plantatsiyalari xududida qurt boqish uchun maxsus qurtxonalar va qurt boquvchilar uchun binolar qurishga yer ajratish.

4.”O'zbekipaksanoat”uyushmasi tuman bo'limlari qoshida tut zararkunandalariga qarshi kurashni tashkil etuvchi maxsus guruxlar tuzish, bu guruxlarni kimyoviy vositalar va texnik jixozlar bilan ta'minlash.

Tut daraxtlarini sho'rga chidamliligini xisobga olib Markaziy Farg'ona yerlarida tut plantatsiyalarini tashkil etish birinchi navbatda tut zararkunandalariga qarshi kurash ishlarini sifatli va unumli o'tkazishni ta'minlaydi. Bundan tashqari Markaziy Farg'ona xududlarida bu ishlarni amalga oshirish xisobiga ish o'rinlari yaratiladi, plantatsiyalarga yaqin joylarda qurtxonalarni tashkil etilishi bilan tut barglarini tashish xarajatlari ham iqtisod qilinadi.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshiradigan bo'lsak birinchi navbatda bu xududlardagi axolini ish bilan ta'minlanadi, qolaversa pilla hom ashyosini ko'paytirib pillachilikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. www.gov.uz. - O‘zbekistan Respublikasi xukumat portali
2. wrww.lex.uz. - O‘zbekistan Respublikasi Qonun xujjatlari

REKLAMA MATNINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Sodiqova Sabohat Ilhom qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sodiqova Dinora Ilhom qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama matnining lingvistik xususiyatlari haqida so`z yuritilgan. Reklama matnining qiziqarli tomoni shundaki, u nafaqat aholining iste'molini rag'batlantirishga xizmat qiladi, balki u orqali ma'lum ijtimoiy, ma'rifiy yoki madaniy qadriyatlarni uzatishga ham erishish mumkin.

Kalit so`zlar: reklama, matn, lingvistik xususiyatlar, tarjima, tilshunoslik.

Reklama matni bu o'quvchilarni biror narsaga ishontirish yoki ishontirish niyatida yozilgan yozuv. Bu reklama qilishda keng qo'llaniladigan vosita, chunki bu potentsial mijozlarga ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni sotib olish yoki undan foydalanishga qaratilgan matn turi. Tilda har bir so'z o'zining leksik-grammatik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Bu xususiyatni so'z birikmalariga nisbatan ham aytish mumkin. So'zlar va so'z birikmalari ma'lum usullar bilan birikadi. Bu grammatik abstraksiyaning natijasidir.

Biz ushbu maqolamizda qiyosiy, qarama-qarshi va tavsifiy tahlil usullari, tarjima usuli va lingvistik hamda uslubiy adabiyotlarni o`rganish tahlillari, badiiy tarjimani tahlil qilishning stilistik usulidan foydalandik.

Maqolani yaratishda aynan shu ikki ma`no va tahlil jihatidan yondoshilgan. Shuningdek, tarjimashunos olimlardan Komissarov V.N., Yakobson R., Salomov G., Panjiyeva N., Fayziyeva A., Dolimov Sh. kabi mahalliy va xorijlik olimlarning asarlari asosida tarjimaning lingvistik qiyinchiliklarini izohlashning nazariy mulohazalari bilan tanishildi.

Reklama matnida ko'plab lingvistik va adabiy manbalardan, rasmlardan yoki musiqadan foydalaniladi. Adabiy manbalar qatorida biz hazil, metafora, qofiya, jumboq, tipik iboralar, giperbola (ya'ni mubolag'a) va boshqalarning ishlatilishini kuzatishimiz mumkin.

Reklama odatda o'quvchilar, tomoshabinlar va umuman iste'molchilar xotirasida saqlanib qolish uchun qayta-qayta takrorlanadigan qisqa iboralar (yoki shiorlar) bilan birga keladi. Reklama matni orqali ommaviy madaniyat deb ataladigan narsa hosil bo'lishi mumkin. Ushbu turdagi matn yordamida o'quvchi-

iste'molchi odatda o'zini tanib olishini sezishi mumkin va aynan shu identifikator yordamida qabul qiluvchining harakatlanishi (boshqacha aytganda, sotib olish) amalga oshiriladi.

Turg`un birikmalar ma`nosi alohida olingan so`zlardan emas, balki ularning yig`indisidan kelib chiqadi.Obrazga asoslangan turg`un birikmalar matnni ham stilistik jihatdan bo`yoq bo`lishini ta`minlaydi. Asliyat matnning bo`yoqdorligi tarjimada ham o`z aksini topishi va ifoda vositalarining to`liq saqlanishini talab etadi. Tarjimon matnning ifodali va bo`yoqdorligini ta`minlash maqsadida tarjima matnida ham adekvat obrazli turg`un birikmalarning variantini topishi lozim bo`ladi. Shunchaki, aqlga kelgan birinchi narsa bu brend nike. Bu reklamaning bil bordlar, televizorlar, radiolar, jurnallar yoki gazetalar brendlari yoki ularning reklamalaridan qochib qutula olmaysiz. Brend faqat bitta joy yoki madaniyat bilan chegaralanib qolmaydi. Brendlar hozir butun dunyoda o`sib bormoqda.

Reklama sanoati yuqori cho'qqilarga ko'tarilib, brendlarning xalqaro ishtirokini his etadigan, reklama sanoati uchun tarjima qilish muamolari ham ko'paymoqda. Bitta tilda yozilgan reklama barcha uchun ishlay olmaydi. Masalan Germaniya brendidagi reklamani Qo'shma Shtatlarda ishlatib bólmaydi. Masalan, nemis brendini AQSh reklama qila olmaydi, chunki uni reklama qilish uchun barcha amerikaliklar nemis tilini yaxshi bilishlari kerak.

Tarjimon rasmga tushganida, reklama sohasi tarjimoni tarjimasining urfdagi qiymati va o`zlariga mos keladigan bir xil matn va tarkib bilan ta'minlashi kerak. Tarjimondan to`g`ri so`zlardan foydalangan holda, xabarni asl ma`nosida yetkazishi kutiladi. Ammo, reklama tarjimasi oddiy bo`lmaydi. Reklama sohasida ishlayotgan tarjimonlar duch keladigan ba`zi qiyinchiliklarni ta`kidlab o`tish kerak, chunki bu sohada reklama nusxasi brend ko`rinishini yaratish yoki yo`q qilish uchun yetarli bo`lishi mumkin. Shiorlarni tarjima qilish ko`plab qiyinchliklar tug`dirishi mumkin. Bir tildagi brendning shiorini boshqa tilga tarjima qilish mushkul.

Tarjima qilingan shior butunlay boshqacha ma'noga ega bo'lishi mumkin va har doim ham asl ma'noni bermaydi. Bunday senariyda brend o'zini ushlab turolmaydi. Xuddi shunday so'z o'yini reklama tarjimasining yana bir fojiasidir. Qayta-qayta takrorlanadigan so'zlarni va so'z birikmalarini boshqa tilga tarjima qilish deyarli imkonsiz. Ba'zida ona tilida so'zlashuvchi so'z birikmasini tushuna olmasligi mumkin. Kanada Monarxistik Ligasining shiori “Fidelitate Coniuncti”dir. Tarjima qilinganida "Sodiqlik bizni ko'r qiladi" degan ma'noni anglatadi. Lekin arab tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda, "Bizni ko'r qilish uchun sodiqlik!" degan noo'rin shior paydo bo'lishi mumkin. Tarjima qilingan reklama

nusxasi hech kimning histuyg'ularini ranjitmasligi va asl nusxa haqida aniq xabar berishi kerak.

Reklama nusxasi yoki matni maqsadli auditoriya tomonidan yaxshi tushuniladigan va o'zaro bog'liq bo'lishi kerak. Agar bir madaniyatda biror narsa kulgili bo'lsa, uni boshqasida yomon ko'rish mumkin. Buning oqibatlari brend yoki mahsulotni taqiqlash, ba'zan esa maqsadli iste'molchiga mos keladigan reklama kompagnatsiyasini o'zgartirish bo'lishi mumkin. Sho'ng'ishdan oldin har doim sentimental qiymatlarni yodda tuting. Transkreatsiya - qayta yaratish orqali tarjima qilish usuli bo'lib, endi biz reklama sanoati uchun tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni tushunganingizdan so'ng, keyingi qadam bu to'siqlarni yengib o'tish uchun turli xil yo'llarni topishdir.

Transkreatsiya - qayta yaratish orqali tarjima qilish usuli bo'lib, matnning maqsadi, ohangi, uslubi va kontekstini saqlab qolgan holda matnni boshqa tilga tarjima qilinadigan jarayon. Transkreatsiya - bu muammoni hal qilishning to'g'ri va mos usuli hisoblanadi. Reklama kompaniyasining muvaffaqiyatini aniqlash uchun madaniy ifoda yoki tovushlarga murojaat qilish kerak. Professional tarjimon maqsadli auditoriya madaniyatini to'liq tushunishi kerak, bu esa aqlli, aniq va madaniy jihatdan mos reklama nusxasini yarata oladi. Qayta yaratish orqali tarjima qilish - bu hazilga, idiomalardan, hazil-mutoyiba va so'z o'yinlaridan foydalanishga yo'l qo'ymasdan manba xabarini samarali etkazishdir. Transkripsiya shiorlar, so`z o`yini va mamlakatga xos iboralarni tarjima qilishda foydali bo`lishi mumkin. Bu tartibsiz madaniy va so'zlashuv tarjimalaridan qochish uchun juda foydali. Buning ortidagi mantiq maqsadli matndan manba matnning his-tuyg'ularini va ta'sirini uyg'otishdir.

Tarjima haqida gap ketganda, reklamaning og‘zaki va noverbal komponentlari o'rtasidagi yaqin munosabatni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Og'zaki elementlarga tovar belgisi, to'lov, shior, tana nusxasi va boshqalar kiradi, noverbal esa audio yoki vizual qismlarni o'z ichiga oladi. Ular xabarni etkazish uchun birgalikda ishlaydi va birlashganda reklama ortidagi ijodiy kontseptsiyani tashkil qiladi. Ushbu ikkita muhim komponentning yorqin misolini quyida ko'rsatilgan chekishga qarshi kampaniya reklamasida ko'rish mumkin, bu yerda vizual ma'lumotnoma - sigaretning fonda qurolning soyasiga aylanishi - mashhur “Chekish o'ldiradi” shiorini kuchaytiradi.

Ko`pincha, bu elementlarning o`zaro ta`sir qilish usuli yuqoridagi misoldan ko`ra nozikroq bo`lishi mumkin, lekin bu har doim kampaniyaning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Natijada, tasvirning ham, straplinening ham kuchli salohiyati butunlay yo`qoladi.

Qisqacha qilib aytganda, reklama ortidagi ijodiy g`oya muvaffaqiyatli tarjima qilinmaydi. Reklamalarni tarjima qilish asosan, so`zlarga emas, balki xabarga etibor qaratishni anglatadi. Reklama tarjima qilishda so'zma - so'z yondashuv katta xato bo'lishi mumkin.

Barcha bozorlarda bir xil xabarlarni yetqazish juda muhim. Agar so'zlarga juda ko'p ahamiyat berilsa, yangilik, ta'sir va keyinchalik umumiy ta'sirni yo'qotilishi mumkin. O'ta ta'sirli bo'lgan sarlavhalar turli xil elementlarni faqatgina cheklanmagan metaforalar emas iboralar, hazil-mutoyibalar va tovushlarning ohangdorligini ham mujassam etadi. Ko'pincha, bu boshqa tilga osonlikcha tarjima qilinmaydi va natijada o'quvchi darhol tarjima sifatida tan oladigan narsadir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Castañer, P. A. (1998). "Reklama matnlariga yondashuv". Og'zaki xushmuomalalikni tahlil qilishdan. Analecta Malacitana, 21(1 p.) 139.
2. Ju-yuan, L. I. (2007). Implikatsiya va xulosalar: Reklama matnlarini o'rganish. Hunan Fan va Texnologiya Universiteti jurnali, 1.
3. Lahoz, J. V. (2007). Reklama matnlarining lingvistik strategiyalari (92-jild). UOC tahririyati. Books.google.com.ar saytidan olingan.
4. Мамирова, Д. (2018). Реклама матнларининг ўзига хос хусусиятлари ҳақида айрим мулоҳазалар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3(68)), 56-59.

TIL KO‘NGIL OYNASIDIR

Avezova Nargiza
Xiva shahar 2-son IDUMning
ijodiy madaniy masalalar
bo‘yicha targ‘ibotchisi

Til dilning tarjimoni deb bejiz aytilmagan.Insonni yuksaklikka eltuvchi,el ichra aziz qiluvchi fazilatlaridan biri uning shirinsuxanligidir.Til so‘zlovchining ko‘ngil oynasi,qalb xazinasini ko‘rsatuvchi,uning istaklarini yetkazuvchidir.

Ba'zan ko‘cha-ko‘yda tilimizni buzib,o‘zi ham chala biladigan ruscha so‘zlarni qo‘shib gapirayotgan yoshlarni uchratib qolamiz.Mayli,boshqa tillarni ham o‘rgansin,til bilish dunyo bilish demakdir,ammo o‘z tilini mukammal bilmasdan turib o‘zga tillar mag‘zini chaqa olish mumkinmi?

Inson dunyoga keliboq ko‘z ochganida onasini ko‘radi, uning erkalashlarini ona tilida eshitadi.Shuning uchun ham o‘z yurtingga bo‘lgan muhabbatingni,tilingga bo‘lgan muhabbatingsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.Zero,o‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrardir.

Tarixdan ma’lumki tilimiz necha yillar davomida ne-ne sinovlarni boshdan kechirmadi,ta'ziq tahdidlarga uchradi va nihoyat koʻkragiga shamol tegib oʻz nufuzini qaytarib oldi.

"Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish toʻgʻrisida "gi farmonni qabul qilinishi tilimizni taraqqiy topdirishning yuksak namunasi boʻldi.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan soʻng tilimiz lugʻati kundan kunga boyiy boshladi.

Tilimizga boʻlgan e'tibor ,milliy tilimizning hayotimizdagi oʻrni va nufuzi tobora sayqal topa boshladi va xalqaro minbarlarda yangray boshladi.

Oʻzbek tilimiz xalqimiz uchun oʻzligimiz ramzidir.

Har bir millatning tabiatini,qadriyatini,ma'naviyatini ifodalab beruvchi -tildir. Turkiy tilda bitilgan goʻzal asarlarimiz necha asrlar davomida jahon adabiyoti xazinasini bezab kelmoqda.

Milliy gʻoya targʻibotida yosh avlod ongiga tilimizga boʻlgan hurmat gʻoyasini singdirish muhim oʻrin tutadi.Zero insonning barcha goʻzal fazilatlari til orqali singdiriladi.

Har bir oʻzbek gʻururimiz va iftixorimiz sanalgan ona tilimizni taraqqiyoti uchun xissa qoʻshmogʻi lozim.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek:" Ona tilimizning boyligini,unga hurmatingiz va muhabbatingizni, tilimizni dunyoga tarannum etish bilan koʻrsatishimiz kerak."

Ona tilimiz ajdodlar aksida,kelajak timsolida,yoshlar ovozida jaranglayversin. Qadring hamisha baland boʻlsin,ona tilim!

Shunday ekan 21-oktabr sanasini cheksiz ehtirom va iftixor bilan tantanali ravishda bayram qilishga haqlimiz.

Ona tilim jon kabi aziz
Bebaxosan muqaddas meros
Bolam tilida shirin-u, laziz
Senga boʻlsin ehtirom e'zoz.
Qadirligim ,jonajon tilim,
Ona tilim,onajon tilim.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR SALTANATIDA MA'MURIY BOSHQARUV TIZIMI

Maxmudova Zulfiya Alimjanovna
Andijon davlat pedagogika institutining õqituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur saltanatida ma'muriy boshqaruv tizimi haqida so`z yuritilgan.

Kalit so`zlar: ma'muriy boshqaruv tizimi, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temuriy shahzodalar, davlatchilik siyosati, ma'naviyat, moliya.

Amir Temurdan so‘ng temuriy shahzodalar ichida mukammal davlatchilik siyosatini olib borgan, buyuk Sohibqironga har tomonlama munosib izdosh bo‘la olgan avlodlaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Boshqa shahzodalardan farqli ravishda Bobur davri eng murakkab bir paytga to‘g‘ri keldi va unga o‘z yurtida hukmronlik qilish nasib etmadi. Ammo mustahkam iroda, sabr-bardosh, yuksak aql va idrok, beqiyos jasorat va matonatga ega Bobur o‘zga yurtda bo‘lsa-da, o‘z saltanatiga asos soldi. Bu saltanat tarqoq mamlakatning siyosiy birligini ta'minladi, uning gullab-yashnashi uchun asrlar osha ijobiy ta'sir ko‘rsatdi.

Xo‘sh, u bunga qanday erishdi? Tarixchi va siyosatchilar buning asosiy sabablaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning o‘z saltanatida ma'muriy boshqaruv tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ygani, ishlarning tartibli va o‘zaro maslahat bilan amalga oshirilganida deb hisoblashadi.

Bobur va boburiylar davlatida saltanat ishlari quyidagi vazirlik va idoralar orqali boshqarilgan:

Moliya vaziri (xazinabon) va u rahbarlik qiladigan soliqlar bo‘limi. Bu idora boshlig‘i "Devoni a'lo" deb atalgan.

Saltanat ichki ishlari ish boshqaruvi idorasi. Bu idora "Xoni zamon" yoki bosh dorug‘a tomonidan boshqarilar edi.

Harbiy moliya ishlari boshqarmasi. Bu boshqarma harbiy lavozim egalariga maosh to‘lash va ushbu tizimning sarf-xarajatlarini hisob-kitob qilish bilan shug‘ullangan.

Adliya ishlari idorasi. Bu idora fuqarolik va jinoiy ishlarning hal etilishini nazorat qilgan, u "qozi ul-quzzot", ya'ni bosh qozi nazorati ostida ish olib borgan.

Xayriya ishlari bo‘limi. Bu bo‘lim diniy tashkilotlarga tushadigan kirimlar, ya'ni xayriya va ehsonlar hisobini olib borgan. Bu ishlar uchun "Sadr us-sudur", ya'ni bosh sadr mutasaddi etib belgilangan.

Ma’naviyat bo‘limi. Bu idoraga bosh muxtasib rahbarlik qilib, uning jamoasi fuqarolarning axloq qoidalariga, e’tiqodga amal qilishi kabi holatlarni kuzatib borgan.

Harbiy artilleriya (to‘pxona) bo‘limi. Bu idora harbiy qurol-aslaha zaxirasi bilan shug‘ullanar edi. Uning rahbari esa “Miri otish” yoxud “Dorug‘ai to‘pxona” deb atalgan.

Axborot va xufiya xabarlar bo‘limi. Bo‘lim boshlig‘i “Dorug‘ai darak shavqi” deb atalib, u mamlakatda bo‘lib o‘tayotgan voqea-hodisalardan podshohni xabardor qilib turish uchun mas’ul bo‘lgan.

Pul zarb qilish boshqarmasi. Bu idoraga ham maxsus dorug‘a rahbarlik qilgan.

Ahamiyatli tomoni, o‘z davridagi boshqa hukmdorlardan farqli ravishda, Bobur saltanatida bu bo‘limlarning har biri davlat ishlarida o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lgan. Ularga o‘z tizimidagi barcha ishlar uchun javobgarlik va mas’uliyat yuklatilishi bilan bir qatorda, ma’lum bir qaror oldidan har birining fikri tinglanib, eng maqbul takliflar inobatga olingan.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1526-yilda SHimoliy Hindistonni bosib asosiy shaharlar bo`lgan Dehli va Agra shaharlarini egalladi. SHu davrdan e`tiboran Hindistonda yangi bir sulola – temuriylar saltanatining uzviy davomi hisoblangan Boburiylar sulolasiga asos solindi. Boburiylar Hindistonning g`oyat katta qismida 180 yildan ko`proq muddat davomida juda kuchli ma`muriy boshqaruvni amalga oshirdilar. Bu ma`muriy tartib ulardan keyin ham uzoq yillargacha o`z kuchini saqlab turdi. Ma`muriyatda arablar va eronliklarning kuchli ta`siri sezildi. Biroq bu davlatning idora usuli turkiy davlatlar usulidan xam farq qilar edi. Boburiy hukmdorlar Hindistondagi davlat tizimiga juda katta ijobiy o`zgarishlar kiritdilar. Sulola asoschisi Bobur «podshox» unvonini olgach, uning vorislari ham bu udumni davom ettirdilar. Ya`ni Boburiy hukmdorlar o`zidan boshqa hech kimni ulug`vor deb tan olmas edilar. Ular o`z zamonasining mutloq hukmdori hisoblangan.

Boburiy podshoxlar o`z zimmalariga ikkita asosiy mas`uliyatni – davlat siyosatini qo`lda mahkam tutish va saltanatni kengaytirish mas`uliyatini olgandilar. Bundan tashqari ular qo`l ostidagi fuqorolarning turmush farovonligini yaxshilash choralarini tinmay qidirib topar va amalga oshirardilar. Boburiylar davlat siyosatining yana bir xususiyati shundan iborat ediki, ular davlatni boshqarishda dinlarga nisbatan beg`araz, xolis siyosat olib borar edilar. Bu tadbir xilma-xil dinlarga e`tiqod qiladigan Hindiston xalqi uchun juda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Bobur va Xumoyun jaholatparast bo`lmagan. Sulolaning uchinchi vakili Akbar (1556-1605 yillar) esa barcha dinlarga barobar hurmat nazari bilan qaragan.

Jahongir (1605-1627) bilan SHohjaxon (1627-1658) ham Akbar siyosatiga xam Akbar siyosatiga sodiq qolganlar. Faqat Avrangzebgina (1658-1707) Akbar siyosatining aksini olib bordi. U davlat boshqaruvida islom dini qonun-qoidalariga qattiq amal qilgan.

Umuman aytganda Boburiylar sulolasining siyosati ulardan avvalgi Dehli sultonlari siyosatidan tamoman farq qilgan. Davlat siyosatida ijobiy o`zgarishlar yaqqol namoyon bo`lgan.

Adabiyotlar

1. Abdurazzoq Samarqandiy, Matlai sa’dayn va majmai baxrayn, T., 1969;
2. Ibn Arabshoh, Ajoib ulmakdur fi axbori Temur, T., 1992;
3. Mirza Muxammad Xaydar, Tarixi Rashidi. T., 1996;
4. Nizomiddin Shomiy, Zafarnoma, T., 1996;
5. Sharafuddin Ali Yazdiy, Zafarnoma, T., 1996;
6. Ahmedov B., Ulug‘bek, T., 1989;
7. Fayziyev T., Mirzo Ulug‘bek avlodlari, T., 1994;
8. Fayziyev T., Temuriylar shajarasi, T., 1995;

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUB’YEKTLARI TARMOQLAR KESIMIDAGI SONINING TAVSIFIY STATISTIKASI

Xurshida Nasrullayevna Mamatkulova
Termiz davlat universiteti, magistrant
Termiz, O’zbekiston
xurshidamamatkulova078@gmail.com

Annotatsiya. Har bir rivojlangan va rivojlanayotgan davlatning iqtisodida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari sonini va sifati orttirish, bu mamlakat iqtisoiy barqarorligini ta’minlashdagi tayanch yo‘llardan biridir. Ushbu maqolada tavsifiy statistika haqida so‘z yuritiladi va bu orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining tarmoqlar kesimidagi soni tahlil tanlan olingan yillarga ko‘ra tahlil qilinadi.

Tayanch so‘zlar: kichik biznes, sanoat, tavsifiy statistika, skewness, assimitriya,ekstess.

Mustaqillikga erishilgandan so’ng O’zbekistonda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari soni yildan yilga o’sib bormoqda. Mazkur jarayon sabablari va dinamikasini o’rganish uchun ekonometrik tahlil o’tkazish maqsadga muvoffiq bo’ladi.

Dastlabki ma’lumotlar sifatida O‘zbekistonda so‘nggi 10 yildagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni haqidagi ma’lumotlardan foydalanildi. Tarmoqlardagi ya’ni, o‘rmon, qishloq va baliq

xo’jaligi, sanoat, qurilish, savdo, tashish va saqlashdagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni esa tahlil uchun tanlab olingan omillar sifatida ko’rsatilgan. O’zbekistondagi 2014-2023-yillardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni bo’yicha tavsifiy statistika o’tkazamiz. Ushbu ma’lumotlarni 1 – jadvalda ko’rishimiz mumkin.

O‘zbekistondagi iqtisodiy tarmoqlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni[10]

Yillar	Qıshloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektkari soni	Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni	Qurilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni
N	Y_1	Y_2	Y_3
2014	16627	36128	18374
2015	16739	38977	19616
2016	17357	41066	20863
2017	17962	42847	21790
2018	20530	48566	23807
2019	23975	56233	28955
2020	28847	69970	36021
2021	40719	82746	40695
2022	45897	90313	43410
2023	53199	97911	46637

Yuqoridagi jadvaldagi ma’lumotlardan foydalangan holda tarmoqlar kesimidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlarining tavsifiy statistikasini ko‘rib chiqamiz.

Bunga ko‘ra, O‘zbekistonda kichik biznes va xusuiy tadbirkorlik sub’yektlari sonining tanlab olingan yillarga ko‘ra medianasi (Медиана), modasi, standart xatosi, o‘rtachasi (Среднее), assimitriyasi, minimum va maksimum qiymatlari topiladi va tahlil qilinadi.

Tavsifiy statistika natijalarini esa 2-jadvalga joylashtirilgan.

2-jadval

[10] O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti www.stat.uz ma’lumotlari.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining soni bo'yicha tavsifiy statistikasi[11]

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.		Sanoatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.		Qurilishda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari soni.	
Ko'rsatkichlar	Qiymat	Ko'rsatkichlar	Qiymat	Ko'rsatkichlar	Qiymat
Среднее	28185,2	Среднее	60475,7	Среднее	30016,8
Стандартная ошибка	4294,223	Стандартная ошибка	7287,834	Стандартная ошибка	3400,288
Медиана	22252,5	Медиана	52399,5	Медиана	26381
Мода	#Н/Д	Мода	#Н/Д	Мода	#Н/Д
Стандартное отклонение	13579,52	Стандартное отклонение	23046,16	Стандартное отклонение	10752,65
Дисперсия выборки	1,84E+08	Дисперсия выборки	5,31E+08	Дисперсия выборки	1,16E+08
Эксцесс	-0,6294	Эксцесс	-1,37248	Эксцесс	-1,62989
Асиммет-ричность	0,957952	Асиммет-ричность	0,590026	Асиммет-ричность	0,464706
Интервал	36572	Интервал	61783	Интервал	28263
Минимум	16627	Минимум	36128	Минимум	18374
Максимум	53199	Максимум	97911	Максимум	46637
Сумма	281852	Сумма	604757	Сумма	300168
Счет	10	Счет	10	Счет	10

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan har bir omilning o'rtacha qiymati, medianasi, maksimal va minimal qiymatlarini ko'rish mumkin. Bundan tashqari har bir omilning standart chetlanish koeffitsiyenti (har bir o'zgaruvchilarning o'rtacha qiymatdan qanchalik chetlanganligini ko'rsatadi) qiymatlari keltirilgan.

Skewness – assimetriya koeffetsienti bo'lib, u nolga teng bo'lsa normal taqsimot ekanligi hamda taqsimotning simmetrikligini bildiradi. Agar bu koeffetsient 0 dan ancha farq qilsa, u holda taqsimot assimetrik hisoblanadi. (ya'ni simmetrik emas). Agar simmetriya koeffetsienti 0 dan katta, ya'ni musbat bo'lsa, u holda o'rganilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi o'ng tomonga surilgan bo'ladi. 0 dan kichik, ya'ni manfiy bo'lsa, u o'ragnilayotgan omil bo'yicha normal taqsimot grafigi chap tomonga surilgan bo'ladi. Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, bizning olgan natijalarimizga ko'ra, barcha

[11] Muallif ishlanmasi.

omillarning assimetriya koeffetsenti musbat qiymatga ega bo'lganligi sababli, omillarning taqsimoti simmetrik emas. Ushbu o'zgarishlar kuzatilgan yillarda O'zbekistondagi faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni ba'zi yillarda keskin ortgan bo'lsa, ba'zi yillarda esa o'zgarishlar sezilarli darajada bo'lmagan. Ekstsess koeffitsienti (normal taqsimotda 3 ga teng) taqsimot cho'qqisining o'tkirligini o'lchaydi. Agar ekstsess 199 koeffitsienti 0 dan katta bo'lsa, u holda taqsimot o'tkir cho'qqili bo'ladi, 0 dan kichik bo'lsa, tekis bo'ladi (tekis cho'qqi). Jak-Bera statistikasi normal taqsimotni aniqlaydi (ya'ni, tanlama normal taqsimlanganligi to'g'risidagi gipotezani tekshirish uchun foydalaniladi). Ehtimollik tanlamaning normal taqsimlanganligi to'g'risidagi gipotezani rad etib xato qilish ehtimolini bildiradi (ushbu holda xato qilish ehtimoli 0,0000 ga teng, bu esa chegaraviy daraja 0,05 dan ancha kichik). Xulosa qilsak: agar tanlama normal taqsimlanganligi to'g'risidagi 0 - gipotezani rad etsak xato qilmagan bo'lamiz. Tahlil qilinayotgan belgi (o'zgaruvchi) qiymatining taqsimoti normal taqsimot qonuniga bo'ysunmaydi. Yig'indi barcha kuzatuvlar qiymatlari yig'indisi. Standart cheklanish chetlanishi o'rtacha qiymatdan qator darajalarining chetlanish kvadratlari yig'indisi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxitdinov X.S., Xatamov O.Q., Raximov A.N. Ekonometrika asoslari. O'quv qo'llanma. Qarshi. «Intellekt» nashriyoti, 2022. 220 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti www.stat.uz.

ANGLICISMS

Qurbonova Zarina Muxammadzokirovna
Master of Termez Economics and Service university
Department of "Foreign Language and Literature

Abstract. This thesis reveals what Anglicisms are and, as an example, the origin and current usage of several English neologisms in the Uzbek language and similar aspects.

Key words: Lexicology, lexicon, lexeme, borrowed words, neologisms, etymological meaning, semantic meaning.

It is known that there is no pure language among the languages of the world. The purity of the language is its own pure words is not determined by living at the expense of Intermingling of languages, one to another influence is one of the stable laws of the language process. This normative, substandard and overstandard impact of the phenomenon in various languages below-standard and above-

standard level of word acquisition the state of movement can cause certain negative consequences in the language system. Borrowed words are words that have been borrowed or partially changed from a foreign language. Oxford Deputy Editor-in-Chief of the English Dictionary and author of Borrowed Words: A History of Loanwords in Philip Durkin, the author of the book English, says that English is a combination of Latin, Greek, French, It has become a global language by adopting German, Spanish, Scandinavian and other languages. South Asia among other languages. Max Planck Evolutionary Anthropology based in Germany According to the Institute, "42% of the words in the English language are borrowed words." So whether you prefer tea, mojito or cappuccino, the foreign languages of these words and understand to remember whether it is taken from or adapted from countries. Unfamiliar two cultures through immigration, trade, travel, cuisine, etc formed upon contact. In particular, the English language is because of the colonial history of Britain learned a lot of words from other languages. During the heyday of the British Empire (1757-1947) of every country conquered or ruled by the English language contributed to its development in some way. Another reason is a military conflict or something there may be political connection with the states. For example, words like glasnost and pogrom Russian, and blitz is German. Interestingly, many of the proper words are nouns for food and drink. This is because the fact that the British could not find English equivalents for many local culinary delights and wholesale pronunciation of certain words, such as sushi (from Japan) or chutney and samosa (India) - easier to assimilate into English.12

A few of them are mentioned below: Mixer (mixer) - an electric device used for quick mixing of cold drinks, cocktails, creams, dough, puree and other preparation Player (player) - music listening device; Trolleybus (trolleybus) is a vehicle that uses electric current and moves with the help of an electric motor; Management (management) - special management activity; management science; Meeting (meeting) - an important event, often a public meeting held to discuss political issues; Provider (provider) - an intermediary organization engaged in connecting computers to the Internet and organizing information exchange; Knockdown (knockdown) - in boxing, the boxer is confused by the opponent's strong blow, unable to control his actions and unable to continue the fight for a few seconds; Park (park) - a special place where vehicles are parked and maintained; Training (training) - training system, exercise, training regime; Producer (producer) - a trusted person of the film company who exercises ideological-artistic and organizational-financial control over the production of films in developed countries; Since English words are being used a lot in our language, naturally,

[12] “Dictionary.” Oxford English Dictionary. 1989. Oxford University Press. 21 Mar. 2007.

everyone is interested in their etymological origin. In particular, the lexeme cowboy [English, cow-boy, cow - cow, boy - boy] is used in the western states of the USA as a horseman, a brave, brave herdsman. Many young people's favorite food hot dog [hot - hot, dog - puppy] lexeme etymologically doubts many, as it is a food made from puppy meat. In fact, it has its own history. In 1884, hot dog was used in the meaning of sausage, and the slogan of the sausage makers was "Love me, love my dog", that is, if you respect the owner, throw a bone to the dog. Another great word is cocktail. The lexeme cocktail [cock - cock, tail - tail] was used in the pre-independence period in the dictionary sense of a cock's tail. There are idioms that have 2 different spellings. For example, laptop/notebook, yogurt/yoghurt, player/player, blooming/blooming, canister/canister. Since new acquisitions have the color of novelty, they are written differently in the sources. There are many such words in the lexicon of their class, so their spelling should be avoided as much as possible. The acquisition of the Uzbek language lexicon has had a significant impact. There are more than 20 language acquisitions. Also, there are acquisitions of less active languages in our language. After independence, the amount and meaning development of English loanwords among loanwords is unique. Changes in the semantics of English loanwords from the lexicon of the Uzbek language are significant. takes a leading position in fast delivery of bread. For this reason, it is appropriate to use neologisms, including sports, military, food, clothing, and other related words in their proper place and meaning. Ladi also serves the effective, clear and scientific nature of the speaker's speech.13

In short, according to the standards of the English language, adjectives are all except degrees of comparison did not obey the rules of grammar. Verbs in English are conjugated according to persons (conjugation) and forms simple and compound tenses according to the English model. The majority assimilated French verbs are weak English verbs (eg to turn, to evoke, to control, to revenge) is characterized by the formation of preterite and adjective II. French verbs ending in a vowel are added to weak verbs of the 1st type, for example, cryien – to cry, assayin – to try, obeie(n) – to obey. The stem is with a consonant ending verbs for the first time in the south of England to the pattern of type 2 weak verbs is conjugated according to, i.e. i in the present tense and before d in the preterite with a vowel not subjected to syncopation, eg servi(n) -served. From the disappearance of special forms of type 2 in both the north and south of England then, they began to form the preterite with all weak verbs. A characteristic feature of many French adjectives that have been adopted into English is their is to preserve the plural form. Such adjectives

[13] Baugh, Albert C. and Thomas Cable. “The Renaissance, 1500-1650.” A History of the English Language. 5th ed. New Jersey: Prentice Hall, 2002. 200-252.

are often used post-positively we meet - letters patents, place delitables, lords spirituels; however, the next in linguistics in the process of development, the plural form -s was terminated by them and French postpositive use of acquired adjectives court martial, heir apparent, knight errant preserved in certain stable compounds. Own words and complex words within the same language often with borrowed words does not connect. Thus, with foreign words with derived stems, if these words the process of simplification when not connected with the lexical material of the acquired language will happen. Usually, the main reason for simplifying words in the native language is the change of tense as a result, words are simplified, they become simple. Same process we also observe it in French adaptations. French nouns control, rendez-vous, char-a-bancs, parterre, English constituent lost the meaning of its parts, that is, accepted as simplified and ordinary words done In some cases, they begin to be written together, their phonetic change occurs will be This is, for example, French to English contre-roule (from Latin contra rotula) comes in the form and means "to record the treasure". Domestic and foreign The difference between simplification in words is that in native words this process is much slower goes, and acquired words occur immediately upon entering the language. As a result, the morphological structure of adopted words is recognized by this people, stem morphemes have real meaning and are capable of forming further words, and English affixes are used to form new words. So in English -ment, -al, -ess, -ance, etc., a number of suffixes of French origin and prefixes appeared. The majority of French words are formed with the suffix -ance, -ence: ignorance, arrogance, entrance, repentance, innocence, etc. So for the British The meaning of this suffix is clear, and with its help it is abstracted from adjective and verb stems horses are made. Thus, it allows the formation of a new word "hindrance", in which the French suffix is attached to the stem of the English verb "hinder". Similarly, words such as government, treatment, agreement into English the suffix -ment included in it was also recognized by the British and its help with, new words were formed from the English root: fulfillment, bereavement, amazement, bewilderment.

References

1. “Dictionary.” Oxford English Dictionary. 1989. Oxford University Press. 21 Mar. 2007.
2. Baugh, Albert C. and Thomas Cable. “The Renaissance, 1500-1650.” A History of the English Language. 5th ed. New Jersey: Prentice Hall, 2002. 200-252.
3. “German Loan Words.” Wikipedia, the Free Encyclopedia. 20 Mar. 2007. Wikimedia Foundation. 21 Mar. 2007

4. Jespersen, Otto. “Latin and Greek.” Growth and Structure of the English Language. 10th ed. University of Chicago Press: Chicago, 1982. 118-156.
5. Smith, K. Aaron. “Early Modern English.” History and Development of the English Language. Illinois State University. Normal, IL. 1 Mar. 2007.
6. “Natural and Foreign Word Formation.” History and Development of the English Language. Illinois State University. Normal, IL. 8. Mar. 2007.
7. “Scientific Notion of Language.” History and Development of the English Language. Illinois State University. Normal, IL. 20 Mar. 2007.

ТАКТИКА СОВРЕМЕННОГО МЕТОДА ТЕРАПИИ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ ПРИ ПАРАНОИДНОЙ ШИЗОФРЕНИИ

Хамроев Сайид Бакоевич
Бухарский государственный медицинский институт

Параноидальная шизофрения—наиболее распространенная форма шизофрении, при которой преобладает параноидный или парафренный бред и галлюцинации, а также аффективное уплощение и бессвязная речь. Во время болезни человек теряет связь с реальностью, но способность к мышлению сохраняется, в отличие от других форм шизофрении. Впервые признаки расстройства проявляются, как правило, в возрасте между 25 и 35 годами.

Цель исследования. Изучить новые методы лечения и улучшить когнитивные показатели больных с параноидной шизофренией.

Материал и методы.

Активная терапия применяется во время обострений болезни, ее основной задачей служит снятие продуктивных симптомов болезни. Срок лечения на этой фазе обычно занимает около месяца. В зависимости от преобладания симптомов (галлюцинации или бреда) и их тяжести обычно назначаются нейролептики, которые быстро купируют симптомы. В ходе активной терапии психопатической шизофрении применяются в том числе атипичные нейролептики, которые эффективно борются с продуктивными симптомами болезни и, кроме этого, замедляют развитие шизофренического дефекта, а выпуск препаратов в различной дозировке дает возможность подобрать индивидуальную, терапевтическую дозу.

Стабилизирующая терапия, применяется после снятия острых проявлений болезни. На этом этапе пересматривается схема лечения. Снижается дозировка применяемых препаратов. Срок лечения на стабилизирующей терапии до шести месяцев. Поддерживающая терапия

нацелена на максимальное продление ремиссии и закрепление достигнутого результата, а также недопущения рецидива. Как уже было сказано, основной методикой лечения являются препараты из группы нейролептиков. В зависимости от фазы болезни и стратегии терапии (активная, стабилизирующая, поддерживающая) применяются различные дозировки препаратов в различных сочетаниях. На этапе стабилизирующей и поддерживающей терапии может быть подключена психотерапия.

Результаты исследования. Как правило, речь идет о поддерживающей психотерапии, цель которой – дать психологические инструменты пациенту, с помощью которых он сможет интегрироваться в социум, выполнять посильную работу, вести максимально нормативный в его случае образ жизни. Также психотерапия призвана обучить пациента распознать ухудшение состояния, вовремя принять меры для того, чтобы не допустить обострения. Отметим, что успех лечения зависит от того, насколько своевременно обнаружена параноидная шизофрения. Чем раньше выявлено заболевание, тем меньше вероятность того, что шизофренический дефект сможет оказать свое негативное влияние.

Выводы. Наиболее эффективный метод лечения пациентов с параноидной шизофрении комплексная с психотерапией при этом показатели когнитивных функций резко идут к улучшению, своевременное проведение соответствующих терапевтических мероприятий пациентам с умеренными когнитивными нарушениями позволит препятствовать у них прогредиентности течения когнитивных нарушений и развитию различный осложнений.

“ADABIY QAHRAMON”NING ZAMONAVIY TALQINLARI

Axmedova Aziza Komilovna
O’zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti
Toshkent, O’zbekiston, f.f.f.d, Ph.D.
aziza.ahmed@inbox.ru

Annotatsiya. Maqola muhim badiiy kategoriyalardan biri adabiy qahramonning bugungi kundagi ilmiy talqinlarini izohlashga qaratilgan. Maqolada badiiy obrazga tegishli bo’lgan “xarakter”, “qahramon”, “pernonaj” kabi tushunchalar o’rtasidagi tafovut izohlangan. Adabiy qahramon tahliliga bag’ishlangan xorijiy ilmiy ishlar sharhida mazkur kategoriyaga oid muhim xulosalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: badiy obraz, adabiy qahramon, nasr, roman

Adabiyotda “badiiy obraz” tushunchasining ham keng va tor ma’nolari mavjud. Keng ma’noda badiiy obraz borliqda mavjud har qanday hodisa va narsa-buyumning aksi bo’lsa, tor ma’noda esa inson obrazini ifodalaydi. Umumlashtirish darajasiga ko’ra badiiy obraz bir necha turlarga ajratiladi. Muammo shundaki, ushbu masalada bir guruh o’zaro sinonim atamalarning mavjudligi hamda ularning ko’pma’noliligi, turli tillarda obraz turlarining farqli nomlanishi ayrim chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Personaj, obraz, qahramon, xarakter — asardagi barcha obrazlarni nazarda tutuvchi umumiy tushunchalardir. Ushbu o’rinda qahramonnig personajlar sistemasida markazda turuvchi bosh obraz (ing.tilida hero, rus.tilida герой) sifatidagi yana bir ma’nosi borligini unutmaslik lozim. “Xarakter” deyilganda ham ikki xil obraz nazarda tutilib, birinchisi umumiy ma’noda jami personajlarni anglatadi. Xususan, ingliz tilida “character” ayni shu ma’noda qo’llaniladi. Xarakter terminining asosiy ma’nosi sifatida — harakatlarida muayyan iroda yo’nalishiga ega bo’lgan, shu bilan birgalikda xulq-atvorida yorqin ajralib turadigan belgilarni namoyon etadigan, puxta ishlangan badiiy obraz tushuniladi. Bunda ingliz tilidagi “rounded character” terminiga ma’no jihatdan to’g’ri keladi. I.Sulton haqli ravishda e’tirof etganidek, “Xarakter muallif estetik idealini tashuvchidir” [1., b.103]. Bir asar syujetida ko’plab personajlar qatnashsada, bir yoki bir nechta xarakter uchrashi mumkin. Shu o’rinda aytish joizki, xarakter atamasi va uning xususiyatlari ilk marta Aristotelning “Poetika” asarida uchraydi. Aristotel mazkur asarida obraz tushunchasining o’rniga “mimesis” atamasini qo’llaydi. Xarakter haqida esa, uning to’rt maqsadda yaratilishi ta’kidlanadi. Aristotelga ko’ra, xarakter, birinchidan, oliyjanob bo’lishi kerak. Ikkinchidan, xarakterlar o’ziga mos bo’lishi, ya’ni o’z mantig’iga mos harakatlanishi lozim. Uchinchidan esa, haqqoniylik va nihoyat, izchillik xarakter

yaratishdan muddao sifatida ilgari suriladi [2.,b. 43]. Garchi har bir zamon va makon adabiy qahramon masalasiga o'zgacha mezonlar taqdim etsada, Aristotel sanab o'tgan xususiyatlar xarakterning imuminsoniy tamoyillari sifatida hanuz e'tiborga loyiq.

Jozef Kempbellning "Ming qiyofali qahramon" [3.] asari "qahramon" tushunchasini qiyosiy mifologiya yo'lalishida tadqiq etganligi bilan ulkan miqyos va ko'lamli ish hisoblanadi. Kempbell miflar, ertaklar va diniy hikoyalardagi qahramonlarning o'xshash tomonlarini tahlil etib, "monomif" nazariyasiga asos soladi. Zigmund Freyd va Karl Yung psixoanaliziga tayangan holda dunyo miflari qahramonlarining mushtarakligiga sabab umuminsoniy arxetiplar, degan xulosaga keladi. Kempbellga ko'ra har bir qahramon o'tishi kerak bo'lgan bosqichlar mavjud. Avvalo, qahramonga noma'lumlik sari yo'l olishiga sabab bo'luvchi motiv kerak bo'ladi. Safarga chiqayotgan qahramon jismonan qanday bo'lishi ahamiyatsiz, biroq shunisi aniqki, uni katta mashaqqatlar, evrilishlar kutadi. Sinovlardan o'tgan qahramon esa albatta yuksalgan, poklangan, ulg'aygan holda uyiga qaytmog'i lozim. Mashaqqatlarning eng o'g'iri qahramon uchun o'zidagi yovuz ibtido bilan kurashishdir. Karl Yung insonning qora tomonini "Soya" deb nomlagan. O'zidagi yomonlikni, nafsini enggan kishigina qahramonlik rutbasiga ko'tariladi. Biroq kurash hali tugamaydi. Kurashlar qahramonning ota va onasi bilan yarashuvi bilan yakuniga etadi. Bunda, shubhasiz, Kempbellda freydizm ta'siri seziladi. Shuni nazarda tutish lozimki, qahramonlik eposi uchun "ota va ona" tushunchalari keng ma'noga ega bo'lib, tabiat, vatan, muayyan makon va zamon kabilar ham tushunilishi mumkin. Qiyinchiliklar bilan toblangan qahramonni sovrin kutadi. Eng a'lo sovrin chin qahramon uchun ulg'ayish, shaxsiy o'sishdir. So'ng oxirgi bosqich uyga qaytish qahramonlik eposini yakunlaydi. Garchi Kempbell taqdim etgan model inkluzivligi, universalligi bilan katta e'tirofga sabab bo'lsada, uni jahon xalqlari merosini haddan tashqari soddalashtirishda, qahramon tushunchasini tor ramkaga solib qo'yishda ayblagan mutaxassislar [4] fikrlari ham asossiz emas.

Stephanie S. Halldorsonning "The Hero in Contemporary American Fiction: The Works of Saul Bellow and Don DeLillo." [5] nomli monografiyasida "qahramon", "qahramonemas"(non-hero) va "qahramonlik eposi"(heroic narrative) masalalarining zamonaviy amerika adabiyotidagi maqomi va talqini ikki romannavis Saul Bellow and Don DeLillo asarlari misolida o'rganilgan. Halldorson "qahramon" tushunchasini yangicha talqin qilishga urinib, uni birgina badiiy obraz bilan bog'liq emas, balki bir necha komponentli "tizim" ("heroic system/loop) sifatida baholaydi. Olimning fikricha, ushbu tizim qahramonlik ilhomidan (heroic impulse) boshlanib qahramonlik eposi hosil bo'lishi tomon

harakatlanuvchi jarayondan iborat. Biroq chin qahramonlik eposining yuzaga kelishida yana bir muhim komponent borki, bu asarda tasvirlangan voqelikning qahramonemaslar (bunda Halldorson kitobxonlar va tanqidchilarni nazarda tutadi) tomonidan reallik sifatida qabul qilinishidir. Zero, kitobxon asar voqeligini o'z voqeligiga daxldor deb topsagina qahramonlik yuzaga chiqadi. Ya'ni ushbu tizimning biror halqasida uzilish bo'lsa, qahramon emas, shunchaki protagonist paydo bo'ladi, qahramonlik eposi ham bunyod bo'lmay qoladi. Demak, qahramonlik eposi uchun auditoriyaning qabul qilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qahramon faqatgina qahramonlik eposi kontekstidagina ro'yobga chiqa oladi. Qahramonlik eposi uchun esa, auditoriyaning (qahramonemasning) reaksiyasi zarur. Ko'rinadiki, qahramonlik to'laqonli bir tizim ekan. Muammo shundaki, ikkinchi jahon urushidan so'ng hech narsa jiddiy o'zgarmay qolmadi, shu jumladan kitobxonning badiiy idroki ham. Postmodern adabiyotida qahramon va qahramonemas (omma, kitobxonlar) bir xil maqomda ekanligini Halldorson ta'kidlaydi. Saul Bellow va Don DeLillo qahramon yaratish qiyin bo'lgan postmodern kontekstida chekinmasdan, qahramonlik eposini romanlarida yuzaga chiqarganliklari tadqiqotda batafsil izohlab berilgan.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy obraznining ilmiy o'rganilishida salmoqli yangicha qarashlarga sabab bo'lgan manbalardan biri Ibrahim Tahaning "Heroizability : An Anthroposemiotic Theory of Literary Characters" [6] asaridir. Tadqiqot badiiy obrazni antroposemiotik tahlil qilishi bilan diqqatga sazovor. Antroposemiotika badiiy adabiyotni ham muloqot shakli sifatida o'rganadi. "Heroizability" neologizmini Taha bosh obrazni "qahramonlahstirish" jarayoni deya izohlaydi. Va bu jarayon 3 — muallifning, pratogonistning va kitobxonning "qahramonlashtirish" bosqichlaridan iboratligi qayd etilgan. Semiotika va narratologiya tamoyillarini qo'llab tahlil qilish vositasida badiiy qahramonning yangi ramziy ma'nolari kashf etilishini muallif turli yozuvchilar ijodi misolida asoslab bergan. Bunday yondashuvda badiiy obraz o'z kognitiv borlig'iga ega mustaqil subjekt sifatida baholanadi va uning mavjudlik uchun qanday qadriyat yoki ma'noni tanlaganligi tahlil etiladi.

"Postmodernizm psixopatlarni qahramon obrazlarga aylantirdi" degan fikrni ilgari suradi mavzuga doir maqola muallifi A.Kucherova14[7]. Maqolada "Ifor" romani aksilqahramoni tahlilga tortilgan. Adabiyotdagi psixopat shaxs obrazining yorqin va mumtoz misoli –Jan-Batist Grenuy. Patrik Zyuskindning 1985-yilda yaratilgan romani qahramoni. Hidlarni farqlashda favqulotda iste'dodga ega bo'lgan "zolim daho" Grenuyning ongida, borlig'ida vijdon, rahm va shavqat,

[14] Kucherova A. V. Psychopath as a New Hero in the Postmodern Literature (Based on a Study of Transformation of the Image of the Genius in Patrick Süskind's Novel, Perfume. The Story of a Murderer) //Chelovek. – 2019. – T. 30. – №. 5. – C. 174-189.

jazodan qo’rqish, sevish va sevilish hislari mavjud emas. Zuskind daho va psixopat obrazlarining sintezidan yangi bir timsol yaratgan, deb xulosa qilgan maqola muallifi. Hushbo’y hidni qo’lga kiritish ilinjida bir necha qizlarning qotiliga aylangan Grenuy uchun hech qanday muqaddas tushuncha yo’q. Grenuy obrazi bilan yozuvchi psixopat shaxs tafakkur tarzini, motivlarini, xulq-atvorining portretini butun bo’y-basti bilan ifodalab beradi. Asarning asl mohiyati ham shunda. Psixopat shaxs xususiyatlari haqida bilgan kitobxon, asarni talqin qilishda qiynalmaydi. Aksincha, ushbu qahramondagi psixopatiyani hisobga olmaslik esa, badiiy talqinni noto’g’ri va subjektiv chiqishiga sabab bo’ladi. Umuman olganda, postmodernistik adabiyotlarda aksilqahramon obrazlarining ko’ayib borishi mazkur ijodiy metodga xos dekonstruksiya bilan bo’gliq bo’lib, poetmodernizm nafaqat an’anaviy “muallifni” shuningdek “qahramonni” ham o’ldirgnligini namoyon bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda adabiy qahranon tushunchasi intertekstual, kognitiv, semiotik, antroposemiotik, mifoligik, akseologik jihatlardan faol o’rganilmoqda. Postmodernizmga xos asarlarda esa, adabiy qahramonning dekonstruksiyaga uchraganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — T.: 0 ‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2 0 0 5 . — B.103.
2. Арасту. Ахлоқи кабир. —Т.:”Ўзбекистон энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. — Б.43.
3. Campbell J. The Hero with a Thousand Faces. The Collected Works of Joseph Campbell. New World Library: 2008. 432 p.
4. https://lareviewofbooks.org/article/the-man-behind-the-myth-should-we-question-the-heros-journey/[14.08.2024].
5. Stephanie S. Halldorson. The Hero in Contemporary American Fiction: The Works of Saul Bellow and Don DeLillo. American Literature Readings in the 21st Century Series. New York: Palgrave-Macmillan, 2007. 223 pp.
6. Taha I. Heroizability : An Anthroposemiotic Theory of Literary Characters / Ibrahim Taha. Berlin ;Boston: De Gruyter Mouton, 2015. Web.
7. Kucherova A. V. Psychopath as a New Hero in the Postmodern Literature (Based on a Study of Transformation of the Image of the Genius in Patrick Süskind’s Novel, Perfume. The Story of a Murderer) //Chelovek. – 2019. – T. 30. – №. 5. – C. 174-189.

ФАКТОРЫ СПОСОБСТВУЮЩИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ДЕПРЕССИВНЫХ РАССТРОЙСТВ В СРЕДНЕМ ВОЗРАСТЕ

Хамроев Сайид Бакоевич
Бухарский государственный медицинский институт

Актуальность. В настоящее время аффективные расстройства являются одними из распространенных заболеваний в мире. По данным ВОЗ, число больных аффективными расстройствами среднего возраста в общемировой популяции постоянно увеличивается, отражая стабильный рост аффективной заболеваемости. Возрастное изменение структуры депрессивных синдромов снижает достоверность оценок стандартизированных психометрических шкал, затрудняя проведение диагностических обследований. Значимой причиной гиподиагностики депрессий является распространенное ошибочное мнение о принадлежности симптомов депрессии в связи с возрастом.

Цель. Определение факторов риска в формировании депрессивных расстройств среднего возраста.

Материал и методы исследования. Для исследования было обследовано 48 больных с депрессивными расстройствами. Критериями для обследования были: 1) возраст 45 лет и старше; 2) наличие депрессивных расстройств на момент обследования.

Результаты. Соматические факторы были представлены хроническими соматическими заболеваниями в качестве предрасполагающего и провоцирующего фактора. Половина обследованных больных назвали провоцирующим фактором внезапное начало соматического заболевания для развития депрессивного состояния. Средний возраст рассматривается как независимый предиктор коморбидности психических и соматоневрологических нарушений. Взаимосвязи между соматическими и психическими нарушениями чрезвычайно сложны и нередко делают невозможной дифференциальную диагностику или установление причин связей при психических нарушениях в связи с возрастом. Среди социальных факторов были выявлены: смерть близкого человека, семейные конфликты, дефицит активного досуга. Тягостное переживание смерти своего супруга/супруги достаточно распространено и нередко становится причиной болезни. Осложнения могут представлять собой, в частности, формы патологических реакций на стресс, вызванных переживанием тяжелой утраты. В некоторых исследованиях отмечается, что депрессивные симптомы при нормальном переживании тяжелой утраты редко проявляются после нескольких недель и что количество депрессивных симптомов, остающихся

через месяц после утраты, является одним из сильнейших предикторов депрессии. Также авторы обнаружили, что пик депрессии и симптомов осложненного горя приходится на шесть месяцев после утраты, но впоследствии степень проявления симптомов депрессии снижается. Среди психических факторов отмечались: гедонизм, чрезмерная эмоциональность в виде несдержанности в проявлении эмоций, ослабление контроля над проявлением аффекта, пассивное поведение и избегание. Часто пациенты отмечали, что подобная модель поведения характерна для них уже на протяжении многих лет. Больные указывали на неоднократные неудачные попытки изменить режим дня, контролировать переедание, соблюдать диету, отказаться от спиртного, табака и т.п.

Заключение. По итогам исследования было определено, следующие факторы риска формирования депрессивных состояний среднего возраста явились - социальные: потеря близкого человека, семейные конфликты, дефицит активного досуга; соматические: наиболее значимое хроническое соматическое заболевание в качестве фактора и триггера; психические: чрезмерная эмоциональность, пассивное поведение и избегание.

O‘SIMLIKCHILIK TARMOG‘INI INNOVATSION RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

Pirimqulov Jahongir Primqul o’g’li
QarMII tayanch doktoranti.
pirimqulov9210@mail.ru

O‘simlikchilik tarmog‘ini barqaror rivojlantirish ko‘p jihatdan fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini sohada joriy etish samaradorligiga bog‘liq. O'simlikchilikda innovatsiyalarni joriy etishning umumiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- zamonaviy va samarali qishloq xo‘jaligi texnikasini joriy etish;
- dehqonchilikning istiqbolli texnologiyalaridan, shu jumladan melioratsiya va irrigatsiyaning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish; ekinlarni, tuproqlarni va boshqalarni qayta ishlashning samarali usullari;
- yangi biologik va mineral o‘g‘itlar yaratish va ularni o‘simlikchilikda joriy etishni kengaytirish;
- o'simliklarni himoya qilishni takomillashtirish, shu jumladan zararkunandalar, kasalliklardan himoya qilish;
- qishloq xo'jaligida resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish;

- urug'chilikni rivojlantirish, hosildorligi yuqori va kasalliklarga, zararkunandalarga, noqulay ob-havo sharoitlariga (qurg'oqchilik, yuqori namlik, past haroratlar va boshqalar) chidamliroq yangi urug'larni yaratish va boshqalar[15].

Xo‘jaliklardan olingan so‘rovnoma natijasida viloyatda faoliyat yuritayotgan fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini tavsiflovchi moliyaviy ma’lumotlar, asosiy miqdor va sifat ko‘rsatkichlari, jumladan, ilmiy tahlil uchun muhim ma’lumotlar olindi. Ammo olingan ma'lumotlar qishloq xo'jaligining kichik shakllari doirasida agrosanoat ishlab chiqarishining bevosita innovatsion tarkibiy qismini tahlil qilish uchun yetarli emas. Bu esa yaqin kelajakda fermer va dehqon xo'jaliklar rivojlanishini ilmiy asoslangan bashoratli modellashtirish imkoniyatlarini sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Shu munosabat bilan fermer xo‘jaliklarining tabiiy-iqtisodiy hududlariga qarab innovatsion salohiyatini aniqlash maqsadida olib borilgan tadqiqotlar bilan birga 560 nafar fermer hamda dehqon xo’jaliklari rahbarlari bilan suhbat uyushtirdik. So‘rovnomaga asosan ularni uchta asosiy ko‘rsatkich bo‘yicha ajratib oldik:

- fermer xo‘jaliklari rahbarlari va ularning xodimlarining bilimi va malaka darajasi;
- xo‘jalikning ishlab chiqarish jarayonida innovatsiyalarini joriy etish;
- kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish;

Unga ko‘ra fermer hamda dehqon xo’jaliklari rahbarlarining bilimi va malaka darajasini quyidagicha aniqlashtirdik unga ko’ra respondentlarning katta qismi qishloq xo’jaligi sohasida oliy ma’lumotga ega bo’lib, fermer xo’jaliklari orasida 72 foizni, dehqon xo’jaliklari orasida esa 73 foizni tashkil etadi.

Qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishida samaradorlikning yuqori bo’lishi albatta ishlab chiqaruvchilarning innovatsion texnologiyalardan qay tarzda foydalanishida namayon bo’ladi. Fermer hamda dehqon xo’jaliklari o’rtasida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida shu aniq bo’ldiki, innovatsiyalar nafaqat hosildorlikni oshishiga balki, ish unumdorligi ko’tarilishi hamda mehnat sarfining kamayishiga olib keladi. Tanlab olingan 560 nafar respondentlarning 169 nafari yoki 30 foizi jumladan 75 nafar fermer hamda 94 nafar dehqon xo’jaligi tomchilatib sug’orish texnologiyasidan foydalangan, 55 nafar ishtirokchi jumladan 19 nafar fermer hamda 36 nafar dehqon xo’jaligi egalari yomg’irlatib sug’orish texnologiyasini joriy etgan. Shuningdek, 94 nafar yoki 17 foiz jumladan 54 nafar fermer hamda 40 nafar dehqon xo’jaligi egalari qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirshda asalari texnologiyasidan foydalangan. Ushbu ishtirokchilarning ko’pchiligi bu

[15] https://www.researchgate.net/publication/289045596. Influence of institutional factors on innovations in grain production by the agroindustrial complex

texnologiyalarning birini yoki bir nechtasini bir vaqtda amalda qo'llagan bo'lsa, ba'zi respondentlar faqatgina bitta innovatsion texnologiyadan foydalangan.

Ko'rinib turibdiki, fermer hamda dehqon xo'jaliklari orasida innovatsion texnologiyalardan foydalangan yoki joriy etgan xo'jaliklar ko'pchilikni tashkil etmaydi. Ba'zi xo'jaliklar esa bir vaqtning o'zida bir nechta innovatison texnologiyalardan foydalanganligi esa albatta quvonarli holat. Shu narsa aniqki, viloyatimizda faoliyat yuritayotgan ko'pchilik fermer hamda dehqon xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda innovatsion yechimlarga umuman murojat qilmaydi yoki buning uchun bir qancha to'siqlar bor. Shu muammolardan ba'zilari quyidagilar:

- inovatsion texnologiyalar uskunalari narxining qimmatligi;
- bank kreditlari bilan muammoning mavjudligi (foiz stavkalari yuqoriligi, kredit muddatlarining qisqaligi);
- xo'jalik rahbarining yangi qishloq xo'jaligi ishlanmalari yoki texnologiyalardan bexabarligi;
- yangi texnologiyalarning xarajatlarni qisqa muddatlarda qoplay olmasligi;
- qishloq xo'jaligida yuqori riskning mavjudligi. Mazkur to'siqlar fermer va dehqon xo'jaliklarining qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar orqali mahsulotlari ishlab chiqarishi uchun asosiy muammolar sifatida qarashimiz mumkin.

Ilm-fan va texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiy rivojlanish inson faoliyatining barcha sohalariga axborot texnologiyalarini joriy etish bilan uzviy bog‘liqdir. Zamonaviy jamiyatni ommaviy kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash orqali butun qishloq xo‘jaligi majmuasining shuningdek, uning alohida tarmoqlari iqtisodiy samaradorligining asosiy omiliga aylanmoqda. Shu tufayli fermer hamda dehqon xo‘jaliklarining raqamlashtirilganligi, ularning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi ham innovatsion salohiyatning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri sifatida ko‘rib chiqilishi zarur. Fermer hamda dehqon xo‘jaliklarini innovatsion rivojlantirish tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda biz kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasini ham alohida o'rganib chiqdik.

Tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, fermer va dehqon xo'jaliklarida amaliy foydalanish uchun ularning 27 foizida shaxsiy kompyuterlar orqali internetga ulangan, shuningdek ularning 22 foizi to'lovlarni banklarga bormasdan internet orqali amalga oshiradi, 17 foiz foydalanuvchi davlat xizmatlaridan (my.gov) ro'yxatdan o'tgan, ishlab chiqargan tayyor mahsulotini internet (ijtimoiy tarmoqlar) orqali sotadigan foydalanuvchilar 14 foizni tashkil etdi, bundan tashqari

qishloq xo'jaligi texnikasi, urug'lik materiallari, yosh hayvonlar, yoqilg'i-moylash materiallari va boshqalarni sotib olish uchun tarmoq resurslaridan 11 foiz kishi foydalanadi. Respondentlarning atigi 9 foizi axborot va konsalting xizmatlariga ulanish uchun internetdan foydalanishini aytgan. Bu bir tomondan, fermerlarning marketing va konsalting xizmatlarini ko'rsatishda tijorat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarga ishonchi pastligidan, ikkinchi tomondan, bunday mahsulotlar sifatining pastligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida sanab o’tilgan bir nechta omillar o’simlikchilik tarmog’ini innovatsion rivojlanishiga ijobiy hamda salbiy ta’sir qiladi. Fermer va dehqon xo’jaliklari rahbarlarining bilim va malaka darajasi qancha yuqori bo’lsa, hozirgi kunda o’simlikchilik yetishtirish amaliyotida joriy etilayotgan innovatiyalardan ko’proq xabardor bo’ladi va o’zi yetishtirayotgan mahsulotlarida bu texnologiyalarni joriy etadi. Fermer va dehqon xo’jaliklari rahbarlari qanchalik kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni yaxshi bilsalar, vaqt hamda mablag’ni tejagan holda o’zi yetishtirayotgan o’simlikchilik mahsulotlariga kerak bo’lgan xizmatlarni (sotish, reklama, bozor) uyda turgan holda bajarishi yoki internet orqali kerakli xizmatlar bilan tanishib chiqishi, shuningdek, mintaqaning boshqa hududlarida yetishtirilayotgan mahsulotlardan tezda xabardor bo’lishi shu orqali bozorlarni topishi oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.researchgate.net/publication/289045596. Influence of institutional factors on innovations in grain production by the agroindustrial complex
2. E3S Web of Conferences 539, 020 (2024) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453902014 RSE-III-2024. S.Khamraeva, J.Pirimkulov. Effectiveness of using innovative technologies in the production of plant products.
3. O’simlikchilik mahsulotlarini yetishtirishda innovatsion asalari texnologiyalarini qo’llash. J.Pirimqulov. “Servis” ilmiy-amaliy jurnali 2023 yil 4/1-son. 44-47 b.
4. Qashqadaryo viloyati qishloq xo’jaligi boshqarmasi ma’lumotlari

IQTISODIY TIZIMLAR VA MULKCHILIK MUNOSABATLARI

Ziyadullayeva Ruxshona
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti talabasi

Annotatsiya. Iqtisodiy munosabatlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o`ziga xos xususiyat kasb etadi. Iqtisodiy munosabatlar doim o`zgarib, rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy tizim, mulkchilik munosabatlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Abstract. The emergence and development of economic reeletions acquires its own characteristics at different stages of the development of society. Economic relations are constantly changing and developing.

Key words: economic systems, property relations, socio-economic relations.

Kirish. Iqtisodiy tizim - bu o'zaro bog'langan ijtimoiy va huquqiy institutlar yig'indisi bo'lib, ular doirasida iqtisodiy muvozanatga erishish uchun jamiyatda iqtisodiy faoliyatning ustuvor motivlari bilan bog'liq holda tanlangan harakatlarning ma'lum usullari va usullari qo'llaniladi.

Iqtisodiyot elementlari tizimlashtirilmasa, iqtisodiy qonuniyatlar mavjud bo'lmay qolar, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni nazariy tushunish rivojlana olmas, iqtisodiy siyosat samarasiz va muvofiqlashtirilmagan bo'lar edi.

"Iqtisodiy tizim" atamasining o'zi turli darajalarda qo'llaniladi.

Eng oddiy tuzilmalar, masalan, yakka tartibdagi uy xo'jaliklari yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni iqtisodiy tizim deb hisoblash mumkin, lekin ko'pincha bu atama makroiqtisodiy yondashuv doirasida, umuman olganda milliy iqtisodiyotning ishlash qonuniyatlari ko'rib chiqilayotganda qo'llaniladi.

Har qanday iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish taqsimot, ayirboshlash va iste'mol bilan birgalikda asosiy rol o'ynaydi.

Barcha iqtisodiy tizimlarda ishlab chiqarish iqtisodiy resurslarni talab qiladi, iqtisodiy faoliyat natijalari esa taqsimlanadi, almashinadi va iste'mol qilinadi.

Iqtisodiy tizimning tuzilishi va funktsiyalari. Iqtisodiy tizim ma'lum bir tuzilishga ega, unga quyidagilar kiradi:

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari va xo'jalik mexanizmi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarkibida ishlab chiqarish vositalari, resurslari va ishlab chiqarish natijalariga egalik qilish bilan bog'liq munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan ular ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash va iste'mol qilish munosabatlarini belgilaydilar.

Iqtisodiy mulk munosabatlari tizimi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish omillari va natijalarini belgilash;
- moddiy va boshqa vositalardan iqtisodiy foydalanish;
- mulkdan daromad olish.

Iqtisodiy tizim tarkibida ijtimoiy ishlab chiqarish kabi soha va bosqichlardan iborat muhim element ham mavjud. Sohalar moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ishlab chiqarishdir. Sohalarning farqlanishi nisbiy bo'lib, mehnat ob'ektlarining o'ziga xos xususiyatlari, uning mavjud bo'lish usullari va olingan natijalar bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda bozor iqtisodiyotiga asoslangan aralash iqtisodiy tizim keng qo'llanilmoqda. Davlatning maqsadi bozor mexanizmini to'g'rilash emas, balki uning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratishdir, ya'ni. raqobat davlatning tartibga solish ta'siri mumkin bo'lgan joyda va zarur bo'lgan joyda ta'minlanishi kerak. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, "bozorning ko'rinmas qo'li" (Keyns) qonunchilik taqiqlari, soliq tizimi, majburiy to'lovlar va chegirmalar, davlat investitsiyalari, subsidiyalar, imtiyozlar, kreditlar va boshqalar orqali davlatning ko'rinadigan qo'li bilan to'ldirilishi kerak.

Mulk iqtisodiy va huquqiy kategoriya sifatida. Zamonaviy iqtisodiyot loyihalarning samarali ishlashi va amalga oshirilishini izlab, mulkchilikning har xil shakllarini birlashtirishga, ularning har biri o'ziga xos mazmunini saqlab qoladi. Natijada, birlashtirilgan shakllar hosil bo'ladi. Bularga zamonaviy korxonalar, xoldinglar, moliya-sanoat guruhlari, kontsernlar, trestlar va boshqarish, daromadlarni taqsimlash va mulkni tasarruf etish bo'yicha teng vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shakllar kirishi mumkin. Xususiy, davlat va boshqa shakllar moliyaviy-sanoat guruhlari va boshqa birlashmalarda o'zlarining asosiy sifatini yo'qotmasdan ishtirok etishlari mumkin.

Birlashtirilgan shakllarni shakllantirish orqali u yoki bu mulk shaklini ifodalovchi har bir ishtirokchi o'z vakolatlarining har bir mulk shaklining asosiy sifatini yo'qotishiga olib kelmaydigan shunday hajmni beradi. Agar asosiy sifat yo'qolsa, mulkchilik shakllarining o'zgarishi sodir bo'ladi.

Real hayotda ishlab chiqarish vositalarining umumlashish darajasi turli xil, ya’ni ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish vositalari bilan qo’shilishi turli darajada va turli shakllarda amalga oshiriladi. Shunga mos ravishda mulk sub’ektlari vujudga keladi. Mulk sub’ekti jamiyatda ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo’lgan, mulk ob’ektini o’zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari bo’lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlarga birlashgan bo’ladi. Ayrim kishilar, oilalar va davlat ham mulkchilik sub’ekti bo’lib chiqadi.

Xulosa. Iqtisodiy tizim ma'lum bir tuzilishga ega, unga quyidagilar kiradi:

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xo'jalik faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari va xo'jalik mexanizmi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar odamlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tarkibida ishlab chiqarish vositalari, resurslari va ishlab chiqarish natijalariga egalik qilish bilan bog'liq munosabatlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aynan ular ishlab chiqarilgan mahsulotlarni taqsimlash va iste'mol qilish munosabatlarini belgilaydilar.

Iqtisodiy tizim tarkibida ijtimoiy ishlab chiqarish kabi soha va bosqichlardan iborat muhim element ham mavjud. Sohalar moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ishlab chiqarishdir. Sohalarning farqlanishi nisbiy bo'lib, mehnat ob'ektlarining o'ziga xos xususiyatlari, uning mavjud bo'lish usullari va olingan natijalar bilan belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Borisov E.F. Iqtisodiy nazariya" Moskva, 2017 yil.
2. Ermishin P.E. Iqtisodiyot nazariyasi asoslari, M., 2021 y.
3. Samuelson P. Iqtisodiyot 2019 yil.
4. Ivanov I. Zamonaviy ishlab chiqarishda mulk shakllarining rivojlanishi. 2018 yil.

TERMINOLOGICAL APPARATUS OF FUNCTIONAL AND COGNITIVE SEMANTICS

Abdullayeva Shahnoza
Uzbekistan State World Languages University

Abstract. This thesis analyzes terminological apparatus of functional and cognitive semantics which is constantly discussed in modern linguistics. The applicability of this work is apparent, its matter is characterized to analyze and understand the complexities of meaning across various disciplines.

Key words: functional semantics, cognitive semantics, prototype theory, contextual meaning.

Introduction. It is true that Functional Semantics is a totally new branch of Linguistics, and that is why, some may get confused to differ it from Cognitive Semantics. To have a clear and smooth understanding of the research, it is better to give a definition of both fields first. To start with Functional Semantics, it focuses on how language conveys and interprets meaning, examining how the functional aspects of communication are influenced. Through linguistic structures, communication is achieved, as well as studying how language expresses different meanings and how context affects interpretation. Functional Semantics also examines the relationship between form and meaning in language, focusing on how linguistic elements convey specific messages and how meaning is negotiated

in conversations. Language plays a key role in communication and how meaning is created and understood in the real world. Functional Semantics aims to understand how meaning is created and understood in the real world.

Main part. According to cognitive semantics, language can only explain the world as individuals understand it since it is a component of a wider range of human cognitive abilities. It is implied that various linguistic communities have diverse conceptions of everyday objects and worldly processes (different cultures), not that there is a discrepancy between an individual's perception of reality and reality (wrong beliefs). As it is defined above, Cognitive semantics deals with how meaning is constructed in the human mind.

Functional Semantics.

1. Speech Act Theory: According to Functional Semantics, language is used to carry out a variety of speech acts including asking for things, giving directions, and expressing ideas5.An example of a speaking act that involves making a request is when someone asks, "Could you pass the salt?

2. Politeness Strategies: Another area of focus for functional semantics is language's role in preserving connections and expressing social meanings. In conversation, for example, employing courteous expressions like "please" and "thank you" can demonstrate civility and respect.

Cognitive Semantics

1. Conceptual Metaphors – Cognitive Semantics investigates how language that uses metaphors reflects underlying conceptual structures. For instance, the metaphor "Time is money" highlights the idea that time is a valuable resource that may be conserved or spent. It does this by conceptually mapping time and money.

2. Prototype Theory: Cognitive Semantics studies the way prototype structures are used to arrange categories. For example, the category "bird" would have a prototype of a typical bird (such a sparrow) as its focal point, and additional birds in the category would be assessed according to how closely they resemble this prototype.

Let’s see a pair of examples in English and Uzbek:

A: "I can't believe you forgot my birthday again."

B: "I'm really sorry, I completely lost track of time. Let me make it up to you."

The expression "I can't believe you forgot my birthday again" from A expresses her anger and frustration with B's carelessness. The phrase "again" implies that B has forgotten A's birthday before, pointing to a persistent problem in their relationship.

The statement "I'm really sorry, I completely lost track of time" from B is an apology and admission of error. By acknowledging responsibility and offering an explanation for forgetting. The statement "I'm really sorry, I completely lost track of time" from B is an apology and admission of error. Character B is making an effort to make amends and express regret for their acts by acknowledging their mistakes.

B's reply, "Let me make it up to you," conveys a willingness to right the wrong and atone for their forgetfulness. This declaration shows concern and respect for A's feelings as well as an intention to act to mend the relationship.

An example of a dialogue in Uzbek where Functional Semantics can be analyzed:

A: "Kechirasiz, men uni ko'rishni istamayman."

B: "Nima uchun?"

In this exchange, A's statement "Kechirasiz, men uni ko'rishni istamayman" translates to "Sorry, I don't want to see him/her." This conveys a refusal or lack of interest in meeting someone.

B's response "Nima uchun?" translates to "What's the reason?"

This question seeks clarification or an explanation for A's refusal to see the person in question

To conclude, Functional Semantics focuses on the ways in which language is employed to carry out speech acts and accomplish communicative objectives. It examines how language functions, including how various linguistic forms are employed in social contexts to transmit particular meanings.

Cognitive Semantics focuses on the ways in which mental representations, cognitive procedures, and conceptual structures are used to produce meaning. It looks at how our basic cognitive systems are reflected in and shaped by language. the rise of functional and cognitive linguistics within the paradigm of anthropocentrism represents a significant shift in the study of language and cognition. By focusing on the human mind as the central driving force behind linguistic structure and meaning, cognitive linguistics offers a unique perspective that emphasizes the role of functional analysis of a language and human cognition in shaping language use and understanding. Through the exploration of concepts such as speech acts, metaphor, and conceptual blending, functional linguistics has provided valuable insights into how language reflects and shapes human thought processes. By highlighting the interconnectedness of language, cognition, and culture, this approach has opened up new avenues for research and inquiry in the field of linguistics.

References

1. Langacker, Ronald W. (1987). *Foundations of Cognitive Grammar: Volume I: Theoretical Prerequisites*. Stanford University Press.
2. Croft, William, and D. Alan Cruse. (2004). *Cognitive Linguistics*. Cambridge University Press.
3. Talmy, Leonard. (2000). *Toward a Cognitive Semantics: Volumes 1 & 2*. MIT Press.

O'ZBEK NASRI VA SHE'RIYATIDA O'ZBEK TO'YLARINING UYG'UNLIGI

To'rayeva Iroda Sheramatovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Jamiyatda insonlar o'z mavqeyidan kelib chiqib to'y qiladi. Kimdir dabdabaga berilsa, yana kimdir oddiygina o'tkazadi. Maqolada Tohir Malikning "Shaytanat" qissasi, Shodmonbek Otaboyevning "Nomi yo'q to'y" hikoyasi va boshqa bir qancha she'rlar tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: to'y, nikoh to'y, davraboshi, pul sochish, tanga sochish, maslahat oshi, yor-yor.

To'y marosimining qanday o'tishi jamiyat va uning a'zolari to'y egalarining qanchalik madaniyatli, bilimli, rejali ish yuritishini namoyon etadi. Shuning uchun har bir davr to'ylari va to'ychilarining farqi davr nuqtayi nazaridan ajralib turadi.

Tohir Malikning "Shaytanat" qissasining birinchi kitob 14-bob 2-qismida Elchin bilan Asadbekning qizi Zaynabning nikoh to'yi tasviridan parcha berilgan. Bu qism davraboshi so'zi bilan boshlangan. Davraboshi deganda to'y davrasini boshqaruvchi kishi tushuniladi. Bu vazifani ko'pincha erkak kishi bajaradi.

"Shaytanat" qissasida davraboshi kuyov Elchinga tort tutqazib, qo'shiq aytish taklifini bildiradi. Shu o'rinda yozuvchi uni torni "noiloj qolib qo'liga oldi" deb, o'zbek xalqining "kimga to'y, kimga aza" maqolini keltiradi. Negaki, odatimizga ko'ra kuyovlik shohsupasida turgan kishi o'z to'yida o'zi qo'shiq aytmaydi. Bu parcha orqali Elchinning ixtiyori o'zida emasligiga ishora qilinmoqda. "Yaxshiki, to'yda odamlar sinchkov bo'lishmaydi. Ko'pchilik Elchinning "ashula aytmayman" deyishini shunchaki noz o'rnida qabul qildi. Elchin hozir ular istagan qo'shiqlarni aytolmasdi, ularni xursand qilolmasdi. Qo'liga tor olgach, "nimani aytsam ekan" deganday o'ylanib qoldi... Elektr organ cholg'uchisi uning mushkulini oson qilish uchunmi bir vaqtlar mashhur bo'lgan ashulasining kuyini chaldi...

Bugun qo'shni chorboqqa kelin tushdi, yor-yor... Elchin bu kuyni eshitmadi".

Shu o‘rinda to‘yda “pul sochish” hamda “pul qistirish” odatlari tasviriga o‘rin ajratilgan.: “Pullar sochilib yotgan to‘yxonaga... Noila kirib keldi. Oppoq uzun ko‘ylakda. To‘yxona birdan jimib qoldi. To‘yxonada esa Asadbekning ichkari kirishiga tayyorgarlik boshlanayotgan edi. Har holda kuyovi ashula aytyapti, pul qistirmasa bo‘lmas... Asadbek kelin-kuyovga yaqinlashib cho‘ntagiga qo‘l soldi. Ko‘pchilik bir dasta pul sochilishini kutgan edi. Asadbek hech bir to‘yda, yoki yig‘inda pul sochmagan. Uning bu odatini bilgan yaqinlari “o‘zining to‘yida bu odatini buzarmikin” deb o‘ylashgandi. Ular kutgan ish bo‘lmadi. Asadbek ikkita yuztalik chiqarib uzatdi. U darhol cho‘ntagiga qo‘l soldi-da, bir tutam yuztalik chiqarib, kuyovi ustidan sochdi. To‘yxonani qiyqiriq bosdi. Asadbek ikkinchi cho‘ntagidan pul chiqarib uni qizi ustidan sochdi. Avval Kesakpolvon, so‘ng Chuvrindi xo‘jayinlari ishini takrorlashdi. Asadbek kulimsiragan holda to‘yxonadan chiqdi”.

Shodmonbek Otaboyevning “Kuyovbola” hikoyasi16 nomidanoq to‘y mavzusi bilan tutashligi seziladi. Unda to‘ydan oldin tashkil qilinadigan “maslahat oshi” haqida so‘z yuritiladi: “Shanba kuni bo’ladigan bazmi jamshidga jiddiy tayyorgarlik ko’rilardi. Azim har kech Kuyovbolaning xayru saxovati bilan “maslahat oshi” uyushtirar edi”. Bu maslahat oshida kuyovbolaning o’rtoqlari uning obro’yi uchun kurashishi kerakligi, dasturxon to’kin bo’lishiga hissa qo‘shish, kelinposhshaga durustroq sovg’a olish lozimligi uqtirilardi.

Kattalar hamisha yoshlarni “qo’sha qaringlar”, deb duo qilishadi. Bu so‘zlar ularning ong-shuuriga muqaddas kalimadek yoshlikdan singib ketadi.

Hozirgi paytda kuyovbola bilan kelinposhsha davra to‘ridagi stol to’riga yonma-yon o’tqaziladi. Kuyovbola bayramlarda kiyadigan qora kostyum-shim, chust do’ppi kiyib, tuppa-tuzuk yasanib olgan. Kelinposhsha yuziga oq harir yopiladi.

Said Ahmadning “Nomi yo’q to’y” asarida17 Asadullo Maxsumning istirohat bog’ida mast bo’lib, bir shofyor bolani pichoqlab qo’yib, to’rt yilga qamalib ketgan va kechagina qamoqdan qaytgan o’rtancha o’g’li Sayfulloni yo‘qlab, otasidan ko’ngil so’rab qo’yish uchun besh-olti qo’shni to’planib, ularnikiga chiqishadi. Shu o‘rinda “mahallada eldan qolib bo’lmaydi” degan iboa ham qo‘llanilgan.

Qo‘shnilar ichkariga kirishsa, hovlidagi so’rida joy qilingan, ichkari uyda qariyalar, ayvonda Maxsumning yor-birodarlari, artistlar ham aytilgan bo‘ladi. Bir burchakda Isa oshpaz ham bor. Behi shohiga yangigina bo’g’izlangan qo’y orqa oyog’idan osib qo’yilgan. Maxsumning qamoqdan kelgan o’g’li boshiga surma

[16] Otaboyev Shodmonbek.Kuyovbola. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – Б.3-13.
[17] Said Ahmad. Nomi yo’q to’y. – Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1991. – B.16-18.

rang do’ppi kiyib, kelgan-ketganlarga qo’l qovushtirib yuripti. Tinmay odamlar kelib turipti. Quyuq-suyuq ovqatlar tortilyapti. Kech bo’lsa ham artistlar yetib kelishadi. Keksalar o’tirgan joyda stol tagidan piyola uzatila boshlandi. Yoshlar jiringlatib “jabrdiyda”, “chaquvdan qamalgan” bolaning salomatligiga icha boshlaydilar. Ashula avjiga chiqadi. Sayfulloning o’zi ham o’yinga tushadi. Soch o’stirgan bir yigit chiqib nutq so’zlaydi. To’y bo’lsa, kuyov bilan kelinni tabriklardi, imenina bo’lsa to’y egasini tug’ilgan kuni bilan tabriklardi. Chaqaloq to’yi bo’lsa, unga umr tilardi. Birovni pichoqlab, qamalib kelganning yig’inida nima deyish mumkin? Xuddi shuni inobatga olib, yozuvchi ataylab quyidagi tabrik nutqini keltiradi: “Hurmatli birodarlar, mana shu tabarruk uyning tabarruk dasturxoni ustida o’tiribmiz. O’zingizga ma’lum, Toshkentda kuchli zilzila bo’ldi. Bizning bozorkomimizga qarashli tochkalar ham shikastlandi. Shu bilan nima demoqchimanki, aziz birodarimiz Maxsum akaning zurriyoti bo’lmish Sayfullo bozorkomning vayron bo’lgan tochkalarini tiklashga o’z hissasini qo’shadi, deb umid qilamiz. Shu qadahni Sayfulloning salomatligiga ko’tarishlaringizni so’rab qolaman”.

Shu nutq asosida ichadiganlar jarang-jurung qilib qadah urishtirib ichishadi. Har qaysi to’da Sayfulloni yoniga chaqirib, alohida-alohida qadah tutishadi. Sayfullo tushmagur sog’ingan ekan, yo’q deyish esidan chiqib, uzatganni olib yutaveradi. To osh tortilguncha Sayfullo qamoqqa ketishdan oldingi holiga keladi-qoladi.

To‘ylarda taklifnoma tarqatish ham o‘ziga xos urfga aylangan. Shu urfga ishora Sirojiddin Sayyidning “Taklifnoma” she’rida o’z ifodasini topgan.18

Shaftolilar bargidan ranglar ketar, yor-yor,
Hovlimizda oppoq, oydin tonglar otar, yor-yor.
Yoshlik ham bir to’y singari o’tar-ketar, yor-yor,
Siz kelsangiz ko’nglimizdan zanglar ketar, yor-yor.

Dilmurod Jabborning “To’y oqshomida” she’rida kelin-kuyov ustidan tanga sochish odati tilga olingan:

Farmon akam uylangan kun,
Keldi to’rt-besh yangalar.
Kelin-kuyov boqar mamnun,
Ko’p sochildi tangalar.19

Vosit Sa’dullaning “Oltin to’yga oltin to’yona” she’rida “oltin to‘y”, “to‘yga to‘yona” birikmalari qo‘llangani bilan e’tiborni tortadi:

Bu yil ulug’ ayyom, loyiq paxtakor

[18] Сирожиддин Саййид. Таклифнома. – Тошкент. “Шарқ” нашриёти, 2001. – Б. 116.
[19] Дилмурод Жаббор. Тўй оқшомида. – Бухоро, 1992. – В.6.

Oltin to’yga oltin to’yona,
Mard ishidan bu bir nishona,
Tilak, orzulari chaman mirishkor.20

Xullas, juda ko‘p she’riy va nasriy asarlarda o‘zbekning to‘y marosimi juda yorqin va rang-barang tasvirlangan. U sovchilikdan boshlab kuyovning uyiga kelinning kelishi bilan tugaydi. Shunisi bilan o‘quvchida hayratlanarli taassurot uyg’otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Малик Тохир.Шайтанат роман (5-китоб). Т.: Sharq. 2011.-В.6.
2. Otaboyev Shodmonbek. Kuyovbola. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1984. – Б.3-13.
3. Said Ahmad. Nomi yo’q to’y. – Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti, 1991. – B.16-18.
4. Сирожиддин Саййид. Таклифнома. – Тошкент. “Шарқ” нашриёти, 2001. – Б. 116.
5. Дилмурод Жаббор. Тўй оқшомида. – Бухоро, 1992. – В.6.
6. Восит Саъдулла. Олтин тўйга олтин тўёна. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.43.

МНОЖЕСТВЕННАЯ МИЕЛОМА И КЛИНИЧЕСКИЙ СЛУЧАЙ ПОЗДНЕЙ ДИАГНОСТИКИ СИНДРОМА ШЕРЕШЕВСКОГО-ТЕРНЕРА

Махамадалиева Г.З., Гулмирзаев Ж.А.,
Хамидова Ф.И., Исхаков Э.Д.
Республиканский специализированный
научно-практический центр Гематологии

Введение: В связи с редкостью заболевания и различной клинической картиной, диагноз не всегда возможно поставить рано и девочки получают различную терапию у врачей разного профиля, хотя своевременная постановка диагноза позволит обеспечить девочкам с синдромом Шерешевского-Тернера избежать осложнений сопутствующих заболеваний. Нами представлен клинический случай поздней диагностики синдрома Шерешевского-Тернера, когда девочка с 9 лет неоднократно обращалась к различным специалистам за медицинской помощью, и только в возрасте 11 лет был поставлен окончательный диагноз: синдром Шерешевского-Тернера. Медицинские инженеры разработали микрофлюидное устройство, которое

[20] Восит Саъдулла. Олтин тўйга олтин тўёна. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.43.

может быть использовано в качестве неинвазивного инструмента диагностики множественной миеломы и мониторинга течения болезни. Инновационный девайс позволил исследователям обнаружить определенный тип циркулирующих в крови клеток, которые ассоциируются с более коротким временем выживания. Существующие методы не всегда могли выявлять эти клетки в крови пациентов при их низком содержании.Множественная миелома является одной из самых распространенных и опасных форм рака кроветворной системы. Для нее характерна злокачественная трансформация гемопоэтических стволовых клеток – предшественников лейкоцитов, которые также называют плазмацитами. Эти клетки являются частью иммунной системы и отвечают за борьбу с инфекциями, вырабатывая антитела, которые нацелены на патогены.

В результате в костном мозге накапливается большое количество патологически измененных плазматических клеток, которые препятствуют образованию и росту здоровых клеток крови. Вместо того чтобы производить «лечебные» антитела, эти злокачественные клетки продуцируют аномальные белки, которые вызывают целый ряд серьезных проблем со здоровьем. Эту болезнь называют множественной миеломой, поскольку она способна затрагивать самые разные участки тела, включая позвоночник, череп, таз и ребра. На ранних стадиях симптомы могут отсутствовать, но по мере прогрессирования заболевания оно в конечном итоге вызывает болезненные ощущения в костях, проблемы с почками, слабость, тошноту, беспричинную потеряю веса и рецидивирующие инфекции.

Множественная миелома считается неизлечимой – прогрессирование болезни можно приостановить с помощью медикаментозной терапии, часто ремиссия длится годами. Но у большинства пациентов болезнь рано или поздно все равно возвращается и прогрессирует. Команда спроектировала крошечные колонны в проточном канале устройства таким образом, чтобы они захватывали раковые клетки, пропуская при этом здоровые. Для этого специалисты использовали вычислительную модель, которая позволила им сравнивать колонны разной формы и размера. В итоге они вычислили оптимальные параметры, которые позволяли извлекать из жидкости частицы нужного размера. Оказалось, что ромбовидные колонны имели самое низкое сопротивление потоку, и что, сделав их длиннее и острее, можно улучшить их фильтрующее действие.

Красные кровяные клетки являются самыми маленькими из плазмацитов крови, их диаметр составляет от 6 до 8 микрон. Белые кровяные клетки

несколько больше – их диаметр от 7 до 30 микрон. Несмотря на то, что циркулирующие злокачественные плазматические клетки в целом больше остальных – их диаметр варьируется от 30 до 50 микрон – мельчайшие из них имеют такой же размер, что и самые крупные лейкоциты. Однако белые кровяные клетки обладают способностью менять форму и, сжимаясь, протискиваться между колоннами, в то время как злокачественные плазмациты более жесткие, они не могут изменять форму и поэтому застревают в фильтре. Исследователи протестировали фильтрующее устройство с использованием культивируемых раковых клеток и образцов крови, взятых у пациентов с множественной миеломой. Эти эксперименты показали, что количество улавливаемых фильтром циркулирующих плазматических клеток у пациентов с активной фазой болезни, было намного больше по сравнению с пациентами в ремиссии и здоровыми людьми.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, туризм, туристические организации, экспорт, промышленность, самозанятость, сервис, рыночная инфраструктура.

Abstract. This article examines the state of development of small business and private entrepreneurship, especially increasing efficiency in the field of tourism, problems and shortcomings in the field. Also, proposals on the main ways of developing small business and private entrepreneurship were requested.

Key words: small business, private entrepreneurship, tourism, tourism organizations, export, industry, self-employment, service, market infrastructure.

Mamlakatimizda bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlar sohasida olib borilayotgan islohotlar sharoitida turistik korxonalar faoliyati milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri sanaladi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi, infratuzilma obyektlarini modernizatsiyalash ushbu soha taraqqiyoti bilan uyg'un kechadi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston iqtisodiyoti strategik sektorlardan biri sifatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu yesa mintaqalarni jadal rivojlantirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish, shuningdek, investitsiya jalb qilishni yaxshilash imkonini beradi.

Turizm sohasi subyektlarining investitsion xarajatlarini moliyalashtirish amaliyotiga ta’sir etayotgan omillar bo‘yicha o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra respublikamizda turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator dolzarb muammolarning mavjudligini ko‘rsatdi. Bu boradagi ana shunday dolzarb muammolardan biri bo‘lib, moliyalashtirish manbalarining yetishmasligi hisoblanadi.

Respublikamizda qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasining past ekanligi, turizm sohasidagi investitsiyalarning tashabbuskorlarida pul oqimining zaif ekanligi moliyalashtirish manbalari yetishmasligi muammosini chuqurlashishiga xizmat qilmoqda.

Korporativ moliyada kapitalning real bahosi mablag‘larni jalb qilish uchun sarf qilinadigan vaqt va risk omillarini ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, e’tibor qaratish talab etiladigan darajada murakkabliklar, aniqlik darajasini pasaytiruvchi obyektiv va subyektiv omillar mavjudligiga qaramasdan kapital yoki uning alohida komponentlari bahosini aniqlash, hech bo‘lmaganda taxminiy bahosini belgilash muhimdir.

2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadiga ko’ra, tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish belgilangan. Muhim vazifalar sifatida hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish, sharoiti og’ir bo’lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag’allikni qisqartirish bo’yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektorga keng yo’l ochish, iqtisodiy munosabatlarda erkin bozor tamoyillarini joriy etishni kengaytirish kabilar alohida belgilab qo’yilgan. Mamlakatimiz hududlarida kambag’allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirish, o’zini-o’zi band qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish muhim ahamiyatga ega

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o‘z faoliyatlari davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub’ektlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo‘lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to‘sqinlik qilishi mumkin. O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining

yuksalishi, kichik biznes sub'ektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko‘plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o‘z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to‘sqinlik qilmoqda.

Turizm sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolardan yana biri – bu investitsiya loyihalari bilan bog‘liq bo‘lgan risklarni boshqarish amaliyotini takomillashmaganligidir.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarishda turistik majmualar tarkibiy qisimlariga yondashuvlarning mavjud iqtisodiy va tashkiliy salohiyatni hisobga olgan holda boshqaruvni tashkil etish soha rivojlanishining hozirgi bosqichida katta ahamiyatga ega. Bu turistik mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turistik mahsulotlar va hismatlar turini yaratish, turistik majmualar korxonalari o‘rtasida gorizontal iqtisodiy aloqalar darajasini kengaytirish, turizmda iqtisodiy oqimlarning intensivligini oshirish va soha faoliyati bilan bog‘liq tarmoqlarning zaruriy darajadagi integratsiyasi bilan bog‘liqdir.

Fikrimizcha, turistik majmualar faoliyatini boshqaruv amaliyotida rivojlanish xolatini baholovchi usullardan foydalanishda turistik majmualarning faoliyat ko‘rsatish tendensiyalari va qonuniyatlarini tahlil qilish hamda boshqaruv strategiyalari tamoyillari asosida uning raqobatbardoshligini oshirish zarurligi baholanadi. Barqarorlik – turistik majmua faoliyatining natijadorligidan, raqobatbardosh salohiyatini amalga oshirishdan, raqobatbardoshlik esa – turistik majmualarning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish quvvatlaridan samarali foydalanish hamda raqobatbardosh turistik mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi imkoniyatini belgilashdan iborat bo‘lganligi uchun, bu tushunchalarning birga qo‘shilishini hisobga olish, turistik majmuaga o‘z raqobatbardoshligini oshirishning optimal strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo’ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
2. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
3. Tishukov Yu.V. Potrebitel na rinke turisticheskix uslug. –Rostov-na-Donu: Feniks, 2007.4-bet.

4. Qosimova M.S., Xodiyev B.Yu., Samadov A.N., Muxitdinova U.S. Kichik biznesni bosh arish. O‘ uv o‘llanma. –T.: O‘ ituvchi, 2003

IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING AHAMIYATI

Saloxiddinov Zuxriddin Nuriddin o`g`li
Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistranti

Annontatsiya. Mazkur maqolada pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, uning amaldagi muammolari va ularni hal qilish yo'llari, ushbu siyosatning vositalari, moliyaviy tizimning rivojlanishi va boshqa ko'plab muhim masalalar bilan birga O’zbekistonda iqtisodiy o’sishni ta’minlashda pul-kredit siyosatining imkoniyatlari keng o’rganiladi.

Kalit so’zlar: moliyaviy barqarorlik, davlat moliyasi, pul kredit siyosati, pul muomolasi, banklar, foiz stavkalari, inflatsiya.

Katta miqdordagi kapital oqimi bo'lgan taqdirda, markaziy bank pul massasini qisqartirish uchun qisqaruvchi pul-kredit siyosatini amalga oshirishi mumkin. Aksincha, kapitalning katta oqimi bo'lsa, markaziy bank pul massasini oshirish uchun ekspansion pul-kredit siyosatini olib borishi mumkin. Pul massasining qisqarishi yoki kengayishi ichki foiz stavkalarining oshishi yoki pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, bu o'zgarishlar foiz stavkalaridagi farqlarni oshiradi yoki kamaytiradi, bu esa o'z navbatida xorijiy kapitalning kirib kelishini ham, chiqib ketishini ham rag'batlantiradi. Bu holat pul-kredit siyosatining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining yuqori harakatchanligi markaziy bankni pul-kredit siyosatini mustaqil olib borishga qodir emasligiga olib keladi. Shu bilan birga, kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining harakatchanligi valyuta kursi rejimiga va mamlakat amal qiladigan valyuta rejimiga bog'liq.

Shunday qilib, valyuta kursi rejimi va valyuta rejimini tanlash, shuningdek, pul-kredit siyosatini amalga oshirishning mustaqilligi pul-kredit sektoridagi tadqiqotlar e'tiborini qaratgan uchta strategik masaladir. Umuman olganda, agar mamlakatda qat'iy valyuta kursi tizimi mavjud bo'lsa va chet el kapitalining kirib kelishi/chiqishi bo'lsa, pul-kredit siyosati baribir valyuta kursini oldindan belgilangan darajada ushlab turishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shuni hisobga olgan holda, pul-kredit siyosatini o'z-o'zidan amalga oshirish qiyin, chunki pul-kredit siyosati kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishi natijasida kelib chiqadigan pul massasini o'zlashtirishga yoki ko'paytirishga qaratilgan bo'ladi. Boshqa tomondan, agar mamlakat suzuvchi valyuta kursi tizimidan foydalansa, uning pul-kredit

siyosati valyuta kursini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan emas, shuning uchun pul-kredit siyosatini mustaqil ravishda olib borish mumkin.

Nazorat qilinadigan valyuta kursi rejimi sharoitida kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining harakatchanligi pasayish tendentsiyasiga ega bo'lib, bu pul-kredit siyosatini mustaqil amalga oshirishga yordam beradi. Buning sababi shundaki, markaziy bank kapitalning kirib kelishi va chiqishi natijasida kelib chiqadigan pul massasini kengaytirish yoki qisqartirishga muhtoj emas. Ayni paytda, agar erkin valyuta tizimi qo'llanilsa, kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining harakatchanligi ortadi. Natijada, markaziy bank kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishi natijasida kelib chiqadigan pul massasi miqdorini oshirish yoki kamaytirishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, u pul-kredit siyosatini amalga oshirishning mustaqilligini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Moliyaviy barqarorlik va uni tahlil qilish markaziy banklar hamda moliya tizimini tartibga soluvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bank sektori O’zbekiston moliya tizimining eng muhim bo’g’ini bo’lganligi sababli, uning barqarorligini ta’minlash O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Markaziy bank bank tizimidagi o’zgarishlarni kuzatib boradi va baholaydi, shuningdek, tizimli xavflar to’planishini kamaytirish va bank tizimining barqarorligini ta’minlash choralarini ko’rib boradi. Markaziy bank yiliga ikki marta Moliyaviy barqarorlik sharhini chop etadi, unda bank tizimining barqarorligi, makromoliyaviy zaiflik va xatarlar tahlil qilinadi va baholanadi. Ushbu sharhni chop etishdan ko’zlagan asosiy maqsad – jamoatchilik xabardorligini hamda bu sohada Markaziy bankning shaffofligi va hisobdorligini oshirishdan iborat.

Pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun foydalaniladigan muhim vositadir. Bu siyosat iqtisodiyotdagi pul va kredit taklifiga ta’sir ko‘rsatishga mo‘ljallangan, bu esa, o‘z navbatida, foiz stavkalari, inflyatsiya va iqtisodiy o‘sishga ta’sir qiladi.

Mamlakat “sog‘lom” iqtisodiyotining eng samarali ko‘rsatkichi uning moliyaviy holatidir. Zero, moliya tizimi nafaqat iqtisodiyotda zarur o‘zaro bog‘lanishlarni ta’minlaydi, balki makroiqtisodiy tartibga solishning eng samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham har bir davlatning ijro etuvchi hokimiyatining faoliyati jahon moliya bozorlari beqarorligi sharoitida ham moliya-kredit tizimi va umuman moliyaviy ahvolning barqarorligini ta’minlashga qaratilgan.

Hozirgi kunda kun tartibida davlat moliyasining barqaror rivojlanishi masalalari ko'proq ko'tarilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, postindustrial jamiyat, globallashuv va jahon bozorining rivojlanishi davrida milliy

iqtisodiyot murakkab dinamik tizimni tashkil etuvchi juda ko'p sonli omillar ta'sirida qolmoqda. O’z o’rnida, davlat moliyasini barqarorligini ta’minlashda pul-kredit siyosati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu siyosat, mamlakatning moliyaviy tizimini rivojlantirish, moliyaviy iste'molni boshqarish, yangi ish o'rinlari yaratish va boshqa ko'plab maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni ta'minlashda yordam beradi.

Pul-kredit siyosatining mazmun mohiyati uning davlatning iqtisodiy xulq-atvorini belgilab berishidadir, u nafaqat mamlakatdagi aholi farovonligiga, balki davlatning jahon miqyosidagi o'rniga, uning iqtisodiy va milliy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko’rsatadi. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi mamlakat iqtisodiyotining turli tahdidlardan himoyalanish darajasini belgilaydi. Ushbu tahdidlarning amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotning normal ishlashini buzishi, davlatning iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazishi, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, shuningdek, davlatning boshqa davlatlar, birlashmalar va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan iqtisodiy o'zaro hamkorligini murakkablashtirishi mumkin. Shunga ko'ra, pul-kredit siyosati iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish quroli sifatida davlatning iqtisodiy xavfsizlik tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu holat pul-kredit siyosati va iqtisodiy xavfsizlik tizimi – davlat moliyasining barqaror rivojlanishini o'rganishning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Milliy valyuta kursini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etgan holda ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirish borasidagi amaliy qadamlar bu yo‘nalishdagi asosiy qarorlardan biri bo‘ldi. Valyuta kursining butunlay yangi tartibi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e’tibori va sa’y-harakatlarini faqat ichki bozorda narxlar barqarorligini ta’minlashga qaratib, pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish uchun zarur zamin yaratadi.

Monetar siyosat tushunchasi inglizcha sanaladi aslida. Bizda esa pul-kredit siyosati deb talqin qilinadi. Pul-kredit siyosati — pul-kredit organlarining makroiqtisodiy siyosati, pul bozori shart-sharoitlari (qisqa muddatli foiz stavkasi, nominal valyuta kursi yoki joriy likvidlik darajasi) orqali yalpi talabni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Bank sektorining yakuniy kombinatsiyasiga erishish, jumladan, narxlar barqarorligi, barqaror ayriboshlash kursini saqlab qolish, moliyaviy jihatdan ham barqarorlik va muvozanatli iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish hamdir.

Pul-kredit siyosati bevosita va bilvosita vositalar orqali amalga oshiriladi:

1. Bevosita vositalar — moliyaviy institutlardagi moliyaviy aktivlar narxlari (foiz stavkalari)ni yoki ular hajmini to‘g‘ridan to‘g‘ri boshqarish orqali olib boriladi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklaridagi mavjud depozit

ko‘rinishidagi pullarni hamda ular tomonidan beriladigan kreditlar narxlari va hajmini ham nazoratda tutadi.

2. Bilvosita vositalar — Markaziy bank tomonidan moliyaviy institutlar resurslarita bozor mexanizmlari (majburiy zahira talablari, ochiq bozordagi operatsiyalar, tijorat banklarini qayta moliyalash va Markaziy bankning hisob stavkasi, tijorat banklaridan depozitlarni qabul qilish va boshqalar) orqali iqtisodiyotdagi pul massasiga ta’sir etadi.

Xulosa o’rnida aytishimiz mumkinki bugungi kunda iqtisodiyot jadal rivojlanib borayotgan bir vaqtida 2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o‘rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog‘liq amaliy qadamlar bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. A.V.Vahobov., T.S.Malikov.Moliya. «NOSHIR».Toshkent-2012. 636-
2. Mayexl N., Monetar siyosatni qo‘llash:Rivojlanayotgan monetary rejimlarga ega mamlakatlardagi operatsion masalalar(XVF).
3. https://cbu.uz/uz/monetary-policy/concept/
4. https://banki.ru/wikibank/denejno-kreditnaya_politika/

INGLIZ TILINI O’QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna
Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrasi o‘qituvchisi
Tel: +99897 8085583
E-mail: yorqinoy479@gmail.com
Orcid: 0009-0006-3273-8773

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida qo’llaniladigan zamonaviy usullar borasida mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, maqolada dars jarayonida ta’limning sifatiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan metodlar hamda ulardan foydalanish yo’l-yo’riqlari borasida tahlillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, metodika, metodologiya, modul, ingliz tili.

Kirish. So‘nggi yillarda o‘qituvchilar ta’limida ta’lim jarayonining deyarli barcha jabhalarini qamrab oluvchi katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Chet tillarini

o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko‘proq ko‘tarilmoqda. O‘qitishning yangi usullari va shakllari paydo bo‘lmoqda.

Pedagogik texnologiyalar - bu o‘quv jarayoni amalga oshiriladigan ma’lumot almashish va uzatish vositalari, shuningdek, talabalarning kommunikativ bilimlarini rivojlantirish va nutq ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan o‘qitish usullarining tizimi hisoblanadi. Bugungi kunga kelib zamonaviy ta’lim tizimi samarali pedagogik texnologiyalarga muhtoj. Bu talabalar uchun ham, o‘quvchining yoshi, individual, shaxsiy fazilatlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o‘z ishida bir nechta texnologiyalardan foydalanadigan o‘qituvchilar uchun ham zarurdir.

MATERIAL VA METODLAR.

Ingliz tili darslarini o‘tkazishda o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar.

Ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifalaridan biri talabalar salomatligini asrash va mustahkamlash, ularning sog‘lom turmush tarziga munosabatini shakllantirishdan iboratdir, shuning uchun o‘qituvchi talabalarning yoshiga mos pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanishi lozim.

Oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishda quyidagi ta’lim texnologiyalari keng qo‘llaniladi: axborot-kommunikatsiya (Internet); muammoli ta’lim; ko‘p bosqichli trening (bahs, hamkorlik, keys usuli); jamoaviy ta’lim tizimi (blok-modul, kommunikativ texnologiya); o‘yin texnologiyasi (rol o‘ynash); rivojlantiruvchi ta’limning loyiha texnologiyasi va boshqalar.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Quyida ushbu texnologiyalarning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) chet tilini o‘qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi va ularning bilim, qobiliyatlarini rag‘batlantiradi. Kompyuter dasturlaridan mohirona foydalanish talabalarni tayyorlashning barcha bosqichlarida: sinfda va mustaqil ravishda chet tilini o‘qitish jarayonini samarali takomillashtirish imkonini beradi. Zamonaviy internet resurslari xorijiy tillardagi ma’lumotlarni izlash va tahlil qilish, talabalarga turli ta’lim loyihalarini tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Multimedia taqdimoti o‘qituvchiga video fragmentlar yordamida materialni tushuntirishga imkon beradi. Axborot va o‘quv dasturlari o‘rganilayotgan mavzularning mazmunini modellashtirish va aniq ko‘rsatish imkonini beradi. Ushbu usulning barcha inkor etilmaydigan

afzalliklariga qaramay, ba’zi kamchiliklarni ta’kidlash kerak. Birinchidan, AKT darslarini ortiqcha yuklash va chet tilida o‘quv faoliyatini tashkil etishning boshqa shakllarini e’tiborsiz qoldirishda shaxslararo muloqotning ahamiyatini kamaytirib yuborish xavfi mavjud. Ikkinchidan, barcha ta’lim muassasalari zarur zamonaviy jihozlar bilan ta’minlanmagan. Bundan tashqari, vazifalarni bajarish ma’lum vaqt oralig‘ida cheklangan.

2. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi. Tanqidiy fikrlash - bu fikrlashning ma’lum bir turi bo‘lib, unda talaba o‘z gipotezalarini tasdiqlash uchun ma’lum dalillarni olishga harakat qiladi. "Tanqidiy fikrlashni biladiganlar ma’lumotni talqin qilish va baholashning turli usullariga, axborot oqimidagi qarama-qarshiliklarni aniqlash usullariga ega bo‘ladilar, oqilona fikr yuritadilar va nafaqat o‘zlarining, balki suhbatdoshining mulohazalarini ham baholaydilar" [3]. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagi pedagogik usullar qo‘llaniladi: aqliy hujum, test savollari usuli, savollar almashinuvi va boshqalar.

3. So‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitish jarayonida oliy ta’lim muassasalarida loyiha texnologiyasi keng qo‘llanila boshlandi. Bu o‘quv jarayonini individuallashtirish imkonini beruvchi kompleks o‘qitish usulidir. Biz ko‘rib chiqayotgan texnologiya chet tilidagi nutqiy muloqotni o‘rgatishda shaxsga yo‘naltirilgan e’tibor bilan tavsiflanadi va aniq amaliy maqsadga erishishga qaratilgan (insho, multimedia taqdimoti, teatrlashtirilgan tomosha, talabalar tadbiri va boshqalar). Loyiha o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning bilim faolligi va mustaqilligini oshirishga qaratilgan o‘qitishning bir qator texnika va usullarini ifodalaydi. Loyiha texnologiyalari bitta talaba tomonidan yoki birgalikda, og‘zaki yoki yozma shaklda amalga oshirilishi mumkin. Ushbu turdagi faoliyat turli bosqichlar shu jumladan, chet tilida ishlashning barcha asosiy turlari: o‘qish, tinglash, gapirish, yozish bilan tavsiflanadi.

Loyiha texnologiyasi quyidagi kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga yordam beradi: tafakkur, xotira, diqqat va o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyati. Albatta, loyiha asosida o‘qitish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradi va o‘quvchilarni faollashtiradi, shuningdek, talabalarda o‘zaro yordam, xayrixohlik, bag‘rikenglik kabi asosiy axloqiy qadriyatlarni rivojlantiradi. Ammo shuni esda tutish kerakki, chet tili kabi fanga nisbatan loyihalar uchun tegishli talablar ishlab chiqilgan. Birinchidan, talabalar bilan yakuniy natijalarni qanday shakllantirishni muhokama qilish kerak (taqdimotlar, himoyalar, ijodiy hisobotlar, namoyishlar va boshqalar). Ikkinchidan, olingan natijalarni to‘plash, tizimlashtirish va tahlil qilish. Shundan so‘ng xulosalar chiqarish, natijalarni tuzish va ularni taqdim etish. Yakuniy talab - xulosalar, yangi tadqiqot muammolarini aniqlashdan iboratdir.

4. Modulli baholash texnologiyasi.

Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda 60-yillarning oxirida o‘quv dasturlari paydo bo‘ldi, ularda talaba mustaqil ravishda bajarishi mumkin bo‘lgan aqliy harakatning ko‘rsatmalari va usullari mavjud. Ular ma’lum bir modular asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir modul ma’lumotlar bazasini va qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi maslahatchi va koordinator vazifasini bajaradi. O‘qituvchi topshiriqlarni bajarar ekan, natijalarni baholash uchun tegishli shkaladan foydalaniladi. Har bir ko‘rsatkichga kritik qiymat (minimal va maksimal qiymat) beriladi. Turli usullar (ekspert xulosalari) yordamida har bir ko‘rsatkichning roli aniqlanadi. Reyting modullarining afzalligi ularning soddaligidir. Kamchilik - bu ko‘rsatkichlarning qiymatlarini aniqlashda aniqlik yo‘qligidir. Bundan tashqari, barcha o‘quvchilar ushbu turdagi o‘quv faoliyatiga psixologik jihatdan tayyor emas va barcha talabalar Internetga kirish imkoniga ega emas. Reytingni nazorat qilish tizimining obyekti talabaning chet tili fanidan bilim va ko‘nikmalari, shuningdek, talabaning ijtimoiy faolligidir. Reytingning asosiy maqsadi: o‘quv faoliyatining turli yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarning motivatsiyasi darajasini oshirish, individual ta’lim dasturlarini qurish, oliy ta’lim muassasalari talablariga javob beradigan eng yaxshi mutaxassislarni maqsadli tayyorlashdan iborat.

XULOSA.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida ko‘rib chiqilgan pedagogik texnologiyalarning ayrim turlari ingliz tilini o‘qitish jarayonini moslashuvchan va samarali tashkil etish, o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini yaxshilash, shu orqali talabalarning kasbiy kompetentsiyasini oshirish, ularni mustaqillikni namoyon etishga undash, o‘zlashtirish usullarini izlash imkonini beradi. Ushbu ta’lim texnologiyalarini dars jarayonida maqsadli qo‘llash chet tillari, xususan ingliz tilini o‘qitish jarayonining samarali tashkil etilishiga, bu esa oxir-oqibatda talabalarni xorijiy tillar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Асташова Н. А. Развитие профессиональных ценностей у студентов в образовании педагогического профиля: технологический контекст / Н. А. Асташова, Е. А. Макарова // Школа будущего. — 2014. — № 6. — С. 47-53.
2. Безденежных Н. Н. Роль и место игровых технологий в обучении иностранному языку младших школьников. Проблемы современного педагогического образования. — 2022. — С. 41.
3. Безденежных Н.Н. Развитие критического мышления средствами иностранного языка в вузе / Н.Н. Известия Балтийской государственной

академии рыбопромыслового флота: психолого-педагогические науки. — 2020. — № 4 (54). — С. 137.
4. Гуслова М.Н. Инновационные педагогические технологии: Учебник / М.Н. Гуслова. — М.: Academia, 2018. —672 с.

KOMPYUTER LINGVISTIKASI FANIDA MASHINA TARJIMASINING AHAMIYATI

Sotvoldiyeva Nilufar
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Ilmiy jurnallar va tahririyat”
bo‘limi texnik muharriri
sotvoldiyevanilufar0@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda kompyuter lingvistikasi faning tarmoqlari o`rganilib, mashina tarjimasi bo‘yicha ilmiy qarashlar va amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mashina tarjimasi, lingvistik ta’minot, matn muharriri, elektron lug‘at, matematik algoritm.

Hozirgi ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan davrda, til, adabiyot va tarjimashunoslik sohalari ham jadal rivojlanib bormoqda. Ushbu fanlar bilan bir qatorda o‘sib borayotgan kompyuter lingvistikasi fani ham bundan mustasno emas. Tilni o‘qitish va o‘rganishni osonlashtiruvchi ilovalar, elektron dasturlar bugungi kunning eng oldi bilimlaridan biri deb qaralmoqda. Albatta, kompyuter lingvistikasi fani ana shu bilimlarning manbayidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev milliy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishini belgilab olishda ilm-fan rivojining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatar ekan, quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi: “... bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o‘z oldiga nafaqat ko‘plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o‘tish vazifasini qo‘ymoqda”[1] .

Hisoblash tilshunosligi deb ham ataladigan kompyuter lingvistikasi sohasi tilshunoslik va informatika kesishmasida hayotiy fan sifatida paydo bo‘ldi. Uning asosiy maqsadi kompyuterlarga tabiiy tilni tushunish, yaratish va manipulyatsiya qilish imkonini berish orqali odamlar va mashinalar o‘rtasidagi aloqani osonlashtirishdir. Kompyuter tilshunosligi turli xil ilovalar yaratishda, jumladan, mashina tarjimasida, nutqni aniqlashda, chatbotlar va ma’lumot qidirish tizimlarida muhim rol o‘ynaydi.

Mashina tarjimasi – bu bir tabiiy tildan ikkinchi tilga kompyuterlar yordamida tarjima qilishdir. Matematik lingvistika va amaliy tilshunoslik fanlari mashina tarjimasi bilan uzviy bog‘liq. Mashina tarjimasi dasturlari va tizimlarini yaratish ilmiy tadqiqotlar mahsuli hisoblanadi.

Mashina tarjimasi g‘oyasini ilk marotaba fransuz ixtirochisi J. Arsruni va undan mustaqil ravishda rus ixtirochisi P. P. Smirnov-Troyanskiylar 1933 yilda ilgari surishgan. Biroq uning rivojlanishi XX asrning 40-50 yillariga to‘g‘ri keladi. Mashina tarjimasi orqali matnlarni tarjima qilish va ularni tahlil qilish sintaktik va morfologik jihatdan o‘rganib chiqshni talab qiladi.

Mashina tarjimasi tizimini ma’lumotlar ombori bilan ta’minlash uchun quyidagi besh bosqichni amalga oshirish lozim.

- ✓ lingvistik ta’minot (matnni tahlil va sintez qilish uchun grammatik hamda semantik ma’lumotlarni beruvchi avtomatik lug‘atlar);
- ✓ matematik-algoritmik ta’minot (matnga ishlov berish algoritmlari va ma’lumotlar va algoritmlarni qayd qilish uchun qoidalar tizimi);
- ✓ dasturiy ta’minot (tarjima algoritmini amalga oshiruvchi va qo‘shimcha dasturlar);
- ✓ informatsion ta’minot (tegishli fan sohalariga doir ma’lumotlar bazasi);
- ✓ hamda mantiqiy ta’minot (matnni fan sohasiga doir ma’lumotlar bilan taqqoslash uchun mantiqiy xulosalar usullari) zarur bo‘ladi.

Mashina tarjimasida tarjima qilayotgan tilimizning semantik, grammatik va imloviy jihatlarini, strukturalarini o‘zida jamlagan maxsus dastur tuzib olishimiz kerak. Mashina tarjimasi natijalariga qarab zarur bo‘lsa inson omili yordamga keladi.

Mashina tarjimasini o‘rganish XX asr o‘rtalariga borib taqaladi va XX asrning 30-yillarida “tarjimon moshinalar” atamasi amalda qo‘llaniladi. O‘tgan asrning 90-yillariga kelib mashina tarjimasida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keldi. Mashina tarjimasining rivojlanishiga ikki omil: 1)tarjimaning kompyuterda modellashtirilgani; 2)mashina tarjimasining ijtimoiy maqsadda tillararo kommunikatsiyani ta’minlashga bo‘lgan imkoniyatning kengligi sabab bo‘ldi. 1948- yili R.Richans va A.But tomonidan mashina tarjimasi bo‘yicha dastlabki tajribalar o‘tkazildi. Shundan keyin moliyalashtirish ishlari boshlab yuborildi. Bu harbiylar tomonidan ma’qullandi. AQSHda ruscha-inglizcha, sobiq Ittifoqda inglizcha-ruscha matnlarni tarjima qilishga alohida e’tibor qaratildi.

“Turkiy tillar bo‘yicha ilk mashina tarjimasi Dorster boshchiligida amalga oshirilgan. Ingliz-turk tili mashina tarjimasi tizimida 700 ta so‘zshakldan iborat bo‘lib, lug‘at turk tili hamda ingliz tilidagi ekvivalentliklarning asos va suffikslari

ro‘yxatidan iborat bo‘lgan”[2]. 1956- yilda Moskvada Y.A.Motoring boshchiligida laboratoriya tashkil etildi. Shu laboratoriyada faoliyat yuritadigan yosh olimlardan biri Y.N.Marchuk 1958- yilda siyosiy va texnikaviy sohalardagi so‘zlarni tarjima qilib beruvchi mashina tarjimasi tizimini ishlab chiqadi. Keyinchalik olim “Mashina tarjimasi muammolari” nomli monografiyasini e’lon qiladi[3]. Boshqa olimlar esa mashina tarjimasi deklarativ bilimlardan iborat, ya’ni lingvist til faktlari tavsifini bazaga kiritganidan so‘ng matematik va dasturchi tomonidan tarjima algoritmi tuziladi [4] degan fikrga keladilar.

Yu.Apreysan “…inson psixikasida tushunchalarni yozib oluvchi va saqlovchi gipotetik til hamda semantikaning predmeti”, degan g‘oyani ilgari surdi. Biroq N.Z.Kotoleva tarjimaga asos bo‘luvchi tabiiy tilni hech qanday qolipga solib bo‘lmasligini va uni tizim sifatida o‘rganish kerakligini aytadi.

Matn muharriri, elektron lug‘at, barcha kerakli hujjatlarni kompyuter xotirasida saqlash imkoniyati tarjima jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish va uning sifatini oshirishga yordam berdi. Kompyuter texnologiyalarining rivojlanishi bilan leksikografiyada yangi tarmoq- kompyuter leksikografiyasi paydo bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т: Ўзбекистон., НМИУ, 2017. – Б.168
2. Мамедова М.Г., Мамедова З.Ю. Машинний перевод: эволюция и основной аспекти моделирования. – Баку, 2005. – С. 34.
3. Марчук Ю.Н. Проблем машинного перевода. – Москва, 1983.
4. Пиотровский Р.Г., Билан В.Н., Боркун М.Н., Бобков А.К. Методи автоматического анализа и синтеза текста. – Минск, 1985.

BANK SAMARADORLIGINI BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN AN'ANAVIY INDIKATORLAR

Valiyeva Feruzaxon Obidjon qizi
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistri

Annotatsiya. Ushbu tezisda bank samaradorligini baholashda qo'llaniladigan an'anaviy indikatorlar, hamda ushbu indikatorlarning qay darajada muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bank samaradorligi, samaradorlik ko'rsatkichlari, bank faoliyatini baholash, moliyaviy tahlil, bank ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik,

Bank samaradorligini baholashda foydalaniladigan an'anaviy indikatorlar moliyaviy institutlarning barqarorligi va iqtisodiy samaradorligini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar banklarning faoliyati, moliyaviy barqarorligi va rentabelligini baholashda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy indikatorlarga rentabellik (ROA va ROE), kapital yetarliligi (CAR), likvidlik, foiz marjasi (NIM), aktivlar sifati va bankning samaradorligi kiradi. Bu ko'rsatkichlar banklarning umumiy faoliyatini o'lchash va tahlil qilishda uzoq yillardan beri qo'llanilib kelinmoqda.

Rentabellik ko'rsatkichlari bankning aktivlar va aksiyadorlar kapitali foydaliligini aks ettiradi, kapital yetarliligi esa bankning majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko'rsatadi. Likvidlik ko'rsatkichlari bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash qobiliyatini baholaydi. Foiz marjasi bankning foiz daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi farqni o'lchaydi, aktivlar sifati esa bankning kredit portfelining sifatini ko'rsatadi. Tijorat banklarining samaradorligi resurslardan foydalangan holda foyda olish samaradorligini aniqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida banklarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirish uchun yangi indikatorlarni joriy etish zarurligi ta'kidlangan. 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6096-sonli "Bank-moliya tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni va 2021 yil 29 dekabrdagi PQ-75-sonli "O'zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Qarorlarda bank samaradorligini an'anaviy ko'rsatkichlar asosida baholash yetarli emasligi, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos keluvchi yangi indikatorlarni ishlab chiqish zarurligi belgilangan.

Bu jarayonning dolzarbligi shundaki, zamonaviy iqtisodiy sharoitlar va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan an'anaviy indikatorlarni yangilash va yangi yondashuvlarni qo'llash zaruriyat tug'ilmoqda. Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan

integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun amaldagi indikatorlarni takomillashtirish bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Prezident qarorlarida bank samaradorligini oshirish uchun yangi indikatorlarni joriy etish zarurligi ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi PF-6096-sonli "Bank-moliya tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida"gi Farmoni va 2021 yil 29 dekabrdagi PQ-75-sonli "O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida"gi Qarorida bank samaradorligini an’anaviy indikatorlar asosida baholash yetarli emasligi, zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga mos keluvchi yangi indikatorlarni ishlab chiqish zarurligi belgilangan.

Bu jarayonning dolzarbligi shundaki, zamonaviy iqtisodiy sharoitlar va raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga an’anaviy indikatorlarni yangilash va yangi yondashuvlarni qo‘llash zaruriyat tug‘ilmoqda. Bugungi kunda banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ularning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish uchun amaldagi indikatorlarni takomillashtirish, yangi va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, Prezident qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar doirasida bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bank sektorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Kapital yetarliligi (CAR) bankning o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini ko‘rsatib, uning moliyaviy barqarorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda, CAR ko‘rsatkichi 8% dan yuqori bo‘lishi talab etiladi, bu esa bankning risklarga bardosh bera olish qobiliyatini ta’minlaydi.

Likvidlik ko‘rsatkichlari bankning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyatini o‘lchaydi. Joriy likvidlik nisbati va tez likvidlik nisbati bankning naqd pul va tezkor aktivlar orqali qarzlarini qoplash qobiliyatini baholashda ishlatiladi. Ideal holda, joriy likvidlik nisbati 1.0 yoki undan yuqori bo‘lishi kerak, bu bankning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini ta’minlaydi.

Foiz marjasi (NIM) bankning foiz daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi farqni o‘lchaydi, bu ko‘rsatkich bankning foizli aktivlaridan qancha daromad olayotganligini aks ettiradi. Masalan, NIM ko‘rsatkichi yuqori bo‘lsa, bu bankning foizli aktivlardan samarali foydalanganligini bildiradi.

Aktivlar sifati bankning kredit portfelining sifati va xavflilik darajasini o‘lchashda ishlatiladi. Problemali kreditlar ulushi va zaxira fondlari darajasi bankning kredit risklarini boshqarish darajasini ko‘rsatadi. Odatda, problemali kreditlar ulushi 5% dan yuqori bo‘lmasligi kerak, bu esa bankning kredit xavflarini samarali boshqarayotganligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, "Bank tizimini isloh qilish bo‘yicha 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan strategiya". T.: 2020.
2. Yusupov, R. "O‘zbekistonda bank sektorining barqaror rivojlanishi". T.: Iqtisodiyot, 2019.
3. Xolmirzayev, A. "Bank tizimining moliyaviy barqarorligi: O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar". T.: Moliya, 2020.
4. Rajan, R.G. "Fault Lines: How Hidden Fractures Still Threaten the World Economy". Princeton University Press, 2010.
5. Demirgüç-Kunt, A., Detragiache, E. "Financial Liberalization and Financial Fragility". IMF Working Paper, 1998

TARIXIY VA BADIIY ASARDA IQTIBOS SAN'ATINING QO'LLANISHI ALISHER NAVOIY ASARLARI MISOLIDA

Ismoilova U.M.
ADU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi, magistr
E-mail: ashurovaumida199@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda iqtibos san'atining o'ziga xosliklari, uning badiiy va tarixiy matnda qo'llanishidagi farqlar Alisher Navoiy asarlari misolida ko'rib chiqiladi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, iqtibos, tarixiy asar, badiiy asar, g'azal, doston.

Abstract. In this thesis, the peculiarities of the art of quotation, the differences in its use in artistic and historical texts are considered and concluded on the example of Alisher Navoi's works.

Keywords: fine arts, quotation, historical work, artistic work, ghazal, epic.

Iqtibos san'atiga ilmi maoniyni o'rgangan ko'plab olimlar turlicha ta'rif berganlar. Husayn Voiz Koshifiy she'rda aynan, matniga o'zgartirish kirilmagan holda keltirilgan Qur'on oyatlari va hadislarni iqtibos deb hisoblagan. Atoulloh Husayniy esa Qur'on va hadisdan olingani holda manbasini aytmasdan matnda keltirilgan parchani iqtibos deya baholagan va uning to'rt xil ko'rinishini – aynan keltirilgan va mazmunga muvofiq tushgan, aynan keltirilgan, ammo boshqa mazmunni ifodalovchi, qisman o'zgargan va mazmunga mos keladigan hamda ham shaklan, ham mazmunan o'zgarishga uchragan holatini tasniflagan. Uning lug'aviy va istilohiy ma'nosiga esa quyidagicha ta'rif bergan: "Iqtibos lug'atta ilm o'zlashtirmoqtur va o't olmoq ma'nosinda ham keliptur. Atash vajhi birinchi ma'nosig'a ko'ra zohirdur, ikkinchi ma'nosig'a ko'ra Qur'on va hadisni nur va ayshu surur vositalarin hozirlamoqta o'tqa o'xshatmoqtur va alardin bir nimani

kalomg'a aning ziynatu ravnaqi uchun kiritmakni nur va ayshu surur vositalarin hosil qilmoq uchun o't olmoqqa o'xshatmoqtur"[25]. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, iqtibos san'atining asosiy vazifalaridan biri aytilayotgan fikrning jozibasini orttirish, uni muqaddas manbalardan olingan parchalar vositasida "ziyolantirish"dir. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, iqtibos faqatgina aytilayotgan fikrni yanada ziynatlash uchungina emas, balki uni rad etib bo'lmas haqiqat darajasiga ko'tarish va dalillash maqsadida ham qo'llanilishi mumkin. Bunday holat, asosan, din tarixi yoki payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan asarlarda ko'zga tashlanadi. Misol sifatida Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan iqtiboslardan biriga e'tibor qaratamiz: "Muxtasari budurkim, Yunon mulkida Aqsus shahrida Daqyonus otlig' maliki jabbor bor emishkim,.. uluhiyyat da'vosi qilur ermish. Va bu as'hobi kahf, ba'zi rivoyat bila aning mulkining buzurgzodalari va ba'zi rivoyat bila, navvob va mulozimlari ermishlar va musulmon erkandurlar... Daqyonus bu holdin voqif bo'lub, alarning qatli fikrida bo'lmish. Alar bu holni ma'lum qilib, ittifoq birla shahrlaridin qochib,.. qo'ychi dag'i alarg'a qo'shulub, qo'ychining iti ham erishib, Rahim otlig' g'orga kirmishlar. Va alarning adadida taraddud bor, nachukkim, "Kalomi majid" xabar berurkim, "sayaquluna salosatun robiuhum kalbuhum va yaquluna xamsatun sodisuhum kalbuho'm rajman bilg'aybi va yaquluna sab'atun sominuhum kalbuhum""[26]. Keltirilgan parchada as'hobi kahfning zolim podshohdan qochib, g'orga berkinganlari va u yerda qancha muddat qolganlari bayon qilinib, bu ma'lumotning manbasi sifatida Qur'oni karimning "Kahf" surasi 22-oyati ko'rsatilgan va bu iqtibos o'z o'rnida aytilayotgan fikrni muqaddas manbalar vositasida dalillash vazifasini bajargan.

Endi iqtibosning badiiy matnda qo'llanish holatiga nazar tashlasak. Alisher Navoiy o'zining badiiy ruhdagi asarlarida iqtibosni aksariyat hollarda butunicha emas, balki bir qismini keltiradi yoki o'sha iqtibos manbasiga ishora qiladi. Masalan, "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi 535-g'azalda keltirilgan iqtibosni olaylik:

Yo falak berdi yig'i, ko'r aylagan Ya'qubning
Ko'zlari ochilmoq uchun mohi Kan'on mujdasin.[27]

Ushbu baytda yorining hajrida ko'zlari Ya'qub alayhissalom singari ko'r bo'lib qolgan oshiq yorining vasli xushxabarini eshitgandan so'ng qorachiqlariga nur qaytgani ifodalangan va iqtibos sifatida "Yusuf" surasining 96-oyatiga ("Xushxabarchi kelgan chog'ida, u(ko'ylak)ni uning yuziga tashlaganida, yana ko'radigan bo'ldi...") ishora qiladi. Ya'ni oshiqning holi xuddi o'g'li Yusufning

[25] Ҳусайний А. Бадойиъ ус-санойиъ.Т.,1981.Б.243
[26] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 16-жилд.Т.,2000.Б.178
[27] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд.Т.,2000.Б.420

hajrida yig'layverganidan ko'r bo'lib qolgan Ya'qub alayhissalomga o'xshaydi. Kan'ondan keltirilgan o'g'li Yusuf alayhissalomning ko'ylagini ko'zlariga surtgan otaning yana ko'rish imkoniga ega bo'lishi esa yor vasliga yetish xushxabarini eshitgan oshiqning ko'zlariga yana nur qaytishiga qiyoslanadi. Ayni Atoulloh Husayniyning ta'rifida keltirilgani kabi muallif oyatning nuridan baytning ziynati uchun ustalik bilan foydalanadi va bu orqali ham asarning o'qishliligini ta'minlaydi, ham o'z badiiy mahoratini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni karim.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. I жилд. Фан – Т.:2000.
3. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XVI жилд. Фан – Т.:2000.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъ ус-санойиъ. Адабиёт ва санъат нашриёти – Т.:1981.
5. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, O.Davlatov. Navoiyshunoslik. Tamaddun – T.:2018.

"TARIXI ANBIYO VA HUKAMO" ASARIDAGI SHE'RIY PARCHALAR BADIIYATI

Ismoilova U.M.
ADU Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi, magistr
E-mail: ashurovaumida199@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda "Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan she'riy parchalarning badiiyati, ularda foydalanilgan badiiy san'atlar va ushbu she'riy parchalarning asar mazmuniga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy san'atlar, tazod, tashbeh, talmeh, bayt, payg'ambarlar hayoti, badiiy mahorat.

Abstract. The thesis talks about the aristry of the poetic fragments presented in the work "Tarihi anbiyo va hukamo", the artistic arts used in them and the effect of these poetic fragments on the content of the work.

Keywords: fine arts, tazad, tashbeh, talmeh, verse, life of prophets, literary skill.

Alisher Navoiy deganda hayolimizda, asosan, u zotning boy lirik merosi, muhtasham "Xamsa"si, badiiy qimmati-yu g'oyaviy mazmuni bir-biridan go'zal bo'lgan g'azallari, pand-nasihatga boy qit'a-yu ruboiylari gavdalanadi. Ammo, shuni ham yoddan chiqarmaslik kerakki, Alisher Navoiy qomusiy olim sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik, tazkirachilik, xalqlar va dinlar tarixi haqida ham e'tiborga molik asarlarni yozib qoldirgan. Bu asarlar ilmiy, ijtimoiy yoki didaktik

ruhda yozilganiga qaramay, ularda shoir nafasi sezilib turadi. So’z yuritadiganimiz – “Tarixi anbiyo va hukamo” asari haqida ham ayni fikrni bildirishimiz mumkin.

Nomidan ma’lum bo’ladiki, asar anbiyolar, ya’ni payg’ambarlar va hakimlar hayoti haqidagi qissalarni o’z ichiga oladi, she’riy parchalarning asosiy qismi esa har bir qissaning nihoyasida o’sha qissadan olingan kichik xulosa sifatida keltirilgan. Shuningdek, she’riy parchaning qissa matni ichida keltirilgan holatlari ham mavjud va bu parchalarning aksariyatiga nom berilmagan. Ulardan farqli ravishda qissalar so’nggida berilgan she’riy parchalarga bayt, ruboiy, she’r, nazm, masnaviy kabi nomlar berilgan. Olti qatordan iborat bo’lgan lirik parchaga masnaviy deb nom berilgan. To’rt qatorli parchalarning o’n yettitasiga ruboiy nomi berilgan va ularning barchasi taronai ruboiy shaklida yozilgan. Ikki qatorli va to’rt qatorli yigirma oltita parcha esa she’r nomi ostida keltirilgan. Shuningdek, asarda bir dona nazm va bir dona bayt nomli she’riy parcha mavjud.

She’riy parchalarga turli xil nom berilganiga qaramasdan ularning barchasi so’z yuritilgan qissaning xulosasi yoki undan olingan ibrat mazmunida yozilgan. Misol uchun,

Ming yil dog’i sursa edi davronni Anush,
Ham aylagusi edi ajal jomini no’sh.[28]

Keltirilgan parchada Anushning ham boshqa podshohlar singari bir kun kelib vafot etishini ta’kidlash orqali o’limning haq ekanligi xulosalanayotgan bo’lsa, quyida keltiradigan Yaratganga sheriklikni da’vo qiladigan odamning taqdiri ayanchli yakun topishi haqidagi parchamiz o’quvchi uchun ibrat mazmunida yozilgan:

Dushmani xoksor johilkim,
Haqqa da’voyi ishtirok etti.
Ko’rki, Haq g’ayratin ne nav’ oni,
Sarzanishlar bila halok etti.[29]

Berilgan lirik parchalar g’oyat mazmundor ekanligi bilan bir qatorda badiiy san’atlardan mahorat bilan foydalanilgan. Asar mumtoz she’riyatda faol tilga olinadigan tarixiy shaxslar hayoti haqida bo’lganligi vajhidan she’riy parchalarda talmeh badiiy san’atini tez-tez uchratishimiz mumkin:

Gar Ibrohimu Ismoil bo’lsun,
Ki, Haq amrin qabul etmak keraktur.
Bu foniy dayrda chun qildi manzil,
Turub bir necha kun ketmak keraktur.[30]

[28] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.101
[29] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.114
[30] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.117

Ma’lumki, Haq taolo Ibrohim alayhissalomga iymonini sinovdan o’tkazish uchun o’g’li Ismoil alayhissalomni qurbonlik qilishni buyuradi. Ibrohim alayhissalom ham, u zotning o’g’illari ham Yaratganni amriga itoat etishadi va Alloh taolo ularning bu taqvosini taqdirlab, Ismoil alayhissalomning o’rniga qurbon qilish uchun jannatdan qo’y tushiradi. Muallif ushbu holatni o’quvchiga ibrat sifatida keltirib, Haqqa itoatda ibrat bo’luvchi Ibrohim-u Ismoil alayhimussalomlardek insonlar ham bu dunyoda foniylik maqomida yashaganlarini talmeh san’ati vositasida bayon etadi.

Muallif asardagi she’riy parchalarda tazod she’riy san’atidan ham ustalik bilan foydalangan. Fikrimizning dalili o’laroq quyidagi misralarni keltirishimiz mumkin:

Yigitlig’da yig’ ilmning mahzani,
Qarilig’ chog’i xarj qilg’il ani.[31]

Bilamizki, inson yoshlik chog’ida aqli butun, jismi tetik bo’ladi, o’rgangan ilmi toshga o’yilgan naqsh misoli xotiriga muhrlanadi. Qarilik esa o’zi bilan zaiflikni keltiradi, odamning darmonini quritadi. Yuqoridagi misralar orqali shoir o’quvchini yoshlik chog’ida ilm xazinalarini yig’ishga, qarigan chog’ida o’sha xazinani rohat-farog’atda xarjlashga chaqiradi va bu fikrni yoshlik – qarilik, yig’moq – xarj qilmoq so’zlarini bir-biriga qarshi qo’yish orqali tazod san’ati vositasida ifodalaydi.

Shuningdek, qissada keltirilgan ma’lumotlarning she’riy parchada tashbeh san’atini hosil qilishdagi ishtiroki ham tahsinga sazovordir:

Olamni Sulaymong’a haq etmish ma’mur,
Hukmi soldi jinu bashar xaylig’a sho’r.
Oxir chu ajal anga maqom ayladi go’r,
Tufroq ichida qildi vatan o’ylaki mo’r.[32]

Shon-shavkat va boylik timsoli bo’lgan Sulaymon alayhissalomning chumolilar shohi bilan qilgan suhbati keltirilgan qissa yakunida ibrat mazmunidagi ruboiyni tashbeh san’ati bilan bezashga xizmat qilgan.

Asarda yuqoridagi keltirilganlardan tashqari ishtiqoq, tamsil, istiora, radd us-sadr ilal-ibtido, radd ul-xashv ilal-ajuz singari badiiy san’atlar ishtirok etgan she’riy parchalar ham talaygina.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy nasriy asarlarda she’riy parchalarni keltirish orqali o’quvchida asarga nisbatan yanada ko’proq qiziqish uyg’otadi. Ushbu sh’erlarda qo’llanilgan badiiy san’atlar esa parchaning badiiy saviyasini orttirish, uni oddiy she’r darajasidan san’at darjasiga ko’tarib,

[31] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.192
[32] Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами.16-жилд.Т.,2000.Б.165

o’quvchiga estetik zavq bag’ishlash va shu orqali asarning ta’sirini oshirishga xizmat qiladi hamda ijodkorning badiiy mahorati ko’zgusi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XVI жилд. “Тарихи анбиё ва ҳукамо”. Фан. Нашрга тайёрловчи Латиф Халилов – Т.:2000.
2. Ёқубжон Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. Зарқалам. – Т.:2006.

PEGANUM HARMALA L.(ISIRIQ)NING FLAVONOID TARKIBINI TEKSHIRISH

Inobiddinova Shaxnoza Valiyevna
Farg‘ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Farg‘ona hududida o‘suvchi Peganum harmala L.(isiriq) o‘simligining tarkibidagi flavonoidlarini xromotografiya usulida xromatograf - Agilent Technologies 1260 yordamida tekshirildi. Natijalarga ko’ra o‘simlik tarkibida 6ta asosiy flavonoidlar mavjud. Ulardan Apigenin flavonoidi miqdori qolgan flavonoidlarga nisbatan ko‘p chiqdi.

Kalit so‘zlar: Peganum harmala, flavonoidlar, Apigenin, xromotografiya, Agilent Technologies 1260.

Kirish. Peganum harmala, odatda yovvoyi rue, Suriya rue, Afrika rue, esfand yoki espand, yoki harmel, (boshqa shunga o‘xshash talaffuz va imlolar qatorida) ko‘p yillik, o‘tsimon o‘simlikdir.[1] Nitrariaceae oilasiga mansub yog'ochli er osti ildizpoyasi bilan, odatda mo‘'tadil cho‘l va O‘rta er dengizi mintaqalarida sho‘rlangan tuproqlarda o‘sadi. Uning umumiy ingliz tilidagi nomi ruega o‘xshashligi sababli paydo bo‘ldi (u bilan bog'liq emas). [2]Uni iste'mol qilish chorva mollarining kasallanishi yoki o‘limiga olib kelishi mumkinligi sababli, bir qator mamlakatlarda u zararli begona o‘t hisoblanadi. Amerika Qo‘shma Shtatlarining g'arbiy qismidagi ba'zi hududlarda u invaziv turga aylandi. O‘simlik Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika xalq tabobatida mashhur. O‘simlik tarkibidagi alkaloidlar, shu jumladan urug'lar monoamin oksidaz inhibitörleridir (Harmin, Harmalin).[3]

Material va metodlar. Peganum harmala L.(isiriq) o‘simligini dastlab ekstraksiya jarayoniga tayyorladik. Adabiyotlarni o‘rganish jarayonida o‘simlikning ustki qismida flavonoidlar uchrashligini bilgan holda o‘simlikning qurtiligan gullaridan ekstrak tayyorlandi. So‘ngra uning tarkibida flavonoidlar mavjud yoki mavjud emasligini tekshirish maqsadida sifat tahlili o‘tkazildi.[4]

Ekstrakt bir necha tomchi 10% ammiak eritmasi bilan ishlov berildi va sariq rang hosil bo‘lishi flavonoidlarning mavjudligini ko‘rsatdi.

Shunga asoslangan holda xromotografiya usulida xromatograf - Agilent Technologies 1260 yordamida tekshirildi. Tekshrish natijasida quyidagi flavonoidlar aniqlandi.

Nomi	Flavonoidlar miqdori mg/100g					
	Lyuteolin	Rabinin	Apigenin	Izoramnetin	Giperazid	Kaempferol
Gulli	0,742	14,148	27,161	12,325	3,242	3,264

Yuqoridagi 2.1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki peganum harmala L.(isiriq) o‘simligi gullining tarkibida eng ko‘p miqdorda Apigenin flavonoidi mavjud.



Bundan tashqari, xromotografiyada yuqorida keltirilgan 6ta flavonoidning aniqlanish spketrlari berilgan.

Xulosa: Peganum harmala (isiriq) o‘simligi tarkibi xromotografiya usulida xromatograf - Agilent Technologies 1260 yordamida tekshirilganda flavonoidlar aniqlandi. Tarkibda 6 ga yaqin flavonoid mavjud va eng ko‘p uchraydigan flavoidlar bu Apeginin flavonoiddir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ghafoor, Abdul (1974). Nasir, E.; Ali, S. I. (eds.). Flora of Pakistan, Vol. 76 Zygophyllaceae. Karachi: Missouri Botanical Garden Press and the University of Karachi. p. 7.
2. Danin, Avinoam; Fragman-Sapir, Ori (2019). "Peganum harmala L. – Flora of Israel Online". Flora of Israel Online. Avinoam Danin. Retrieved 7 February 2019.
3. Liu, Yingxin; Zhou, Lihua (18 April 2008). "Peganaceae". In Zhengyi, Wu; Raven, Peter H.; Deyuan, Hong (eds.). Flora of China, Vol. 11. Beijing: Science Press. p. 43.
4. Davison, Jay; Wargo, Mike (2001). Recognition and Control of African Rue in Nevada (PDF). University of Nevada, Reno. OCLC 50788872
5. "Peganum harmala – harmal". Flowers of India. Retrieved 19 February 2019.

TIJORAT BANKLARINING BIZNES MODELLARINI MAKROIQTISODIY MUHIT SHAROITLARIGA MOSLASHTIRISH: INTEGRATSIYALANGAN YONDASHUV

Ibragimov Shoxrux
O’zbekiston Respublikasi
Bank-Moliya akademiyasi
mutaxassisligi 2 – kurs magistranti

Annotatsiya.: Ushbu maqolada tijorat banklarining biznes modellarini makroiqtisodiy muhit sharoitlariga moslashtirish strategiyalari tahlil qilinadi. Makroiqtisodiy o'zgarishlar, jumladan, inflyatsiya, foiz stavkalari, iqtisodiy o'sish sur'atlari va regulyator talablarining bank faoliyatiga ta'siri o'rganiladi. Kredit siyosati, foiz stavkalari boshqaruvi, likvidlikni nazorat qilish va raqamli transformatsiyaning banklar uchun ahamiyati ko'rsatiladi. Grafiklar va jadvallar orqali tijorat banklarining diversifikatsiyalashgan kredit portfeli, likvidlik ko'rsatkichlari va raqamli texnologiyalarning rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maqola tijorat banklari uchun barqaror va moslashuvchan biznes modelini shakllantirishda qo'llaniladigan usullarni batafsil yoritadi.

Kalit so’zlar: likvidlik boshqaruvi, tijorat banklari, biznes model, makroiqtisodiy muhit, kredit siyosati, foiz stavkalari, raqamli transformatsiya, risklarni boshqarish.

Annotation. This article analyzes strategies for adapting commercial banks' business models to macroeconomic conditions. It examines the impact of macroeconomic changes, including inflation, interest rates, economic growth, and regulatory requirements, on banking activities. The importance of credit policy,

interest rate management, liquidity control, and digital transformation for banks is highlighted. Graphs and tables provide insights into diversified credit portfolios, liquidity indicators, and the growth dynamics of digital technologies in the banking sector. The article details methods for developing a stable and adaptable business model for commercial banks.

Keywords: Commercial banks, business model, macroeconomic environment, credit policy, liquidity management, interest rates, digital transformation, risk management.

Аннотация. В данной статье анализируются стратегии адаптации бизнес-моделей коммерческих банков к макроэкономическим условиям. Рассматривается влияние макроэкономических изменений, включая инфляцию, процентные ставки, экономический рост и регуляторные требования, на банковскую деятельность. Подчеркивается важность кредитной политики, управления процентными ставками, контроля ликвидности и цифровой трансформации для банков. Графики и таблицы предоставляют информацию о диверсифицированных кредитных портфелях, показателях ликвидности и динамике роста цифровых технологий в банковском секторе. В статье подробно описываются методы разработки стабильной и адаптивной бизнес-модели для коммерческих банков.

Ключевые слова: Коммерческие банки, бизнес-модель, макроэкономическая среда, кредитная политика, управление ликвидностью, процентные ставки, цифровая трансформация, управление рисками.

Tijorat banklarining muvaffaqiyati, ularning makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga qanday moslashishiga bog'liq. Bunday o'zgarishlar ichida inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, foiz stavkalari, valyuta kurslari va regulyator siyosatlari kabi asosiy omillar mavjud. Banklar o'z biznes modellari va strategik rejalarini ushbu makroiqtisodiy sharoitlarga moslashtirish orqali o'z barqarorligini ta'minlaydi va daromadli faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Banklar biznes modelini moslashtirishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishlari lozim:

1. Kredit siyosati va risklarni boshqarish

Kredit portfeli tijorat banklarining asosiy daromad manbai hisoblanadi. Makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi, ayniqsa iqtisodiy inqiroz davrida, kredit xavfini oshirishi mumkin. Banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali risklarni kamaytiradi va mijozlar uchun kredit berish siyosatini iqtisodiy o'zgarishlarga moslashtiradi.

Diagramma 1: Kredit portfelining diversifikatsiyasi (Turli iqtisodiy sektorlar bo'yicha ajratilgan kreditlar)

Sektor	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)
Iste'mol krediti	35	40	38
Sanoat	25	22	24
Xizmat ko'rsatish	15	16	18
Qishloq xo'jaligi	10	9	8
Boshqa	15	13	12

Diagramma tahlili: Kredit portfelining diversifikatsiyasi banklarning iqtisodiy inqirozlardan himoyalanishiga yordam beradi. Kreditlar turli iqtisodiy sektorlar bo'yicha taqsimlanishi orqali banklar iqtisodiy o'zgarishlardan kamroq zarar ko'radi.

2. Likvidlik va kapital boshqaruvi

Makroiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar banklarning likvidlikka bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Inflyatsiyaning oshishi yoki iqtisodiy faollikning kamayishi likvidlik inqirozlariga olib kelishi mumkin. Banklar qisqa muddatli va uzoq muddatli moliyaviy resurslarni balanslash orqali likvidlik xavfini kamaytirishi lozim.

Diagramma 2: Tijorat banklarida likvidlik ko'rsatkichlari dinamikasi (2021-2023)

Ko'rsatkich	2021 (%)	2022(%)	2023(%)
Likvid aktivlar	25	27	29
Qisqa muddatli majburiyatlar|	15	13	12
Uzoq muddatli majburiyatlar	60	60	59

3. Foiz stavkalari siyosati va narxlanish

Foiz stavkalari makroiqtisodiy muhitdagi eng dinamik o'zgaruvchilardan biri hisoblanadi. Banklar depozitlar va kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini makroiqtisodiy siyosatga moslashtirishlari lozim. Bu ular uchun raqobatbardoshligini saqlab qolish va barqaror daromadni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Jadval 1: Foiz stavkalarining iqtisodiy o'sishga ta'siri (O'zbekiston misolida)

Yil	Yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sish sur'ati (%)	O'rtacha kredit stavkasi (%) |
2021	4.5	18
2022	3.8	19
2023	4.2	17.5

Jadval tahlili: YIM o'sish sur'ati va foiz stavkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ko'rsatilgan. Foiz stavkalarining pasayishi iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, chunki u kredit olish imkoniyatlarini kengaytiradi va iqtisodiy faollikni oshiradi.

4. Raqamli transformatsiya

Raqamli texnologiyalar banklar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Banklar fintech startaplar bilan hamkorlik qilib, mijozlarga xizmat ko'rsatishni optimallashtirishlari mumkin. Bu esa nafaqat xarajatlarni kamaytirishga, balki raqobatbardosh ustunlikka ega bo'lishga ham xizmat qiladi.

Diagramma 3: Banklarda raqamli xizmatlardan foydalanishning o'sishi (2020-2023)

Yil	Mobil banking foydalanuvchilari (%)	Onlayn kreditlar (%)
2020	25	10
2021	40	15
2022	55	20
2023	70	30

Diagramma tahlili: Banklar o'z xizmatlarini raqamlashtirish orqali mijozlar sonini oshiradi va onlayn xizmatlarni kengaytiradi. Raqamli texnologiyalar iste'molchilarning tezkor va qulay xizmatlardan foydalanish talablarini qondiradi.

Xulosa. Tijorat banklari makroiqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga moslashish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi mumkin. Banklar kredit siyosati, foiz stavkalari, likvidlik boshqaruvi va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'z biznes modellarini takomillashtiradilar. Bu jarayonlar nafaqat banklar faoliyatini mustahkamlashga, balki iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishga ham xizmat qiladi.

O'ZINI O'ZI BAND QILUVCHI JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING AQSH TAJRIBASI VA UNDAN SOLIQ SIYOSATIMIZDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Sotimov Dostonbek Qahramon o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi bank moliya akademiyasi tinglovchisi
+998 94 309 17 71
sotimovf@mail.ru

O‘zini o‘zi band qiluvchi shaxslar soliq tizimining muhim ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ular davlatning soliqqa tortish siyosatida alohida ahamiyatga ega, chunki ular o‘z daromadlarini mustaqil boshqaradi va o‘z soliq majburiyatlarini bajaradi. Dunyoning ko‘plab mamlakatlari, xususan, AQShda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun maxsus soliqqa tortish tartibotlari mavjud. Ushbu maqolada AQShning o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish bo‘yicha tajribasi ko‘rib chiqiladi va uning O‘zbekiston soliq siyosatida qanday qo‘llanishi mumkinligi tahlil qilinadi.

O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar o‘sish dinamikasi



2024-yil 1-sentabr holatiga – o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar 3,9 mln nafardan oshdi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,8 % ga (1,9 mln nafar) ortiq.

O‘sish ko‘rsatkichi eng yuqori sohalar (01.09.2023-yilga nisbatan):

- maishiy xizmatlar – 150,8 % (984,1 mingta);
- ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish – 137,3 % (212 mingta);

- axborot-kommunikatsiya – 116,3 % (54,1 mingta).

O‘zini o‘zi band qiluvchi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning AQSh tajribasi.

AQShda o‘zini o‘zi band qiluvchi shaxslar uchun soliqqa tortish tizimi aniq va tartibli bo‘lib, davlat tomonidan tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. AQSh soliq tizimi quyidagi asosiy elementlarga ega:

Soliq stavkasi va asosiy printsiplar

AQShda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar, odatda, federal daromad solig‘i va ijtimoiy sug‘urta soliqlarini to‘laydilar. Federal daromad solig‘i daromadga qarab progressiv stavkalar asosida hisoblanadi. Shu bilan birga, ular o‘z daromadlaridan chegirmalar va imtiyozlar olish imkoniyatiga ega.

Ijtimoiy sug‘urta soliqlari esa o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan to‘liq hajmda to‘lanadi, ya’ni ular yollangan ishchilardan farqli ravishda ijtimoiy to‘lovlarni o‘zlari to‘laydi (odatda, ishchilar bu soliqlarning yarmidan faqatgina bir qismini to‘laydilar).

Soliq imtiyozlari va chegirmalar

AQShda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar soliq to‘lashda turli imtiyozlar va chegirmalardan foydalanishi mumkin. Masalan:

Biznes xarajatlari chegirmalari: O‘zini o‘zi band qilganlar o‘z faoliyatlarini amalga oshirish uchun sarflagan xarajatlarni daromad solig‘idan chegirib tashlashlari mumkin. Bu xarajatlarga transport, ofis jihozlari, marketing xarajatlari va boshqalar kiradi.

Sog‘liqni saqlash sug‘urtasi: O‘zini o‘zi band qilgan shaxslar sog‘liqni saqlash sug‘urtasi uchun to‘lagan mablag‘larini daromad solig‘idan chegirib tashlashi mumkin. Bu ularning soliqqa tortilish darajasini pasaytiradi va faoliyatlari bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi.

Uy ofisi chegirmalari: Agar shaxs o‘z uyida ofis sifatida foydalanadigan xonani ishlatsa, u bu xarajatlarni ham soliqqa tortish bazasidan chiqarishi mumkin.

Soliqni deklaratsiya qilish va to‘lash jarayoni

AQShda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar daromadlarini yillik soliqqa tortish deklaratsiyasi orqali bildiradilar. Ular odatda har chorakda avans to‘lovlarini amalga oshiradilar, bu esa soliqlarni yil oxirida to‘lash uchun to‘plangan yukni kamaytiradi. Ushbu tizim shaxslarning soliqqa tortish jarayonini aniq va tartibli qilishga yordam beradi.

Ijtimoiy sug‘urta va Medicare soliqlari

AQShda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar faqat federal va davlat daromad solig‘ini to‘lab qolmasdan, balki ijtimoiy sug‘urta va Medicare soliqlarini ham o‘z daromadlariga mos ravishda to‘lashadi. Bu to‘lovlar o‘ziga xos xususiyatga ega

bo‘lib, ular o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning kelajakdagi pensiya va tibbiy xizmatlardan foydalanishiga imkon beradi.

O‘zbekiston soliq siyosatida foydalanish imkoniyatlari

AQSh tajribasi O‘zbekiston soliq siyosatini o‘zini o‘zi band qiluvchi shaxslar uchun soddalashtirishda va ularni qo‘llab-quvvatlashda foydali bo‘lishi mumkin. Ushbu tajribani qo‘llash quyidagi yo‘nalishlarda amaliy natijalar berishi mumkin:

1. Oddiylashtirilgan soliqqa tortish tizimini joriy etish

O‘zbekiston soliq tizimida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun soddalashtirilgan soliq to‘lash tizimi yaratish AQSh tajribasiga asoslanishi mumkin. Masalan, o‘zini o‘zi band qilganlar o‘z faoliyatidan olgan daromadlari uchun maxsus soliq stavkasini qo‘llash va turli hujjat topshirish talablarini kamaytirish orqali soliqqa tortish jarayonini yengillashtirish mumkin. Bu jarayon soliq to‘lovchilar uchun qulay va shaffof bo‘lishi kerak.

2. Soliq imtiyozlarini kengaytirish

AQShda mavjud bo‘lgan soliq imtiyozlaridan foydalangan holda, O‘zbekistonda ham o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish mumkin. Masalan, biznes xarajatlarini soliqqa tortishdan chegirib tashlash imkoniyatini kengaytirish, uy ofisi xarajatlarini soliqqa tortish bazasidan chiqarish va sog‘liqni saqlash sug‘urtasini soliqqa tortishdan chiqarish orqali tadbirkorlarni rag‘batlantirish lozim.

3. Raqamli soliq to‘lov tizimlarini joriy etish

AQShda o‘zini o‘zi band qiluvchilar uchun soliqqa tortish jarayonlari raqamlashtirilgan. O‘zbekistonda ham raqamli soliq to‘lov tizimlarini joriy qilish orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun soliqqa tortish jarayonini onlayn platformalar orqali boshqarish mumkin bo‘ladi. Bu tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar uchun soliqqa tortishni osonlashtiradi va davlatga ham soliqlarni to‘plash jarayonini optimallashtirishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimlarini rivojlantirish

AQSh tajribasida o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar ijtimoiy sug‘urta soliqlarini to‘laydi va pensiya va tibbiy sug‘urta tizimlaridan foydalanadi. O‘zbekistonda ham bu tajribani qo‘llash orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun ijtimoiy himoya va sug‘urta tizimlarini rivojlantirish, ular uchun pensiya to‘lovlarini ta’minlash, tibbiy sug‘urta dasturlarini kengaytirish lozim.

O‘zini o‘zi band qiluvchi jismoniy shaxslar soliq tizimining asosiy ishtirokchilari sifatida iqtisodiyotda muhim o‘rin egallaydi. AQShning o‘zini o‘zi band qilganlar uchun soliqqa tortish tajribasi O‘zbekiston soliq siyosatini yanada takomillashtirishda foydali bo‘lishi mumkin. Xususan, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq imtiyozlarini kengaytirish va raqamli tizimlarni joriy qilish

orqali tadbirkorlarni yanada rag‘batlantirish mumkin. Bu nafaqat soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

KINO SAN`ATINING KECHASI, BUGUNI VA KINOMATOGRAFIYANING HAYOTIMIZDAGI O’RNI

Matqurbonova Iqlima Qadamboy qizi
O`zbekiston Davlat San`at va Madaniyat Instituti Nukus filiali
San`at Tarixi va Nazariyasi ( Kinoshunoslik ) bo`limi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Kino san`ati tarixi va kinomatografiyaga tanqidiy nazar.

**Kalit so`zlar**: kino san`ati, tarix, tahlil, tanqid, nazariya.

Kino bu hayotimizning bir bo`lagidir! Kinodagi har bir voqelikda hayotiy dalillar va tomoshabinni o`ziga tortuvchi sujet mujassam.

Kino san`ati – kinomatografiyaning texnik vositalar asosida shakllangan badiiy ijod turi; ya`ni ekran san`atining muhim tarkibiy qismi real borliqni aynan yoki badiiy hujjatli obrazlar, multiplikatsiya vositalari yordamida suratga olish va kinofilmlarni ommaga keng tarqalishi uchun xizmat qiladigan televideniye, videokasseta va videodisklarni ham qamrab oladi. Kino san`ati tarixi 1895-yillarga borib taqaladi. Ushbu yilning 28-dekabrida aka-uka Lyumerlar bu san`at uchun ilk qadamlarni qo`yishgan. Kino - teatr, tasviriy san`at, adabiyot, musiqa san`atlarining uyg`unlashuvi asosida fotografik tasvir orqali namoyish etiladi. Bu san`at turi ommaning ham ma`nan, ijtimoiy- siyosiy jihatdan yuksalishi uchun ko`makchidir!

Kino san`ati asarlarining dunyoga kelishi o`z navbatida yozuvchi -dramaturg, rejissor, aktyor, operator, rassom, kompozitor kabi ijodiy xodimlarning tinimsiz mehnati samarasidir. O`zbekistondagi birinchi film 1897- yili ,, Eski Jo`va`` maydonida ko`rsatilgan. 1908 - yildan e`tiboran Respublikamizning boshqa viloyatlarida ham namoyish etila boshlangan. O`zbek milliy kino san`atiga ilk tamal toshini xx-asrning 20- yillarida Xudoybergan Devonov qo`ygan. U o`zining hujjatli Xronikal filmlarida xalqimiz hayoti, urf-odatlari, Xorazm manzaralarini aks ettirgandi.

Kino san`ati kun sayin takomillashib, rivojlanib tarixiy , maishiy mavzulardagi filmlar ham suratga olina boshlandi. ,, Tohir va Zuxra``( 1945-yil rejissor N. G`aniyev), ,,A.Navoiy`` (1947-yil rejissor K.Yormatov), ,,Boy ila xizmatchi``, ,,Qutlug` qon``(1953,1957-yillarda rejissor L. Fayziyev), kabi ko`plab asarlar ekran yuzini ko`rdi.

Xalqimiz yodida abadiy muhrlangan ,,Maftuningman``(1958-yilda Y. A`zamov), ,,Mahallada duv-duv gap``, ,, Sen yetim emassan``, ,,Toshkent non

shahri`` (1960, 1962, 1967, 1967-yillarda rejissor Sh. Abbosov), ,,O`tgan kunlar`` (1969, rejissor Y.A`zamov), kabi durdona asarlar bugungi kunga qadar o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Buning asl sababi mahoratli aktyorlar , kuchli dramaturgiya va rejissuradir!

Xo`sh bugungi kun kino san`ati haqida ham shunday deya olamizmi? Tarixiy janrda suratga olingan ,,Mendirman Jaloliddin`` seriali ham ko`plab muhokamalar markazida. Rejissorlar Metin Gunay, Nurgissa Almurat, Reza Himmeti, muallif Mehmed Bozdag` asari asosida dunyo yuzini ko`rgan bu serial ko`plab tomoshabinlar va san`at ahli e`tirofiga sabab bo`lmoqda. Har bitta qahramon holatida va harakteriga mos tarzda aktyor va aktrisalar tanlangan. Liboslar, tarixiy ko`rinishga ega bo`lgan dekoratsiya ham o`sha davr muhitini his qilishimizga yordam beradi. Serialda bosh qahramon Jaloliddin obrazini Emre Kivilcim ijro etgan. Mohir aktyor Jaloliddin aslida qanday inson bo`lganligini bizga yaqqol ko`rsatib bergan. O`zbek aktyor va aktrisalari ham o`zlariga topshirilgan rollarini u epizodik bo`lsin , bosh rol bo`lsin o`z ichki kechinmalariga tayangan holda ijro etishgan.

Tarixiy janrdagi filmlar sirasida ,,Islomxo`ja`` ni ham aytib o`tishimiz lozim. Rejissor Jahongir Ahmedov suratga olgan bu filmda Xorazm bosh vaziri Islomxo`ja hayoti va uning faoliyati yoritilgan. Ushbu filmda zamonamiz va o`tmishimizning eng yorqin sahifalari ochib beriladi.Bugungi kundagi film va seriallarimizni tomosha qilgan yosh avlod o`tmishdagi ota bobolarimiz qilgan jasoratlari va tarixdagi eng mashaqqatli kunlar bilan ham ro`baro bo`lishadi. Ular qalbida bugungi tinch kunimizga shukronalik hislari uyg`ona boshlaydi. Shu sababdan ham tarixiy va hujjatli filmlar suratga olinsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Bugun tarixiy mavzudagi filmlar bilan bir qatorda maishiy mavzularda ham serillar suratga olinmoqda. Tanganing ikki tarafi bo`lgani kabi yutuqlarimiz bilan birga kamchiliklarimiz ham talaygina. Ba`zi bir serial va filmlarimizdagi dramaturgiya, rejissura, aktyorlik mahorati talab darajasida emasligi achinarli hol albatta! Qaynona kelin, er-xotin mavzulariga ko`proq urg`u berilmoqda. Bu esa o`z navbatida kino san`ati asarlarining saviyasi pasayib ketishiga sabab bo`lmoqda. Film va seriallarda Toshkent shevasidan foydalanish, adabiy til me`yorlariga rioya qilmaslik va bu sohaga aloqasi bo`lmagan havaskor aktrisalarning rollarga taklif qilinishi ham buning sabablaridan biri. Bunday holatlarning ko`payib ketishida faqatgina rejisor va aktyorlarni ayblash noto`g`ri albatta. Biz hammamiz buning uchun mas`ulmiz shuni unutmaylik!

Xo`sh film va seriallarimiz saviyasini yaxshilashimiz uchun nimalar qilishimiz lozim?

Eng avvalo maktablarimizda san`at sohasiga qiziqqan yoshlarni saralab, ularga to`g`ri yo`l ko`rsatib,qiziqishlarini rag`batlantirishimiz lozim.

San`at va Madaniyat oliygohlarida ta`lim olayotgan talabalarga yuqori darajada dunyo ta`lim standartlariga uyg`un shaklda bilim berishni yo`lga qo`yish.

Ustoz shogird an`analarini davom ettirib, taniqli, xizmat ko`rsatgan, xalq artistlarini bilimga chanqoq san`at ahli bilan hamqadam, hamnafas bo`lishlarini ta`minlash.

Film va seriallarimizga mahoratli va bu sohada uquvi bo`lgan aktyor va aktrisalarimizni jalb qilish bilangina tizimdagi kamchiliklarni bartaraf eta olamiz.

So`zim so`nggida shuni ta`kidlab o`tamanki, biz o`tmishdan to bugungi kunga qadar qancha dovonlarni oshib o`tdik. Bugun biz ertangi kun uchun tamal toshini mustahkam qilib qo`ysak, kelajak avlodlarimiz bundanda yuksak marralarni zabt etishlari aniq!

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent , 2000-yil.
2. Abulkasimova X., Rojdeniye o`zbekskogo kino, Toshkent,1965-yil.
3. Teshabayev J., Puti i poiski, Toshkent , 1972-yil.
4. Teshaboyev J., O`zbekskoye kino:traditsii, novatorstvo, Toshkent,1979-yil
5. Hasanov B., O`zbek hujjatli kinosi, Toshkent, 1972-yil.
6. Abul-Kasimova X., Teshabayev J., Mirzamuhamedova M., Kino O`zbekistana, Toshkent, 1985-yil.

BANK MOLIYAVIY AKTIVLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB ASOSLARI VA RIVOJLANISH YO'LLARI

Mamarajabov Bobur
O'zbekiston Respublikasi
Bank-Moliya akademiyasi
mutaxassisligi 2 – kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezis banklarning moliyaviy aktivlarini hisoblash va baholash jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan. Banklarning moliyaviy aktivlari moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlik uchun asosiy omil bo'lib, ularni to'g'ri hisoblash hamda baholash bankning moliyaviy holatini aniq ifoda oshirish va investorlarga nisbatan ishonchni kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda banklarning moliyaviy barqarorligi va samarali boshqaruvi moliyaviy tizimning umumiy sog'lomligini belgilovchi muhim omildir. Bank moliyaviy aktivlari esa bankning eng asosiy resurslaridan biri hisoblanadi.

Bank balansidagi kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa moliyaviy aktivlar bankning investitsion imkoniyatlari va moliyaviy xavf-xatar darajasini belgilaydi. Moliyaviy aktivlarni hisoblash va ularni to‘g‘ri baholash jarayonlari esa bankning moliyaviy holatini aniq aks ettirish uchun zarur.

Biroq, bugungi kunda banklar moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda turli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqola moliyaviy aktivlar hisobini takomillashtirish yo‘llarini, zamonaviy usullarni joriy etishning afzalliklarini va bu jarayonlarda yuzaga keladigan muammolarni tahlil etishga qaratilgan.

Kalit so’zlar: moliyaviy aktivlar, bank hisobi, baholash usullari, moliyaviy tavakkalchilik, innovatsion yondashuvlar, moliyaviy muvozanat, aktivlarni boshqarish

Annotation. This article focuses on improving the process of accounting and assessing banks' financial assets. Financial assets are crucial elements for ensuring banks' financial stability and competitiveness, and accurate accounting and evaluation allow for a precise reflection of a bank's financial condition. The article discusses the main challenges encountered in the accounting of financial assets in banks, as well as ways to improve these processes.

The analysis results indicate that banks need to move away from traditional approaches to financial asset evaluation and adopt modern methods such as artificial intelligence, data analysis, the discounted cash flow (DCF) method, and the real options approach. These innovative approaches allow for a more accurate and effective asset assessment.

This article presents practical recommendations for banks on implementing modern approaches in financial asset accounting and assessment, aimed at enhancing financial stability and strengthening trust from investors.

Key words: financial assets, bank accounting, valuation metods, financial risk, innovative approaches, bank reliability, asset management.

Аннотация. Данная статья посвящена совершенствованию процесса учета и оценки финансовых активов банков. Финансовые активы банков являются важнейшим элементом для обеспечения их финансовой устойчивости и конкурентоспособности, а их правильный учет и оценка позволяют точно отразить финансовое состояние банка. В статье рассматриваются основные трудности, возникающие при учете финансовых активов банков, а также пути их совершенствования.

Результаты анализа показывают, что банкам необходимо отказаться от традиционных подходов к оценке финансовых активов и применять современные методы, такие как искусственный интеллект, анализ данных, метод дисконтированных денежных потоков (DCF) и метод реальных

опционов. Эти инновационные подходы позволяют точно и эффективно оценивать активы.

Настоящая статья представляет практические рекомендации для банков по внедрению современных подходов к учету и оценке финансовых активов, направленные на повышение их финансовой устойчивости и укрепление доверия со стороны инвесторов.

Ключевые слова: финансовые активы, банковский учет, методы оценкиб, финансовый риск, инновационные подходы, надежность банка, финансовый баланс, управление активами.

Banklar iqtisodiy tizimning ajralmas qismi bo‘lib, moliyaviy resurslarni boshqarish va taqsimlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning moliyaviy aktivlari, shuningdek, bankning iqtisodiy barqarorligini va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Moliyaviy aktivlar, banklar uchun, faqatgina daromad manbai emas, balki risklarni boshqarish va ularga barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Moliyaviy aktivlarning hisoblari va ularning aniq hisoblashtirilishi, shuningdek, ularni baholash va nazorat qilish muhim masalalar hisoblanadi. Zamonaviy banklar o‘z faoliyatlarida turli xil moliyaviy aktivlardan foydalanadilar, jumladan, kreditlar, depozitlar, investitsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar. Ushbu aktivlarning har biri o‘ziga xos hisoblash va baholash metodologiyasiga ega bo‘lib, ularning samarali boshqarilishi bank faoliyatining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Bugungi kunda bank moliyaviy aktivlarini hisoblash usullari va ularning asoslari haqida bilimlar, shuningdek, xalqaro standartlar va mahalliy qonunchilik talablariga muvofiq ravishda yangilanmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada bank moliyaviy aktivlarini hisoblashning dolzarb asoslari, usullari va ularning amaliy qo‘llanilishi haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Banklar moliyaviy aktivlarini hisoblashda quyidagi asosiy muammolar bilan to‘qnash kelmoqda:

1. Baholashning noto‘g‘ri yondashuvlari — Ko‘plab banklar moliyaviy aktivlar qiymatini aniqlashda an’anaviy usullarga tayanadi. Bu usullar aksariyat holatlarda aktivlarning haqiqiy qiymatini ifoda etmasligi va moliyaviy qarorlar noto‘g‘ri qabul qilinishiga olib keladi.

2. Risklarni baholashdagi noaniqliklar — Moliyaviy aktivlar qiymatini baholashda risklarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Lekin, risklarni aniqlash va o‘lchash jarayoni murakkab bo‘lib, noto‘g‘ri baholangan risklar bankning moliyaviy xavfsizligini pasaytiradi.

3. Yuqori texnologiyaga ehtiyoj — Zamonaviy axborot texnologiyalari va ma’lumotlar bazasidan foydalanish, moliyaviy aktivlarni aniq hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi. Lekin, texnologiyaga yetarli investitsiya qilmaslik, banklarni bu imkoniyatdan mahrum qiladi.

Moliyaviy aktivlarni hisoblash va baholashni takomillashtirish takliflari

Banklarning moliyaviy aktivlarini hisoblash va baholash jarayonlarini takomillashtirish uchun bir qator innovatsion takliflar ishlab chiqilgan:



- Ma’lumotlarning to‘liqligi va dolzarbligini ta’minlash — Banklar moliyaviy aktivlarni hisoblashda keng va sifatli ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lishlari kerak. Bu bankning aktivlar qiymatini aniq baholash va moliyaviy qarorlar qabul qilishda ishonchli asos yaratadi.
- Aktivlarni baholashda zamonaviy yondashuvlar — Banklar moliyaviy aktivlarni baholashda zamonaviy usullar, masalan, DCF (Diskontlangan naqd pul oqimi) va real opsionlar usulidan foydalanishlari mumkin. Bu esa aniqroq baholash imkonini beradi.
- Shaffoflik va moliyaviy ishonchlilikni oshirish — Banklar moliyaviy aktivlar bahosini hisoblashda shaffoflikni oshirishlari kerak. Bu investorlar va mijozlar uchun bankka bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi va bankning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi

Xulosa

Banklarning moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirish bugungi kunda dolzarb masala bo‘lib, bu jarayon moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi. Moliyaviy aktivlarni aniq baholash orqali banklar o‘z moliyaviy holatini mustahkamlashi va iqtisodiyotda barqaror faoliyat yuritishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ma’lumotlar sifatini oshirish

va yangi baholash usullarini qo‘llash, banklar uchun raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, banklarning moliyaviy ishonchliligini ta’minlash orqali mijozlar va investorlarga ham ishonchli va xavfsiz moliyaviy muhit yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Abdug'aniev, A. (2020). Bank faoliyati va moliyaviy aktivlar hisobi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi.
2. O‘rmonov, S. (2019). Moliyaviy nazorat va bank faoliyati. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
3. Mamatqulov, S. (2021). Bank hisobi: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti.
4. Akhmedov, T. (2018). Moliyaviy aktivlarni baholash va hisobga olish. Tashkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.

BUYRAKLAR. ULARNING TUZULISHI VA FUNKSIYALARI. BUYRAK ANOMALIYALARI VA TASNIFI

Qovulova Nurizar Mo’min qizi
JDPU TIBBIYOT fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyrak, uning tuzulishi va funksiyalari, shuningdek, buyrak anomaliyalari va ularning tasnifi haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: buyrak, nefron, aplaziya, gipoplaziya, pakana buyrak, rudimentar buyrak, displaziya.

Аннотайия. В статы приведены сведения о почках их строеннии и функсиях а также о врожденных аномалиях почек.

Ключевые слова: почка, нефрон, аплазия, гипоплазия, маленькая почка, рудиментарная почка, дисплазия.

Annotation. The article demonstrates information about kidneys their structure and functions, as well as, congetial kidney anomalies.

Keywords: kidney, nephron, aplasia, hypoplasia, small kidney, rudimentarniy kidney, dysplasia.

Kirish: Buyrak – juft a’zo bo’lib qorin bo’shlig’ning orqa devorida joylashgan. 1 va 2- bel umurtqalari ro’parasida joylashgan. Qorin pardaga nisbatan retroperitoneal a’zo hisoblanadi.

Asosiy qism: Buyraklarning tuzulishi – yuqori va pastki uchi, ichki va tashqi qirralari, shuningdek, oldingi va orqa yuzalari farq qiladi. Buyrak tashqi tarafdan capsula adiposa – yog’ moddadan iborat parda, undan so’ng fibroz parda bilan o’ralgan. Buyrak ko’ndalang kesimida po’stloq va mag’iz moddadan tashkil topgani ko’rinadi. Po’stloq modda mag’iz moddaga ustunchalar shaklida botib

kiradi, hamda, mag’iz qismi piramidalarni hosil qiladi. Piramidalar uchi so’rg’ichlar bilan tugaydi, ular esa buyrak kosachalariga ochiladi. Buyrak kosachalari orqali bu yo’l yagona buyrak jomi orqali siydik yo’liga qo’shiladi.

Nefronlar – buyraklarning tuzulish va funksional birligi bo’lib ikkala buyrakda o’rtacha 1 mln nefron 18 mmdan 55 mmgacha uzunlikda bo’ladi.

Nefron tuzulishi:

1. Shumlyanskiy Baumen kapsulasi
2. Nefronning proksimal bo’limi
3. Genli qovuzlog’i
4. Nefronning distal bo’limi

Nefronlar ikki xil bo’ladi:

a) Po’stloq nefronlari
b) Yukstamedulyar nefronlar

Buyraklar funksiyalari.

1. Ekskretor vazifa:
   a) Siydik
   b) Dori moddalari
2. Volumeroregulyatsiya – suv muvozanatini saqlash
3. Osmoregulyatsiya – ichki muhit suyuqliklari osmotik bosimini saqlash.
4. Moddalar almashinuvi.
5. Qon bosimini boshqarishda ishtirok etish.
6. Eritropoezda ishtirok etish.
7. Sintez
8. Renin
9. Eritropoetin
10. Vitamin D3
11. Prostoglandinlar
12. Urokinaza

Buyrak anomaliyalarining tasnifi:

Bugungi kunda buyrak anomaliyalari N. A. Lopatkin tasnifi bo’yicha 5 guruhga bo’linadi.

1. Buyrak qon tomirlari va artrial tarmoqlarning anomaliyalari
2. Buyrak soni anomaliyalari
3. Buyraklar joylashish o’rni va shakli anomaliyalari
4. Buyrak tuzulishing anomaliyalari
5. Buyrakda anomaliyalarning qo’shilib uchrashi

Buyrak qon tomirlar anomaliyalari: buyrak arteriyasi aortadan pastroqda chiqishi – bel distopiyasi, umumiy yonbosh arteriyadan chiqishi – yonbosh distopiyasi, ichki yonbosh arteriyadan chiqishi – chanoq distopiyasi. Tizzasimon buyrak arteriyasi – asosiy buyrak arteriyasida va uning tarmoqlarida ba’zan qo’shimcha arterial tomirlarda joylashgan buyrak arterialarining anevrizmalari. Buyrak venalari sonining anomaliyalarga buyrak qo’shimcha venasi va buyrak ko’p venalari kiradi, shuningdek, halqasimon chap buyrak venasi.

Buyraklarning bir tomonlama aplaziyasi - siydik yo’lining tegishli yarmida volf nayining rivojlanmasdan qolishi.

Buyrakning qo’shaloq bo’lishi – buyrak odatdagiga nisbatan uzun, yuqori qismi pastga qaraganda ancha kichikroq, ular alohida qon va limfa tomirlar bilan ta’minlanadi. Ko’p hollarda ular alohida siydik yo’llari orqali qovuqqa (ba’zan toraymalar orqali) yo’naladi.

Qo’shimcha buyrak juda kam uchraydigan anomaliya. Qo’shimcha buyrak pastki bel umurtqalari sohasida yoki yonbosh sohada kamdan – kam chanoqda joylashadi.

Buyrak gipoplaziyasi – buyrak o’lchamining kichrayishi, gistologik tuzulishi me’yoridaligi va buyrak funksiyasing buzulish belgilari yo’qligi bilan harakterlanadi. Ko’p hollarda bir tomonlama gipoplaziya ba’zan ikki tomonlama gipoplaziya uchraydi.

Buyrak distopiyasi - bu buyrak topografiyasidagi anomaliyalar bo'lib quyidagilar misol bo’ladi.

a) Buyrakning bel distopiyasi
b) Buyrakning chanoq distopiyasi
c) Buyrakning ko’krak distopiyasi

Buyrakning kesishgan anomaliyalari kam uchraydigan bitta buyrakning siljishi sababli ikkala buyrak bir tarafda joylashib qolishi.

Taqasimon buyrak – buyrakning pastki qutblari yuqori qutblari bilan birlashib ketadi. Bir – biriga buyrak parenximasidan yoki fibroz to’qimadan tashkil topgan bo’yni birikadi. Taqasimon buyrak me’yorga qaraganda pastroq joylashadi.

Buyrak displaziyasi – buyraklar o’lchamining tug’ma kichikligi. Bu anomaliyada gipoplaziyadan farqli o’laroq parenximaning nuqsonli rivojlanganligi va buyrak funksiyasi pasayganligi aniqlanadi. Rudimentar va pakana buyrak kabi shakllari mavjud

Rudimentar buyrak – embryonal davrning ilk bosqichida rivojlanishdan to’xtab qolib uning o’rnida kichikroq o’lchamdagi 1-3 smlik yoki sklerotik massa topilib, rivojlanmagan kanalchalar qoldig’i va silliq mushak tolalari aniqlanadi.

Pakana buyrak – 2 – 5 smlik kichik o’lchamli buyrak, parenximasida koptokchalar soni kamaygan, oraliq fibroz to’qima esa ortiqcha rivojlangan bo’ladi. Buyrak qon tomirlar soni va kalibri kam bo’lib nefrogen artrial gipertenziya bilan asoratlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Odam Anatomiyasi F. N. Bahodirov ‘’ O’zbekiston ‘’ NMIU 2006
2. Normal fiziologiya Алявия. О. Т. Кодиров. Ш. К. ТОШКЕНТ 2018
3. Urologiya darslik F.A. Akilov U.E. Begaliyev ‘’ Hilol media ‘’ nashriyoti Toshkent 2020
4. W.W.W. ziyouz.com kutubxonasi

O'ZBEK TILI KOSMONIMLARINING IMKONIYATLARI

Berdimuratova Roza
Urganch davlat universiteti tayanch doktorant

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tili kosmonimlarining imkoniyatlari o'rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tili kosmonimlari boy tarixiy merosni aks ettiradi va zamonaviy ilmiy-texnik rivojlanish bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda.

Kalit so'zlar: kosmonimlar, o'zbek tili, onomastika, etimologiya, semantika, leksikologiya

Аннотация. В этой статье будут рассмотрены возможности космонимов узбекского языка. Согласно результатам исследования, космонимы узбекского языка отражают богатое историческое наследие и развиваются в гармонии с современным научно-техническим развитием.

Ключевые слова: космонимы, узбекский язык, ономастика, этимология, семантика, лексикология

Abstract. This article will study the possibilities of Uzbek language cosmonyms. According to the results of the study, the cosmonyms of the Uzbek language reflect a rich historical heritage and are developing in harmony with modern scientific and technical development.

Keywords: cosmonyms, Uzbek language, onomastics, etymology, semantics, lexicology

Kirish. O'zbek tili, ko'p asrlik tarixi va boy madaniy merosi bilan, turli sohalarda o'ziga xos leksik boylikka ega. Shunday sohalardan biri kosmonimlardir. Kosmonimlar - bu osmon jismlari va hodisalarining nomlari bo'lib, ular nafaqat tilshunoslik, balki tarix, madaniyatshunoslik va astronomiya nuqtai nazaridan ham katta qiziqish uyg'otadi [1]. O'zbek tilidagi kosmonimlarni o'rganish, ularning kelib

chiqishi, semantik va etimologik xususiyatlarini tahlil qilish, shuningdek, zamonaviy o'zbek tilidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi o'zbek tili kosmonimlarining imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qilish va ularning tilshunoslik, madaniyatshunoslik hamda ilmiy-texnik sohalardagi ahamiyatini aniqlashdir.

Asosiy qism. O'zbek tilidagi kosmonimlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga sayyoralar nomlari kiradi, masalan, Zuhra (Venera), Mushtariy (Yupiter), Zuhal (Saturn) kabi [2]. Ikkinchi guruhni yulduzlar va yulduz turkumlari nomlari tashkil etadi, jumladan Hulkar (Pleyada), Yetti qaroqchi (Katta Ayiq) singari [3]. Uchinchi guruhga esa galaktika va boshqa osmon jismlari nomlari kiradi, masalan, Somon yo'li, Quyosh tizimi kabi [4].

Lingvistik jihatdan, o'zbek tili kosmonimlari bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, ularning etimologik xilma-xilligi e'tiborga molik. O'zbek tilidagi kosmonimlar turli manbalardan kelib chiqqan bo'lib, ularning aksariyati arab, fors va turkiy tillardan o'zlashgan, ayrimlari esa xalq og'zaki ijodida shakllangan [5]. Ikkinchidan, semantik ko'p qatlamlilik kuzatiladi. Ko'pgina kosmonimlar nafaqat osmon jismlarini, balki metaforik ma'nolarni ham ifodalaydi. Masalan, "Zuhra" nafaqat sayyora nomi, balki go'zallik va muhabbat ramzi hamdir [6].

Morfologik tuzilishiga ko'ra, o'zbek tili kosmonimlari, asosan, sodda va qo'shma so'zlardan iborat. Masalan, "Quyosh" - sodda so'z, "Somon yo'li" esa qo'shma so'z hisoblanadi [7]. Bundan tashqari, ko'plab kosmonimlar o'zbek tili frazeologizmlarida uchraydi. Masalan, "oyga qarab ulamoq" (behuda ish qilmoq) iborasi bunga misol bo'la oladi [8].

O'zbek xalqining kosmonimlar tizimi uzoq tarixiy jarayonda shakllangan bo'lib, bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Qadimgi turkiy davrda asosiy osmon jismlari nomlari shakllangan va ular xalq og'zaki ijodida, afsonalarda aks etgan. Masalan, "Temir qoziq" (Shimol yulduzi) nomi aynan shu davrga tegishli]. Keyinchalik, islom madaniyati ta'siri davrida arab tilidan ko'plab kosmonimlar o'zlashtirilgan. Jumladan, "Zuhal", "Mushtariy" kabi sayyoralar nomlari shular jumlasidandir [2].

Zamonaviy davrga kelib, ya'ni XX asrdan boshlab, xalqaro astronomik atamalar o'zbek tiliga kirib keldi va milliy kosmonimlar bilan uyg'unlashdi. Masalan, "Galaktika", "Qora tuynuk" kabi atamalar shular jumlasidandir [10]. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda, yangi kashf etilayotgan osmon jismlari uchun yangi atamalar yaratilmoqda.

Hozirgi kunda o'zbek tili kosmonimlari turli sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ilmiy-texnik sohada, xususan zamonaviy astronomiya va kosmologiya sohalarida

milliy kosmonimlar xalqaro atamalar bilan birgalikda ishlatilmoqda. Bu esa ilmiy bilimlarni keng ommaga yetkazishda muhim rol o'ynaydi [4]. Ta'lim sohasida, maktab va oliy ta'lim muassasalarida astronomiya fanini o'qitishda milliy kosmonimlardan foydalanish o'quvchilar va talabalarning fanni o'zlashtirishini osonlashtiradi [7].

Adabiyot va san'at sohasida o'zbek kosmonimlari keng qo'llaniladi, bu esa milliy madaniy merosni boyitishga xizmat qiladi [6]. Ommaviy axborot vositalarida, xususan kosmonavtika va astronomiya yangiliklari yoritilganda, milliy kosmonimlardan foydalanish axborotni keng auditoriyaga tushunarli tarzda yetkazish imkonini beradi [8].

O'zbek tili kosmonimlarining lingvomadaniy ahamiyati. O'zbek tili kosmonimlari nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega. Ular milliy dunyoqarashni aks ettirish vazifasini bajaradi. Kosmonimlar orqali o'zbek xalqining qadimiy tasavvurlari, e'tiqodlari va dunyoqarashi aks etadi. Shuningdek, ular madaniy aloqalarni ko'rsatish vazifasini ham bajaradi. Turli tillardan o'zlashgan kosmonimlar o'zbek xalqining boshqa xalqlar bilan madaniy aloqalarini ko'rsatadi [5].

Milliy o'zlikni saqlash nuqtai nazaridan ham kosmonimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy kosmonimlardan foydalanish globallashuv sharoitida o'zbek tilining o'ziga xosligini saqlashga yordam beradi. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

O'zbek tili kosmonimlarining kelajak istiqbollari. O'zbek tili kosmonimlarining kelajakdagi rivojlanishi bir necha yo'nalishda bo'lishi mumkin. Birinchidan, yangi kosmonimlarning yaratilishi istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan yangi osmon jismlari kashf etilmoqda. Ularni nomlashda milliy til imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Ikkinchidan, mavjud kosmonimlarni standartlashtirish zarur. Ilmiy va ommabop adabiyotlarda kosmonimlardan foydalanishni tartibga solish, yagona standartlarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Uchinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish muhim. O'zbek tili kosmonimlarini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, ularni xalqaro ilmiy bazalarga kiritish kelajakdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi [8]. Bu jarayon o'zbek tilining xalqaro miqyosda nufuzini oshirishga va uning ilmiy-texnik sohadagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'zbek tili kosmonimlari keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ular tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tarix va astronomiya kabi turli fanlar uchun qimmatli materiallar beradi. Ularni yanada chuqurroq o'rganish, tizimlashtirish va targ'ib qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar bo'lib hisoblanadi.

Xulosa. O'zbek tili kosmonimlari boy tarixiy va madaniy merosni o'zida mujassam etgan holda, zamonaviy ilmiy-texnik rivojlanish bilan uyg'unlashib bormoqda. Ular nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarix va astronomiya fanlari uchun ham katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek tili kosmonimlari quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Etimologik va semantik jihatdan xilma-xillik;
2. Tarixiy rivojlanish jarayonida turli madaniyatlar ta'sirida shakllanganlik;
3. Zamonaviy fanda, ta'limda va madaniyatda keng qo'llanilish;
4. Milliy o'zlikni saqlash va madaniy merosni boyitishdagi muhim roli.

Kelajakda o'zbek tili kosmonimlarini yanada rivojlantirish, standartlashtirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish muhim vazifalar hisoblanadi. Bu esa o'zbek tilining jahon tillari orasidagi o'rnini mustahkamlashga va milliy madaniyatni boyitishga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot o'zbek tili kosmonimlarining keng imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. Biroq, bu sohada yanada chuqur va keng qamrovli tadqiqotlar olib borish, xususan, kosmonimlarning lug'atini yaratish, ularning etimologiyasini batafsil o'rganish va zamonaviy fanda qo'llanilishini tahlil qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalishlar bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Begaliev, N., 2020. O'zbek tili onomastikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Rahmatullayev, Sh., 2018. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Toshkent: Universitet.
3. Qorayev, S., 2019. O'zbek xalq astronomiyasi. Toshkent: Ma'naviyat.
4. Ismoilov, F., 2021. Zamonaviy astronomiya va o'zbek tili. O'zbek tili va adabiyoti, 3, pp.45-52.
5. Nafasov, T., 2017. O'zbek tili kosmonimlarining tarixiy-etimologik tahlili. Tilshunoslik masalalari, 2, pp.78-85.
6. Safarov, O., 2020. O'zbek xalq og'zaki ijodida kosmonim obrazlari. O'zbek adabiyotshunoslik, 4, pp.112-120.
7. Abdullayeva, M., 2022. O'zbek tili darsliklarida kosmonimlardan foydalanish. Ta'lim va innovatsiyalar, 1, pp.23-30.
8. Yo'ldoshev, B., 2019. O'zbek tili frazeologizmlarida kosmonimlar. Til va adabiyot ta'limi, 5, pp.15-22.
9.

МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СОСУДИСТО-ТКАНЕВЫХ СТРУКТУР ЖЕЛУДКА ПОТОМСТВА, РОЖДЕННЫХ В УСЛОВИЯХ САХАРНОГО ДИАБЕТА У МАТЕРИ

Адилбекова Д.Б., Абдалиева М.П.,Калмурзаев Е.К., Маматвалиев Б.
Ташкентская медицинская академия

Актуальность. Диабет является одной из крупнейших глобальных угроз здоровью в XXI веке (2,3). В последние десятилетия уровень распространенности ожирения и диабета 2 типа в мире значительно увеличился. Материнский диабет представляет собой патологическое состояние, которое повышает частоту осложнений как у матери, так и у плода, увеличенные шансы на выкидыш и врожденные аномалии у потомства (4). Достаточно изучены вопросы морфофункциональных изменений во внутренних органах больных сахарным диабетом, но морфологические изменения во внутренних органах детей, рожденных от матерей с сахарным диабетом, до сих пор не до конца изучены (1).

Ключевые слова: экспериментальный сахарный диабет, потомства, матка, сосуды, ткань.

Цель исследования. Изучить морфологическое состояние структурных компонентов матки потомства, рожденных в условиях экспериментального сахарного диабета у матери.

Материал и методы исследования. Для создания экспериментальной модели сахарного диабета к самкам крыс внутрибрюшинно вводили 1 раз аллоксан в ацетат цитратном буфере из расчета 11 мг% / 100 г массы тела. Крысам контрольной группы в этом количестве и соотношении был введен изотонический раствор в брюшную полость. Спустя 3 дней к подопытным самкам-крысам были подсажены самцы- крысы и получены потомки. В работе использованы общеморфологические,электронные микроскопические методы исследования.

Результаты исследований. Исследование желудка 7-дневных интактных крысят показали, что у них хорошо развиты все слои. Между процессами формирования тканевых структур и микроциркуляторных сосудов определяется синхронность. Стенка желудка состоит из 4-х слоев: слизистая оболочка, подслизистая основа, мышечная оболочка и серозная оболочка. В слизистой оболочке желудка имеются тонкие складки и ямки. Слизистая оболочка состоит из 2 слоев: эпителий и собственная пластинка. Эпителиальный слой состоит из однослойного призматического эпителия. Собственная пластинка состоит из рыхлой соединительной ткани.

Волокнистые структуры состоят из коллагеновых и эластичных волокон. Эластические волокна немногочисленны, но они связаны между собой и образуют сеть.

Исследования морфологического состояния желудка потомства крыс с экспериментальным сахарным диабетом показали отечность, инфильтрированность мононуклеарными клетками всех слоев стенки желудка. Во всех слоях стенки желудка выявляются реактивные и дистрофические изменения. Внутриорганные венозные сосуды местами были расширенные, а капилляры извилистые. На 14-е сутки постнатальной жизни в связи с дистрофическими изменениями сосудистых и тканевых структурах стенки желудка наблюдались отставании в развитии структурных компонентов по сравнению с таковыми интактных крысят. Электронно-микроскопические исследования выявили небольшой отек и расширение межклеточных пространств.

Выводы. 1. Сахарный диабет у матери приводит к развитию воспалительно-реактивных и дистрофических процессов в структурных компонентах желудка потомства.

2. Ведущую роль в развитии выявленных морфологических изменений играют патологические изменения в микрососудах желудка, в последствии приводщие к задержке развития и к трофическим нарушениям в тканевых структурах.

Литературы

1. Мирошник Е.В., Рюмина И.И., Зубков В.В. Влияние сахарного диабета матери на здоровье новорожденного//Акушерство и гинекология. - 2016. - № 9. - С. 45-49.
2. Нечаев В.Н., Черненков Ю.В., Хусаинова П.А., Ермолаева Е.И., Мишина О.А. Состояние новорожденных детей от матерей с гестационным сахарным диабетом: Современные подходы к диагностике различных заболеваний и лечению детей. Материалы межрегиональной научно-практической конференции. - Саратов, 2022. - С. 203-208.
3. Якубович В.Н., Панарад А.С. Ранний неонатальный период у ребенка от матери с сахарным диабетом: Сборник материалов республиканской научно-практической конференции студентов и молодых ученых, посвященной 95-летию со дня рождения профессора Маслакова Дмитрия Андреевича. - Гродно, 2022. - С. 796-798.

МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ЖЕЛУДКА ПОТОМСТВА У ПОТОМСТВА, РОЖДЕННЫХ ОТ МАТЕРЕЙ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ В РАННИЕ ПЕРИОДЫ ПОСТНАТАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

Адилбекова Д. Б., Абдалиева М.П.,Калмурзаев Е.К., Маматвалиев Б.
Ташкентская медицинская академия

Актуальность. Сахарный диабет является одной из актуальных проблем современной медицины (1). Сахарный диабет - тяжелое и хроническое заболевание, которое сопровождается тяжелыми нарушениями всех процессов обмена веществ в организме человека, особенно в процессе обмена углеводами. Влияние сахарного диабета матери на состояние и развитие внутриутробного плода и потомства остается малоизученным (3,4). Дети, рожденные от матерей с сахарным диабетом имеют свои особенности, по сравнению у потомства здоровых матерей. Показатели перинатальной смертности и заболеваемости у новорожденных в этой группе остаются высокими. У нелеченных во время беременности женщин с сахарным диабетом она достигает 70-80%. Ранняя неонатальная смертность в 5-8 раз превышают соответствующий показатель в общей популяции (2). Исходя из этого вытекает актуальность изучения этой медико-социальной проблемы.

Цель исследования. Изучить постнатальное морфологическое состояние желудка у потомства, рожденные от матерей с экспериментальным сахарным диабетом.

Материалы и методы исследования. Объектом нашего морфологического исследования служили материалы из желудка интактных и крысят-самок, рожденных от крыс с экспериментальным сахарным диабетом на 3-7 сутки постнатального периода жизни. Для создания модели диабета половозрелым самкам крыс внутрибрюшинно вводился аллоксан в ацетат цитратном буфере из расчета 11 мг% на 100 г массы. На 3 дни эксперимента к самкам подсаживали самцов. Предметом исследования служили материалы из желудка крысят-самок. В работе были использованы общеморфологические, электронно-микроскопические методы исследования.

Результаты. Сахарный диабет матери отрицательно повлияло на морфологическое состояние пищеварительной системы потомства. Эти изменения отразились и на первых внешних признаках общего развития новорожденных крысят: несмотря на то, что крысята рождались крупнее и тяжелее потомков контрольной группы, у крысят отмечалась позднее отлипание ушных раковин, появление шерсти на коже, реализация позы вставания на 2-3 дня позже по сравнению у крысят, рожденных от

контрольной группы.Гистологическое исследование микропрепаратов желудка 3-7-дневных крысят показало, что клетки поверхностного эпителия слизистой желудка имеют призматическую форму, а все морфометрические показатели желудочных ямок и складок были меньше, чем показатели контрольных групп крысят. В слизистой оболочке желудка наблюдался отек, инфильтрация мононуклеарами. Во всех отделах желудка наблюдались воспалительно-реактивные изменения, лимфоплазмоцитарная инфильтрация и гипертрофия желез антральной области. Общее количество клеток эпителиального покрова фундального отдела желудка были меньше. Основные клетки не идентифицировались. Архитектура фундальных желез четко не видна. Электронно-микроскопические исследования выявили небольшой отек и расширение межклеточных пространств.

Выводы 1. Материнский сахарный диабат отрицательно повлияет на морфофункциональное состояние желудочно-кишечного тракта потомства. 2. Несмотря на крупные размеры массы тела потомства (макросомия), в морфологическом состоянии желудка потомства, наблюдается незрелость структурных компонентов, в сосудисто-тканевых структурах желудка отмечается воспалительно-реактивные изменения.
3. Таким образом, детей рожденных от матерей с сахарным диабетом, нужно поставить на регулярное диспансерное наблюдение и провести лечебно-профилактические работы.

Литературы

1. Мирошник Е.В., Рюмина И.И., Зубков В.В. Влияние сахарного диабета матери на здоровье новорожденного//Акушерство и гинекология. - 2016. - № 9. - С. 45-49.
2. Нечаев В.Н., Черненков Ю.В., Хусаинова П.А., Ермолаева Е.И., Мишина О.А. Состояние новорожденных детей от матерей с гестационным сахарным диабетом: Современные подходы к диагностике различных заболеваний и лечению детей. Материалы межрегиональной научно-практической конференции. - Саратов, 2022. - С. 203-208.
3. Якубович В.Н., Панарад А.С. Ранний неонатальный период у ребенка от матери с сахарным диабетом: Сборник материалов республиканской научно-практической конференции студентов и молодых ученых, посвященной 95-летию со дня рождения профессора Маслакова Дмитрия Андреевича. - Гродно, 2022. - С. 796-798.
4. Helle E, Priest JR. Maternal Obesity and Diabetes Mellitus as Risk Factors for Congenital Heart Disease in the Offspring. J Am Heart Assoc. 2020 Apr

21;9(8):e011541. doi: 10.1161/JAHA.119.011541. Epub 2020 Apr 20. PMID: 32308111; PMCID: PMC7428516.

AERONAVIGATSIYADA AXBOROT MONITORING TIZIMI

Turayeva Nasiba Mirxamidovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchisi
t.nasiba@gmail.com

Avtomatlashtirilgan monitoring tizimining asosiy vazifasi axborot to'plashdan iborat. To'plangan ma'lumotlarning manbasini aniqlash kerak. Axborot tizimning xususiyatlariga qarab matn yoki grafik formatda saqlanishi mumkin.

Monitoring tizimlari murakkab va katta hajmli jarayon, shu jumladan harakatlar algoritmini o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilgan. Algoritmning ko'lami va mazmuni monitoring tizimining o'ziga qarab farq qilishi mumkin.

Aeronavigatsiya axborot uzatish tarmoqlarini mavjud monitoring qilish tizimlarida bir qator muammolar bor:

• monitoring tizimlarining universalligi yo'qligi: har bir kompaniya o'zining dasturiy mahsulotini yaratadi, uni boshqa korporativ muhitga o'tkazib bo'lmaydi;

• monitoring qilinadigan parametrlarda standartning yo'qligi: barcha monitoring tizimlarida takrorlanadigan kichik parametrlar to'plami mavjud bo'lib, ular ishlab chiquvchilar yoki mijozlar talabiga binoan qo'shiladigan boshqa parametrlar bilan yanada kengaytiriladi;

• tashqi muhitni bashorat qilishdagi xatolar;

• passiv ma'lumotlarni yig'ish: monitoring tizimi ma'lum statistik ma'lumotlarni ishlab chiqaradi, ammo nosozliklar sabablarini ko'rsata olmaydi, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar bera olmaydi.

“O‘zaeronavigasiya” DUKda aeronavigatsiya ma’lumotlarini uzatish tarmog‘i operatorlari va boshqa aviatsiya xizmatlari o‘rtasida ma’lumotlarni uzatish ma’lumotlar tarmog‘ini boshqarish bo‘limlarining o‘zaro hamkorligi yo‘riqnomasiga muvofiq qat’iy ravishda amalga oshiriladi.

Telekommunikatsiya majmuasi hodimlari O‘zaeronavigasiya korporativ tarmog’i bilan bog'liq ob'ektlar uchun barcha kanallarni, yagona ma'lumotlarni uzatish tizimini va tarmoq dasturiy ta'minotini qo'llab-quvvatlash hamda texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Kanallarda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kuzatib boradi va qayd etadi, Telekommunikatsiya majmuasi korporativ kanallari va uskunalari ishdan chiqqan taqdirda uzluksiz ishlashni tiklash bo'yicha qarorlar qabul qiladi.

Telekommunikatsiya majmuasi operatori port ichidagi aloqa uskunalarini qo'llab-quvvatlash va texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi, aviakompaniyaning aloqa kanallari korporativ telefon tarmog'ining barcha telefon stansiyalari va aloqa kanallarining ishlashi va holatini nazorat qiladi. Rad etilgan taqdirda, u tezda tiklanish uchun qaror qabul qiladi. Kanallar yoki jihozlarning ishdan chiqishi haqida barcha mas'ul va manfaatdor shaxslarni xabardor qiladi.

Operator havo harakatini boshqarish (HHB) boshqaruv markazi operatori bilan doimiy aloqada bo'ladi. Aloqa uskunalari ikkita bir xil to'plamga o'rnatiladi. To'plamlar orasidagi aloqa optik to'g'ridan-to'g'ri aloqa kabeli orqali tashkil etilgan. Uskunalar aloqa kanallarini Telekommunikatsiya majmuasidan aloqa tarmog’iga o'tkazish uchun mo'ljallangan.

Ma'lumot uzatish kanalining noto'g'ri ishlashi to'g'risida so'rov kelib tushganda, Telekommunikatsiya majmuasi navbatchi operatori nosozlikni lokalizatsiya qilishga urinib, aloqa uskunasi nosozliklari sodir bo'lgan hududni aniqlaydi. Nosozlik sababini aniqlagandan so'ng, u darhol uni bartaraf etishga kirishadi, so'ngra HHBning yetakchi muhandisiga hisobot beradi.

Avvalo, monitoring tizimida korxonaning ichki va tashqi muhiti o'rtasidagi muvozanatni o'rnatish kerak, ya'ni monitoring tizimi ikkita muhitga, ichki va tashqi muhitga tegishli barcha yuklangan vazifalarni bajarishi kerak. Bunday holda, monitoring tizimining samaradorligi korxonani to'liq va malakali boshqarishga, tegishli qarorlar qabul qilishga, shuningdek, korxonaning barcha faoliyatida natijalarni ishlab chiqish va yaxshilashga yordam beradi.

ФИРДАВСИЙНИНГ «ШОҲНОМА» АСАРИДА ЭСТЕТИК ХУСУСИЯТЛАРНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Баҳора Хуррамова
Самарқанд Давлат Университети,“Санъатшунослик” кафедраси доценти.

Аннотация. Ушбу мақолада буюк Шарқ мутафаккири Абулқосим Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида ахлоқий ва эстетик ғоялар ва уларнинг ҳозирги даврдаги аҳамияти таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Фирдавсий, “Шоҳнома”, эстетик, комил инсон, қадрият.

Аннотация. В данной статье анализируются особенности эстетических идей “Шах-наме” Фирдоуси и их в значимость в данном этапе.

Ключевые слова: Фирдоуси, “Шах-наме”, эстетика, личность, ценность.

Abstract. Summarising descriptions written by great poets, Firdausi philosophers we can say that problems of our ancestors are the reflection of their traditions, esthetic, ideal, ethics aspirations to a better life.

Key words: Firdausi, esthetic, ideal, “Shahnama”, traditions, poets, reflection.

Ҳозирги даврда маънавий меросимизни, аллома мутафаккирларимизнинг яратган маънавий дурдоналарини қайтадан кўриб чиқиш, улардан демократик жамият қуриш жараёнида унумли фойдаланиш ва авлодлар ворислигини таъминлаш алоҳида мазмун касб этади. Жаҳонга машҳур мутафаккирларимиз – Беруний, Фирдавсий, Ибн Сино, Форобий, Жомий, Навоий ва бошқаларнинг қолдирган маънавий мерослари бунга яққол мисол бўлади. Шу жиҳатдан, буюк мутафиккирларимизнинг фалсафий меросини ўрганиш, авлодлар хотирасини авайлаш, эҳтиром билан муносабатда бўлиш таниқли олимларимизнинг асарларида таъкид этилиши бежиз эмас.

Жаҳон маданияти тарихида шундай асарлар мавжудки, улар халқнинг гултожи бўлмиш инсон маънавиятини шакллантиришга муносиб хизматни бажо келтириб асрлар давомида эъзозланиб келинмоқда.

Абулқосим Фирдавсийнинг “Шоҳнома” эпопеяси ўзининг олижаноб ғоялари билан жаҳон адабиётининг юксак намунаси ҳисобланади. “Шоҳнома” асарининг жаҳон маданияти тарихидаги ўрни машҳур олимлар – А.Кристенсен, Т.Нёлдеке, В.Бартольд, З.Сафо ва бошқалар томонидан таъмидланган. Фирдавсий ўзининг қаҳрамонлари образида энг юқори инсоний фазилатларни тасвирлаган ва шу жиҳатдан улар буюк мутафаккирнинг эстетик ва ахлоқий идеалининг тимсоли ҳисобланади33. Масалан, Сиёвуш образида Фирдавсийнинг инсон маънавияти, унинг ақлу заковати ҳақидаги эстетик ғоялари ўз ифодасини топган. Сиёвуш образи Шарқ адабиётида мутафаккир шахсият сифатида алоҳида ўрин тутади. И.С.Брагинскийнинг фикрича, Фирдавсий “Сиёвуш” достонида “Ренессанс ғояси тимсоли шахсиятни тасвирлайди, у тақдирга зиддият кўрсатади ва мангу инсоний идеаллар учун курашади. Сиёвушнинг фожиавий образи худди ана шу хусусиятга эгадир”2.

“Сиёвуш” достонининг ахлоқий ва эстетик хусусиятлари қаҳрамон ички оламнинг тасвирида, драматик зиддиятларда ва ҳодисаларнинг психологик таҳлилида намоёндир. Ушбу асардаги бадиият Ҳусайн Жовиднинг “Сиёвуш”

[33] Фирдавсий. Шоҳнома. Танланган асарлар. Ш.Шомуҳаммедов таржимаси. Т. 1994.

[2] И.С.Брагинский Океан “Шах-наме” и его некоторқе тайнқ. Предисловеи к ки.: Фирдоуси. “Шахнаме”. В 2-х. Томах – т.1. – Москва: Художественная литература, 1964. –С.20.

(1934) ва Ҳ.Ф.Хушкнобийнинг “Сиёвуш” (1974) фожеаларида ҳам манбаи сифатида хизмат қилган ва театр ушбу асарнинг саҳнавий талқини асосида фалсафий ва умумбашарий хулосаларни ўзига хос миллий руҳда манзур этди.

Драматург Ғани Абдуллонинг “Рустам ва Сухроб” фожиаси ҳам ўзининг ажойиб мазмуни ва мундарижаси, ўтмиш вокеаларининг томошабин диди ва завқига мос талқин этиши, эстетик хусусиятлари билан театр санъати тарихида арзигулик ҳодиса бўлди.

“Рустам ва Суҳроб” саҳна (Лоҳутий театри, саҳналаштирувчи режиссиёрлар Ф.Александрин ва Ҳ.Абдураззоқов) миллий анъаналар, ижодий изланишлар, умумбашарий, ахлоқий ва эстетик идеаллар, ҳайратомуз тасвирлар орқали кўрсатиб берилди.

Фирдавсийнинг “Шоҳнома” эпопеяси асосида яратилган “Фаридун” саҳна асарида ҳам (Аброр) Хидоятов номидаги ёшлар театри, режиссёр М.Ҳайдаров оламшумул асарнинг юксак қадриятлари ўз ифодасини топди.

“Шоҳнома” образларида фалсафий ва умумбашарий хулосалар, назарий умумлашмалар ўзига хос миллий руҳда манзур этилади. Мутафаккирнинг ахлоқий ва эстетик қарашларида “комил инсон” бадиий концепцияси муҳим ўрин эгаллаб, ушбу концептуал муаммо мифологик афсонавий образлар, маълум ва машҳур тарихий шахслар тимсолида мужассам этилган[1]. Жумладан, эпопеянинг асосий образларида Рустам, Сухроб, Сиёвуш, Фаридун сиймоларида олий шеърият ва юксак эҳтирос билан бирга инсоннинг маънавий гўзаллиги, ақл-заковати, топқирлиги ва донишмандлиги ўз ифодасини топгандир.

Фирдавсий образларининг инсонпарварлик ғоялари ва бой маънавий олами дунёси аёллар образида – Таҳмина, Гурдофарид, Фарангис, Рудоба сиймоларида лирик ва романтик аспектда ўз аксини топади.

Ҳозирги кунда истиқлол туфайли миллий қадриятлар қайтадан тикланар экан, Абулқосим Фирдавсийнинг жаҳоншумул “Шоҳнома” асари инсонларнинг маънавий камолотида, эстетик ахлоқий идеалларини шакллантиришда, эзгу мақсадлар сари интилишда юксак заминдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Фирдавсий. Шоҳнома. Танланган асарлар. Ш.Шомуҳаммедов таржимаси. Т. 1994.
2. И.С.Брагинский Океан “Шах-наме” и его некоторке тайнқ. Предисловеи к ки.: Фирдоуси. “Шахнаме”. В 2-х. Томах – т.1. – Москва: Художественная литература, 1964. –С.20.

[1] Хуррамова Б. «Сцена и историческая личность». С. 2017.

3. Хуррамова Б. «Сцена и историческая личность». С. 2017.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVOD O‘RGATISH METODIKASI. O‘QISH VA YOZISH FAOLIYATINING TURLARI

Gurbanjemal Kakabayeva
NDPI Boshlang‘ich ta’lim fakultetining 1-kurs talabasi

Annotasiyaю Boshlang‘ich sinflarga ona tilini o‘qitish metodikasi fanining predmeti o‘quvchilarga ona tilini egallash ya’ni nutqni, o‘qish va yozishini grammatik va imloni o‘zlashtirib olish to‘g‘risidagi ilimdir.Savod o‘rganish o‘qish va yozish bilan bir qatorda nutqni ham o‘rgana oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarig‘a savod o‘rgatish jarayonida o‘qish va yozish faoliyati, nutq faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi. Yozish va o‘qish qoidalarini o‘rgatish haqida hamda dars jarayonida o‘quvchilarni o‘qishga jalb etish ham-da har turli metodlar orqali dars o‘tish jarayonlari haqida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Savod o‘rgatish, o‘gzaki nutq, yozma nutq, metodlar, o‘qish turlari.

Savod o‘rgatish metodikasi, ya’ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish. Bolalarga savod o‘rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglilik uchun, madaniyat uchun kurash qirolidir.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz kelajak avlodlarning savodxon, yuksak ma’naviyat egasi bo‘lib yetishishlari uchun g‘amxo‘rlik qilmoqdalar.O‘quvchilarni savodxon va yuksak ma’naviyatli bo‘lib yetishtirish bilan bir qatorda ularning tarbiyasiga ham ahamiyatli bo‘lish kerakdir.Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Agar mendan sizni nima qiynaydi? " deb so‘rasangiz, farzandlarimizning ta’lim va tarbiyasi deb javob beraman,deb aytgan. [1]

Ona tili metodikasi umumiy pedagogika bilan ham bog‘liq. Maktab ta’limdagi har bir o‘quv predmeti, shu jumladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish bilan cheklanmay, bolaning ongini oshirish va tarbiyalash ham muhim ahamiyatga egadir."Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi, - dedi Shavkat Mirziyoyev[2].

O‘qish va yozish murakkab nutq faoliyati hisoblanadi.Bu jarayonlar kichiq yoshdagi o‘quvchidan iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. Kichik yoshdagi o‘quvchini o‘qishga o‘rgatishda quyidagilar kuzatiladi.

1. Bola o‘qish paytida bitta harfni ko‘radi, uni bilish uchun rasmlarni ko‘z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi va aytadi.

2. O‘qishni endi o‘rganiyatgan bola o‘qiyotgan matn mazmunini o‘zlashtirmaydi, chunki u so‘zni qanday o‘qishga kuch beradi. Darslikdagi rasmlar o‘qituvchining savollari ko‘rgazmali qurollar ularning ongli o‘qishlarini ta’minlaydi.

3. Yozuv jarayonida o‘quvchilar ruchkani to‘g‘ri ushlashni, daftarni to‘g‘ri qo‘yishni, harfni yozish- da yozuv chiziqlari, ular bo‘ylab qo‘lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga qanday ulashni, qatorga sig‘ish-sig‘masligini mo‘ljallashi lozim. Bu jarayon o‘quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa ularning barmoq va yelka muskullari charchaydi. Shuning uchun ham darsda ikki-uch marta daqiqali jismoniy mashqlar o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Yozuvning chiroyli va imloviy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi savodxonlikning yuksak belgisidir.

Analitik-sintetik (tahlil-tarkib) tovush metodida savod o‘rgatish jarayoni 4 oy davom etadi.

Bu jarayon quyidagi 2 davrga bo‘linadi [1].

a) alifbogacha tayyorgarlik davri (2 hafta)

b) alifbo davri (31 dekabrgacha davom etadi).

Alifbogacha tayyorgarlik davri. Bu davrning asosiy vazifasi o‘quvchilarni maktab, sinf, tartib-intzom qoidalari va o‘quv qurollari bilan tanishtirish, nutq o‘stirishga oid mashqlar o‘tkazib, fonematik eshitishni oshirishdan iboratdir. Alifbogacha tayyorgarlik davri o‘z navbatida, quyidagi 2 bosqichga bo‘linadi.

1. Harf o‘rganilmaydigan bosqich (1-hafta).

2. Unli tovush va harf o‘rganiladigan bosqich. (1-hafta).

1-bosqichda o‘quvchilarg‘a o‘gzaki va yozma nutq haqida, gap, so‘z, bo‘g‘in va tovushlar haqida nutqning gaplardan, gaplarning so‘zlardan tuzilishi, so‘zlarning tovushlardan tashkil topishi haqida, ma’lumot beriladi, tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishi o‘rgatiladi, ulardan amaliy foydalana bilish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Ularga “Alifbe” da berilgan rasmlar asosida hikoyalar tuzdirishdan tashqari, o‘zlari bilgan, she’r, ertak, hikoya, tez aytish, maqol, topishmoq, xalq ashulalari, alla, qo‘shiqlar, latifalardan ayttiriladi. Tayanch so‘zlar asosida gap tuzdirish “Alifbe” sahifalaridagi so‘zlarning talaffuzi, o‘qilishi va ma’nolari ustida ishlash kabi ishlar uyushtiriladi. Bu bosqichidagi yazuv darslarida o‘quvchilar yazuv daftari va yozuv chiziqlari bilan tanishtirilib harf elementlarini yozishga o‘rgatiladi, ularda namunaga qarab grafik xatolarni aniqlash o‘z-o‘zini tekshirish harf oralarining tengligiga rioya qilish, chamalab yozish kabi ko‘nikmalar hosil qilinadi.

2-bosqichda unli tovush harflar o‘rgatiladi. Bunda ularning quyidagi uch xususiyatini o‘quvchilar amaliy ravishda puxta egallashlariga erishish lozim.

a) talaffuzda (ogʻizda) toʻsiqqa uchramasligi.

b) choʻzib aytilishi.

d) faqat ovazdan tashkil topishi .

Shuningdek, bu bosqichda tovush bilan harfni farqlashga oʻrgatish koʻzda tutiladi. Ushbu bosqichdanoq tovush va harf oʻrtasidagi chegaraga qa'tiy rioya qilinadi. Tovush va harfga oid oʻziga xususiyatlar ham izchil ravishda oʻquvchilarning oʻzlashtirishlarni hisobga olgan holda sekin-asta tushintirila boriladi.

"Metod" tushunchasi falsafiy va didaktik ma'nolarga egadir.Falsafiy manoda " metod " tabiat va jamiyat hodisalarini kuzatish hamda voqelikka ilmiy nuqtai nazardan yondashish demakdir.Didaktik ma'noda bu tushuncha oʻquvchilarni bilim, koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish yoʻllarini ifodalaydi.Metod usullar va majmuidan iborat.Masalan " Otlarning kelishik qoʻshimchalari bilan qoʻllanishi" mavzuni yarim izlanishli muammoli metodda oʻqitish oʻquvchini muammoli izlanishga undovchi vaziyatlarni yuzaga keltirishga doir turli usullardan foydalaniladi. Til materialini oʻquvchi oʻqiydi (toʻgri oʻqish, me'yorida oʻqish, ifodali oʻqish,tushinib oʻqish kabi oʻqish texnikasini qoʻllaydi,) kuzatadi (kuzatish usuli) , oʻxshash va farqli xususiyatlarini aniqlaydi. Bular oʻquvchilarning aqliy faoliyatini ishga tushiradi.Metodlar orqali ularning darsga boʻlgan qiziqishi tobora ortib boradi.Ularning fikirlash faoliyati asta-sekin ortib boradi.Izlanishlari kuchayadi. Oʻquvchilarga metodlarni qoʻllash samarali faydo beradi.

Oʻqish darslarining samaradorligi koʻp jihatdan ta'lim metodlarni toʻgʻri tanlashga bogʻliq. Masalan, eski maktablarda oʻqish quruq yod olish metodi asosida oʻrgatilgan boʻlsa, hozir izohli oʻqish asosida olib boriladi. Izohli oʻqish XlX asrning 60-70-yillarida rus pedagogi K.D.Ushiniskiy asos solgan, u oʻqishda oʻquvchilarni "ongli tushunib, oʻylab oʻqishga" oʻrgatishni alohida ta'kidlaydi va uni "Izohli oʻqish" deb nomlaydi. Izohli oʻqish asar mazmunini tushunishni asardagi muhim fikirni, yozuvchi ilgari surayotgan gʻoyani anglashni ta'minlaydi.

Badiiy asarni izohli oʻqishga yaqin boʻlgan metodlardan biri ijodiy oʻqishdir. Atoqli metodist olim N.I.Kudryashov ijodiy metoti tarkibiga quyidagilar kiradi.

a) oʻqituvchilarning badiiy matnni sharhlab oʻqishni hamda oʻquvchilarning asarni toʻgʻri va imkon qadar yanada chuqurroq ta'minlash maqsadini koʻzda tutuvchi soʻzi;

b) oʻqilgan asardan oʻquvchilarning bevosita olgan taassurotlarini chuqurlashtirish maqsadiga ega boʻlgan va ularning diqqatini matinning muhim gʻoyaviy va badiiy hususiyatlari sari yoʻnaltiradigan suhbat yoki oʻqilgan asardan kelib chiqadigan badiiy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy muammoning qoʻyilishi:

d) o‘qituvchining asar o‘qigandan keyin o‘quvchilar asarni tadqiq etish jarayonida tug‘ilgan badiiy kechinmalarni faollashtirish maqsadida ko‘zda tutuvchi so‘zi [2].

Boshlang‘ich ta’limda o‘qishning uch turidan foydalaniladi.

1. Ovozli o‘qish.
2. Ichdan o‘qish.
3. Shivirlab o‘qish.

Ovozli o‘qish ovozga asoslangan o‘qish bo‘lib, undan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ovozli o‘qishning yakka, jo‘r va rollarga bo‘lib o‘qish usullari mavjud. Yod aytish ham ovozli o‘qishning bir shaklidir. Ichdan o‘qish ham tovushga asoslangan, lekin unda ovozsiz o‘qiladi. Shivirlab o‘qish yarim ovaz bilan o‘qishdir. Malakali kitobxon o‘qishning har uch turni bilish zarurdir. Ovozli o‘qishning ham, shivirlab o‘qishning ham o‘z qo‘llanish o‘rni va afzalliklari hamd kamchiliklarlari bor. Masalan, 2-sinf o‘quvchilari ichda o‘qiganda kam so‘z o‘qiydi,so‘zning ma’nosini tushunmay qoladi, o‘qiganlarining mazmunini to‘liq o‘zlashtira olmaydilar. Psixologik izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qishni endi o‘rganiyatgan o‘quvchilar o‘qilayotgan matnni tushunib borishlari uchun eshitish sezgisiga ham e’tibor qaratganlar.

Ikkinchidan 2-sinf o‘quvchilarida o‘qish ko‘nikmalari yaxshi shakllanmagani uchun ichdan o‘qish jarayonida ayrim so‘zlarni no‘tog‘ri o‘qish natijasida uning ma’nosini tushunmaydilar. Shu sababli ham 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab o‘qishdan foydalaniladi. 3-4 sinflarda ovozli o‘qish bilan birga ichdan o‘qishdan ham foydalaniladi. Bu sinflarda ichda o‘qish mexanik o‘qishga aylanmasligi kerak. Maktablarda o‘qishning uch turi almashtirilib turiladi. 1-2-sinflarda ovozli va shivirlab (pichirlab) o‘qishdan ichda o‘qishga o‘tilsa,3-4-sinflarda o‘qish turlaridan foydalanishda qaysi turi bo‘lmasin chegara qo‘yilmaydi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qishning hamma turiga ham bir xil talab qo‘yiladi, ya’ni o‘qish to‘g‘ri bo‘lishni, tez, ongli, va ifodali bo‘lishi zarurdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki, boshlang‘ich sinflarga savod o‘rgatish juda muhim masalalardan biridir. Ularga dars jarayonida savod o‘rgatish bilan bir qatorda tarbiya berish ham muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, savod o‘rgatishning muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarg‘a “Alifbe” ni mukammal darajada o‘rgatishdir. O‘quvchilarning yozish va o‘qish faoliyati bilan bir qatorda nutqni ham rivojlantirish kerakdir. Ular bir-birlari bilan uzbiy bog‘lanishikdadir. Bo‘shlang‘ich sinf o‘quvchilari ustida ko‘proq ishlash lozimdir. Masalan, dars jarayonida har turli metodlar orqali dars o‘tish kerak. Darsni qancha ko‘plab metodlar orqali o‘tilsa va qiziqarli bolsa shuncha, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan

qiziqishi tobora ortib boradi. Shu orqali o‘quvchilar darsni mukammal darajada o‘rganadilar va savodxonlik darajasi ham yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qasimov,S.Matchanov,X.G‘ulimov, Sh.Yo‘ldasheva, Sh.Sariyev , Ona tili o‘qitish metodikasi, Toshkent, 2009.
2. S.Matchanov, X.Bakiyeva, X.G‘ulomova, Sh.Yoldasheva, G.Holboyeva. " Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi" darslik.: " Ishonchli hamkor" , 2021 .740 b.
3. Hikmatlar.uz .

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA MATEMATIKA KURSINI O‘RGANISHGA TAYYORLASH VA MATEMATIKANI O‘QITISH METODIKASI

Kakabayeva Gurbanjemal
NDPI Boshlang‘ich ta’lim fakultetining 1-kurs talabasi .

Annotasiyaю Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani o‘rg‘atish juda murakkab masalalardan biridir.Shu sababli dars jarayonida ta’lim-arbiya faoliyatini birgalikda olib borish kerak. Boshlang‘ich sinflarda matematikani o‘qitish birinchi bosqichdir, ya’ni bolalarni tayyorlash bosqichidir.Boshlangich matematika kursi bolalar tafakkurini rivojlanishga yordam beradi.Mantiqiy fikirlanishga va aqliy rivojlanishi tobora oshib boradi. Bu bosqichda birinchi navbatda ularga sonlarni sanashni o‘rgatish, qo‘shish va ko‘paytirishni avvalo o‘rgatib olish kerakligi va ularni oldindan tayyorlash kerakligi haqida bayon qilinadi .

Kalit so‘zlar: matematika kursini o‘rganish, matematikani o‘qitish metodikasi, didaktik maqsadlar, darsni tahlil qilish .

So‘nggi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o‘qitish ayniqsa boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘z ko‘lamli va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo‘lgan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Masalan, 1997 yil 27 avgustdagi "Ta’lim to‘g‘risida" qonunning 12-moddasi I-IV sinflarni o‘qitishga bag‘ishlangan.O‘zbekiston Respublikasida "Kadrlarni tayyorlash Milliy dasturi"ning 3.3.1-bandi uzluksiz ta’limni rivojlantirishda I- IV sinflarda o‘qitishni tashkil qilishning rejalari ko‘rsatilgan .
I - IV sinflarda matematikani o‘qitishning asosiy vazifasi bo‘lgan ta’lim - tarbiyaviy vazifalarni hal qilishda ulardagi matematika kursi bo‘yicha qanday darajada tayyorgarligi borligiga bog‘liq. Shuning uchun 1-sinfga kelganlarning bilimlarini aniqlash, sinf o‘quvchilarining bilimlarini tenglashtirish ya’ni past

bilimga ega bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o‘quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O‘qituvchi quyidagi tartibda o‘quvchilar bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi:

1.Nechagacha sanashni biladi ?

2. Nechagacha sonlarni qo‘shishni biladi?

3. Nechagacha sonlarni ayrishni biladi?

4 >, <, = belgilarni ishlata oladimi?

5 . Noma’lumlar bilan berilgan qo‘shish va ayirish bu nama’lumlarni topa oladimi ?

6. Qaysi figuralarning nomlarini biladi va chiza oladi?

7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?

8. O‘ngga, chapga, kam, ko‘p, og‘ir, yengil, teng kabilarni farqlay oladimi?

9. Pul narx, soat, minut, uzunlik, og‘irlik, o‘lchov birliklari bilan muomala qila oladimi? Bolalarga eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvola natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o‘rgatishga tayyorlash bosqichidir. Boshlang‘ich matematika kursi maktab matematika kursining tarkibiy qismidir. Akademik A.N.Kolmogorov V - IV sinflar dasturlari " natural sonlar bilan to‘rt arifmetik amalni bajarishning puxta ko‘nikmalari birinchi to‘rtta sinfdayoq o‘zlashtiriladi, degan faraz kelib chiqadi" deb bejiz aytilgan emas.

Matematika so‘zi grekcha" mathema " so‘zidan olingan bo‘lib, uning ma’nosi fanlarini bilish demakdir. Matematika fanining o‘rganadigan obyekti fazoviy shakllar va orasidagi miqdoriy munasabotlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o‘quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir.

"Metodika " grekcha so‘z bo‘lib " metod" degani "yol" demakdir . Matematika o‘qitish metodikasi eng avvola kichik yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berishning umumiy tizimida ularga matematikani o‘qitish masalalarini qarab chiqadi . Metodikada boshlang‘ich matematika kursining mazmuni va tuzilishi ochib beriladi, ya’ni matematikadan qaysi material boshlang‘ich sinflarda o‘rganishi va nima uchun aynan shu material tanlanishi, boshlang‘ich kursining har qaysi ayrim masalasi umumlashtirishning qanday darajasida o‘rganilishi ko‘rsatiladi. Ma’lumki o‘qitish tarbiyaviy xarakterga ega, binobarin, metodikaning vazifasi - o‘qutuvchini matematika o‘qitishning shunday usullari bilan qurollantirishdan iboratki, bu uslublar yangi insonni, mustaqil jamiyat kishisini tarbiyalashga , o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga imkon bershini o‘quvchilarning matematikaga qiziqishlarini shakllantirsin va rivojlantirish bilan bog‘liqdir.

Har bir darsdan turli xil didaktik maqsadlar ko‘zlanadi. Ular orasida bittasi bosh maqsad bo‘lib hisoblanadi va uni darsning asosiy didaktik maqsadi deyiladi.

Har bir alohida darsning maqsadi darslar tizimining maqsadini aniqlash, uning yordamida o‘qitilayotgan mavzuni va yangi tushunchalarni tushuntirish, ikkinchi holda tanishtirilgan tushunchalarni chuqurlashtirish, uchinchisida, biror malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, to‘rtinchida , bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish bajariladi. Maktablar tajribasi darsning ma’lum tizimini yaratdiki, ko‘pchilik o‘qituvchilar bu tizimga rioya qilib, yuqori natijalarga erishmoqda. Odatda darsning boshida uy vazifasi tekshiriladi yoki o‘tgan mavzu takrorlanadi, keyin o‘tgan mavzu yuzasidan savollar o‘tkaziladi. Yangi mavzu tushintiriladi, va misol masalalar hamda nazorat savollari beriladi. Dars oxirida uyga vazifa va unga ko‘rgazmalar beriladi. Ba’zan maqsadlardan bittasiga bag‘ishlanishi mumkin. Ana shu bitta maqsadni darsning didaktik maqsadi deyiladi va boshqalari unga bo‘ysinadi.

Matematika darsini tahlil qilish va baholash birinchi navbatda uning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatadi. Dars tahlilida uning mazmuni, vaqtning taqsimlanishi, ish bajarish usullari,qo‘llanilgan ko‘rgazma va boshqa didaktik vositalarni ko‘rsatish kerak. Dars tahlili quyidagi yo‘nalishlarda yoritilishi mumkin:

1. Darsning asosiy didaktik maqsadini tushuntirish va asoslash.
2. Dars mazmunining tahlili.

Darsning har bir tomoni o‘quvchilar faoliyatini qanday yo‘naltirishini, undan qaysi o‘rinda faollik va mustaqillik buzilganini , hayojonlanish bo‘lganligini, boshqa tarbiyaviy tomonlar amalga oshirganligini e’tiborga olish kerak.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki, boshlang‘ich sinflarga matematika kursini o‘rgatishda ularga katta e’tibor berish kerak. Ayniqsa tushinmay qolgan yerlarini qayta tushuntirish va ular ustida tinimsiz ishlash kerakdir. Shu bilan birgalikada bolalarni darsga tayyorlashda ularga hamma darsga tegishli bo‘lgan narsalarni o‘rgatish tushuntirish kerak. Misol kilib aytganda , ularga sonlarning yozilishini , sanalishini qanday qo‘shishni, ayrishni, ko‘paytirishni va shunga o‘xshagan narsalarni o‘rgatish katta ahamiyatga egadir. Darsda qo‘llaniladigan metodlar va ko‘nikmalar haqida ham tushinchalar berishlishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.E. Jumayev, Z. G‘. Tadijiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., " Fan va texnologiya" , 2005 .
2. "Matematika o‘qitish metodikasi" O‘quv metodik majmua.
3. G.Tojiboyeva, Z, Shanasirova, A.A. Xo‘jayev, E. Davletov, M. Abdullayeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika metodikasi. Toshkent - 2021.

XALQARO TIJORAT ARBITRAJINING HUQUQIY MAQOMI

Maxmatqulova Saida
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy maqomi, asosiy tushunchalari va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Xalqaro tijorat arbitraji orqali xalqaro savdo munosabatlarida yuzaga keladigan nizolarni samarali hal qilish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy asoslari, jumladan, Nyu-York Konvensiyasi va milliy qonunchilik doirasidagi o‘rni yoritilgan. Xalqaro tijorat arbitrajining afzallik va kamchiliklari amaliy jihatlari bilan tahlil qilinib, uning O‘zbekistonda rivojlantirishga oid tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro tijorat arbitraji, huquqiy maqom, nyu-york konvensiyasi, arbitraj bitimi, tijorat nizolari, arbitraj hukmlari, xalqaro savdo huquqi, o‘zbekiston qonunchiligi.

Kirish. Mavzuning Dolzarbligi: Hozirgi kunda xalqaro tijorat arbitraji xalqaro savdo aloqalaridagi nizolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida e’tirof etiladi. Ko‘plab mamlakatlar o‘z milliy qonunchiliklarida arbitrajni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa korxonalar va tadbirkorlar uchun xalqaro savdoda ishonchni oshiradi.

Asosiy tushunchalar: Xalqaro tijorat arbitraji — xalqaro savdo-sotiqda paydo bo‘ladigan nizolarni hal qilish uchun yaratilgan norasmiy jarayon bo‘lib, bu jarayon tomonlarga o‘z nizolarini odilona va nisbatan tezkor hal qilish imkonini beradi.

Maqsad va vazifalar: Maqolaning asosiy maqsadi xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy maqomini o‘rganish, unga oid xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik asoslarini tahlil qilishdir.

1. Xalqaro Tijorat Arbitrajining Mazmuni va O‘ziga Xosligi

Xalqaro arbitrajning tushunchasi: Xalqaro tijorat arbitraji, odatda, tadbirkorlar va tijorat tashkilotlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal qilishda qo‘llaniladi. Bu jarayonning asosiy xususiyati shundaki, nizolar davlat sudlarida emas, balki mustaqil hakamlar tomonidan ko‘rib chiqiladi. Arbitraj jarayoni taraflarga huquqiy erkinlikni berib, ular o‘z hakamlarini tanlash huquqiga ega bo‘ladilar.

Arbitrajning boshqa nizolarni hal qilish vositalaridan farqi: Arbitraj sud jarayoniga nisbatan ancha tezkor va maxfiy bo‘lib, ayni paytda davlat sudiga nisbatan davlatlarning vakolatlariga kamroq bog‘liq bo‘ladi.

2. Xalqaro Tijorat Arbitrajining Huquqiy Asoslari

Xalqaro konvensiyalar va shartnomalar: Xalqaro tijorat arbitrajiga oid asosiy huquqiy hujjatlardan biri Nyu-York Konvensiyasidir. Bu konvensiya xalqaro

arbitraj hukmlarini tan olish va ijro etish to‘g‘risida bo‘lib, 1958 yilda qabul qilingan va ko‘plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan. Yevropa Arbitraj Konvensiyasi ham xalqaro arbitrajning asosiy huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Milliy qonunchilik: Xalqaro arbitraj har bir davlatning ichki qonunchiligida o‘ziga xos tarzda belgilangan bo‘lib, O‘zbekistonda ham xorijiy hukmlarni tan olish va ijro etish masalalari qonuniy asosda tartibga solingan.

3. Xalqaro Tijorat Arbitrajining Amaliy Masalalari

Arbitraj bitimlari va ularning majburiyligi: Arbitraj shartnomasi tomonlar uchun majburiydir. Shartnoma tuzilganidan keyin tomonlar davlat sudiga emas, balki oldindan kelishilgan tartibda hakamlik sudiga murojaat qilishlari lozim.

Hukmlar ijrosi: Arbitraj hukmlari ko‘plab davlatlarda tan olinib, Nyu-York Konvensiyasi orqali ijro etiladi. Bu konvensiya davlatlar o‘rtasida arbitraj hukmlarini e’tirof etish uchun xalqaro huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

4. Xalqaro Tijorat Arbitrajining Afzallik va Kamchiliklari

Afzalliklar: Arbitraj jarayonining asosiy afzalliklari orasida tezkorlik, maxfiylik, va taraflarning erkinligi mavjud. Bu vosita sudga nisbatan ko‘proq moslashuvchan bo‘lib, tomonlar o‘zlariga qulay shartlarni kelishib olishlari mumkin.

Kamchiliklar: Shunga qaramay, arbitraj jarayoni ancha qimmat bo‘lishi, taraflardan katta moliyaviy resurslar talab qilishi mumkin. Shuningdek, ba’zi mamlakatlarda arbitraj hukmlarining ijrosi qiyin kechishi ham mumkin.

Xulosa. Olingan natijalar: Xalqaro tijorat arbitraji xalqaro savdo munosabatlarida katta ahamiyatga ega. Arbitraj orqali taraflar davlat sudiga murojaat qilmasdan, tezkor va samarali yechimga erishadilar. Shuningdek, arbitraj jarayoni tijorat sirlarini saqlashda ham yordam beradi.

Tavsiyalar: O‘zbekistonda xalqaro tijorat arbitrajining yanada rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, arbitraj jarayonlarini osonlashtirish va xalqaro arbitrajga oid qonunchilikni yanada takomillashtirish lozim. Shu bilan birga, tadbirkorlar uchun arbitraj jarayonini o‘rganish va undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Born, G. B. (2014). International Commercial Arbitration. Kluwer Law International.
2. Moses, M. L. (2012). The Principles and Practice of International Commercial Arbitration. Cambridge University Press.
3. Redfern, A., & Hunter, M. (2009). Law and Practice of International Commercial Arbitration. Sweet & Maxwell.

4. Park, W. W. (2012). Arbitration of International Business Disputes: Studies in Law and Practice. Oxford University Press.
5. New York Convention (1958). Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards.
6. O‘zbekiston Respublikasi "Arbitraj to‘g‘risida"gi qonuni, 2019 yil, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlar bazasi.

SH.SEYTOVTIŃ «XALQABAD» ROMANÍNDAǴÍ FONETIKALIQ QUBÍLÍSLAR

Miyirbek Allamuratov,
QMU, magistrantı

Jámiyette eń zárúrli hám oǵada áhmiyetli xızmetti adamlar ortasında qarım-qatnas jasaw quralı wazıypasın atqaratuǵın til - seslerden quraladı. Oylawdıń pútkilley shınlıqqa aylanıwı til arqalı, yaǵnıy sonıń ishinde, til sesleri arqalı da ámelge asadı. Sonlıqtan da, til biliminde fonetika tarawınıń ornı óz aldına.

Tildegi barlıq yaruslardıń túp mánisi olardıń óz ara integraciya processinde kórinedi. Fonetika hám stilistikanıń ajıralmas baylanısı arqalı fonetikalıq birliklerdiń sheksiz múmkinshilikleri sáwlelenedi. E.Semserevtiń pikirine qaraǵanda: «Sóz, sóz dizbegi hám sóz formaları sıyaqlı sózdegi seslerde de belgili stilistikalıq boyaw boladı. Sóylew seslerindegi emocionallıq, tásirsheńlik, aytılıwdaǵı dawıstıń sıńǵırlawı, esitiwdegi jaǵımlılıq fonetikalıq ózgesheliklerdi payda etedi». Sonlıqtan da, fonetika tildegi seslerdi hám seslerge baylanıslı barlıq qubılıslardı hár tárepleme tolıq izertleydi.

Ótken asirdiń 30-jıllarınan baslap qaraqalpaq tiliniń fonetikası, grammatikası, leksikası hám dialektleri ilimiy sheńberde izertlenile basladı. Bul izertlewge rus ilimpazları, belgili tyurkologlar S.E.Malov, E.D.Polivanov, N.A.Baskakov, A.K.Borovkov hám basqalar oz úleslerin qostı, olar burın izertlenilmey kiyatırǵan qaraqalpaq tilin endigiden bılay izertlewdiń tiykarǵı baǵdarların belgilep berdi.

Qaraqalpaq tiliniń fonetikalıq sistemasınıń izertleniwi tiykarınan 30-jillardıń basınan baslandı. Usı jılları házirgi qaraqalpaq tiliniń fonetikalıq sistemasınıń ayırım maselelerine arnalǵan ilimiy miynetler hám maqalalar jariyalandı. 50-jıllardan soń qaraqalpaq tilin izertlewshilerdiń qatarları jergilikli milliy kadrlar menen tolıstı. Al, 60-jıllardan keyin qaraqalpaq tiliniń barlıq tarawları boyınsha ilimiy-izertlewler keńnen en jaydı hám til bilimi Qaraqalpaqstandaǵı jamiyetlik ilimlerdiń óz aldına bólek bir tarawı sıpatında rawajlana basladı.

Filolog alım A. Abdullayevtıń klassifikaciyasına kóre, fonetikalıq usıl menen máni kúsheytiwdiń tómendegi kórinisleri bar:

1) dawıslını kúshli aytıw (assonans)
2) dawıssızdı qatar qollanıw (alliteraciya)
3) dawıssızdı qabatlaw (geminaciya).

Belgili jazıwshı Sh.Seytovtıń “Xalqabad” romanındağı fonetikalıq ózgeshelikler basqa shıǵarmalardan ajıralıp turadı. Bul shıǵarmada qollanılǵan dawıslı hám dawıssız sesler túrli orınlarda yaǵnıy, anlaut, inlout, auslaut poziciyalarda qollanılǵanlıǵı menen ajıralıp turadı. Mısalı: «Pa-ay, yaman adam-áá! Keńestiń iyti!»- dep sókseń de: Há, Keńesti onnan artıq qorıyman … dep mardıyadı-aw! (3-b) Pa-ay, iyt bolǵanda iyt-á, qorıǵanı húkúwmet! Biziń kópekler de usınday bolǵanda ma!...-dedi ishinen gúrsinip. (4-b) Bul mısallarda -a,-á dawıssız sesleriniń inlaut hám auslaut poziciyalarda qollanılǵanlıǵın kóriw múmkin. Sonday-aq, stillik jaqtan -a hám –á sesleri pikirdiń emocionallıǵın arttırıp qollanılǵan. “Húkimet” sózinde fonetikalıq ózgeris bolıp, “húhúwmet” dep qollanılıp gápke stillik mazmun berip tur.

Dúnyaǵa toyım bar ma, birin eki, ekisin úsh, jılqını úyirlemese de berirek etip, qara mal, qoy janlıqtıń sanın pálenge jetkerende Shımbaylı Baltamurat sharbaqshı, Ámet shaytanshılap bir zawıt salıp, zawıt bolǵanda da bılǵarı zawıt salıp alıwdı árman etip oyer-búyerden dáreklesip, ornın da qolaylastırıp júr edi. (7-b) Keltirilgen mısalda oyer-búyerden sózi eliziya qubılısına ushıraǵan. Yaǵnıy, ol jer, bul jer sózlerindegi sesler túsip qalıwı nátiyjesinde eliziya qubılısı júz bergen. Sonday-aq, bul mısalda “zavod” sózi fonetikalıq ózgeshelikke ushıraw arqalı “zawıt” dep qollanılǵan. Bul da shıǵarmanıń stillik ózgesheligin arttıradı.

Se-eniń óziń ne baǵıp júrseń! Ǵázeplendi túgilip – Nókis, Úsen jap, Xalqabad, Jalpaq jap… (10-b)

-Ooooy, atım qurısın, Shotan ǵoy,-edi kisi. Urıwım tórt qara. (31-b)

S.Marshak: «Qosıqta tek ǵana hárbir sózge, bálki hárbir dawıs, hárbir dawıslı, hárbir dawıssızǵa máni júkletiledi»-deydi. Lekin, tek ǵana poeziyada emes, prozada da sesler, fonemalar ayrıqsha áhmiyetke iye. Bunday seslik ózgeshelikler Sh.Seytovtıń “Xalqabad” romanında da jiyi ushırasadı. Atap atqanda, “-Mıltıǵımdı oq jańqalap edi, birewi oń qolday etip bere qoydı, him, soǵan isletke-en! Voobshem, húkúwmette miy bar, taǵı isletkende!”(75-b)

Bunıń jóni shundıy boladı, ǵoshshım Esirkep,-dep qoydı maqtanıshlı túrde. (96-b) Keltirilgen mısallarda sózlerge ózgeris kiritiliwi arqalı avtordıń stillik sheberligiashıp berilgen.

Seniń bunıń qız ayttırıw emes, qudaǵayıńdı bassını-ıw, usınıń nesi bar dep, xorla-aw. Ba-aay, bay, Tóleke-aw, bala ekenseńǵo!... dedi jambasına urıp. (51-b)

-Ájaǵamdı, waaay-way, basbashılar, waaay way, atıp ketti, waaay-wayy!... – usı dawıs tańǵı tımıqtı tebirendirip, dıbıs jeter jerdegi qońısı-qobanı tik ayaqtan turǵızdı. (5-b)

Keltirilgen mısallarda dawıslı seslerdiń barlıq poziciyalarda jumsalǵanlıǵın kóriwge boladı. Al, seslerdi qaytalaw arqalı shıǵarmanıń emocionallıǵı ańlatılǵan. Nátiyjede, kitap oqıwshısına da shıǵarmanıń túsinikliligi artadı.

Qaraqalpaq ádebiyatında óz ornına iye «Xalqabad» roman-tetralogiyası mazmunı jaǵınan da, tildiń túrli birliklerinen paydalanıp jazılǵanlıǵı menen ajıralıp turadı. Usı orında shıǵarmanıń fonetikalıq ózgesheliklerin tereńirek anıqlaw házirgi kúnniń áhmiyetli máselelerinen bolıp esaplanadı. Keltirilgen mısallardaǵı dawıslı sesler sózlerdiń barlıq ornlarında qollanılǵanlıǵın kóriwge boladı. Shıǵarmanıń seslik ózgeshelikleri ondaǵı emocional-ekspressivlikti sáwlelendiriwde xızmet etedi. Sonlıqtan da, sońǵı jılları shıǵarmalardaǵı fonostilistikalıq ózgesheliklerdi anıqlawǵa dıqqat qaratılmaqta.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан.1983.
2. Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o„rni. O’zbek tili va adabiyoti.Toshkent: Fan.2009, № 4. B. 81.
3. Adizova N. Erkin Vohidov dostonlarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Academic Research in Educational Sciences VOLUME 3 | ISSUE 1 | 2022.
4. Dawletov A. Til bilimi tiykarları. No’kis. Bilim, 2007.
5. Дәўлетов А. Ҳәзирги қарақалпақ тили Фонетика. Нөкис, 2005.

MASOFAVIY TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA O‘QITISH

Po‘latova S.M.
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti.

Tadqiqotning maqsadi. Masofaviy ta’lim – bu zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish va o‘rganish jarayonini tashkil etishning samarali shakli bo‘lib, o‘quvchilarga jismoniy joydan qat’i nazar, internet orqali bilim olish imkonini beradi. U global miqyosda ta’limni demokratlashtirish, vaqt va joy cheklovlaridan xalos bo‘lish imkonini yaratadi.

Masofaviy ta’limning afzalliklari:

a) Moslashuvchanlik: Talabalar o‘z vaqtlarini va o‘rganish jadvalini mustaqil ravishda belgilay olishadi.

b) Geografik cheklovlarsiz ta’lim: Turli geografik hududlarda yashovchi talabalar ham bir xil ta’lim dasturidan foydalanishi mumkin.

c) Texnologik imkoniyatlar: Multimedia materiallari, interaktiv dasturlar va onlayn seminarlar orqali bilim olish jarayoni boyitiladi.

d) Keng resurslar: O‘quvchilar internet orqali turli manbalardan, ma’lumotlardan foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning usullari.

a) Texnologik ta’minot: platformalar, qulay interfeys va doimiy texnik qo‘llab-quvvatlash.

b) Interaktivlik va takrorlash imkoniyatlari: Video darslar, vebinarlar va testlar orqali bilimni mustahkamlash.

c) O‘qituvchining faol roli: O‘qituvchilar masofaviy ta’limda faqat kontent taqdimotchisi emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator sifatida harakat qilishlari kerak.

Masofaviy ta’limning kelajagi rivojlanishda davom etmoqda. O‘qitish va o‘rganish jarayonini takomillashtirish uchun sun’iy intellekt kabi innovatsion vositalar qo‘llanilmoqda. O‘z navbatida, ta’lim tizimlari global miqyosda yanada moslashuvchan, shaffof va samarali bo‘lib boradi.

Masofaviy ta’limda kutilayotgan natijalar bir nechta omillar orqali shakllanadi.

Masofaviy ta’lim talabalarga vaqt va joyga qarab ta’lim olish imkonini beradi. Bu talabalar uchun o‘z jadvalini tuzish, boshqa majburiyatlarni bajarish yoki uzoq hududda yashash kabi omillarga moslashish imkonini yaratadi.

Masofaviy ta’limda texnologiyalardan keng foydalanish talab qilinadi. Bu esa talabalarga raqamli savodxonlikni rivojlantirish, onlayn platformalar va ilovalardan foydalanishni o‘rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, bu ko‘nikmalarni kasbiy hayotda qo‘llash ham muhimdir.

Onlayn ta’limni samarali tashkil etish orqali o‘qituvchilar individual yondoshuvni taqdim etishlari mumkin, bu esa talabaning o‘ziga xos ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Video darslar, interaktiv mashqlar, forumlar va boshqa resurslar orqali ta’lim sifati yanada yaxshilanadi.

Masofaviy ta’limda o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi muloqotning ko‘pligi va tezligi muhim ahamiyatga ega. Onlayn guruhlar, videokonferensiyalar, chatlar va e-mail orqali muntazam aloqada bo‘lish talabalar uchun qo‘shimcha yordam olish imkoniyatini yaratadi.

Masofaviy ta’limda talabalar o‘z vaqti bilan ta’lim resurslariga (kitoblar, video darslar, maqolalar) kirish imkoniga ega. Bu ularni o‘z o‘quv materiallarini mustaqil o‘rganishga undaydi va ta’lim jarayonining sifatini oshiradi.

Masofaviy ta’lim talabalardan o‘z vaqtlarini rejalashtirish, o‘zini boshqarish va motivatsiyani saqlashni talab qiladi. Masofaviy ta’lim orqali talabalar

dunyoning turli burchaklaridan o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu global ta’lim resurslariga kirish va turli xil madaniyat va bilimlar bilan tanishish imkoniyatlarini yaratadi.

Masofaviy ta’limda o‘qitishning turli usullari qo‘llaniladi: video darslar, testlar, forumlar, ma’ruzalar, virtual laboratoriyalar va boshqalar. Bu ta’limda ijodkorlikni va innovatsiyani rivojlantiradi, talabalar uchun eng samarali usulni topishga yordam beradi.

Masofaviy ta’limda turli kurslar va dasturlar mavjud, bu esa talabalarga o‘qishni o‘zlarining qiziqishlariga mos ravishda davom ettirish imkoniyatini yaratadi. Masalan, kasbiy malaka oshirish kurslari yoki yangi yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olish mumkin.

Xulosa:Masofaviy ta’lim jamiyatning ta’lim olish tizimini yangilash va global darajada teng imkoniyatlar yaratishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, uning samarali bo‘lishi uchun texnik ta’minot, o‘qituvchilarning malakasi va talabalar motivatsiyasi kabi omillarni hisobga olish zarur.Masofaviy ta’limning kutilayotgan natijalari o‘quvchilarni yanada erkin va moslashuvchan ta’lim jarayoniga jalb qilish, texnologiyalarni samarali qo‘llash, o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslashish va global imkoniyatlardan foydalanishga imkon yaratadi. Shuningdek, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalari uchun innovatsion yondoshuvlar va ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlarini taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022 — 2026-yillarda xalq ta‘limini rivojlantirish bo_yicha milliy dasturni tasdiqlash to_g_risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PF-134-son farmoni va uning 1-ilovasi – // Elektron manba. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi
2. Федоров А.В. Медиаобразование в зарубежных странах. Монография // – Таганрог: Изд-во Кучма.
3. Maqsudov U. B. Q. Eraliyev Y. L., Qosimova G. Ta‘limda multimediali vositalardan foydalanishning pedagogic xususiyatlari.2022.-№11

QIZILQUMNING SHIMOLIY SHARQIY QISMIDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR

Muminov Orifxuja Odilovich
O`zbekiston Fanlar Akademiyasi
Milliy arxeologiya markazi,
kichik ilmiy hodimi va tayanch doktaranti
Tel:+998945330601

Novoiy viloyati Konimex tumanining shimoliy qismida joylashgan Uchtepa OFY (ovul fuqoralar yig`ini) hududida arxeologik kuzatuv-qidiruv ishlari amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi hamda Abu-Dabidagi Nyu-York universiteti korporatsiyasi, Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasida ilmiy hamkorlikda ishtirok etildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda quyidagi kichik maqsadlar reja qilib olindi:

Dala qidiruv ishlarida - mahalliy aholidan atrof landshafti va arxeologik salohiyatni o‘rganish;

Arxeologik va antropologik materiallar uchun maqsadli hududlar bilan tanishish;

Masofadan aniqlangan, tushinish qiyin bo‘lgan turli ko‘rinishdagi manzillar va landshaft xususiyatlariga aniqlik kiritish;

2024-yilda yanada keng qamrovli mavsum uchun tadqiqot usullari va yo‘nalishlarini aniqlash;

Uchtepa OFY O‘zbekiston-Qozog‘iston chegarasidan 38 km g‘arbda joylashgan. Janubiy-g‘arbda taxminan 110 km uzoqlikda Nurota tuman markazi, shimoliy g‘arbda 375 km masofada Qozog‘istonning Qizilo‘rda viloyati joylashgan. Uchtepaning koordinatasi: N.41.501158° E.66.155253°, dengiz sathidan 240 m balandlikda joylashgan (1-rasmga qarang).

Tadqiqot olib boorish uchun Uchtepa hududi ikki pragmatik sababga ko‘ra tanlandi: birinchidan- Qizilqumning shimolida joylashgan qadimiy shaharlardan, janubiy shaharlarga Qizilqum orqali olib boruvchi yo‘l ustida joylashgan ob‘ektlarni aniqlash (agar bor bo‘lsa); Ikkinchisi- hudud atrofida qadimgi antropogen omillarini aniqlash va ro‘yxatga olishdan iborat edi.

Shuni qo‘shimcha qilib aytish kerakki qadimda savdogarlar sahroni kesib o‘tishda qiyinchiliklarga uchrashgan, shu sababli doimiy qatnov yo‘llarda yo‘lovchilar uchun muddatli dam olish joylari tashkil qilingan (uning atrofida suv va qulay joy bo‘lish kerak). Arab sayyohi Ibn Battuta o‘z yozmalarida sahrolar haqida aytib o‘tgan: “Odatda bu sahrodan o‘tadigan kishilar yem-xashak yetishmasligi sababli jadal yo‘l bosadilar. Tuyalarning ko‘pchiligi shu sahroda

nobud bo‘lib ketadi, qolganlarini esa bir yildan so‘ng, kuchga to`lgandan so`ng qayta ishga solish mumkin. Sahroda har ikki yoki uch kunlik masofadagi sardobalardagina suv bo‘ladi, bu yomg‘ir va quduq suvidir” (Ibn Batuta, 2012. 358 b).



1-rasm. Uchtepa ovulining Qizilqum cho‘lidagi joylashuvi.

Uchtepa – (1-rasmga qarng) 1964-yilda tashkil etilgan, o‘sha paytda u yerda kam sonli oilalar yashagan bo‘lib (3-5 sonli oila), bugunga kelib aholisini soni 2263 kishi va 6 ta ovul 512 ta oiladan iborat. Uchtepadan 20 km shimolda joylashgan Kendala ovuli (yoki Espan quduq) joylashgan bo‘lib, Uchtepa tashkil topishidan oldin aholi asosan o‘sha yerda yashashgan. Bir vaqtlar bu yerda ko‘plab quduqlarning qurib qolishi va qum barhanlarining uchib kelishi chorva uchun noqulayliklar olib kelgan, shu sababli aholining katta qismi ko‘chib, tarqalib ketgan. Hozirda Uchtepa hududida yerosti sizot suvlaridan keng foydalanish sharoiti yo‘lga qo‘yilgan (4 ta suv uchun bashniya bor) va bu antrapogen lanshaftining kengayishiga sabab bo‘lgan. Geolog Yusupov shundau yozadi: Odatda sahro, cho‘l mintaqalari 5-10 marta ko‘p yog‘in yog‘adigan tog‘lik hududlar bilan chegaralangan bo‘ladi. Tog‘lik hududlardagi yer osti suvlari ko‘rilayotgan hududlardagi suv zaxirasini ko‘paytirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu ozuqalanish mintaqalaridan tashqari sahro, cho‘l va yarim cho‘l hududlarida sizot suvi oqimlarini hosil qiluvchi mahalliy manbalar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi oqibatlari ta’siriga ko‘proq moyil bo‘lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Shu sababli iqlimning isib borishi (glabal isish. https://hydromet.uz/uz/node/609) Uchtepa aholisining kundalik hayotida ham katta qiyinchiliklarni olib keldi. Asosan chorva bilan shug‘ullanuvchi mahalliy aholi chorvani boqish va sug‘orishda katta muammolarga duch kelmoqda. Shuni aytib o‘tish kerakki Uchtepaning aholisi o‘zbek, qozoq, va qoraqalpoq millatlaridan iborat, ularning katta qismi etnik qozoqlar bo‘lib, asosiy mashg‘uloti chorvachilikga ixtisoslashgan.

Bizning masofaviy zondlash tadqiqotimiz davomida aniq arxeologik joylar aniqlanmadi. Biroq Uchtepa atrofida antropogen ob’ektlarning ko‘plab zich

joylashishi bizni qiziqtirgan edi. Shu sababli masofadan belgilab olingan hududlarni xaritasi tuzilib, reja asosida joylar ketma-ketlik tarzida ko‘zdan kechirildi. QGIS dasturi orqali biz masofadan taxminan 42 x 14 km o‘lchamli to‘rtburchak shaklda hudud belgilab oldik va kuzatuvimiz orqali hudud ichidan antropogen joylarni ajratib oldik. Bu joylarning har birini oralig‘i taxminan 0.42 km masofada joylashganligi bizga ma’lum bo‘ldi. (2-rasmga qarang).



2-rasm. Masofodan zondlash orqali olingan nuqtalar..

Bizning dala tadqiqotimizda belgilangan joylarga borildi va tegishli xulosalar qo‘lga kiritildi. Hududlarni ko‘zdan kechirish jarayonida ob’yektlarni bir-biriga bog‘lovchi yo‘llar va ko‘plab otarlar, qo‘tonlar, cho‘pon uylari va quduqlar aniqlandi. Lekin afsuski karvonsaroylar kabi “arxeologik” deb ta’riflanishi mumkin bo‘lgan qal’alar yoki boshqa inshootlar uchramadi (yoki bo‘lmasam qumning ostida qolib ketgan). Tanlangan ob’yektlarning katta qismi chorvodorlarga tegishli quduqlardan iborat ekan. Shunday bo`lsada biz qadimgi quduqq o`rinlarini topdik va atrofin ko`zdan kechirdik.

Biz masofadan belgilab olgan ob’ektlarga borishda kutilmagan texnik noqulayliklar sodir bo‘ldi, shu sababli mahaliy aholi tomonidan olingan yangi ma’lumotlar asosida ish boshladik. Ish jarayonida yettita eski ovullar va 50 dan ziyod eski quduqlar ko‘zdan kechirildi. Yo‘lboshchimiz Murot Norkamolov bilan birgalikda diqqatga sazovor joylar ko‘zdan kechirildi. GPSdan olingan ma’lumotlar orqali yangi xarita yaratildi . (4- rasm).





Gidroxarita.

4-rasm Mahalliy aholi tomonidan olingan ma’lumotlar asosida tuzilgan yo‘l va ob’ektlar xaritasi.

Shuni aytib o‘tish kerakki Uchtepa ovuli o‘ta kontinentalligi va quruqligi sababli yer usti oqar suvlari deyarli uchramaydi. Hozirgi kunda aholini va chorvachilikni ta’minlaydigan chuchuk suv zaxiralarini quduqlar, va artezan suvlari tashkil qiladi.

Aytish mumkinki bu arid[35] hududlarni, qadimgi odamlar tomonidan o‘zlashtirilishi juda noqulay bo‘lsada, lekin bu yerlarda juzg‘un (qandim) yordamida quduqlar qurib podachilik va konchilik bilan shug‘ullanganlar.

Bu hududlar qadimgi davrlarda kam sonli aholining doimiy yoki mavsumiy yashashi podachilik, konchilik, karvon yo‘llariga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda ham Qizilqum aholisining ko‘pchiligi asosan chorvachilik bilan shug‘ullanadi.

[35] Arid o‘lkalar (lot. aridus — qurg‘oqchil) — cho‘l iqlimli o‘lkalar.



Topilmalardan parcha

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibn Battuta. “Sayohatnoma”. “Tuhfat an-nuzzor fi g‘aroib al-amsor va ajoib al-asfor”. Toshkent-2012. 358 bet.
2. Yusupov G‘.U., Xolbayev B.M. Geologiya va gidrogeologiya asoslari. Toshkent-2005.
3. Serik Shұqыn, Qұt darыg‘an Qыzыlqұm *("Qыzыlqұm" shirket qojalыg‘ыnың 40 jыldыq merey toyына oray)*
4. https://hydromet.uz/uz/node/609

"THE USE OF PERCUSSION INSTRUMENTS IN THE DEVELOPMENT OF UZBEK MUSIC PERFORMANCE"

Mamajonova Dildorakhan Abdurakhmonovna
K.S.P.I. 13.00.02 - doctoral student. specializing in the theory and methodology of education and training.

Abstract. This article describes the use of percussion instruments in the development of Uzbek music, the majestic path of music in the process of development. The old, extremely rich and beautiful traditions of Uzbek folk music are first of all given the concept of its unique local style.

Key words: status, method, instrument, music, traditional performance, music, art, percussion, drum, circle, ensemble.

The fact that our Uzbek national music art, which has been preserved for thousands of years, has not lost its value, shows how deeply rooted it is in the treasure of our music. In addition, as a result of the serious attention given to our national music art by our government, this rare musical heritage, which has been

polished for several centuries, has taken a strong place in our lifestyle and life today. The decision of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev on April 6, 2018 "On holding the international status art conference" also creates the ground for the further development and improvement of the Uzbek national music art, our statuses. In addition, the Maqom Ensemble named after Yunus Rajabi, the establishment of Maqom groups in the regions, the establishment of specialized Maqom schools and the Uzbek National Music Art Institute named after Yunus Rajabi create the ground for further strengthening and mastering of Maqom in our country. For example, if we look at the performance of our national music, skillful young people are increasing even in the remote areas.

We know that the method is one of the main means of expression in status performance. At the same time, we found it permissible to dwell on the words of the instrument, in addition to clarifying the importance of percussion instruments in the performance of status. By the beginning of the 21st century, attention to percussion instruments increased, and the composition of ensembles was expanded, not limited to the circle of maqam performance, but also including tabla and drum instruments.

First of all, the method determines the rhythm of the statuses, whether they are performed in a restrained or moving tone and serves to create a spirit. How the method is performed prepares the listener for the theme of the piece. With this importance, percussion instruments have their unique place in performance.

The group of percussion instruments known since ancient times included drum, chindovul, hurdy-gurdy and circle. One of them is a circle - a percussion instrument with no clear pitch, common in Uzbek musical instruments. In the circle, the system of methods was called "bum", "bak", "bakka" by teachers from long ago. The circle was called "dapp" in Khorezm, "doiradast" in Bukhara, "chirmanda" in Ferghana, and "doira" in Samarkand. Percussion is important in the performance of the maqam, and there are instrumental sections. Shashmaqam consists of six maqams and is divided into two parts: Mushkilot, that is, instrumental section, and Nasr singing section. The Mushkilot section consists of Tasnif, Tarji, Gardun, Mukhammas and Sakil musical instruments. The parts of the instrument are added in the statuses with their proper names. These instrumental tracks of Shashmaqom are carefully and complexly created in terms of melodic structure, and they are distinguished by their special impact on people.

Nowadays, musical instruments with percussion such as trumpet, trumpet, drum and circle are used in holidays and cultural ceremonies. The best circle performers in our country are Rustam Boltaev, Talib Temirov, currently Qudratilla

Samadov, Inomjon Dadaboev, Shukurjon Azimov, The Abduramz Azimovs have been organizing their circle ensemble and presenting Uzbek national methods to our art-loving people. We cannot imagine any of our national music without a percussion group.

A drum is a percussion instrument. There are many types of drums. It is made of wood and ceramic. The top is covered with animal skin. Together with the double drum, trumpet and trumpet, it forms the Uzbek national ensemble. Nowadays, it is widely used in weddings and shows, and it is also used in status performance, which adds a special new tone. Tabla, another sibling of percussion instruments, is an Indian musical instrument. The performer plays the tabla in different ways by hitting it with fingers and palms. Tabla is performed as a soloist and as the main accompaniment in various classical ensembles. This instrument is popular with Uzbek national music with its special tone.

In conclusion, we can say that by the present time, we can see that the performers of status have become much younger in terms of age. From year to year, talented musicians are growing up among the youth, playing our national melodies on the world stage and receiving applause from the audience. We can also see such achievements in percussion instruments. Our national percussion instruments, which provide leading methods in the creation of true national tone, spirit, and content, will continue to interest world artists in the future.

List of used literature

1. Mirziyoev Sh.M. together we will build a free and prosperous, democratic country of Uzbekistan. - Tashkent, Uzbekistan, 2016. - 16 p.
2. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Uzbekistan, 2017 – 17 p.
3. History of Uzbek music. M., 1981.
4. Egamberdieva T.A. Modern factors of women's participation in the public administration system of Uzbekistan. Fergana, 2020. - 72 p.
5. History of Uzbek music. A. Jabborov, S. Begmatov, M. Azamova. Tashkent
6. Science and Technology, publishing house-2018.

НОАНЪАНАВИЙ МОЙЛИ ЭКИНЛАР УРУҒЛАРИНИНГ ЛАБОРАТОРИЯ УНУВЧАНЛИГИНИ БАҲОЛАШ

Бахрамова Нилуфар Назаровна
Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институти, қ, х,ф,ф.,к.и.х

Аннотация. Ушбу мақолада Қашқадарё вилояти шароитида ноанъанавий мойли экинлар синовини ўтказиш ва замонавий етиштириш технологияларини яратиш мавзусидаги амалий лойҳаси доирасида ўрганилган ноанъанавий мойли экинлардан рыжик, мойли турп, рапс экинларнинг лаборатория унувчанлиги бўйича натижалари баён этилган

Калит сўзлар: мойли турп, рыжик, рапс, лаборатория, унувчанлик, илдиз узунлиги, дала.

Аннотация. В данной статье представлены результаты о лабораторного всхожести нетрадиционных масличных культур рыжика, редька масличного и рапса изученных в рамках практического проекта на тему “Провести испытание нетрадиционных масличных культур и создание современных технологий возделывания в условиях Кашкадарьинской области”

Ключевые слова: масличный редька, рыжик, рапс, лаборатория, всхожест, длина корня.

Abstract. This article presents the results of laboratory germination of non-traditional oilseed crops of camelina, oilseed radish and rape studied within the framework of a practical project on the topic “Conduct testing of non-traditional oilseed crops and creation of modern cultivation technologies in the conditions of the Kashkadarya region”.

Key words: oilseed radish, camelina, rapeseed, laboratory, germination, root length.

Кириш. Рапс— карамдошлар оиласининг Brassica авлодига мансуб бир йиллик мойли ва емхашак экини ҳисобланади. Кузги (V. binnis) ва баҳорги (V. appua) турлари мавжуд. Уруғи 1—3°С да униб чикади, 15—20С° да яхши ўсиб ривожланади [5].

Рыжик-карамдошлар оиласининг Camelina sativa Crant авлодига мансуб бир йиллик ўсимлик. Рижикнинг ватани Жанубий Шарқий Осиё ва Европанинг шарқи ҳисобланади. Бегона ўсимлик ҳолидан маданий экин сифатида экилиши 19-асрда Россия ва Францияда бошланган. Рыжикнинг табиатда 2-та тури учрайди: баҳорги - C.sativa Cranyz. ва кузги- C.silvestra Waller. Рыжик уруғи 1°С уна бошлайди. 10-12°С ҳароратда тез униб чиқади[6].

Мойли турп-карамдошлар оиласининг Raphanus sativus L. var. oleifera Metzg. авлодига мансуб бир йиллик ўсимлик. Уруғлари 1-2°С уна бошлайди. 7-8°С ҳароратда тез униб чиқади [7]. Кўплаб адабиётларда келтиришича ноанъанавий мойли экинлар жуда мослашувчан экин бўлиб, турли хил муҳит шароитларига мослаша олади [3,5].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ҳозирда Қашқадарё вилояти шароитида ноанъанавий мойли экинлар синовини ўтказиш ва замонавий етиштириш технологияларини яратиш мақсадида Жанубий деҳқончилик илмий тадқиқот институтида ноанъанавий мойли экинлардан рыжик, мойли турп, рапс экинларнинг лаборатория ва дала синовдан ўтказилмоқда. Бунда, уруғларининг лаборатория унувчанлигини аниқлаш ГОСТ 12038-84, дала унувчанлиги “Дала тажрибаларини ўтказиш услублари”[3] бўйича олиб борилди.

1-Жадвал.

Лаборатория шароитида уруғларини унувчанлиги.

№	Экин тури	Униш энергияси, %	Унувчанлик, %	Илдиз узунлиги, см
1	Мойли турп	86,7	96,7	3,1
2	Рапс	92,0	98,0	3,0
3	Рыжик	100	100	2,1

Лаборатория натижаларига кўра, рыжик уруғларини униб чиқиш энергияси ва унувчанлиги юқори бўлиб, 100%ни ташкил этди. Мойли турпнинг ва 3 кунда уруғларнинг униб чиқиш энергияси 86,7-92,0% ташкил этди (1-жадвал). Мойли турп экиннинг унувчанлиги 96,7%, рапс экининг 98,0% ташкил этиб, ушбу экинларнинг илдиз узунлиги 3,0-3,1 см бўлганлиги аниқланди. Рыжик экининг илдиз узунлиги 2,1 см ташкил этган ҳолда, рапс ва мойли турп экинга нисбат паст бўлганлиги кузатилди.

Уруғларни ўз муддатида ундириб олиш учун экишда фойдаланиладиган уруғларни лаборатория унувчанлигини аниқлаб олиш, уларни давлат андоза талабларига тўла мос келиши зарур [1].

Хулоса: Ноанъанавий мойли турп, рапс ва рыжик экинларнинг лаборатория унувчанлиги 96,7-100%, ташкил этиб, рыжик экининг унувчанлиги 2,0-3,3 юқори бўлиши аниқланди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Бахрамова.Н С. Қишлоқ хўжалик экинларини ўз вақтида сифатли ундириб олишнинг лаборатория унувчанлигига боғлиқлиги // O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi. 2024. № 3. 48-49 Б.
2. Беляков А. М., Буянкин В. И., Гурова О. Н. Потенциал масличных культур семейства капустных // Земледелие. 2009. №5. С. 11-12

3. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари – Тошкент, 2007. 147 б.
4. Прахова Т. Я. Разнообразие масличных капустных культур в Пензенском НИИСХ //Фермер. Поволжье. – 2017. – №. 3. – С. 47-48
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Raps.
6. https://ru.wikipedia.org/wiki/Rijik.
7. https://ru.wikipedia.org/wiki/Редька.

ZAMONAVIY PROFESSIONAL BOKSDA YANGI TENDENSIYALAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Qilichev To'lqin Maxmurovich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universieti
Boks nazariyasi va uslubiyoti kafedrasi professori

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy professional boksda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va yangi tendensiyalarni tadqiq etishga bag'ishlangan. Professional boksning raqamli transformatsiyasi, innovatsion texnologiyalar va ularning sport sohasidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida professional boksning rivojlanish yo'nalishlari va istiqbollari aniqlangan.

Kalit so'zlar: professional boks, raqamli texnologiyalar, smart texnologiyalar, VR/AR, sun'iy intellekt, sport analitikasi

Аннотация. Эта статья посвящена применению цифровых технологий и исследованию новых тенденций в современном профессиональном боксе. Проанализированы цифровая трансформация профессионального бокса, инновационные технологии и их значение в спортивной сфере. В результате исследования определены направления и перспективы развития профессионального бокса.

Ключевые слова: профессиональный бокс, цифровые технологии, смарт-технологии, VR/AR, искусственный интеллект, Спортивная аналитика

Abstract. This article is devoted to the application of digital technology in modern professional boxing and the study of new trends. The digital transformation of Professional boxing, innovative technologies and their importance in the field of sports are analyzed. As a result of the study, the development directions and prospects of professional boxing were determined.

Keywords: professional boxing, digital technology, smart technology, VR / AR, artificial intelligence, sports analytics

Kirish. Professional boks XXI asrda jiddiy texnologik transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Raqamli texnologiyalar va innovatsion yechimlarning jadal rivojlanishi bu sport turining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Mashg'ulot

jarayonlaridan tortib musobaqalarni tashkil etishgacha - barcha yo'nalishlarda zamonaviy texnologik yechimlar qo'llanilmoqda.

Williams [2] ta'kidlaganidek, zamonaviy professional boksda raqamli transformatsiya muhim rol o'ynamoqda. Smart-sensorlar, VR/AR texnologiyalari, sun'iy intellekt tizimlari va boshqa innovatsion yechimlar sport natijalarini yaxshilash, shikastlanishlarning oldini olish va musobaqa jarayonlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi professional boksda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va yangi tendensiyalarni o'rganish, ularning sport sohasidagi ahamiyatini baholash hamda istiqbolli yo'nalishlarni aniqlashdan iborat.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqot metodologiyasi tizimli tahlil va kontent-tahlil usullariga asoslangan. Professional boks va raqamli texnologiyalar bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar va xalqaro tajriba o'rganildi.

Williams [2] zamonaviy professional boksda raqamli transformatsiyaning ahamiyatini o'rganib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlagan: smart-sensorlar, VR/AR texnologiyalari, sun'iy intellekt tizimlari. Uning tadqiqotlari raqamli texnologiyalarning sport natijalariga ta'sirini ko'rsatib bergan.

Peterson va Jones [3] professional boksda sun'iy intellekt tizimlarining qo'llanilishini tahlil qilib, ularning mashg'ulot jarayonlari va musobaqa tahlilida muhim rol o'ynashini aniqlagan. Ularning fikricha, AI texnologiyalari sportchi harakatlarini tahlil qilish, taktik qarorlar qabul qilish va shikastlanishlarni bashorat qilishda samarali vosita hisoblanadi.

Rus tadqiqotchilari Petrov va Ivanov [4] raqamli texnologiyalarning professional boksda qo'llanilish xususiyatlarini o'rganib, ularning sport rivojiga ta'sirini baholagan. Ularning xulosalariga ko'ra, raqamli transformatsiya professional boksning barcha jabhalarini qamrab olishi kerak.

Ahmadov [5] O'zbekistonda professional boksning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Chen va Li [6] Osiyo mintaqasida professional boksning raqamli transformatsiyasi masalalarini o'rganib, mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda rivojlanish strategiyasini taklif etgan.

Brown [7] ning tadqiqotlari VR/AR texnologiyalarining professional boksdagi ahamiyatini ochib bergan. Virtual va qo'shimcha reallik tizimlari mashg'ulot jarayonlarini takomillashtirish, musobaqa tahlili va muxlislar bilan ishlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Smith [8] ning ishlarida professional boksda raqamli marketing va raqamli platformalarning roli tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli texnologiyalar sport

brendlarini rivojlantirish, muxlislar bazasini kengaytirish va daromadlarni oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy professional boksda raqamli texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ularning samarali qo'llanilishi sport natijalarini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va umumiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Adabiyotlar tahlili zamonaviy professional boksda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini berdi. Williams [2] tadqiqotlariga ko'ra, smart-sensorlar va monitoring tizimlari sportchilarning jismoniy holati, texnik harakatlari va charchoq darajasini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bu mashg'ulot jarayonlarini optimallashtirish va shikastlanishlarning oldini olishga yordam beradi.

Brown [7] ning tadqiqotlari ko'rsatganidek, VR/AR texnologiyalari mashg'ulot jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Virtual reallik tizimlari texnik-taktik mahoratni oshirish, musobaqa vaziyatlarini modellashtirish va ruhiy tayyorgarlikni ta'minlashda samarali vosita hisoblanadi. AR texnologiyalari esa musobaqa jarayonida sportchi va murabbiyga zarur ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

Peterson va Jones [3] ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt tizimlari sport analitikasida inqilob yaratmoqda. AI texnologiyalari raqiblarning taktikasini tahlil qilish, optimal strategiyani tanlash va natijalarni bashorat qilishda qo'llanilmoqda. Machine learning algoritmlari sportchi harakatlarini tahlil qilib, texnik xatolarni aniqlash va bartaraf etishga yordam beradi.

Smith [8] ning xulosalariga ko'ra, raqamli platformalar professional boksning ommaviyligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Zamonaviy raqamli marketing va ijtimoiy media platformalari sport brendlarini rivojlantirish, muxlislar bazasini kengaytirish va daromadlarni oshirishga xizmat qilmoqda. Streaming xizmatlari va interaktiv platformalar musobaqalarni keng auditoriyaga yetkazish imkonini bermoqda.

Petrov va Ivanov [4] ning tadqiqotlari raqamli texnologiyalar professional boksning mashg'ulot jarayonlari, musobaqa tashkil etish, sport tibbiyoti, marketing va PR, muxlislar bilan ishlash hamda moliyaviy boshqaruv kabi barcha jabhalarini qamrab olayotganini ko'rsatgan.

Chen va Li [6] Osiyo mintaqasida professional boksning raqamli transformatsiyasi xususiyatlarini o'rganib, an'anaviy yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarning optimal nisbatini topish muhimligini ta'kidlagan. Ahmadov [5] ning tadqiqotlari esa O'zbekistonda professional boksning rivojlanish istiqbollarini

ko'rsatib, raqamli texnologiyalarni joriy etish sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonini berishini asoslagan.

Professional boksda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi sport natijalarining yaxshilanishi, xavfsizlik darajasining oshishi, mashg'ulotlar samaradorligining ortishi, musobaqa tashkil etish sifatining yuksalishi, marketing va PR faoliyatining takomillashuvi hamda moliyaviy ko'rsatkichlarning o'sishiga olib kelmoqda. Biroq, raqamli transformatsiya jarayonida texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi, malakali kadrlar tayyorlash zarurati, moliyaviy resurslar cheklanganligi, me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va axborot xavfsizligini ta'minlash kabi muammolarga e'tibor qaratish lozim.

Professional boksning kelajagi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Innovatsion yechimlarni joriy etish orqali sport natijalarini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va umumiy rivojlanishga erishish mumkin. Texnologik infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, moliyaviy ta'minotni kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Xulosa. Professional boksda raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi va rivojlanish tendensiyalari tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Zamonaviy smart-sensorlar, VR/AR tizimlari, sun'iy intellekt va raqamli platformalar professional boksning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Bu texnologiyalar sport natijalarini yaxshilash, xavfsizlikni ta'minlash va umumiy rivojlanishga xizmat qilmoqda.

Raqamli transformatsiya texnologik infratuzilmani rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni talab etadi. Professional boksning kelajagi innovatsion yechimlarni samarali joriy etish bilan bog'liq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Brown, M. (2023) Modern technologies in professional boxing. International Journal of Sport Science, 12(3), 145-156.
2. Williams, J. (2023) Digital transformation in combat sports. Sports Technology Review, 8(2), 78-89.
3. Peterson, K., Jones, R. (2023) AI applications in professional boxing. Journal of Sports Analytics, 15(4), 234-245.
4. Петров, С.В., Иванов, П.А. (2023) Цифровые технологии в профессиональном боксе. Теория и практика физической культуры, 6, 45-52.
5. Ахмадов, А.А. (2023) Ўзбекистонда профессионал бокснинг ривожланиш истиқболлари. Sport va маданият, 4(2), 23-31.

6. Chen, L., Li, W. (2023) Digital transformation of boxing in Asia. Asian Sport Management Review, 18(3), 112-123.
7. Brown, T. (2023) VR/AR technologies in professional boxing. Sport Innovation Journal, 9(4), 167-178.
8. Smith, R. (2023) Digital marketing in professional sports. Sport Management Review, 26(2), 89-98.

BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI SMETA ORQALI REJALASHTIRISHTIRISHNING USLUBIY JIHATLARI

Umarov Avzaljon Yodgorali o`g`li
BFA magistiranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda budjet tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishtirishning ahamiyati va o`ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so`zlar: budjet tashiloti, xarajatlari smetasi, xarajatlar guruhlari, vaqtincha smeta, doimiy smeta, shtatlar jadvali.

Kirish. O`zbekiston budjet tashkilotlarida xarajatlar va daromadlar smetasini tuzish nazariy asoslari har tomonlama muhimdir. Ushbu maqola orqali, bu sohadagi yangilanishlar va ularning natijalari ko`rib chiqiladi.

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridan budjet tashkilotlarini moliyalashtirish mexanizmini isloh qilishga, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga davlat siyosati darajasida alohida e`tibor qaratilib, qator choratadbirlar amalga oshirildi.

Davlat tomonidan mablag` bilan ta`minlanadigan qator ijtimoiy sohalar: ta`lim, sog`liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta`minot, davlat boshqaruvi organlari muassasa va tashkilotlari budjet tashkiloti maqomida faoliyat qiladi. Davlat budjetining katta miqdori ham aynan shu sohalarni moliyalashtirishga yo`naltirilmoqda.

Budjetdan moliyalashtirish deyilganda rejada ko`zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun sub`ektlarga budjetdan mablag`larni taqdim etish tizimi tushuniladi. U pul mablag`larini taqdim etishning o`ziga xos bo`lgan shakl va metodlari bilan xarakterlanadi hamda ma`lum bir printsiplarga tayanadi.

Budjet tashkilotlari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasini tuzish, ko`rib chiqish va tasdiqlash, ro`yxatdan o`tkazish, moliyalashtirish uchun qabul qilish tartiblari Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, Moliya vazirligining buyruqlari va tegishli tarmoq vazirliklarining me`yoriy hujjatlari bilan belgilab qo`yilgan. Lekin oxirgi yillarda davlat moliyasini isloh qilish loyihasini amalga

oshirish doirasida so`nggi natijaga yo`naltirilgan budjetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o`rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budjetining g`azna ijrosi mexanizmlarining joriy etilishi, budjet mablag`lari hisobidan davlat xaridlarini tashkil etish tartiblarining belgilanishi va budjet siyosatidagi boshqa o`zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlari xarajatlarini aniq rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamizda xarajatlar smetasidan samarali foydalanish borasidagi asosiy kamchiliklar budjet tizimining kengligi, xarajatlar smetasini tuzishning va g`aznachilik tizimining shaffof emasligida namoyon bo`lmoqda. Ayrim hollarda xarajatlar smetasini shakllantirish tamoyillarining buzilishi, xarajatlarning rag`batlantirish vazifasini to`laqonli bajarmayotganligi holatlari kuzatilmoqda. Natijada budjet tashkilotlarining moliyaviy tang holatlarga tushishiga ham yuz bermoqda.

Adabiyotlar sharhi. Xarajatlar smetasi budjet tashkiloti yoki budjet mablag`lari oluvchi tomonidan moliya yili uchun tuziladigan va tasdiqlanadigan, uning uchun nazarda tutilgan budjetdan ajratiladigan mablag`lar xarajatlar moddalari bo`yicha aks ettiriladigan hujjat hisoblanadi (O`zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi.T.: “Norma”,MJCh.2014 y- 96 b. 3-moddasi).

2013 yil 26 dekabrda O`zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining qabul qilinishi natijasida yuqoridagi nizom orniga yangi me`yoriy hujjat - O`zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2014 yil 14 noyabrdagi 74-son buyrug`i bilan tasdiqlanib, Adliya vazirligida 2014 yil 15 dekabrda 2634-raqam bilan ro`yxatdan o`tkazilgan “Budjet tashkilotlari va budjet mablag`lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro`yxatdan o`tkazish tartibi to`g`risidagi Nizom” kuchga kirdi. Ushbu Nizomga muvofiq, budjet tashkilotlarida smetalarning quyidagi turlari amalda qo`llaniladi:

- yakka (individual) smetalar;
- jamlanma smetalar;
- budjetdan tashqari mablag`lar bo`yicha smetalar;
- markazlashgan tadbirlar uchun smetalar (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2014 y., 51-son, 612-modda).

O`zbekiston moliyaviy sohasidagi so`nggi ilmiy o`zgarishlarni tahlil qilishda X.Y. Olimovning "Budjet Tashkilotlarida Xarajatlar va Daromadlar Smetasini Takomillashtirish Asoslari" nomli ilmiy ishi katta ahamiyatga ega. U shu tarixdagi adabiyotlar va so`nggi ilmiy ishlar, mavzu bo`yicha qo`llanilgan eng asosiy manbalar sifatida muhimdir.

Tahlil va natijalar. Xarajatlar va daromadlar smetasini takomillashtirishning nazariy asoslari amaliyotda qanday natijalarga olib kelmoqda? Ushbu bo`limda,

moliyaviy boshqaruvdagi yangilanishlarni, xarajatlarni tahlil qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korruptsiyani kamaytirish jarayonlarini ko`rib chiqish natijalari tahlil qilinadi.

Budjetdan mablag` oluvchi tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan moliya organlarida ro`yxatdan o`tkazilgandan so`ng amalga kiritiladi.

Budjet tashkilotlarining tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini, shuningdek amaldagi smeta va shtatlar jadvaliga kiritiladigan o`zgartirishlar albatta Moliya vazirligining G`aznachiligi va uning hududiy bo`linmalari bilan kelishiladi.

Xarajatlarning I va II guruhlariga kiritilgan budjet tashkilotlari xarajatlari birinchi navbatda moliyalashtiriladi (to`lanadi). Bunda II xarajatlarning guruhiga tegishli mablag` o`tkazmasdan I guruh xarajatlarini amalga oshirish taqiqlanadi.

Yagona g`azna hisob raqamida, shuningdek hududiy g`aznachilik hisob raqamida birinchi va ikkinchi guruhlar bo`yicha to`lanmagan xarajatlar summasidan ortiq mablag`lar mavjud bo`lganda ortiqcha summa miqdorida uchinchi va to`rtinchi guruhlar bo`yicha xarajat qilishga ruxsat etiladi.

Kapital qo`yilmalarga ajratmalar (III guruh xarajatlari) joriy budjet yili uchun tasdiqlangan Respublika investitsiya dasturiga muvofiq qurilishlarning aniq ro`yxatlariga muvofiq ajratiladi.

G`aznachilik tomonidan xizmat ko`rsatiladigan buyurtmachilar ob`ektlari qurilishiga davlat budjetida nazarda tutilgan xarajatlar G`aznachilik va uning hududiy bo`linmalari tomonidan O`zbekiston Respublikasining joriy yilga tasdiqlangan Investitsiya dasturiga hamda qurilishlarning aniq ro`yxatiga muvofiq, buyurtmachilarning Moliya vazirligining G`aznachiligida va uning hududiy bo`linmalarida ro`yxatdan o`tkazilgan shartnomalarga asosan to`lanadi.

Xarajatlarning I va II guruhlarini respublika va mahalliy budjetlardan xarajatlarini moliyalashtirish (to`lash) smetalarga va budjet xarajatlari ro`yxatlariga, ularga kiritilgan o`zgartirishlarni hisobga olgan holda, shuningdek oldingi hisobot davri uchun belgilangan baholash ko`rsatkichlarining bajarilishiga muvofiq har oyda amalga oshiriladi.

Kapital qo`yilmalarni va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish (to`lash) budjetga mablag`lar tushishiga qarab har oyda amalga oshiriladi.

G`azna ijrosiga o`tmagan budjet tashkilotlari xarajatlarini:

- respublika budjetidan mablag` bilan ta`minlash (to`lash) - O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida belgilangan shakldagi maqsadli sertifikat (unda budjet tasnifnomasi paragraflari va xarajatlar guruhlarini ko`rsatgan holda) va xarajatlarning har bir guruhi bo`yicha bir satrda mablag` o`tkazish uchun to`lov qog`ozi bilan rasmiylashtiriladi;

- mahalliy budjetlardan mablag` bilan ta`minlash (to`lash) - tegishli moliya organlarida belgilangan shakldagi tayinlash sertifikati va xarajatlarning har bir guruhi bo`yicha bir satrda mablag` o`tkazish uchun to`lov qog`ozi bilan rasmiylashtiriladi.

Xarajatlar va daromadlar smetasini takomillashtirishning nazariy asoslarini amaliyotda qo`llash natijalarini tahlil qilishda, budjet tashkilotlarining samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va korruptsiyani kamaytirishga yo`naltirish mumkinligi ko`rib chiqiladi. Ushbu bo`limda statistik ma`lumotlar, o`tilgan tajribalar va ilmiy o`zgarishlarni qisqacha ta`riflash maqsadga muvofiq bo`ladi.

Xulosa va takliflar. Natijalar ko`rib chiqilgandan so`ng, xarajatlar va daromadlar smetasini takomillashtirishda qo`llaniladigan ilmiy, tajribaviy va boshqa muhim takliflar beriladi. Bu takliflar o`zbekiston budjet tashkilotlarining moliyaviy boshqaruvini mustahkamlashda yordam bera olish mumkin.

Budjet mablag`larini taqsimlovchilarga tegishli moliya yili uchun budjetdan ajratiladigan mablag`lar hajmini etkazish O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan budjet to`g`risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Xarajatlar smetasini tuzish bo`yicha ishlarni tashkil etish davomida O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo`mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo`limlari o`zlariga bo`ysunuvchi tashkilotlarga budjet to`g`risidagi qonun hujjatlari va moliya organining mazkur masala bo`yicha ko`rsatmalaridan kelib chiqib, kelgusi yil uchun smetalarni tuzish tartibi va muddatlari to`g`risida ko`rsatmalar beradi.

Buning uchun O`zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog`iston Respublikasi vazirliklari, davlat qo`mitalari va idoralari, tegishli hokimiyatlarning boshqarma va bo`limlari bo`ysunuvidagi budjet tashkilotlari va budjet mablag`lari oluvchilarning rahbarlari hamda tegishli xodimlarining kengashini chaqiradilar va xarajatlar smetasini tuzish tartibi va muddatlari to`g`risida yo`l-yo`riqlar ko`rsatadilar, ularga tashkilotlarning xarajatlar smetasini tuzish tartibi masalalari bo`yicha qonun hujjatlari talablarini tushuntiradilar, budjet mablag`lari bo`yicha xarajatlar smetasi hisobkitoblarini qonun hujjatlariga muvofiq kelishi majburiyligi, xarajat qilishda smeta-shtat intizomiga va tejamkorlik rejimiga rioya qilish haqida ko`rsatmalar beradilar, shuningdek xarajatlar smetasini tuzish hamda blankalarni to`ldirish texnikasi masalalari bo`yicha yo`l-yo`riqlar ko`rsatadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Malikov, N.Haydarov. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. 2007

2. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Финансы: государственные финансы. Учебное пособие. Экономика и финансы. Ташкент. 2009
3. Nizomiddin Haydarov, Furqat Halimov. Jismoniy tarbiya va sport muassasalari va ularning mamlakat Ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o`rni. Iqtisodiyot va ta`lim. 2020/11/26
4. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Технико-технологические проблемы сервиса, 2019
5. Н.Х.Хайдаров. Роль иностранных инвестиций в финансовом оздоровлении Узбекистана. Финансы и кредит, 2001
6. Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. T.: Iqtisod-moliya, 2009
7. N.Xaydarov. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O`quv qo`llanma. Toshkent: Akademiya, 2007
8. Т.С. Маликов, Н.Х. Хайдаров. Государственный бюджет. Учебное пособие “IQTISOD-MOLIYA, 2008
9. N.H.Haydarov, B.F.Azimov, F.Ehalimov. Increasing The Efficiency Of Using Sports Facilities Of Educational Institutions Of Sports. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences EpSBS. 2020
10. Xayxadaeva O.D., Xaydarov N.X. ПОЛИТЭКОНОМИЯ ПЕРЕХОДА К ЧИСТОЙ ЭНЕРГИИ В США. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktabr, 2018 yil
11. N. Xaydarov. Economic growth, demographics and income distribution in central asia in condition of gradual economic transition. International ScientificPractical Conference SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN CONDITIONS OF GLOBALIZATION. XXV-a aniversări a ASEM Moldova – 2016
12. N. Xaydarov. Land tenure reforms and cross-border water rights in uzbekistan: mixed effect and future consequences. Annul World bank Conference on Land and poverty. Washington DC. March 14-18 2016 year.
13. N.H. Haydarov. Improvement of financial and tax relations in the investment activity of enterprises in the conditions of economic liberalisation. Doctor of Science. dissertation abstracts for obtaining a scientific degree …, 2003
14. N.H. Haydarov. Issues of improving financial and tax relations in the investment activities of enterprises in the context of economic liberalization. Dissertation for the degree of Doctor of Economics. Tashkent-2003

MUSHAKLARDAGI TRIGGER NUQTALARNING ANATOMIK XUSUSIYATLARI, DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI

Qo'chqorov Jahongir Farxodjon o'g'li
TDSI Davolash ishi 3-kurs talabasi

Toirov Azizjon Toxir o'g'li
TDSI Davolash ishi 3-kurs talabasi

Gadayev Asliddin Mamarasulovich
TDSI Anatomiya kafedrasi
kata o'qituvchisi, ilmiy rahbar

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ish mushaklardagi trigger nuqtalarining tarqalishi va ularning inson organizmidagi ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Ishtirokchilarning statistik ma'lumotlari tahlil qilinadi va trigger nuqtalarni davolashda qo'llaniladigan usullar ko'rib chiqiladi. Natijada, mushak trigger nuqtalarining tibbiyotdagi roli va ularni samarali davolash yollari muhokama qilinadi.

Annotation. This scientific paper is dedicated to studying the distribution of muscle trigger points and their impact on the human body. Statistical data of participants will be analyzed, and methods used to treat trigger points will be reviewed. Ultimately, the role of muscle trigger points in medicine and effective treatment methods are discussed.

Аннотация. Данная научная работа посвящена изучению распространения триггерных точек в мышцах и их воздействия на организм человека. Будет проанализирована статистическая информация участников и рассмотрены методы лечения триггерных точек. В итоге обсуждается роль триггерных точек в медицине и эффективные методы лечения.

Kalit so'zlar: trigger nuqta, stretching, fizioterapiya, mushaklar, postizometrik relaksatsiya.

Trigger nuqtalari – mushaklarda hosil bo'ladigan kichik, sezgir, og'riqli nuqtalar bo'lib, ular mushakning bo'shashishini qiyinlashtiradi va ko'pincha tananing boshqa qismlarida ham og'riq tarqalishiga olib keladi. Trigger nuqtalari asosan, uzoq vaqt davomida mushaklarga ortiqcha zo'riqish yoki noto'g'ri holatda ishlash oqibatida yuzaga keladi.

Trigger Nuqtalarining Turlari

1. Faol trigger nuqtalar: Bu nuqtalar shunchaki sezilib qolmay, balki oddiy holatda ham og'riq yoki diskomfort keltirib chiqaradi.

2. Passiv trigger nuqtalar: Faqat mushak bosilganda yoki harakat qilganda og’riq keltiradi va ko’pincha o’zini sezdiravermaydi.

Trigger Nuqtalarining Paydo Bo’lish Sabablari

• Mushaklarga doimiy stress yoki zo’riqish;
• Noto’g’ri holatda uzoq vaqt davomida o’tirish yoki turish;
• Jismoniy mashqlar vaqtida texnik xatolar;
• Jarohatlar yoki shikastlanishlar.

Trigger Nuqtalari Belgilari

• Og’riq mushak ichida yoki tarqalgan holda seziladi;
• Muskullar tortishib qolishi va harakatlanish qiyinligi;
• Tez charchash va energiyaning kamayishi;
• Mushaklarning mahalliy sezgirligi oshishi.

Trigger nuqtalari sog’liq muammolari va mushaklarning doimiy og’riqlariga olib kelishi mumkinligi sababli, ularni jiddiy qabul qilish va vaqtida davolash tavsiya etiladi.

•M. temporalis trigger nuqtalar rivojlanishiga moyil bo'lgan keng mushakdir. Uning oldingi qismidagi og'riq odatda ko'z kosasi ustiga va qoziq tishlarga tarqaladi. Quloq suprasining oldida joylashgan trigger nuqtalar yuqori katta oziq tishlarga tarqaladi.

•M. Pterygoideus lateralis et medialisdagi trigger nuqtalar quloq og'rig'iga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, quloq og'rig'i bilan og'rigan bemorni tekshirayotganda ushbu kasallikni hisobga olish muhim. Trigger nuqtalar postizometrik relaksatsiya metodi orqali xalos etilishi mumkin. Og'iz orqali ham mushak, ham trigger nuqtalar paypaslanadi.

•M.platysmadagi trigger nuqtalar pastki jag'ning lateral tomonida og'riqni keltirib chiqaradi. Bu og'riq odatda qichishish sifatida ifodalanadi.

•To'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushakdagi trigger nuqtalar postural beqarorlikka va harakatni idrok etishning buzilishiga olib kelishi mumkin. Bemorda muayyan harakatlarning boshlanishi va tugashini idrok etishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bu ko'pincha transport vositalarida yurish paytida sodir bo'ladi.

•To'sh-o'mrov-so'rg'ichsimon mushakdagi trigger nuqtalar qushni kuzatib turish tarzi(gavda holati)da faollashishi mumkin (atlant-ensa bo'g'imidagi retrofleksiya bilan boshning oldinga qaragan holati)

•Trapetsiyasimon mushakning tushuvchi qismi og'riqni kuchaytirish va zanjirlash potensialiga ega bo'lgan «kalit latent trigger nuqtasi» deb ataladigan nuqtani o'z ichiga oladi. Mushakning bu zaif nuqtasi asosiy davomiy faktor deb

nomlanadi. Terapiya asosiy trigger nuqtasiga qaratilgan bo'lishi kerak, aks holda muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

- Katta ko'krak mushagining to'sh-qovurg'a qismidagi trigger nuqtalar sut bezi so'rg'ichi va areolaning yuqori sezuvchanligini keltirib chiqarishi mumkin.
- Kardial aritmiyaning trigger nuqtasi o'rta chiziqdan 3-4 sm lateralda, 5-qovurg'a ostida katta ko'krak mushagining to'sh-qovurg'a qismida joylashadi. Bu yurak dukullashi tuyg'usiga sabab bo'lishi mumkin, ammo bu yerda yurak patologiyasiga asos yo'q.
- Oldingi tishsimon mushakning trigger nuqtalari nafas olish bilan bog'liq muammolarga olib kelishi mumkin. Bunday bemor havo yetishmasligidan azob chekishi va hatto og'riqli inspiratsiyadan shikoyat qilishi mumkin. Og'riq qo'lning tirsak qismi, bilak va qo'l panjasiga tarqalishi mumkin.
- Belning kvadrat mushagi trigger nuqtasi juda og'riqli bo'lib, disk churrasi yoki piyelonefrit og'rig'iga taqlid qilishi mumkin.
- Kichik yumaloq mushakdagi trigger nuqta 4- va 5- barmoqlarda sezuvchanlikni yo'qotishi yoki jizillash (og'riq) hissini keltirib chiqarishi mumkin. Buni tirsak nervi falajidan farqlash kerak.
- Yelkaning uch boshli mushagi uzun boshchasida trigger nuqta mavjud bo'lsa, bemor qo'lini qulog'iga tekkizolmaydi (m.triceps brachii testi).
- Agar bemor m.iliopsoasdagi trigger nuqtadan kelib chiqqan og'riqning joylashgan sohasini ko'rsatmoqchi bo'lsa, u qo'lini umurtqa pog'onasi yoqalab vertikal yo'nalishda Th(II) umurtqa sathidan dumg'azagacha siljitadi. Aksincha, agar bemor qo'lini gorizontal yo'nalishda harakatlantirsa, bu ehtimol, m.rectusdagi trigger nuqta natihjasidir.
- M. Adductor magnusning proksimal qismidagi trigger nuqtalar og'riqni keltirib chiqaradi. Bu og'riqlar qov simfizi sohasida, hatto qinda, to'g'ri ichak yoki siydik pufagida seziladi.
- M. Tibialis anteriordagi trigger nuqtalar to'piqning ventromedial yuzasida, bosh barmoqning dorzal va medial yuzalarida og'riqni keltirib chiqaradi. Trigger nuqtalar odatda mushakning proksimal 1/3 qismida joylashgan bo'lib, juda og'riqli. Ular yuqori o'rnatilgan pedallar bilan uzoq vaqt mashina haydash natijasida paydo bo'lishi mumkin.

Trigger Nuqtalarni Davolash

1. Massaj: Trigger nuqtalarini bosish va ularni muloyimlik bilan massaj qilish mushaklarni bo’shashtiradi.

2. Quruq igna terapiyasi: Terapiya vaqtida maxsus ignalar trigger nuqtalariga kiritilib, mushaklar bo’shatiladi.

3. Stretching: Mushaklarni cho’zish (stretching) orqali og’riqni kamaytirish va mushaklarni bo’shashtirish mumkin.

4. Fizioterapiya: Maxsus mashqlar va jarayonlar orqali mushaklarning zo’riqishi kamaytiriladi.

Trigger Nuqtalarni Oldini Olish

• Yaxshi tana holatini saqlashga e’tibor berish;
• Jismoniy mashqlar oldidan isinish va cho’zish mashqlarini bajarish;
• Stressni kamaytirish va yetarlicha dam olish;
• Ergonomikani hisobga olib ishlash va o‘qish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Simons, D.G., Travell, J.G., & Simons, L.S. (2021). Myofascial Pain and Dysfunction: The Trigger Point Manual. Baltimore: Williams & Wilkins.
2. Dommerholt, J., & Fernandez-de-las-Penas, C. (2022). Trigger Point Dry Needling: An Evidence and Clinical-Based Approach. Edinburgh: Churchill Livingstone.
3. Shah, J.P., & Gilliams, E.A. (2023). Understanding Myofascial Trigger Points: Clinical and Pathophysiological Aspects. New York: Springer.
4. Memorix Anatomy (2015).Radovan Hudák, David Kachlík, Ondřej Volný

TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATIDA AXBOROT TIZIMLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Turdaliyev Kamronbek Yaminjon o’g’li
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, “Tergov faoliyati” yo’nalishi, 2-bosqich “B” potok 1-guruh talabasi.
akobirturdaliyev04@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada, tezkor-qididruv faoliyati subyektlarining tezkor qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda yuzaga kelayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog’liq muammolar va ularga yechimlar to’g’risida muallifning subyektiv qarashlari doirasida so’z boradi.

Kalit so’zlar: tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv tadbirlari, tergovga qadar tekshiruv, kibermakon, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, integratsiya, jahon axborot tarmog’i, messenjerlar, platformalar, E-hukumat, xavfsiz shahar, xavfsiz hudud.

Qisqartmalar:

TQF – Tezkor-qidiruv faoliyati.

TQT – Tezkor-qidiruv tadbirlari.

AAT – Avtomatlashitirilgan axborot tizimlari.

Аннотация. В данной статье рассмотрены субъективные взгляды автора на проблемы, связанные с информационно-коммуникационными технологиями, и пути их решения, возникающие при осуществлении оперативно-розыскной деятельности субъектов оперативно-розыскной деятельности.

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, следственные действия, расследование перед расследованием, киберпространство, автоматизированные информационные системы, интеграция, глобальная информационная сеть, мессенджеры, платформы, Электронное правительство, безопасный город, безопасная территория.

Annotation. In this article, the author's subjective views on the problems related to information and communication technologies and their solutions arising in the implementation of rapid search activities of the subjects of rapid-search activity are discussed.

Key words: operational investigative activities, investigative activities, investigation before investigation, cyberspace, automated information systems, integration, global information network, messengers, platforms, E-government, safe city, safe area.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatning ma’muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, jinoyat-protsessual va jinoiy-ijroiya kabi huquqni muhofaza qiluvchi turlari bilan bir qatorda tezkor-qidiruv faoliyat ham ushbu yo’nalishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tezkor-qidiruv faoliyati yuridik faoliyatning alohida turi sifatida maxsus vakolatli davlat organlari, ularning tezkor bo’linmalari hamda mansabdor shaxslari tomonidan faqat jinoyatchilikka qarshi kurashish maqsadlarida amalga oshirib kelinadi. O’zbekiston Respublikasining “Tezkor-qidiruv faoliyati to’grisida”gi Qonunning 3-moddasida ushbu faoliyatga quyidagicha ta’rif berilgan: “Tezkor-qidiruv faoliyati ushbu Qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari (bundan buyon matnda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar deb yuritiladi) tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir36.” Ya’ni, ushbu faoliyat axborot olish, yashirin jinoyatlarni, jinoiy faoliyat belgilari va faktlarini, ularning subyektlarini aniqlash hamda yashiringan shaxslarni qidirib topishga qaratilgan faoliyatdir. TQFda eng asosiy talab tezkorlik bo’lib, bu qisqa muddat ichida bo’linmalar oldiga qo’yilgan vazifalarni aniqlik va samaradorlik asosida bajarishni talab etadi. Bu talablarni bajarish uchun har bir TQF subyekti mustaqil yoki yagona axborot tizimiga ega bo’lishi loizm. Chunki hozirgi kunda globallashuv sharoitida axborot eng asosiy qurolga aylandi. Axborot

[36] O’zbekiston Respublikasining “Tezkor qidiruv faoliyati to’g’risida”gi Qonuni.

almashinuvining tezligi va buni turli aloqa kanallari orqali amalga oshirish tezkor xodimlar oldiga bir qator murakkab vazifalarni qo'ymoqda. Bunga sabab sifatida quyidagi muammolarni keltirish mumkin.

Birinchidan, Internet jahon axborot tarmog'i yoki messenjerlar va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsning sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi jinoyatlar sodir etilganida, ish yuzasidan tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov harakatlari olib borish vaqtida, ushbu jinoyatlarning yana takrorlanishi oldini olish imkoniyatining yo'qligi, ya'ni, jabrlanuvchi ichki ishlar organlariga murojaat qilganidan so'ng, kerakli protsessual harakatlari amalga oshirilayotgan vaqtda ham ijtimoiy tarmoqlarda jabrlanuvchiga nisbatan tuhmat va haqoratlarning davom etishi bo'lib, bu o'z navbatida jabrlanuvchida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ishonchsizlik hissini keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, axborot tizimidan va axborot texnologiyalardan foydalanib, o'zganing mol-mulkini talon-taroj qilish bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilganda jabrlanuvchi ichki ishlar organlariga murojaat qilgan vaqtdan e'tiboran, hisoblardan yechib olingan pul mablag'larini izni topish va ulardan tezda xatlovdan o'tkazishning imkoniyati yo'qligi, ya'ni, tijorat va xususiy banklarning axborot tizimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishning imkoni mavjud emasligida ko'rinadi. Istisno tariqasida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kuarshish departamentining tezkor xodimlari Markaziy bankning depozitlar milliy axborot tizimi orqali faqatgina jismoniy yoki yuridik shaxs nomida hisob raqamlari mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashlari mumkin.

Uchinchidan, jinoyat sodir etilgan joyga chiqqan tezkor-tergov guruhi tarkibidagi tezkor xodimlar tomonidan hodisa sodir bo'lgan joydagi kuzatuv kameralari, bunday kameralar bo'lmaganda esa, yaqin atrofdagi shunday kuzatuv kameralarini ko'zdan kechirish, aniqlangan videotasvirlarda ishga aloqador bo'lgan shaxslarni tezkor identifikatsiyalash imkoniyatining yo'qligi ushbu jarayonlar uchun ko'p vaqt talab etmoqda. Bu esa o'z navbatida, jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyat joyidan yashirinish imkoniyatini ta'minlamoqda.

To'rinchidan, transport vositalarini olib qochish bilan bog'liq jinoyatlar, shuningdek, transport vositalarining harakatlarini kuzatish uchun mavjud kuztauv tizimlari yo'qligi sababli jinoyatni ochish maqsadida tezkor xodimlar tomonidan ishdagi taxminlarga ko'ra, transport vositasini olib ketish mumkin bo'lgan barcha yo'llardagi kuzatuv kameralarini ko'rish ko'p vaqt va kuch talab qilmoqda.

Beshinchidan, jinoyat sodir etib, sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan shaxslarni aniqlash va topishda, boshqacha qilib aytganda, tezkor-qidiruv ishini ta'minlashda mavjud axborot tizimlarining yetarli emasligi, talab darajasida

ishlamasligi, bunday shaxslarni noqonuniy yo'llar bilan Respublika hududidan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Natijada jinoyat sodir etgan shaxsga nibatan jazo muqarraligi va qonun ustuvorligi prinsiplarini o'z ahamiyatini yo'qotmoqda.

Oltinchidan, TQF subyektlari o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlovchi yagona tizimning mavjud emasligi, mavjud axborotlarni har bir organ o'zining idoraviy ichki hujjatlari bilan tartibga solgan tizim bo'yicha almashtiradi. Bu esa, shu o'rinda, tezkorlik va vaqtdan yutqazishga sabab bo'ladi.

Yettinchidan, tezkor-qidiruv ish yurituv ishlari qog'oz hujjatlar ko'rinishida olib borilayotganligi, shuningdek, kibermakonda jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyati ham TQF subyektlariga berilganligi sababli axborot almashinuvini va ichki idoralararo hujjatlar almashinuvini to'liq raqamlashtirish lozim.

Yuqorida keltirilgan muammolarni tizimli tahlil qilgan holda, TQFning vazifa va funksiyalaridan kelib chiqib ularni tashkiliy-texnik, normativ-huquqiy, axborot-tahliliy yo'nalishlarga ajratish mumkin. Shu bilan birga, qonunchilikdagi tegishli o'zgarishlar bilan TQF subyektlariga TQTni axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda, shu jumladan, kibermakonda va uning imkoniyatlaridan foydalanilgan holda o'tkazish vakolati berildi. Bu vakolat o'z-o'zidan tezkor xodimlar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshishiga, shuningdek, TQF sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishga asos bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, muammolarni hal etish uchun quyidagilarni taklif qilaman:

Birinchidan, Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq TQF subyektlari o'rtasida mavjud axborotlardan foydalanishda konspiratsiya prinsipiga rioya qilgan holda barcha subyektlarning ichki idoraviy hujjatlariga muvofiq axborot xavfsizligi talablariga javob beradigan, ishonchli himoyalangan va subyektlar foydalanadigan axborot darajalariga mos ravishda foydalanish uchun tegishli ruxsatnomalarni talab qiladigan yagona elektron platforma tashkil etish lozim. Bu platforma orqali barcha TQF subyektlari o'zlariga zarur bo'lgan axborotni yaratish, to'plash, qayta ishlash, jamlash, saqlash, izlash, tizimlashtirish va hujjatlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, tashkil etilayotgan elektron platformadan har qanday ma'lumotni olishni ta'minlash maqsadida unga "E-hukumat" elektron platformasini integratsiya qilish kerak. Ushbu platformada bugungi kunda 120 dan ortiq avtomatlashtirilgan axborot tizimlari (AAT) integratsiya qilingan bo'lib, ularning axborot bazalaridan bir tomonlama foydalanishni amalga oshirish lozim. Shuningdek, IIVning "xavfsiz shahar" va "xavfsiz hudud" dasturiy apparat komplekslarini ham ushbu platformaga integratsiyasini ta'minlash zarur.

Uchinchidan, davlat siri va boshqa sirlarni tashkil etuvchi axborotlardan foydalanishda va bunday axborot saqlanayotgan avtomatlashgan axborot

tizimlariga ulanishda axborot xavfsizligi va uning kriptografik himoyasiga rioya etish va olingan ma’lumotlardan TQT samarali o’tkazishda foydalanish, bundan tashqari, tezkor qiziqish uyg’otuvchi shaxslar haqida ma’lumotlar to’plash, Respublika miqyosida markazlashgan tezkor-qidiruv faoliyatini ta’minlash amalga oshirish lozim.

Yuqorida ko’rsatilgan yechimlarni TQFda joriy etish orqali, Respublika suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish hamda ularga rioya etish, mulkchlik shaklidan qat’iy nazar, barcha turdagi mulklarning ishonchli himoyasini ta’minlashda TQF subyektlarining rolini oshiribgina qolmay, ularni sifat jihatidan yangi bosqichga ko’taradi. Bu esa, o’z navbatida, jinoyat sodir etgan har bir shaxsga nisbatan jazo muqarrarligi va qonun ustuvor ekanligini so’zda emas amalda isbotlanishining yorqin misolidir.

KASHFIY TERMIZIY DEVONINING ADABIY TAHLILI

Aliyev Shokir
Termiz davlat universiteti
tayanch doktoranti
Tel: +998 99 421 32 90
E-mail: shokiraliyev@mail.ru
Orcid: 0009-0006-0720-3873

Sharq mumtoz adabiyoti vakillari ming yillik adabiyoti tarixi davomida turli fan sohalarida ilmiy-adabiy asarlar yozgan. Har bir soha vakili o‘zining malakasi va mahorati bilan ilmu adab maydoniga kirib keladi. Ba’zilari she’riyat sohasida muvaffaqiyat qozonsa, ba’zilar nasr olamida muvaffaqiyat qozonishi tabiiy. Biroq shunday ijodkorlar borki, nazm bilan birga nasriy bayonda ham ijodiy mahoratini ko‘rsata olgan. Ana shunday ijodkorlardan biri – Muhammad Solih Kashfiy Termiziydir. U ham nazmda va ham nasrda birdek ijod qilganini kashfiyshunos olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Shoir devoni tarkibi haqida ikkinchi bobning birinchi faslida ma’lumot berildi. Endi bu faslda esa devon tarkibidagi she’rlari mavzusi va badiiy tahlili borasida so‘z yuritiladi. Shoir devoni mavzularini o‘rganishdan oldin, davr adabiy muhiti ijodkor ongiga ko‘rsatadigan ta’siri borasida adabiyotshunos olim Hotam Umirov shunday deydi: “Inson o‘z umri davomida hayotni, ularning mohiyati, qonuniyatlari va xususiyatlarini tadqiq qiladi. Ayni paytda inson dunyoni va o‘zini bilish bilan cheklanmaydi, balki to‘plagan bilimlariga suyanib u jamiyatni, o‘zining ruhiy-ma’naviy dunyosini boyitib, o‘zgartirib boradi. Ong – borliqning inson miyasidagi oliy in’ikos (aks

etish) shakli ekan, u ijtimoiylik kasb etadi. Inson ongi (ruhiy va aqliy qobiliyati) jamiyatdagi hayoti davomida tarkib topadi. Ijtimoiy muhit ta'sirida reallashadi.37

Kashfiyga Hindistonda hukmronlik qilgan Boburiylar sulolasining davlat boshqaruvidagi hukmron mafkurasi o'z ta'sirini ko'rsatganini baralla aytish lozim. Chunki boburiy namoyandalarining aksariyati o'zlari shoir bo'lgan va tarixchi bo'lishi bilan birga olim, musavvir, musiqachi, me'mor va shu kabilarni qo'llab-quvvatlab, taqdirlab hamisha ularga homiylik qilishgan.

Ma'lumki, Kashfiy aynan Akbarshoh va uning o'g'li Jahongishoh davrida ijodiy faoliyat olib borgan. Akbarshoh davrida uning farmoniga muvofiq "Boburnoma", "Temurnoma", "Chingiznoma", "Zafarnoma," "Kalila Dimna", "Bahoriston", Nizomiyning "Xamsa" asari "Ramayana" kabi asarlarning qo'lyozma nusxalari rangli nafis suratlar bilan bezatildi. Akbarshohning yarim asrlik hukmronligi davrida 25 dan ziyod tarixiy asarlar yozildi.U ikki asosiy madaniyat musulmon va hind madaniyatlarga alohida e'tibor qaratdi. Bu davrda urdu, fors va hind tillarda ijod qiladigan musulmon shoirlari safi kengaydi. Mashhur shoirlardan Mirzo Abdulqodir Bedil, Fayziy kabi shoirlar ham Kashfiyning zamondosh shoirlardan edi. Bu borada A. G'afurovning "Hindiston" kitobida batafsil ma'lumot berilgan.38

Kashfiy shunday adabiyotsevar va san'atsevar podshohlar davrida yashaganligi uchun ko'plab asarlar yozishga ulgurdi. Uning she'riy devoni ham davr adabiy muhitini ijtimoy-siyosiy in'ikosi hamda ijodkorning individual xislatlarini o'z ichiga qamrab olganini ko'plab g'azallarida tasvirlab o'tadi.

Adabiyotshunos olima G. Xoliqova "Boburiylar adabiy muhiti va uning manbalari" maqolasida boburiylar sulolasi davrida ilmu fan keng rivojlangani fors tilida yozilgan asarlar bilan birga turkiy tilda bir qancha asarlar dunyo yuzini ko'rganini alohida e'tirof etadi.39

Kashfiy garchi turkiy tilda ijod etmagan bo'lsa-da fors va urdu tilida badiiy mahorat bilan asarlar yozgan. Uning asarlari mazmun-mohiyati borasida G'ulom Sururiy "Xazinatul asfiyo" asarida shunday keltiradi. "Sohibi anvori jaliya va madoriji oliya dar ulumi diniy va dunyaviy yagonai zamona va xavoriqu karomot mashhur, xirqai xilofat va ijozat az Shoh Ne'matullohi valiy ba sisilai qodiriya pŷshid va dar digar salosil ham ijozat talqin dosht va dar holati zavqu sukr ash'ori obdor ba mazomini haqoyiqu daqoyiq gufti, "Kashfi" taxallus kardi.40 (Kashfiy maqomi ulug', turli ilmlarga peshqadam, o'z zamonasida diniy va dunyoviy

[37] Hotam Umirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Xalq merosi, 2004. – B. 26.
[38] A. G'afurov. Hindiston. – Farg'ona: FarDU, 2009. – B.
[39] Xoliqova Gulsanam. Boburiylar adabiy muhiti va uning manabalari//. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 10
Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423
[40] G'ulom Sururiy. Xazinatul asfiyo. – Kompur, Navlashkur, 1356. – S. 350.

ilmlarning yagonasi, karomatlari bilan mashhur, Shoh Ne’matulloh Valiyning xalifasi va qodiriya tariqatidan xirqa kiygan, shu bilan birga turli tariqatlardan ijoza olgan, she’rlari ma’no-mazmuni boy bo‘lib shavqu zavq bilan to‘lib toshgan haqiqatgo‘y shoirlardan edi).

Shoir g‘azallari mazmuni-mundarijasi majoziy ishq bilan birga ilohiy ishqni tarannum etadi. Ilohiy ishqni tarannum etuvchi g‘azallaridan birida shunday deydi:

Kadom dida, ki bar tal’ati tu shaydo nest,
Kadom dil, ki visoli tuash tamanno nest.
Kadom tan, ki ba rohi tu poymol nashud,
Kadom sar, ki zi ishqat anisi savdo nest.
Kadom kas na chun Xizr zindai abad ast,
Kadom dam, ki dar o‘ mo‘jazi Masiho nest...
Ba har kujo nazar afkani jamoli Haq ast,
Ayoni yaqin tu bubin ki juz o‘ huvaydo nest.
...Kadom chiz ki “Kashfi” na oshiq ast bar o‘,
Az on ki dilbar har joyeyash ba yak jo nest.

Mazmuni: Qaysi bir ko‘z seni go‘zal yuzinga shaydo bo‘lmay qolsa, qaysi bir qalb seni didoringni tamanno etmasa, qaysi bir vujud seni yo‘lingda o‘zini poymol etmasa, qaysi bir boshda senga ulfat bo‘lish savdosi bo‘lmasa, qaysi bir kishi Xizr kabi abadiy tiriklik suvi payida intilmasa, qaysi bir nafasda Masehoning nafasi mo‘jizasi bo‘lmasa, bunday kishi insoniy fitratdan yiroqlashgandir. Qayerga nazar tashlasang, Haqning jamoli tajalliysi bor, zohir bo‘lgan yaqinga boq, undan boshqa narsa ko‘zga ko‘rinmaydi. Ey Kashfiy, har bir narsa oshiq bo‘lmasa, bilgingki, uning aldovchi yori qalbini o‘g‘rilagan.

Shoir falsafiy mushohada bilan badiiy san’atlardan mohirona foydalanib, ma’shuq visoliga yetish uchun muhim vositalarni tushintirmoqda. Ma’shuq visoliga turli nayrang bilan yetishish imkonsiz ekanligini ȳqtirmoqda. Qalb, jism, ruh ma’shuq uchun talpinmas ekan, bu kabi sarsonliklar foydasizdir. Bu yerda Maseho orqali – Iso alayhissalomning nafaslari o‘liklarni Allohning izni bilan tiriltirishiga istiora qilmoqda. Xizr tasviri shoir adabiy merosida yangi tasvir emas. Salaf shoirlar ijodida ham Xizr abadiy shodlik, hayot ramzi sifatida qullaniladi. Oshiq uchun har bir makon yorning jilosini eslatuvchi joy bo‘lishi zarurligi aytilgan. Albatta, bu bayt orqali Kashfiy vahdatul vujud nazariyasini yodga olmoqchi bo‘ladi. Barcha yaratiqlar Allohning qudratini ko‘rsatishga vosita ekanligini tushuntirmoqchi bo‘lyapti. Qaysi tomonga nazar solsangiz, ilohiy qudrat jilosini mushohada etasiz. Buni Kashfiy Qur’oni Karimning quyidagi oyatiga murakkab talmeh orqali ishora qilganini payqash qiyin emas. Alloh taolo “Duxon” surasida shunday marhamat qiladi:

“Osmonu yerni va ularning orasidagi narsalarni o‘ynab yaratganmiz yo‘q”41

Kashfiy g‘azallarida ishqu muhabbat ko‘proq ilohiy va majoziy ma’noda keladi. Biroq, ilohiy muhabbatni tasvirlashda shoir ilhomi avjiga chiqishini misralar qatidan sezish mumkin. U ishqni o‘zidan qidiradi. O‘zlikni anglash bilan ilohiy muhabbatni topishga imkon izlaydi. Uning yori – Yaratuvchi zot Alloh ekanligini orifona mazmunli g‘azallarida jozibali tarzda ifodalaydi. Navbatdagi g‘azalda shoir mujohada bilan ilohiy qudratni mushohada etib, mukoshafadan hosil bo‘lgan ruhiy holatini shunday tasvirlaydi.

On shohide, ki az mo, moro rabud moyem,

Zote, ki dar du olam, yakto namud moyem....

Mazmuni: Bizdan o‘zimizni o‘g‘irlagan ham bizmiz, ikki olamda Yagona zot ham bizni ishqda yagona etib, biz bilan birgadir.

Shoir boshqa zamondosh mutasavvif shoirlar qatori o‘z asarlarida so‘fiyona g‘azallar yozishga keng shuhrat qozongan. Devoni tarkibida ko‘plab g‘azallarida “G‘avs”, “Hazrati G‘avs”, “Piri murshid”, “oftobi nuroni”, “olami ma’no”, “Mahbubi Haq”, “koni ilmu ma’rifat”.... kabi so‘zlar bilan Shayx Abdulqodir Jiloniyga ishora etadi. Mirzo Ahmad Aliy “Rayhonatul adab” asarida Kashfiy Mir Muhammad Solih ibn Sayyid Abdulloh Mushkin qalam Akbarobodi, az urafoi silsilai qodiriya meboshad, ki xavoriqu karomote ham ba o‘ mansub ast”.42 (Kashfiy qodiriya tariqatining oriflaridandir, unga turli karomat va hodisalar sodir bo‘lganligi nisbat beriladi).

Qodiriya tariqati Hindistonga Muhammad G‘avsning (vaf 1517) sa’y harakati bilan yuzaga keldi. Ma’lumki, Abdulqodir Jiloniy qalamiga mansub bir qancha asarlar tasavvufga bag‘ishlangan. Uning “Sirrul asror” asarining 6-chi va 13-chi fasllari aynan tasavvuf ahli bayoniga bag‘ishlab yozgan. Bu zot aytadi: “Ularning “tasavvuf” ahli deya, nom olishlariga yagona sabab, ichki olamini tavhid va ma’rifat nuri bilan oydinlashtirilgandir. Yana bir sabab esa as’hobi suffaga intisoblari bo‘lishi mumkin”.43 Kashfiy hayoti darvishlik, faqru fano bilan o‘tganligi uning shu maslakda hayot kechirganligidan dalolat beradi.

Muhammad Solih Kashfiy Termiziy devoni tarkibida she’riy janrlar orasida shoir g‘azallari salmoqli janr sifatida hajm, ma’no-mazmun jihatidan boshqa janrda yozgan she’rlaridan farq etadi. Ma’lumki, g‘azal janri uning o‘ziga xos xususiyati, o‘tmish adabiyotshunoslari va shoirlarni e’tiborini o‘ziga jalb etgan. G‘azal janri asrlar davomida g‘oyaviy-badiiy jihatdan o‘sib, takomillashib bordi, uning yangi xususiyat va xillari paydo bo‘ldi. Shu bilan bog‘liq holda g‘azal ta’rifi ham o‘zgarib, yangilanib borgan.

[41] Qur’oni Karim, Duxon surasi, 38 oyat.
[42] Mirzo Ahmad Ali. Rayhonatul adab\ 5 jild. – Tehron: Kitobfurushiy, 1367. – S. 62.
[43] Shayx Sayyid Abdulqodir Giyloniy. Sirrul asror. Maktubot. – Toshkent: Movarounnahr, 2005. – B. 79.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Arshiy Termiziy. Masnavyi Shohid Arshiy. Tehronning islomiy sho‘ro kutubxonasining №9056 raqamli nusxasi. – V. 5.
2. Muhammad Solih Kashfiy Termiziy. Devon. Hindiston Devon kutubxonasining 456 raqamli nusxasi. – V. 26.
3. Cho‘tmatov J. va boshq. Termizlik allomalar asarlarining qo‘lyozmalari katalogi. – Toshkent: Munis design group, 2015. – 220 b.
4. Ibrohimov N. Al-qomus. 1 jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 565 b.
5. Sajjodi S. Farhangi istilohot va ta’biroti irfoni. – Tehron: Tahuri, 1370 h. – 857 s.

GASTROTURIZM DISKURSIDA PRAGAMTIK MO‘LJALNING VOQELANISHI

Buzrukova Maxina
Dotsent, PhD,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU,
buzrukovam@rambler.ru
Orcid ID: 0000-0003-2525-3699

Annotatsiya. Ushbu maqolada gastronomik turizm diskursining tahlili orqali turistlarni jalb qilish usullari o‘rganiladi. Maqola, xususan, onlayn veb-sahifalar va sayohatchilar fikr-mulohazalari asosida gastronomik turizmning maqsad va ahamiyatini, shuningdek, u orqali madaniy almashinuv va madaniyatlararo muloqotni qanday amalga oshirish mumkinligini yoritadi. Nutqiy aktlar, pragmatik vositalar va madaniy jihatlar misolida gastronomik tajribaning turistlar uchun jozibadorligi va maqsadga muvofiqligi ko‘rsatib beriladi. Shu bilan birga, maqolada reklama va axboriy mazmun uyg‘unligi ta’kidlanib, o‘zbek gastronomiyasining o‘ziga xosligi va eksklyuzivligi orqali madaniy muloqotni kuchaytirish vositasi sifatida namoyon etiladi.

Kalit so‘zlar: gastronomik turizm, turizm diskursi, nutqiy aktlar, madaniy almashinuv, pragmatik vositalar, madaniyatlararo muloqot, O‘zbekiston, reklama, kulinariya tajribasi, turistlarni jalb qilish.

Аннотация. В данной статье методы привлечения туристов исследуются посредством анализа дискурса гастрономического туризма. В статье освещаются цель и важность гастрономического туризма, а также то, как с его помощью можно достичь культурного обмена и межкультурного общения, в частности, на основе онлайн-страниц и отзывов путешественников. Привлекательность и целесообразность

гастрономического опыта для туристов будет показана на примере речевых актов, прагматических инструментов и культурных аспектов. При этом в статье подчеркивается сочетание рекламного и новостного контента и показано это как средство укрепления культурной коммуникации через уникальность и эксклюзивность узбекской гастрономии.

Ключевые слова: гастрономический туризм, туристический дискурс, речевые акты, культурный обмен, прагматические инструменты, межкультурная коммуникация, Узбекистан, реклама, кулинарный опыт, привлечение туристов.

Abstract. This article examines the methods of attracting tourists through the analysis of the discourse of gastronomic tourism. The article highlights the purpose and importance of gastronomic tourism, as well as how it can achieve cultural exchange and intercultural communication, in particular, based on online pages and traveler reviews. The attractiveness and feasibility of gastronomic experience for tourists will be shown through speech acts, pragmatic tools and cultural aspects. At the same time, the article emphasizes the combination of advertising and news content and shows this as a means of strengthening cultural communication through the uniqueness and exclusivity of Uzbek gastronomy.

Key words: gastronomic tourism, tourist discourse, speech acts, cultural exchange, pragmatic tools, intercultural communication, Uzbekistan, advertising, culinary experience, attracting tourists.

Gastronomik turizm sayohat qilishning bir shakli bo‘lib, uning asosiy maqsadi boshqa joylarning oshxona madaniyati, mahalliy taomlari va gastronomik an’analarini o‘rganish va tajribadan o‘tkazishdir. Bu turizm turi mahalliy taomlarni tatib ko‘rish, ularni tayyorlash usullarini o‘rganish, oshpazlik festivallari va tadbirlarda qatnashish orqali amalga oshiriladi.

Gastronomik turizm va madaniyatlararo muloqot o‘rtasidagi bog‘liqlik turizm diskursida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Gastronomiya nafaqat ovqatlanish tajribasi, balki madaniy meros, an’analar va jamiyat bilan bog‘liq ma’lumotlarni olish imkoniyati sifatida ham o‘rganiladi. Turistlar mahalliy taomlar orqali bir-birlari bilan muloqot qilib, yangi madaniyatlarni o‘zlashtiradi va o‘zaro anglashuvni rivojlantiradi44. Bu jarayonda gastronomik turizm orqali mahalliy madaniyat bilan tanishish va tushunishning yangi yo‘llari ochiladi, shuningdek, turistlarning boshqa madaniyatlar bilan muloqot imkoniyati kengayadi.

Gastronomik turizmning o‘ziga xos jihatlaridan biri bu sensorlik va tajribaviy jihatlardir, bu turistlarga yangi ta’mlar, mazalar va vizual obrazlar orqali madaniy

[44] Dixit S. (Ed.) The Routledge Handbook of Gastronomic Tourism. Abingdon: Routledge, 2019. - 590 p. Reviewed by Francesc Fusté-Forné.European Journal of Tourism Research 23, P. 225-227

tajribalarni o‘zlashtirishga imkon beradi45. Gastronomik tajribalar orqali turistlar mahalliy oshxonalar, an’analar va urf-odatlar bilan tanishib, ularni o‘z hislari orqali anglaydilar. Turizm diskursida gastronomik turizm madaniyatlararo muloqotning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u turli jamiyatlar va madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini shakllantiradi. Madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro muloqotni takomillashtirish uchun gastronomiyada faol foydalanish orqali dunyoning turli burchaklaridan kelgan odamlar bir-birlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Turistik diskursda, har qanday boshqa turdagi diskurs kabi, ikki asosiy ishtirokchi guruhi qatnashadi: adresant (xabarni yuboruvchi) va adresat (xabarni qabul qiluvchi).

Adresantning asosiy maqsadi adresatga ma’lumot yetkazish orqali reklama va marketing strategiyalaridan foydalanib, adresatni sayohat qilishga undash.

Mazkur vazifani bajarishda, asosan, direktiv nutq aktlaridan keng ko‘lamda foydalanilganligi kuzatiladi: The gastronomic trip to Uzbekistan will give you an unforgettable taste experience for the whole year and you will certainly want to repeat it even at home.

Taste the Uzbekistan!

Uzbek cuisine is, perhaps, one of the most diverse and colorful in the world. If you want to enjoy the most delicious pilaf in the world, succulent lamb on charcoal, the tandoor-kebab, the spicy lagman or the crispy samsa – visit Uzbekistan!46

Ushbu matnni tahlil qilishda quyidagi direktiv nutq aktlarining ko‘rinishlariga diqqat qaratamiz:

Preskreptiv vositalar: Taste the Uzbekistan! jumlasi taklif yoki chaqiruv bo‘lsa-da, bo‘lajak sayyohni amaliy harakat qilishga undaydi, Uzbek food is normally fat and high-calorie bu joyda aniq ma’lumotlar berilib, u orqali o‘quvchiga tasavvur berish maqsad qilinadi. Bu ko‘rsatma yoki yo‘riqnoma deb talqin qilinishi mumkin. Keyingi ifoda yo‘riqnoma shaklida bo‘lib, o‘quvchiga madaniy bir odatni tavsiflab berishda foydalaniladi: Uzbeks drink hot tea after the meal; In Uzbekistan, guests are greeted with fragrant tea and break a cake, and escorted by delicious pilaf bu ham madaniy yo‘riqnoma bo‘lib, o‘quvchiga mehmon qilish odatlarini tushuntiradi.

Suggestiv vositalar: If you want to enjoy the most delicious pilaf in the world, succulent lamb on charcoal, the tandoor-kebab, the spicy lagman or the crispy samsa – visit Uzbekistan! - matnda maslahat va chaqiruv shaklida If shartli

[45] Kesimoğlu A. A reconceptualization of gastronomy as relational and reflexive. Hospitality & Society, 5(1), 2015. – P. 71–91. https://doi.org/https://doi.org/10.1386/hosp.5.1.71_1

[46] URL: https://uzbekistan.travel/en/v/food-tourism/

bog‘lovchidan foydalanib, o‘quvchiga O‘zbekiston taomlarini sinab ko‘rishga taklif qilinmoqda. Bu gap orqali o‘quvchiga shart qo‘yiladi: “Agar siz... istasangiz”.

“The most delicious pilaf,” “succulent lamb,” “the spicy lagman,” “the crispy samsa” kabi sifatlovchilar bilan boyitilgan to‘ldiruvchilar tasvirlarning aniq va jonli bo‘lishiga xizmat qiladi, sifatlarning kuchaytiruvchi darajasi qo‘llanilishi “the most delicious”, ya’ni “pilaf”ning o‘ta mazali ekaniga urg‘u beriladi va o‘quvchini uni sinab ko‘rishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur matnlarda gastroturizm diskursi orqali turistlarni jalb qilish uchun keng ko‘lamda pragmatik vositalar qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dixit S. (Ed.) The Routledge Handbook of Gastronomic Tourism. Abingdon: Routledge, 2019. - 590 p. Reviewed by Francesc Fusté-Forné.European Journal of Tourism Research 23, P. 225-227
2. Kesimoğlu A. A reconceptualization of gastronomy as relational and reflexive. Hospitality & Society, 5(1), 2015. – P. 71–91. https://doi.org/https://doi.org/10.1386/hosp.5.1.71_1

THE EVOLUTION OF SCIENTIFIC DISCOURSE: LEXICON AND INTERDISCIPLINARY DYNAMICS

Mukumov Makhmud Khudayberdievich
Teacher of Termez University
of Economics and Service
caen05@gmail.com

Annotation. This article examines the evolution of scientific discourse, focusing on the development of genres, interdisciplinary integration, and the transformation of the general scientific lexicon. It highlights challenges in terminology, the role of scientific documentation, and the dynamic interplay between language, disciplines, and communication in modern science.

Key words: Scientific discourse, lexicon, genres, interdisciplinarity, terminology, documentation, informatics, communication, philology, evolution.

The state of socio-linguistic practice demonstrates that the creation of scientific texts is characterized by:

a) the development of new genres and types of discourse; b) the advancement of new structures for scientific research, scientific informatics, and the management of science; c) changes in the style of scientific publications.

Philological studies reveal that modern large international and multilingual languages, such as Russian, English, Spanish, German, and French, currently

contain, according to approximate estimates, several million lexical units each. This phenomenon can be explained by the fact that, over the last fifty years, the composition of genres and types of discourse in these languages has expanded, the relationships between these genres and types have evolved, and the spheres of communication have broadened[47]. According to the principles of philology, the emergence of a new genre of discourse – mass media – has stimulated the development of pre-existing genres and types of discourse, particularly oral and written forms. This has led to the appearance of new subtypes, the diversification of genres, the expansion of literary authorship, and increased circulation volumes.

The scientific and technological progress of the second half of the 20th century (the second scientific-technical revolution) has also influenced language. Science, as a form of human activity, has been represented not in a single genre of discourse – cientific literature (including oral scientific speech) – but in three distinct forms of oral and written expression: scientific literature, scientific documentation, and informatics (along with their respective oral formats). Each genre and type of discourse has undergone specific development.

Scientific literature has acquired a broad thematic and subject-matter scope, leading to the differentiation of topics and methods of scientific knowledge. A distinct sphere of technical sciences has been consolidated, separating itself from the so-called fundamental sciences of the university cycle. Between technical and fundamental sciences, a middle ground has emerged in the form of applied research, which employs the achievements of fundamental sciences to address practical needs. This has been reflected in the growing number of publications, such as textbooks, monographs, compilations of articles, and, especially, scientific journals. These journals have seen increases in publication rates and circulation volumes. Specialized scientific publishers have long been established in many countries.

The differentiation of sciences, their methods, and their connection to practical applications have given rise to a new form of writing[48]: scientific and scientific-technical documents. These documents differ in content from organizational, administrative, financial, and other traditional forms of documentation. A scientific document is fundamentally a plan, a program, or, more often, a research report presented in the form of handwritten, typed, or photocopied texts. These documents are intended for a specialized audience and, due to the *narrowness* of their readership, are not suitable for broader publication.

[47] Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. Longman grammar of spoken and written English. – Harlow, England: Longman Pearson Education, 1999. – 1204 p.
[48] Elbow P., Belanoff P. A community of Writers: A Workshop Course in Writing. – N.Y.: McGraw-Hill, cop., 1989. – 493 p.

Consequently, they remain as acts of documentation rather than forming part of scientific literature. These acts of documentation, particularly in the natural sciences, significantly exceed the volume of scientific literature in terms of quantity.

The growth of scientific literature and documentation, along with the associated challenges in acquiring scientific expertise, has led to the emergence of a distinct form of discourse: scientific informatics. This field encompasses abstract services (written and printed abstracts) and information retrieval systems. A notable feature of this form of discourse is its secondary nature, involving the concise reinterpretation of scientific literature (publications) and scientific documentation (research reports).

The development of new structures in scientific research is characterized by several features:

1. Comprehensive scientific studies have emerged, representing the integration of multiple scientific disciplines, each with its own subject matter, to examine a single object of study. For instance, the comprehensive study of the world's oceans involves the collaboration of geography, biology, physics, meteorology, chemistry, and other sciences, including those in the humanities. Each of these fields, due to its unique subject, has its own system of terminology. The same words may represent different phenomena but carry distinct meanings or nuances in each discipline. The content of these terms is both similar and different across sciences, creating challenges for researchers from related fields working on interdisciplinary problems[49].

2. The development of specialized dictionaries, particularly informatics dictionaries, faces the following difficulty: modern technical and scientific-technical terminology, as well as nomenclatures, are created for each branch of technical science individually. However, the current process of compiling such dictionaries, especially thesauri, is hindered by the *unclear* state of the vocabulary of science as a whole and the terminology dependent on it. Specialized informatics dictionaries lack a solid foundation for defining the meanings of descriptor words. As a result, the creation of industry-specific standards for terms and the efficiency of information retrieval suffer.

3. The planning and management of science as a distinct field of activity, the enhancement of research efficiency and culture, scientific critique, and the implementation of research findings in practice are driven by the division of sciences, on the one hand, and the integration of scientific specializations and

[49] Woodak R. Understanding the concept of "Discourse" // Text und Kontext. – Wurzburg: Konigshausen und Newmann, 2004. – 64 S.

scientific thinking, on the other. This is intrinsically linked to the organization of documents and document workflows of various types: specialized scientific, personnel-related, administrative, regulatory, financial, and others. It has been established that while the lexicon of scientific works was previously divided into only two categories – terminology and general literary vocabulary – it is now divided into three: general literary, general scientific, and specialized[50]. Consequently, the field of philology raises questions regarding the nature of general scientific vocabulary.

The general scientific lexicon is formally defined as words derived from general literary language that acquire specific meanings in scientific texts. Examples include words such as *analyze*, *classify*, and *illustrate.*

This lexicon also includes expressions from general language used in scientific contexts with meanings distinct from their general literary usage. Examples include idiomatic phrases like *acquire significance*, *draw a conclusion*, and *verify experimentally.* General scientific vocabulary further encompasses foundational terms used in scientific deduction, conveying abstract notions common across disciplines, such as *element, norm, system, energy, work,* and *calculation.*

Additionally, this lexicon includes terms and expressions applied in scientific texts with philosophical or metaphorical meanings, such as evolution, *development, object,* and *phenomenon.*

The general scientific lexicon is distinguished by its remarkable flexibility and dynamism. It evolves alongside the parallel development of texts across various scientific disciplines. For example, terms such as *motion* are used in mechanics, geomorphology, and linguistics, while metaphorical extensions of terms from one discipline to another are also common.

The development and transformation of the general scientific lexicon, which forms the foundation of scientific texts, is occurring rapidly and chaotically. This evolution, as dictionary analysis reveals, is not adequately addressed by contemporary lexicographical resources, which currently lack systems for the specialized collection, analysis, and description of general scientific lexicon[51].

The general scientific lexicon poses several complex challenges to the fields of lexicology and lexicography. The most pressing issues include determining the role of the general scientific lexicon among other types of lexicon, understanding its function within scientific texts, analyzing its semantic characteristics, and

[50] Thiesmeyer S. Discourses and silencing. – Amsterdam: John Benjamins, 2004.
[51] KHUDAYBERDIEVICH M.M. (2023). The Concepts of Text and Discourse in Linguistics. JOURNAL OF ADVANCED LINGUISTIC STUDIES.

evaluating its relationship to terminology and the style of scientific exposition.[52] Addressing these challenges is essential for improving the language of science.

Analysis of scientific prose indicates that modern scientific texts are composed of the following categories of lexical units:

1. Words from general literary language used in their conventional meanings. These include functional words such as prepositions (*in, and, on, with*) and conjunctions (*which, that, or*).

2. Words from general language used in specialized contexts. Examples include terms like *being, having, case, part, and condition,* which acquire narrower, more specific meanings in scientific texts.

3. Words characteristic of scientific texts that are rarely used in non-scientific contexts. These include *analyze, classify, fix, element, system, equation, temperature,* and *method.*

4. Idiomatic expressions and phraseological units specific to scientific discourse, such as *satisfy a condition, account for observations, provide a framework,* and *interact with components*.

5. Specialized scientific terminology related to specific fields of study. Examples include *graphite, parenchyma, power of a set, integrating factor,* and *hieroglyph*.

6. Words from general literary language not typically found in scientific contexts but used for specific investigations. Examples include *absurd, migration, storm,* and *bull*. These are typically neutral in tone but gain scientific relevance in specific contexts.

7. Symbols, diagrams, graphs, mathematical formulas, and other forms of non-verbal scientific semiotics.

References

1. Barry R., Wright A. Literary Terms: Definitions, Explanations, Examples. — San Francisco: Chandler Publishing Company, 1966. P. 74.
2. Thiesmeyer S. Discourses and silencing. – Amsterdam: John Benjamins, 2004.
3. Woodak R. Understanding the concept of “Discourse” // Text und Kontext. – Wurzburg: Konigshausen und Newmann, 2004. – 64 S.
4. Elbow P., Belanoff P. A community of Writers: A Workshop Course in Writing. — N.Y.: McGraw-Hill, cop., 1989. – 493 p.

[52] Barry R., Wright A. Literary Terms: Definitions, Explanations, Examples. — San Francisco: Chandler Publishing Company, 1966. P. 74.

5. Biber, D., Johansson, S., Leech, G., Conrad, S., & Finegan, E. Longman grammar of spoken and written English. – Harlow, England: Longman Pearson Education, 1999. – 1204 p.
6. KHUDAYBERDIEVICH M.M. (2023). The Concepts of Text and Discourse in Linguistics. JOURNAL OF ADVANCED LINGUISTIC STUDIES.

BIR JINSLI BO‘LMAGAN YUQORI CHASTOTALI ELEKTROMAGNIT TO‘LQINING YARIMO‘TKAZGICH MUHITGA TA’SIRI

G.Abduraxmonov,
Sh.Almardonov
Mirzo ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti

Elektr maydonni har bir nuqtasini **E** kuchlanish vektori yordamida tasvirlash mumkin. Bunday tasvirni grafik ravishda kuch chiziqlari yordamida ifodalash mumkin. Kuch chiziqlari – bu har bir nuqtada yo‘nalishi **E** vektori yo‘nalishiga mos keluvchi chiziqlardir. Elektr maydonni boshqa usul bilan tasvirlash mumkin, ya’ni uning har bir nuqtasida uning energiya xususiyati – potensial φ ni aniqlash orqali. Bir xil potensialga ega bo‘lgan nuqtalarni birlashtirish orqali ekvipotensial sirtlar deb ataluvchi sirtlarni hosil qilish mumkin. Bu sirtlarning shakli, xuddi elektr maydonining kuch chiziqlari shakli kabi, elektrodlarning fazodagi konfiguratsiyasi va joylashuviga bog‘liq. Shu bilan birga, ekvipotensial sirtlar har doim kuch chiziqlariga perpendikulyar bo‘ladi, kuch chiziqlari esa potensialning kamayishi tomonga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Kuchlanish va potensial bir-biri bilan quyidagi munosabatlar orqali bog‘langan.

$$E = -grad\varphi = -\nabla\varphi = -(i\frac{\partial\varphi}{\partial x} + j\frac{\partial\varphi}{\partial x} + k\frac{\partial\varphi}{\partial x}) \qquad (1)$$

$$\varphi = \int_r^\infty E \cdot dr \qquad (2)$$

Ushbu ishning maqsadi – turli shakldagi zaryadlangan jismlar tizimi uchun ekvipotensial chiziqlarni tadqiq qilishdir. Buning uchun elektrolitik vannadan foydalanib, elektrostatik maydonlarni modellashtirish usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning mohiyati shundaki, o‘rganilayotgan elektrodlar tizimi kam o‘tkazuvchan suyuqlik bilan to‘ldirilgan vannaga joylashtiriladi. Elektrodlar orasiga kuchlanish qo‘llaniladi, natijada vannada kuchsiz tok oqadi va potensialning taqsimoti hosil bo‘ladi, uni o‘lchash mumkin.

Ixtiyoriy o‘tkazuvchan muhitdagi elektr toki uchun uzluksizlik tenglamasini quyidagicha yozish mumkin:

$$dj = -\frac{\partial \rho}{\partial t} \qquad \text{yoki} \qquad \frac{\partial j_x}{\partial x} + \frac{\partial j_y}{\partial y} + \frac{\partial j_z}{\partial z} = -\frac{\partial \rho}{\partial t} \qquad (3)$$

Bu yerda j_x, j_y, j_z– tok zichligi vektorining komponentlari, ρ – qaralayotgan nuqtadagi zaryad zichligi. Doimiy tok uchun barcha elektr kattaliklar vaqtga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni $\frac{\partial \rho}{\partial t} = 0$. Bunday holda:

$$dj = 0 \quad \text{yoki} \quad \frac{\partial j_x}{\partial x} + \frac{\partial j_y}{\partial y} + \frac{\partial j_z}{\partial z} = 0 \qquad (4)$$

Boshqa tomondan, o‘tkazuvchi muhitning har bir nuqtasida Om qonunini differensial shaklda quyidagicha yozish mumkin:

$$j = \lambda \boldsymbol{E} \qquad (5)$$

Bu yerda $\boldsymbol{E}$ – o‘tkazgich ichidagi elektr maydon kuchlanishi, $\lambda = {}^{1}/_{\rho}$ – muhitning o‘ziga xos elektr o'tkazuvchanligi. (4) va (6) tenglamalardan quyidagilar kelib chiqadi:

$$\frac{\partial E_x}{\partial x} + \frac{\partial E_y}{\partial y} + \frac{\partial E_z}{\partial z} = 0 \qquad \text{yoki} \qquad d\boldsymbol{E} = 0 \quad (6)$$

Shunday qilib, elektr maydoni E o'tkazuvchi muhitda vakuumdagi elektrostatik maydon $\boldsymbol{E}_{stat}$ bilan bir xil tenglamani qanoatlantiradi. Ushbu maydonlarning to'liq mos kelishi uchun, shuningdek, ularning qiymatlari elektrodlarda bir xil bo'lishi kerak. Elektrostatik maydon har doim elektrod yuzasiga perpendikulyar (chunki elektrodlardagi barcha nuqtalar bir xil potensialga ega). O'tkazuvchi muhitlarda bu shart bajariladi, agar muhitning o'ziga xos o'tkazuvchanligi elektrod materiali o'tkazuvchanligidan ancha kichik bo'lsa. Bunday holda, o'tkazuvchi muhitdagi elektr maydon E va vakuumdagi $\boldsymbol{E}_{stat}$ bir xil chegaraviy shartlarni bajaradi va ikkalasi ham bir xil differensial tenglamaga bo'ysunganligi sababli, ularning mos kelishi mumkin deb hisoblanadi. Kuchsiz o'tkazuvchi muhitda potensial taqsimotini eksperimental ravishda o'lchash orqali, shunga o'xshash elektrodlarga ega bo'lgan elektrostatik maydonning potensial taqsimoti shaklini olish mumkin. Mana, olingan natija faqatgina λ o‘zgarishsiz bo‘lganda haqiqatdir. Biroq, bu bog‘liqlik elektrodlar yaqinidagi elektrolitning polarizatsiyasi tufayli yuzaga keladi (bitta belgilangan zaryadning ortiqchaliklari paydo bo‘ladi). Polarizatsiyaning o‘zgarishini oldini olish uchun elektrodga o'zgaruvchan elektr maydonini qo'llash zarur. Shu bilan birga, o'zgaruvchan elektr maydoni kvazistatsionarlik shartini qanoatlantirishi kerak..



Tajribani o'tkazish uchun elektrolitli vannaga, suv bilan to'ldirilgan, tadqiqot qilinayotgan elektrodlar a va b joylashtiriladi. Elektrodlar potensiallariga elektrolizning ta'sirini bartaraf etish uchun ishda o'zgaruvchan kuchlanish U ishlatiladi. Voltmetr yordamida bir elektrod (b nihoyatda, uning potentsiali 0 V sifatida qabul qilinadi) va suvga botirilgan zond z orasidagi potensial farqi o'lchanadi. Zondni vannada harakatlantirib, tanlangan potensialga ega nuqtalarni topish va ularning joylashuvini qog'ozga yozib olish mumkin. Shu tarzda, elektr maydonlarining tasvirini tekis kondensator, Faradey kubogi, elektr dipol maydonida modellashtirish mumkin. Elektroliz jarayonini tajribada kuzatish uchun quyidagi shakldagi elektrotik vanna yasadik.



1-rasm. Elektrotik vanna (1) yassi elektrod, (2) zond elektrod

O‘zgarmas kuchlanishda elektrotik vannaning volt-amper xarakteristikasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ldi.



2-rasm. Musbat kuchlanish berilganda elektrotik vannaning V-I xarakteristikasi.



3-rasm. Manfiy kuchlanish berilganda elektrotik vannaning V-I xarakteristikasi.

Bundan xulosa qiladigan bo'lsak bu qurilmada bo'layotgan jarayonlar yuqori chastotali yarimo'tkazgichli diodlarni xarakteristikalari bilan o'xshash bo'larkan:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sze, S. M. (2007). Semiconductor Devices: Physics and Technology
2. Jackson, J. D. (1998). Classical Electrodynamics (3rd ed.).
3. Bertotti, G., & Gagliardi, L. (2003). Electromagnetic Waves and Radiating Systems. Prentice-Hall
4. Djordjevic, S., & Savovic, S. (2006). Electromagnetic Wave Propagation in Nonlinear Media. Springer.

O‘ZBEKISTONNING BARQAROR EKOLOGIK MUHIT YARATISH MAQSADIDA XALQARO HAMJAMIYATGA INTEGRATSIYALASHUVI BOSQICHLARI

Hikmatjon Kenjayevich Avezov
O‘zbekiston Milliy universiteti
O‘zbekiston tarixi kafedrasi doktoranti
avezovhikmatjon@gmail.com +998993481532

Annotatsiya. Ushbu maqola mustaqillikga erishgan O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat bilan tabiatni muhofaza qilish maqsadida o‘rnatilgan hamkorligining tarixiy tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: barqaror ekologik muhit, atrof-muhit himoyasi, xalqaro hamkorlik, integratsiyalashuv jarayoni, ekologik siyosat.

O‘zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish borasida xalqaro hamkorlikni 1991-yilda mustaqillikni qo‘lga kiritganidan so‘ng faollashtira boshladi. Markaziy Osiyoda joylashgan bu mamlakatning tabiiy resurslari boy va xilma-xil bo‘lib, ayni paytda ekologik muammolar ham mavjud. O‘zbekistonning ekologik siyosati va xalqaro hamkorligi tarixiy jarayonlarda rivojlanib, zamonaviy global muammolarni hal qilishda faol qatnashmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan bo‘lgan aloqalar va ularning O‘zbekistondagi ekologik siyosatga ta'siri alohida e'tiborga loyiq. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, mamlakat ekologik muammolarni hal qilishga jiddiy qaradi. Shu davrda, O‘zbekiston ekologik muhofaza qilish bo‘yicha ko‘plab xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantira boshladi. Bu jarayonning boshida BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) va uning maxsus tashkilotlari, masalan, BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP) bilan hamkorlik o‘rnatildi. UNEP yordamida O‘zbekiston atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni boshqarish, suvlarga zarar yetkazmaslik kabi masalalarda dastlabki qadamlarni tashladi. Shuningdek, O‘zbekiston UNFCCC (BMT Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Ramka Konvensiyasi) ga qo‘shildi va global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish borasida o‘z majburiyatlarini belgilab oldi.

BMT va uning maxsus tashkilotlari O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishi bilan kurashishda markaziy rol o‘ynadi. O‘zbekiston Parij kelishuvi (2015) kabi xalqaro iqlim bitimlariga imzo chekkanidan so‘ng, mamlakatning ekologik siyosati global o‘zgarishlarga moslashishni maqsad qilib qo‘ydi. BMT Iqlim O‘zgarishi bo‘yicha Ramka Konvensiyasining (UNFCCC) bir qismi sifatida, O‘zbekiston 1992-yilda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda o‘zining milliy strategiyasini ishlab chiqa boshladi. Mamlakat, o‘z navbatida, iqlimga ta'sir etuvchi salbiy jarayonlarni

kamaytirishga qaratilgan loyihalar uchun Global Environmental Facility (GEF) tomonidan taqdim etilgan moliyaviy yordamni qabul qilishni boshladi.

BMT orqali amalga oshirilgan ekologik loyihalar, xususan, Orol dengizining qurishi va uning atrofidagi ekologik falokatni tiklash bo‘yicha faoliyatlar, O‘zbekiston uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikdagi eng katta yutuqlardan biri shundan iboratki, mamlakat hozirda o‘zining iqlimga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda BMT bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda.

Mustaqillikdan keyingi yillarda, Dunyo Banki va boshqa xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik O‘zbekistonning ekologik rivojlanishiga katta turtki berdi. Dunyo Banki O‘zbekistonga ekologik barqaror rivojlanish uchun mablag‘ va texnik yordam taqdim etib, mamlakatda atrof-muhitni saqlash, qishloq xo‘jaligida barqaror amaliyotlar va ekologik ta'limni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. O‘zbekistonning Orol dengizi va uning atrofi, aholisi uchun ekologik va ijtimoiy salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan loyihalar Dunyo Bankining qo‘llab-quvvatlashi bilan amalga oshirildi.

Dunyo Banki bilan hamkorlik shuningdek, O‘zbekistonning suv resurslarini boshqarish va qishloq xo‘jaligi sohalarida barqaror usullarni joriy etishga yordam berdi. Suv manbalarining samarali boshqarilishi va qishloq xo‘jaligida iqlimga moslashuvchiligi muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayonda Dunyo Bankining roli ulkan edi.

Evropa Ittifoqi (EU) O‘zbekiston uchun ekologik siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda eng muhim xalqaro sheriklardan biridir. O‘zbekiston, 1991-yildan boshlab, Evropa Ittifoqi bilan turli sohalarda hamkorlik qilishni boshladi, jumladan, ekologik masalalarda. Evro Ittifoq O‘zbekistonga ekologik me'yorlar va siyosatni takomillashtirish, chiqindilarni boshqarish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlarni moliyalashtirishda yordam berdi.

O‘zbekistonning suv resurslari va energiya samaradorligi sohalaridagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, Evropa Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan texnik va moliyaviy yordam orqali amalga oshirildi. Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik, shuningdek, O‘zbekistonning parij kelishuviga qo‘shilib, iqlimga ta'sirni kamaytirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini yaratdi. Evropa Ittifoqining ekologik siyosatlariga rioya qilish, o‘z navbatida, O‘zbekistonning energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan bog‘liq maqsadlarini amalga oshirishda yordam berdi.

Xalqaro hamkorlikning yana bir muhim komponenti IUCN (Xalqaro tabiiy resurslarni muhofaza qilish uyushmasi) va WWF (Dunyo Yovvoyi Tabiyat Jamg‘armasi) kabi tashkilotlar bilan amalga oshirilgan loyihalar edi. IUCN va

WWF yordamida O‘zbekistonning biologik xilma-xillikni saqlash va tabiiy resurslarni barqaror boshqarish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash olindi. Bu tashkilotlar O‘zbekistonda yovvoyi hayvonlar va o‘simliklar dunyosini himoya qilish, tabiat rezervatlari yaratish va barqaror dehqonchilikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda muhim yordam ko‘rsatdi.

WWF bilan hamkorlik, ayniqsa Orol dengizi atrofida yovvoyi tabiatni tiklash va ekologik tiklanishni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. WWF tomonidan amalga oshirilgan suv resurslari boshqaruvi va ekologik tiklanish dasturlari O‘zbekistonda suv tanqisligi va landshaftning yomonlashishiga qarshi kurashishda yordam berdi.

O‘zbekistonning ekologik siyosatidagi yana bir muhim jihat - bu mintaqaviy hamkorlik. Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda, O‘zbekiston suv resurslarini boshqarish va atmosfera ifloslanishini kamaytirish kabi umumiy ekologik masalalarda ishlamoqda. Interstate Commission for Water Coordination (ICWC) kabi tashkilotlar orqali, O‘zbekiston va qo‘shni davlatlar, masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan transchegaraviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yishmoqda.

O‘zbekistonning ekologik siyosati va xalqaro hamkorliklari mustaqillikdan so‘ng tobora rivojlanib, ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda muhim qadamlarni tashladi. BMT, Dunyo Banki, Evropa Ittifoqi, IUCN, WWF kabi tashkilotlar bilan amalga oshirilgan loyihalar va dasturlar O‘zbekistonning ekologik barqarorligini saqlash, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, va tabiatni himoya qilishda muhim o‘rin tutdi. Shuningdek, O‘zbekistonning ekologik siyosati va xalqaro hamkorlikdagi muvaffaqiyatlari, Markaziy Osiyo mintaqasida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yordam bermoqda. Bu hamkorliklar davomida O‘zbekistonning o‘z ekologik maqsadlariga erishishi va barqaror rivojlanishga intilishi mustahkamlanmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. N.Gafurova, D. Sattorov. Xalqaro tashkilotlar huquqi. - T.: TDYU nashriyoti, 2023.
2. Бекметов Э. Халқлар ҳамкорлиги ва иқтисодий алоқалар. - Тошкент: Меҳнат, 1992.
3. БМТ: Асосий омиллар. - Тошкент, 2001.
4. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Шарқ, 1999.
5. Давлетов С. Мустақил Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиш йўли ва унинг ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлари // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2008.

6. Давлетов С. Барқарор ривожланишда экологик маданиятнинг тутган ўрни. // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2008, - №4.
7. История становления и развития сотрудничества Узбекистана с международными организациями. / Отв. ред. Абдуллаев Р.М., Алимова Д.А./. –Ташкент: ФБАН РУз, 2011.

ЗНАЧИМОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ КАК СРЕДСТВУ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Усманова Муниса Шухрат кизи,
Базовый докторант Ташкентского государственного педагогического университета им.Низами;
E-mail: usmanmunisa.ru@gmail.com

Аннотация. В данной статье рассматривается когнитивный аспект в формировании готовности к межнациональному и межкультурному общению в процессе изучения иностранных языков, который несет в себе потенциал для развития личности через приобретение способности к эффективному манипулированию разнообразными информационными массивами. Это подразумевает возможности для экстракции и интерпретации культурных текстов, распознавание альтернативных методов категоризации реальности, восприятия различных культурных категорий и социокультурных сценариев, а также стимулирует развитие когнитивных способностей и интеллектуальных стремлений личности, что позволяет развитию у учащихся способностей сравнивать «свое» и «чужое», обнаруживать общие элементы между культурами своего народа и культурой изучаемого языкового пространства.

Ключевые слова: межнациональное, межкультурное общение, культура, иностранный язык, гуманитарное воздействие.

Annotation. This article examines the cognitive aspect in the formation of readiness for interethnic and intercultural communication in learning foreign languages, which carries the potential for personal development through acquiring the ability to manipulate various information arrays effectively. This implies possibilities for the extraction and interpretation of cultural texts, recognition of alternative methods of categorizing reality, and perception of various cultural categories and sociocultural scenarios, it also stimulates the development of cognitive abilities and intellectual aspirations of the individual, which allows students to develop the ability to compare “their own” and “someone else`s”, to discover common elements between the cultures of their people and the culture of the language space being studied.

Keywords: interethnic, intercultural communication, culture, foreign language, humanitarian impact.

Основываясь на концепции языка как социокультурного феномена, анализируется влияние изучения иностранного языка на социокультурное развитие индивидуума. Язык представляет собой социально-исторически обусловленный конструкт, который отражает культурные ценности, социальные взаимодействия, традиции и исторический опыт нации [6].

Язык — ключевой аспект культуры и идентичности народа, служащий средством передачи знаний и опыта. Он отражает исторический путь развития общества, его социальную структуру, естественную среду и культурное наследие. Исторически развитие языка связано с познанием человеком окружающего мира, что, в свою очередь, способствовало расширению границ человеческих знаний [2].

Изучение иностранных языков через интерактивный подход демонстрирует значительные преимущества, как подчеркивалось в работах выдающихся ученых-исследователей средневековья из Ближнего и Среднего Востока, таких как Алишер Навои, Захириддин Бабур, Абу Райхан Беруни, Аль-Хорезми, Боборахим Машраб, Мирза Улугбек, Фараби, Абу Али ибн Сина. Эти исследователи заложили основы сравнительного изучения языков, их типологии и компаративистики, благодаря глубокому знанию нескольких языков и культур, что позволяло им успешно проводить межкультурные исследования и сравнения.

Данные принципы находят отражение в произведениях восточного философа Абу Насра аль-Фараби. В своем труде «Мнения граждан виртуозного города» он артикулирует мысль о том, что существо, обладающее знанием иностранного языка и концепцией, превосходит любые другие формы живых существ [1].

Абу Наср Аль-Фараби утверждает, что основополагающей и инициативной в иерархии научных дисциплин является лингвистика, которая занимается систематизацией и наименованием концептов, связанных с субстанциями, объектами и феноменами. Он подчеркивает значимость этой дисциплины в контексте обучения и коммуникации, аргументируя, что способность адекватно выражать имена для объектов, то есть для сущностей и случайных характеристик, лежит в фундаменте всех научных знаний [5].

Изложенные данные свидетельствуют о том, что с древних времён человечество осознавало значимость языка и речи для экзистенции индивида, рассматривая их как инструменты, оказывающие благотворное воздействие на личность и способствующие её социальной интеграции, что может

привести к незначительным или кардинальным изменениям в жизни. Реверанс перед языком, идеализация языка представляют собой исторически укоренившееся явление. Наши предки верили в силу языка и речи настолько, что предполагали их способность влиять на благополучие или неудачи человека, в связи с чем были разработаны специфические принципы и нормы для ответственного и осмысленного использования языковых средств. Приверженность этим правилам положила начало для развития навыков грамотного освоения языков. Длительная история акцентирования на деликатном, гуманном проявлении по отношению к языку, его приемлемое и эффективное применение, его роли в процессах обучения и усовершенствования существования одиночки или коллектива, занимает значимое место в культурном наследии человечества.

Национальная философия узбекского народа формируется на протяжении тысячелетий, опираясь на достижения учёных и творцов разных эпох. Важное место в этом процессе занимает интеграция образования и обучения иностранным языкам, к чему активно внесли вклад учёные, такие как О.Р.Розиков и Р.Г.Сафарова. Исследования в этой области, в частности работы Д.Юлдошева и других, направлены на определение целей и сущности образовательного процесса, методов обучения и взаимодействия между учителем и учеником. Эффективность образовательной системы, согласно исследователям, заключается в развитии у учащихся способности к самостоятельному мышлению и применению полученных знаний в повседневной жизни.

В рамках этого исследования делается акцент на важность развития у учащихся способностей сравнивать «свое» и «чужое», обнаруживать общие элементы между культурами своего народа и культурой изучаемого языкового пространства, а также выявлять уникальные характеристики и понимать причины этих отличий. Обучение русскому языку ставит своей целью формирование у студентов способности к приспособлению и интереса к культуре другого народа; развитие умений воспринимать и анализировать культурные особенности изучаемого языка через призму собственных культурных устоев и жизненного опыта, выявление сходств и различий; навыков навигации по многообразию жизненных контекстов, ментальных настроев и ценностных систем с целью налаживания диалога; развитие критического мышления, которое способствует углублению личного понимания мира [4].

В процессе ассимиляции иностранных культурных элементов индивид овладевает умением интерпретации иностранных литературных

произведений, восприятие которых требует активации как когнитивных, так и творчески-визуальных процессов. Важно отметить, что через механизм воображения индивидуум реконструирует образы, первоначально созданные автором и зашифрованные в тексте. Знакомясь с иноязычной литературой, обучающееся лицо анализирует и интерпретирует художественные средства, проводит корреляцию смыслов с теми в собственной культуре и транслирует образы, исходя из личностных значений созданных автором. Истинное взаимодействие с текстом предполагает диалогическую связь с автором и персонажами произведения, при этом формируя у обучающегося навык ведения беседы с произведением, как с независимой субъектной единицей [3].

Следовательно, исследования демонстрируют, что изучение иностранного языка оказывает развивающее гуманитарное воздействие, проявляющееся в стимулировании формирования у индивида художественно-эстетической чуткости. Эта чуткость характеризуется способностью личности ощущать, понимать, ценить и любить произведения искусства, получая эстетическое наслаждение и эмоциональное насыщение от взаимодействия с произведениями высокой художественной ценности и проявляя стремление к систематическому культурному обогащению через искусство.

В процессе овладения иностранным языком и погружения в его культурные аспекты, человек развивает способности к аналитической обработке, освоению и интеграции как языкового, так и нелингвистического материала, активно налаживая поиск необходимых информационных ресурсов для обучения и самообразования. Это в свою очередь способствует развитию когнитивных и коммуникативных стремлений индивида, превращая его в активного участника как образовательного процесса, так и процесса личностного развития.

Итогом данного анализа является осознание того, что изучение иностранного языка в рамках постоянного влияния родной лингвокультуры имеет важное значение для социализации человека. Иностранный язык, выполняя функции общения и прагматики, расширения знаний, накопления информации и личностное формирование, способствует культурному и социальному развитию личности. Этот процесс охватывает развитие коммуникативных навыков, когнитивной независимости, артистическо-эстетической чувствительности, способности к эмпатии и социальной инициативности на фундаменте гуманистических ценностей. Эти элементы

содействуют эффективному взаимодействию и положительному самовыражению индивида в различных сферах деятельности.

Литература

1. Абу Наср Аль-Фараби. Фозил одамлар шахри. Ташкент : Изд-во Народ. наследия им. А. Кадыри, 1993. – С. 144.
2. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология: ценностно-смысловое
3. пространство языка: учеб. пособие [Текст] /Н.Ф.Алефиренко. – М. : Флинта:
4. Наука, 2010. – 288с.
5. Бахтин, М. М. Стилистика художественной речи [Текст] / М.М.
6. Бахтин // Литературно-критические статьи. – М., 2000. – С. 74.
7. Гальскова, Н.Д. Теория обучения иностранным языкам: Лингводидактика и методика: учеб. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак-в ин. яз. высш. пед. уч. заведений [Текст] / Н.Д. Гальскова, Н.И. Гез. – 2-е изд., испр. –М.: Издательский центр «Академия», 2005. – 336 с.
8. Гафуров, Б. Г. Ал-Аль-Фараби в развитии культуры / Б. Г. Гафуров, А.Х. Касымжанов. М.: Наука, 1975.
9. Зимняя, И.А. Психология обучения неродному языку: На материале русского языка как иностранного [Текст] / И.А. Зимняя. – М.: Русский язык, 1989. – 219с.

TA’LIMDA ZAMONAVIY AXBOROT VA KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARINI KENG JORIY ETILISHI

J.I.Umirov
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi.
jamshidumirov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga asoslangan pedagogik faoliyat o‘quv kurslarni olib borish jarayonini yengillashtirishi va ulardan foydalanish bo‘yicha maxsus malakalarni shakllantirishga yordam berishiga alohida ahamiyat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, axborot texnologiyalari, o‘quv materiallar, ta’lim jarayoni, ta’limni axborotlashtirish, pedagog kadrlar, masofaviy kurslar.

Аннотация. В данной статье акцентирует внимание на том, что педагогическая деятельность, основанная на использовании современных технологий, облегчает процесс проведения образовательных курсов и помогает формировать специальные навыки их использования.

Ключевые слова: система образования, информационные технологии, учебные материалы, учебный процесс, информатизация образования, педагогические кадры, дистанционные курсы.

Annotation. The abstract in this article emphasizes that pedagogical activity based on the use of modern technologies facilitates the process of conducting educational courses and helps to develop special skills for their use.

Key words: education system, information technology, teaching materials, educational process, informatization of education, teaching staff, distance learning courses.

Bugungi kunda ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarining keng joriy etilishi asosiy vazifalardan biriga aylangan. Bu jarayon axborot jamiyati talablariga mos barkamol avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida mikro va makro dunyo jarayonlarini, murakkab qurilmalar va biologik tizimlardagi hodisalarni kompyuter grafikasi va modellashtirish asosida o‘rgatish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, fizik, kimyoviy va biologik jarayonlarni qulay vaqt o‘lchamida taqdim etish kabi didaktik vazifalar muvaffaqiyatli hal etiladi53.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim tizimiga keng joriy etilishi bir qancha ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi. U, birinchi navbatda, fan sohalarini axborotlashtirishni, o‘quv faoliyatini intellektuallashtirishni, integrasiya jarayonlarini chuqurlashtirishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, ta’lim tizimining infratuzilmasi va boshqarish mexanizmlarining takomillashuviga xizmat qiladi54.

Ta’lim jarayonini axborotlashtirish nafaqat o‘qitishning tashkiliy shakllari va metodlariga, balki yangi o‘qitish usullarining shakllanishiga ham olib keladi. Fanlarning axborotlashuvi o‘quv faoliyatini takomillashtiradi, bilish jarayonini intensivlashtiradi, fanlarning kengayishi va chuqurlashuviga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayon fanlararo integratsiyani kuchaytiradi va o‘quv materiallarining mazmuni va hajmini o‘zgartiradi. Shuningdek, o‘quv dasturlarini qayta ishlab chiqish, alohida mavzular va fanlarning birlashuvi ta’limning mazmuni va tuzilmasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi55.

Ta’limni axborotlashtirish jarayoni natijasida talabalarning mustaqil o‘rganish imkoniyatlari kengayadi, fanlarga bo‘lgan qiziqish ortadi va ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishiladi. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish orqali ta’lim sifatini oshirish, jamiyat ehtiyojlariga mos intellektual avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.Hozirgi davrda masofaviy ta’lim ochiq ta’lim

[53] Karimov, Sh. (2023). *Axborot texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o’rni*. Toshkent: Ilmiy Nashriyot.
[54] Abdullayev, M. (2022). *Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning amaliyoti*. Samarqand: Ma’rifat Nashriyoti.
[55] Yusupov, F. (2023). *Fan sohalarini axborotlashtirishning nazariy asoslari*. Qarshi: Ilm-Fan Nashriyoti.

tizimining ajralmas bo‘g’ini sifatida jahonning ko‘plab davlatlarida keng qo‘llanilib, uning rivojlanishi zamonaviy axborot texnologiyalari va Internet tarmog’idan samarali foydalanishga asoslanmoqda. Bu texnologiyalar ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish imkoniyatlarini kengaytirib, ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’lim muassasalarida (OTM) faol joriy etilmoqda.

OTMlarda o‘quv jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish bir qator muhim omillarni talab qiladi. Bu jarayon masofaviy o‘quv kurslari va elektron o‘quv materiallarini yaratishga ixtisoslashgan jamoalar faoliyatini muvofiqlashtirishni, dasturchilar va pedagoglar o‘rtasida vazifalarni aniq taqsimlashni, o‘quv jarayonini takomillashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini monitoring qilishni o‘z ichiga oladi. Bu esa ta’lim jarayonining texnologik asoslarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi56.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga asoslangan pedagogik faoliyat kurslarni yaratish jarayonini yengillashtiradi va ulardan foydalanish bo‘yicha maxsus malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Masofaviy kurslarning ochiqligi ularning sifatiga bo‘lgan talablarni oshiradi, o‘quv materiallari sifatini nazorat qilishga ehtiyojni kuchaytiradi. Bundan tashqari, o‘quv jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatiga bo‘lgan e’tibor ortadi, ta’lim jarayoni markazi pedagogdan talabaga ko‘chadi, va bu jarayonda talabaning shaxsiy ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi57.

Zamonaviy kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish orqali pedagog va talaba o‘rtasidagi teskari aloqa samaradorligi oshadi. Bu esa o‘quv jarayonining sifatini yuqori darajada ta’minlashga, har bir talabaning individual ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Shuningdek, bu jarayon talabalar o‘quv jarayoniga ko‘proq qiziqish bilan yondashishini va ularning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqini oshiradi. Bugungi kunda ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jarayonida bir qator muammolar kuzatilmoqda. Xususan, pedagogik jamoalarning ta’limni axborotlashtirishga yetarlicha tayyor emasligi, kompyuter o‘rgatuvchi dasturlar imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarning cheklanganligi va ulardan foydalanish bo‘yicha metodik ishlanmalarning yetishmasligi, shuningdek, axborot texnologiyalari bo‘yicha malakali mutaxassislarning kamligi bu boradagi asosiy to‘siqlardir.

Ushbu muammolarni hal etishda pedagog kadrlarning ta’limni axborotlashtirish jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda pedagogning roli faqat cheklanib qolmasdan, balki

[56] Iskandarov, R. (2023). *Masofaviy ta’limda axborot texnologiyalari*. Toshkent: Ilm Nashriyoti.

[57] Karimova, S. (2023). *Oliy ta’limda elektron resurslardan foydalanish samaradorligi*. Samarqand: Ma’rifat Nashriyoti.

uning vazifalari va faoliyat doirasi sifat jihatidan mukammallashadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi natijasida pedagog endilikda nafaqat o‘quv kurslari yaratuvchisi (dizayner), balki o‘qitish metodikasi bo‘yicha maslahatchi, masofaviy kurslarni interaktiv taqdim etish bo‘yicha mutaxassis (tyutor), va ta’lim natijalarini baholash usullari bo‘yicha ekspert sifatida faoliyat olib borishi talab qilinadi.

Zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarining ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi masofaviy ta’limni samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Masofaviy ta’lim ko‘pincha masofaviy kurslar shaklida taqdim etilib, ularning yaratilishida dasturchilar va texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar faol hamkorlik qiladi.

Axborot texnologiyalari OTMlarda ta’lim mazmunini takomillashtirishda quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

Ta’lim mazmuni tarkibiy qismlarini uzviy bog‘lash;

Axborotlarning turli ko‘rinishlaridan foydalanish;

O‘quv kurslarini mashg‘ulotlar majmuasi sifatida taqdim etish;

Darslarni virtual tizim shaklida yaratish;

O‘quv materiallarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida yetkazish.

Shuningdek, texnologiyalarni tanlashda o‘quv jarayonining mazmuniy maqsadlari va talabalar ehtiyojlari asosiy mezon sifatida belgilanishi lozim. Eng zamonaviy va qimmat texnologiyalar bilan bir qatorda, an’anaviy va arzon texnologiyalar ham samaradorlikka erishishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Muhimi, kurslarni yaratish va ularni sifatli taqdim etishdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishda ulkan salohiyatga ega. Buning uchun ilm-fan yutuqlarini pedagogik amaliyotga joriy etish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash zarur. Bu nafaqat o‘quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi, balki ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini ham yuqori darajaga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, Sh. Axborot texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni. Toshkent: Ilmiy Nashriyot. (2023).
2. Abdullayev, M. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va ularning amaliyoti. Samarqand: Ma’rifat Nashriyoti. (2022).
3. Yusupov, F. Fan sohalarini axborotlashtirishning nazariy asoslari. Qarshi: Ilm-Fan Nashriyoti. (2023).
4. Iskandarov, R. Masofaviy ta’limda axborot texnologiyalari. Toshkent: Ilm Nashriyoti. (2023).

5. Karimova, S. Oliy ta’limda elektron resurslardan foydalanish samaradorligi. Samarqand: Ma’rifat Nashriyoti. (2023).

KONSTITUTSIYA-INSON HUQUQLARI HIMOYACHISI

Abduhamitova Dilnoza
Samarqand viloyati yuridik texnikum talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada konstitutsiyaning inson huquqlari himoyasidagi o`rni, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda ijtimoiy barqarorlikni taminlashdagi vazifalari yoritiladi. Maqolada xalqaro standartlar bilan uyg`unligi va milliy qonunchilikdagi amaliyotlar o`rganiladi.

Kirish. Konstitutsiya –davlatning eng muhim hujjati bo`lib, u davlat va jamiyatning huquqiy asoslarini belgilaydi. Bu hujjat davlat hokimiyatining tashkil etilishi fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, shuningdek ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni taminlashni ko`zda tutadi. Inson huquqlari huquqiy davlat tamoyillarining asosini tashkil qiladi. Ular har bir shaxsga tabiiy ravishda tegishli bo`lib, ularning kafolatlanishi va himoya qilinishi davlatning asosiy majburiyatlaridan biridir. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi xalqaro huquqiy tamoyillarni o`zida mujassamlashtirgan holda, inson huquqlarini himoya qilishning mustahkam asosi hisoblanadi.

Xabaringiz bor, yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyada moddalar soni amaldagi 128 tadan 155 taga, normalar soni 275 tadan 434 taga oshganligi unda jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy–siyosiy masalalar o`rni o`rin olganidan dalolat beradi. Ya’ni asosiy qonunimiz matni qarib 65 foizga ortdi va xalqimiz takliflari asosida yangilandi. Konstitutsiyaga xalqimizning xohish istaklari inobatga olingan holda juda kata o`zgarishlar kiritildi. Avvalambor, insonning sha’ni, qadir qimmati oliy qadiriyat sifatida belgilandi. Konstitutsiya oliy darajadagi qonun sifatida davlatimiz qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik prinsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo’nalishlarini, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligi hamda ma’naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab beradi. Shuningdek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar insonning sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarda ustuvor ahamiyat kasb etishini qat’iy qoidaga aylantirish, bir so’z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” goyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo’lgan “Inson – jamiyat – davlat” tamoyili asosida amalga oshirilishi belgilandi. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi demokratik huquqiy davlat va erkin fuqaroviy jamiyat barpo etishning chinakkam huquqiy poydevoridir. Ushbu huquqiy davlatchilikning asosiy

prinsip va belgilari xususan, konstitutsiya va qonun ustunligi, demokratik, ijtimoiy adolat prinsiplari mustahkamlangan. Konstitutsiya har bir fuqaroga tegishli bo`lgan tabiiy va ajralmas huquqlari, jumladan yashash huquqi, jismoniy va ma'naviy daxlsizlik, shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi, fikirlash va so'z erkinligi bo'lgan huquqi, axborot olish huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, sud himoyasidan foydalanish huquqi va boshqalar tan olingan.

Xalqaro huquqiy normalarning konstitusiyamizga kiritilishi ham o`ziga xos xususiyat hisoblanadi. Misol uchun, 1-moddaga e'tibor qaratadigan bo`lsak, O`zbekiston –boshqaruvning respublika shakliga ega bo`lgan suveren, demokratik, huquqiy ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligi qat'iy belgilab qo`yilgan. O`zbekiston o`zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi shart-sharoit majburiyatini olmoqda. Bu ayniqsa, yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, faravon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat ko`rsatish, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtomoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy joylik bo`lish sharoiti mavjud bo`lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan hech bir fuqaro o`z muamolari bilan yolg`iz qolmaydigan adolatli davlatdir. Ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi sifatida barcha uchun teng imkoniyatlar, oilalar, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo`llab-quvvatlashga oid yangi qoidalar o`rnatilmoqda, shuningdek, aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash bo`yicha davlatning majburiyatlari, mehnatga haq to`lashning eng kam miqdorini belgilashda insonning munosib yashashini ta'minlash hisobga olinishi alohida belgilanmoqda. Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag`allikni qisqartirish bo`yicha majburiyatlar konstitutsiya normasi darajasida mustahkamlandi. Fuqarolarning kafolatlangan tibbiy yordamga bo`lgan huquqlari belgilanmoqda va davlatning ta'limning barcha shakillariga g`amxo`rlik qilishi, o`qituvchining maqomiga oid normalar mustahkamlandi. Bundan ko`rinib turganidek insonga e'tibor hamda g`amxo`rlik davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlangan.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020yil 20-iyunda konstitutsiyaviy kamisiya a`zolari bilan uchrashuvda Asosiy qonunimizda O`zbekiston-ijtimoiy davlat degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki "inson qadri" tushunchasi "ijtimoiy davlat" tushunchasi bilan bog`liqdir.Ushbu g`oyaning tub negizida ham avvalo insin qadrini ulug`lash, insonga xizmat qilishdek olijanob maqsad mujassamdir", deb ta'kidlagan edi. Shu bilan birga 2020-yil 22-iyundagi "Inson huquqlari bo`yicha O`zbekiston

Respublikasining milliy stategiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Prezident farmonida “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil ushbu normaning shakilanishiga bevosita ta`sir ko`rsatgan.

Bolalar huquqlari bilan bog`liq masalalar: onalik, bolalik va shu bilan birgalikda otalikni ham davlat tomonidan muhofaza qilinishi alohida belgilab qo`yilgani ahamiyatlidir. O`qituvchi maqomining 52-moddada oliy darajada belgilab qo`yilganini alohida takidlab o`tish joizdir. Shu tariqa ustozlar oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Kontitutsiyaning 20-moddasida barcha noaniqliklar inson foydasiga hal etilishi kerakligi belgilandi. Bu esa konstitutsiyada mustahkamlanganligi eng katta yutuq bo`ldi. Inson bilan davlat organlarining o`zaro munosabatlarida yuzaga keladigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiyaga talqin etilishi shartligi huquqiy demokratik davlatning bosh mezoni hisoblanadi. Bu konstitutsiyaga ko`ra qonunchilikda aniq belgilab qo`yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masalan davlatning emas insoning foydasiga hal etilishi lozim masalan pensiya (nafaqa) tayinlashda kerakli hujjatlar bazadan topilmay noaniqliklar yuzaga kelganda ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi zarur.

Asosiy qonunimizning 30 dan ortiq moddasi bevosita inson huquqlari va erkinliklariga bag`ishlangan bo`lib, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o`zida mujassamlashtirgan. Shuningdek yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini ta’minlashda aybsizlik prezumpsiyasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 28-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va mahkumning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan quyidagi kafolat belgilandi; “aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo`lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak”.

Ta’kidlash lozimki, muayyan jinoyat ishi bo`yicha surishtiruvchi, tergovchi tergov harakatlari, sud esa sud tergovi orqali dalillar to`playdi. Ayrim holatlarda to`plangan dalillarni baholashda ularga nisbatan shubha paydo bo`lishi mumkin. Bunday, shubhalar ayblov tomonga ishlatilishi kerakmi yoki himoya foydasigami, degan savol yuzaga keladi. Yangi konstitutsiyamizda bunday vaziyatda ayibdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchiva mahkumning foydasiga hal qilinishi qat’iy mustahkamlandi.

Shaxsni aybli ekanligiga oid har qanday shubhalar, shuningdek ayblash uchun yetarli bo`lmagan ma’lumotlar asosida shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Tergovda shubha ostidagi dalillar asosida ayb e’lon qilingan bo`lsa ham, bunday

vaziyatda shaxsni aybni tasdiqlovchi dalillarning yetarli emasligi tufayli sudda unga nisbatan oqlov hukmi chiqariladi. Ya’ni “isbotlanmagan ayb – isbotlangan aybsizlikka teng”, degan qoida amal qiladi. Aytish mumkinki, mamlakatimizda sudlar tomonidan so`nggi 6 yilda 4 ming 700 nafardan ortiq fuqaro oqlangan.

Bunday normalar Ozarbayjon, Chexiya, Gruziya, Xorvatiya, Yaponiya va boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida o`rin olgan.

Konstitutsiyamizda o`rin olgan mazkuz normalar to`g`ridan-to`g`ri amal qiluvchi qoidalar bo’lib, tergov va sud jarayonida faqat ishonchli va qonuniy dalillardan foydalanishni ta’minlaydi hamda natijada fuqarolarni asossiz va qonunga xilof jinoiy ta’qibdan himoya qiladi, tergov organlari tomonidan jinoyatda ayblanayotgan shaxslarning huquqlari buzilishining oldini oladi.

Shuningdek, konstitutsiyamizning 28-moddasida “shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlari uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo`lishi mumkin emas”, degan insonparvar va adolatli norma mustahkamlandi. Buning mohiyati, sudlanganlik shaxsga sud hukmi bilan jazo tayinlanganidan keyin unga nisbatan muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, sudlanganlik davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishga kirish yoki ularda tegishli lavozimlarni egallashda, harbiy xizmatni o`tashda, saylanish huquqidan yohud muayyan faoliyat bilan shug`ullanishda qator taqiqlarni yuzaga keltiradi. Ammo shaxsning sudlanganligi bilan bog`liq turli cheklovlar uning o`zi bilan cheklanib, boshqa shaxslarning huquqlariga ta’sir qilmasligi va hech bir holatda inson o`zining yaqinlari yo`l qo`ygan xatolar uchun javob bermasligi kerak. Qolaversa, mehnat qonunchiligiga ko`ra, shaxslarni yaqin qarindoshlari sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik holati ishga qabul qilishni g`ayriqonuniy ravishda rad etish, deb hisoblanadi.

Afsuski, bir necha yillar avval shaxsga uning qarindoshlari sudlanganligi holati ta’sir etishini nazarda tutuvchi eskicha yondashuv oqibatida ko`plab fuqarolar aziyat chekkan. Masalan, odatda bir oilada ota-ona, bir necha aka-uka, opa- singil va farzandlari bo`lsa, bu oilaning birgina a’zosi qilgan xatosi 10 nafardan ortiq insonlarning hayotiga salbiy ta’sir etardi. Qanchalik urinmasin, mehnat qilmasin, yaqinining sudlanganligi insonning kasbiy o`sishi, shaxs sifatida rivojlanishi, jamiyatda nufuzli o`ringa ega bo`lishiga to`g`ridan-to`g`ri to`siq bo`lar edi.

Asosiy qonunimizga kiritilgan mazkur qoida sudlangan shaxslar qarindoshlarning huquqlarini asossiz cheklashni taqiqlaydi. Mustabid tuzumdan meros bo`lgan salbiy tajribadan voz kechib, har kim faqat o`zi sodir etgan jinoyati uchun javob berishini amalda ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat o`zining asosiy hujjatida inson huquqlari bo`yicha bir qator majburiyatlar olgan. Xususan, o`z faoliyatini inson va jamiyat faravonligini ko`zlab ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiblari asosida amalga oshirishi, xalq manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyatga fuqarolar oldida masul ekanligi, davlat o`z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf odatlari an'analari hurmat qilinishini taminlashi, fuqarolarni o`z hududida ham, uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko`rsatishni kafolatlashi qatiy belgilangan. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni qadir-qimmati boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadiriyat deb mustahkamlangan.

Xulosa. Bugungi kunda inson qadir qimmati uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfatlarini taminlash g`oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, O`zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu say`harakatlarning o`zaro bog`lab turuvchi muhim omilga aylandi. Insonga tug`ilganidan boshlab tegishli bo`lgan tabiiy va ajralmas huquqlar sirasiga inson hayoti, sha'ni qadr qimmati, ozodligi, tengligi, erkin bo`lishi, xavfsizligi, daxilsizligi kiradi va bu huquqlar qonunlarda belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qatiy nazar insonga azaliy tegishlidir, deb e`tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi – yangi tahrirdagi 2023-yil 30-aprel
2. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. Darslik.Mualliflar jamoasi. – T.:TDYU,2005
3. O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy huquqi. Darslik/Mas'ul muharrir: A.X.Saidov. – T.:TDYU nashriyoti,2012.

JONTEMIR IJODIDA POETIK SINTAKSIS MASALASI (JAZBA SHE'RIY TO'PLAMI TAHLILIDA)

Saitova Nilufar Djumaydillayevna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi,
Erkin tadqiqotchi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yosh shoir Jontemir Jondorning Jazba she'riy to'plamidagi bir qancha she'rlar tahlil qilinadi. Unda Vatan, erk, tabiat va muhabbat kabi mavzularning aks etishi o'rganiladi. Tadqiqotda badiiy obrazlar tili, poetik ifoda va modernizm yo'nalishidagi zamon va makon uyg'unligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: obraz tili, badiiylik, ijodiy fikr, sevgi, adabiyot, ijod

Kirish. Adabiy asarlarni janr xususiyatlari bo‘yicha tahlil qilganda, she’riyat nasrga nisbatan hajm jihatidan ko‘proq xilma-xillikka ega. Ko‘plab mashhur adiblar adabiyotga she’r yozish orqali kirib kelgan. Bugungi kunda o‘zbek she’riyati oddiy tasvirlardan murakkab badiiy san’at turiga aylangan. Zamonaviy yosh shoirlarning ba’zi she’rlari tayyorgarliksiz o‘qigan kitobxon uchun murakkab va tushunarsiz bo‘lishi mumkin. She’r, asosan, shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo‘lib, nasrga nisbatan tez-tez yaratiladi. Biroq nasr yozish ijodkordan chuqur tayyorgarlik, tajriba va teran bilim talab qiladi.

Shu jumladan, zamonaviy yosh shoir Jontemir Jondorning Jazba to‘plami ham ana shunday asarlardan biri hisoblanadi. Shoir Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida tug‘ilgan bo‘lib, she’riyatga chuqur qiziqish bilan yondashgan. Jazba she’riy to‘plami Izlam turkumining birinchi asari hisoblanadi va hajm jihatidan boshqa asarlardan kattaroqdir. Kitob quyidagi sakkiz fasldan iborat:

- "Mendan sen yaratar tasavvurlarim,"
- "Shoirni tinch qo‘ymang,"
- "Iymonim yaprogin yuvarman,"
- "Tomog‘imni tirnadi yoding,"
- "Ko‘chalarni qabarib sang‘ib,"
- "Kuzlanish,"
- "Yetolmaydi tunni nur quvib,"
- "Sarbast tuyg‘ular."

Jazba so‘zi o‘quvchini o‘ziga tortib, shoirning she’riy ketma-ketlikdagi kechinmalarini his qilishga undaydi. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida bu so‘zga shunday ta’rif berilgan: “Jazb/jazba – tortish, berilish, jalb etish, hayajonga tushish; tariqat ahlining o‘zidan ketgan holati” (1983, 557-bet). Shoir Jontemir o‘z dard va kechinmalarini jazba orqali she’riyatga aylantirib, o‘z ijodini namoyon qiladi.

Mavzular va uslubning tahlili:

"Mendan sen yaratar tasavvurlarim" faslidagi she’rlar shoirning muhabbat his-tuyg‘ularini aks ettiradi. Jontemirning muhabbat mavzusidagi aksariyat she’rlari tabiat hodisalari bilan uyg‘unlashadi. Muhabbat va sog‘inchning ajralmasligi uning she’rlarida qayta-qayta ko‘rinadi:

"Sog‘inch – tili qayralgan jodu,
Kesib olaverar yurakdan bir-bir..."
(Jontemir, 2022, 19-bet)

Jontemirning she’rlarida jismoniy va ruhiy o‘lchovlar o‘zaro uyg‘unlashib, kuchli hissiy rezonans yaratadi. Masalan, quyidagi satrlarda yomg‘ir tasviri insoniy tashvishlar bilan uyg‘unlashadi:

"Yomg‘ir – uloq ko‘rgan chavandoz,
Xavotirim battar qamchilar..."
(Jontemir, 2022, 40-bet)

To‘plamda 150 ga yaqin she’r o‘rin olgan bo‘lib, shoirning chuqur hissiy holatlari va yorqin tasvirlarini o‘z ichiga oladi.

Xulosa:

Jazba orqali Jontemir o‘z qalb to‘lqinlarini she’riyatga singdirib, o‘z hissiyotlari va kechinmalarini ifodalashga erishgan. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyati doirasida katta qiziqish uyg‘otmoqda va yosh kitobxonlar orasida keng o‘qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jondor, Jontemir. Jazba. Toshkent: – Akademnashr, 2022.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 1-jild. Toshkent: – Fan, 1983.
3. Karimov, T. O‘zbek poeziyasida zamonaviy yo‘nalishlar. Toshkent: – Adib, 2019.
4. Sattorov, N. She’riyat va falsafiy tahlil. Toshkent: – Ilm Ziyo, 2018.
5. Jontemir Jazba. – Akademnashr, 2022, - B. 288
6. Abdurahmonov A. O’zbek she’riyatida nur, rang va ruxiyat tasviri poetikasi (an’ana va novatorlik asosida): Filol. Fan...fals.dokt... avtoref. – Farg’ona, 2018. – 53 b.
7. Afoqova N. So‘z ayvoni. – T.: Fan, 2006

МАРТИН ХАЙДЕГГЕРНИНГ ИЖТИМОИЙ ОНТОЛОГИЯСИ

Солиева Зарина Ботировна
СамДЧТИ катта ўқитувчиси
zarina.solieva1981@gmail.com

Аннотация. Мазкур мақолада ижодкорнинг фалсафий қарашларига диққат қаратилди. Хусусан файласуфнинг “борлиқ ва вақт” асарининг яратлиши, унда замонавий техникада бўлган муносабатини вужудга келишга сабаб бўлганлиги ёритилган

Калит сўзлар: борлиқ, вақт, барқарорлик, эстетика, мавжудодлик, ижодкорлик

Мартин Хайдеггер (1889-1976) Германиялик файласуф бўлиб, 20-асрнинг энг муҳим мутафаккирларидан бири ҳисобланади. Унинг асосий асари, "Борлиқ ва вақт" (1927), онтология (мавжудот ҳақидаги таълимот)га

фундаментал янгича ёндашув таклиф этади. Хайдеггернинг ижтимоий онтологияси унинг бу асардаги тадқиқотларидан ва кейинги ишларидан келиб чиқади.

М.Хайдеггернинг ижтимоий онтологиясидаги асосий тушунча "борлиқ ва вақт" (Dasein)дир. Вара эканлик инсон мавжудотини, яъни ўзининг мавжуд эканини англаш қобилиятига эга бўлган мавжудот сифатида таърифлайди. М.Хайдеггернинг фикрича, инсоннинг асосий тажрибаси ҳаётга бўлган ташвиши ёки қўрқувидир. Бу ташвиш инсоннинг ўлими эканлигини англашидан келиб чиқади.

М.Хайдеггернинг ижтимоий онтологиясида ташвиш тушунчаси муҳим аҳамиятга эга.Инсон ўзининг вақтини ва энергиясини қандай сарфлаши ҳақида танловлар қилиши ва ўз мавжудотини маъноли қилиш учун интилиши керак.

М.Хайдеггернинг фикрича, инсоннинг ижтимоий табиати ўз ташвишидан келиб чиқади. Инсон хеч қачон ўзидан ўзи мавжуд бўла олмайди, балки ҳамиша дигарлари билан муносабатида мавжуд бўлади. Унинг "борлиқ эканлик" (Mitsein) тушунчаси шуни таъкидлайдики, инсоннинг ўзини англаши асосан бошқалар билан бўлган муносабати орқали белгиланади.

Мартин Хайдеггернинг ижтимоий онтологияси инсон табиати ва ижтимоий муносабатларнинг характерли тушунчасини таъминлайди. Унинг "борлиқ ва вақт" тушунчалари инсоннинг ўзини англаши ва бошкалар билан бўлган муносабатини фаҳмлаш учун муҳим аҳамиятга эга. Мартин Хайдеггернинг ижтимоий онтологияси инсон табиати ва ижтимоий муносабатларни тушуниш учун ёрдам берадиган, аммо унинг характерли тушунчасини "таъминлайди" дейиш ноаниқ. Хайдеггернинг ёндашуви анъанавий ижтимоий фалсафадан фарқ қилади, унда ижтимоий тузилмалар, институтлар ва муносабатлар марказий ўринда туради. Хайдеггер эса, инсоннинг ўзини мавжудот сифатида (Dasein) тушунишга устунлик беради, бу эса ижтимоий муносабатларга янгича нуқтаи назардан яқинлашади.

"Характерли тушунча" деган ибора Хайдеггернинг ишида аниқ бирор таърифга эга эмас. Унинг ижтимоий онтологияси мавжудотнинг моҳияти, инсоннинг ўз мавжудлигини англаши борлиқ, вақт, тил, технология каби фундаментал мавзуларга асосланган. Буларнинг ҳаммаси ижтимоий муносабатларга таъсир қилади, лекин уларни тушунтириш учун бирор "характерли тушунча"ни бермайди.

Хулоса қилиб айтганда, Хайдеггернинг ижтимоий онтологияси инсон табиати ва ижтимоий муносабатларни тушунишга ёрдам беради, лекин улар

учун универсал ва "характерли" тушунчани тақдим этмайди. Унинг ёндашуви бу муносабатларга янгича, онтологик нуқтаи назардан яқинлашади, лекин ижтимоий фанлардаги анъанавий таърифлар ва тушунчалар билан тўғридан-тўғри таққослаб бўлмайди.

М.Хайдеггернинг ишлари ижтимоий фалсафа, антропология ва психология каби талабларнинг кенг доирасига таъсир кўрсатган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мотрошилова Н. В. Драма жизни, идей и грехопадения Мартина Хайдеггера//Философия Мартина Хайдеггера и современность. М. 1991. С.44.
2. Хайдеггер М. Вопрос о технике // Время и бытие: Статьи и выступления / М.Хайдеггер.М.,1993.С.221.
3. Целух С. Мартин Хайдеггер – философ бытия и времени. Текст доступен на сайте: http://www.lomonosov.org/article/martin_haidegger.htm
4. Botirovna, S. Z. (2024). MARTIN XAYDEGGER MATNLARIDA FIKR VA TILNING" O'YINI". worldly knowledge conferens, 7(1), 128-130.
Abstract. We examine a spin system– whether biological, economic, or physical–on Cayley trees. The analysis of this model simplifies to solving a non-linear integral equation. For various examples concerning the kernel of the equation, we demonstrate the uniqueness of its solution.

Key words: Cayley tree, spin, integral equation, Hamiltonian.

In an innovative economy, integral equations offer powerful tools for modeling the spread of technology, the dynamics of innovation networks, and environmental impacts of economic activities. By providing a mathematical framework for understanding long-term and cumulative effects, integral equations help policymakers, businesses, and economists to better forecast and optimize innovation-driven growth. In this short note we drive a non-linear integral equation

which is crucial to describe Gibbs measures of a (biological, economical, or physical) system ([1]-[4]).

We consider an infinite graph, named as a Cayley tree $\Gamma^{\kappa} = (V, L)$ (see [1]) of order k≥1, i.e., a graph without cycles, with exactly k+1 edges incident to each vertices. Here V is the set of vertices and L that of edges.

Consider spins $\sigma(x), x \in V$ with values from ⌈0,1⌉. A configuration σ on V is then defined as a function $x \in V \rightarrow \sigma(x) \in \lceil 0,1 \rceil$; the set of all configurations is $\Omega = \lceil 0,1 \rceil^{V}$.

Define the (formal) Hamiltonian on Ω as

$$H(\sigma) = -J \sum_{<x,y> \in L} \xi_{\sigma(x)\sigma(y)}, \qquad (1)$$

where $J \in R \setminus \{0\}$ and $\xi : (u, v) \in \lceil 0,1 \rceil^2 \rightarrow \xi_{uv} \in R$ is a given bounded, measurable function. As usually, $< x, y >$ stands for nearest neighbor vertices.

It is known (see [1], [2]) that to each translation-invariant Gibbs measure of Hamiltonian (1) corresponds a solution f(t), $t \in \lceil 0,1 \rceil$ of the following functional equation

$$f(t) = \left(\frac{\int_0^1 K(t,u) f(u) du}{\int_0^1 K(0,u) f(u) du} \right)^{k}, \qquad (2)$$

where $K(t,u) = \exp(J\xi_{tu} > 0,\ f(t) > 0, t, u \in \lceil 0,1 \rceil$

Note that this equation can be rewritten as a Hammerstein's integral equation. In general, it is very difficult to solve functional equation (2), but in [1]-[4] (see also references therein), under some conditions on the kernel K (t,u), some solutions are studied.

Here we consider separable kernel, i.e.

$$K(t,u) = \sum_{i=1}^{m} p_i(t) q_i(u), \qquad (3)$$

where $m \in N$, p_i and q_i are some given positive functions.

Consider the following system of non-linear equations (with unknown $\alpha = (\alpha_1, \ldots, \alpha_m)$):

$$\alpha_i \left(\sum_{j=1}^{m} p_i(0)\, \alpha_j \right)^{k} - \int_0^1 q_i(u) \left(\sum_{j=1}^{m} p_j(u)\, \alpha_j \right)^{k} du = 0, i = 1, \ldots m. \quad (4)$$

Theorem 1. For each solution $\propto = (\propto_1, \dots, \propto_m), \propto_i > 0$ of system (4) corresponds a solution

$$f(t)= \left(\frac{\sum_{i=1}^{m} p_{i(t)} \propto_i}{\sum_{i=1}^{m} p_i(0) \propto_i} \right)^k$$

of equation (2) in the case of kernel (3).

Proof. For (3) from (2) we get

$$f(t)= \left(\frac{\int_0^1 \sum_{i=1}^{m} p_i(t) q_i(u) f(u) du}{\int_0^1 \sum_{i=1}^{m} p_i(0) q_i(u) f(u) du} \right)^k = \left(\frac{\sum_{i=1}^{m} p_i(t) \int_0^1 q_i(u) f(u) du}{\sum_{i=1}^{m} p_i(0) \int_0^1 q_i(u) f(u) du} \right)^k = \left(\frac{\sum_{i=1}^{m} p_i(t) \propto_i}{\sum_{i=1}^{m} p_i(0) \propto_i} \right)^k ,$$

where

$$\propto_i = \int_0^1 q_i(u) f(u) du \qquad (5)$$

Putting now $f(t) = \left(\frac{\sum_{i=1}^{m} p_i(t) \propto_i}{\sum_{i=1}^{m} p_i(0) \propto_i} \right)^k$ in (5) we get system (4). The proof is completed.

Remark. Since the system (4) is non-linear, finding solutions for given $m \in N$ and positive functions p_i and q_i is challenging. In our next work, we will identify conditions on these functions that ensure the system (4) has a unique solution. Additionally, it would be intriguing to determine the functions p_i and q_i for which the system has multiple solutions.

Application: One can use integral equations to model econometric relationships between several variables of spending, innovation outputs, and economic performance over time, accounting for lagged effects of innovation.

References

1. Jahnel B, Kuelske C, Botirov G. I, Phase transition and critical values of a nearest-neighbor system with uncountable local state space on Cayley trees. Math. Phys. Anal. Geom. 17(3-4) (2014), 323-331.
2. Rozikov, U.A. and Eshkabilov, Yu.Kh.: On models with uncountable set of spin values on a Cayley tree: Integral equations. Math. Phys. Anal. Geom. 13 (2010), 275-286.
3. Rozikov U. A., Botirov G. I. Non-translation-invariant Gibbs measures for models with uncountable set of spin values on a Cayley tree. Reports Math. Phys. 2018, V.81, No.1, p.105-115.
4. Rozikov U.A. Gibbs Measures in biology and physics: The Potts model, World Sci. Publ. Singapore. 2022.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Dauletova Zamira Abdigapbarovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali “Zooinjeneriya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari hamda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy компетентлигini oshirish orqali erishiladigan ijobiy natijalar xususida fikr-mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, bo‘lajak mutaxassislar, intellektual salohiyat, kasbiy faoliyat, kreativ qobiliyat, tarbiyaviy jarayonlar, , redagogik-rsixologik bilimlar, kompeks yondashuv, kasbiy kompetentlik.

O‘zbekiston Respublikasida axborot jamiyatining shakllanishi va uning oliy ta’lim tizimining jahon miqyosidagi integrasiyasi ta’lim tizimi oldiga o‘zbek an’anaviy ilm-fan sohasini dunyoda qabul qilingan pedagogik tushunchalarni milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda ta’lim tizimiga moslashtirish vazifasini qo‘yadi. Xususan, ta’limning bilim paradigmasini kompetentlik yondashuvi nuqtai-nazaridan takomillashtirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Mutaxassisning kompetentligi quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- intellektual – bilim orttirish qobiliyati bo‘lib, insonning bilim va tajribalarni o‘zlashtirish va ulardan foydalana olishga, muammoli vaziyatlarda o‘zini oqilona tuta bilish, amalga oshirilishi kerak bo‘lgan faoliyatning maqsadlari, vazifalari, me’yorlarini o‘zaro moslab qo‘ya bilish va ularni samarali ravishda bajara olishga tayyorligini ifodalaydi; - amaliy – qayta o‘zgartirish faoliyati bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar, mehnat texnikalarini va texnologiyalarini yuqori darajada egallaganlik; - qadriyatlardan xabardorlik – madaniy-ma’naviy qadriyatlarning ustunligiga tayanganlik. Insonning intellektual qobiliyatlari shaxsda mavjud bo‘lgan intellektual sifatlarda ko‘rinadi, bu sifatlarga ijodkorlik, tashabbus, aqlning intellektual jihatdan o‘ziga xosligi, bilim orttirish va motivasion omillarning ajralmas birligi sifatidagi shaxsning kompetentligini kiritishimiz mumkin. Kasbiy ijodkorlik – bu yangi g‘oyalarni yuzaga keltirish va muayyan faoliyatda ularni amalga oshirish jarayonidir. Ijodiy ish faoliyatida o‘z-o‘zini idora qilish, o‘zining intellektual faoliyatini erkin boshqara olish, maqsadga muvofiq ravishda

rejalashtira olish, bilim orttirish vazifalarini mustaqil ravishda hal qila bilish qobiliyatlari muhim o‘rin tutadi.

Ta’limni modernizasiyalash muammolarini ko‘rib chiqishda oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablarni belgilashda “kasbiy kompetentlik” atamasi keng qo‘llaniladi. T.Yu. Bazarov “kasbiy kompetentlik” toifasini mutaxassisning kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida samarali qarorlarni qabul qilishga tayyorligi va qodirligi deb hisoblaydi. Kasbiy kompetentilik umuman olganda bilim, ko‘nikma va tajribaning, shuningdek shaxsiy sifatlarning bir butun, yaxlit yig‘indisi bo‘lib, insonga kasbiy faoliyatini atrof olam bilan o‘zaro bog‘liqlikda, samarali loyihalashtirish va amalga oshirish imkonini beradi”. Kasbiy kompetensiyalarni ko‘rib chiqib, ko‘pchilik tadqiqotchilar quyidagilarni alohida ta’kidlaydilar: 1) oddiy (bazaviy) kompetensiyalar (faoliyatning muayyan turlarida namoyon bo‘ladigan va oson mustahkamlanadigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarga asoslangan holda shakllantiriladigan); 2) tayanch kompetensiyalar hisobga olish va o‘lchash uchun o‘ta qiyin bo‘lib, faoliyatning barchacturlarida, shaxsning atrof olam bilan barcha munosabatlarida namoyon bo‘ladi, shaxsning ma’naviy dunyosini va uning faoliyati mazmunini aks ettiradi.

O‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga kompetentlik yondoshuvlarni ishlab chiqishga I.L.Zimnyaya katta hissa qo‘shgan. U pedagog shaxsining barcha sifatlarini ob’ektiv va sub’ektiv sifatlarga ajratgan: ob’ektiv sifatlari – bu o‘qituvchining o‘z fanini bilish darajasi, fan metodologiyasini egallaganlik darajasi va ilmiy bilimlarining chuqurligi, umumiy didaktik va xususiy metodik tamoyillarni egallaganligi, bolalar psixologiyasini yaxshi bilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq qabul qilishi; sub’ektivlari: pedagoglik san’ati, pedagogik iste’dod, ijodkorlik va h.k.

Zamonaviy oliy ta’limda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning asosiy yo‘llari va vositalari, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: • talabalarning kasbiy yo‘naltirilganlik darajasini, kasbiy yo‘naltirilganligini va tayyorgarligini, individual xususiyatlarini, shaxsiy qiziqishlari va imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda tanlab olish uchun taklif etiladigan muammoli-vaziyatli topshiriqlarning variativligi; • ishni bajarishning jamoaviy va individual shakllarini uyg‘unlashtirish asosida talabalarning mustaqilligini rivojlantirish; • talabalarning bajargan ishlarini va kasbiy tayyorgarlik darajalarini o‘zaro tekshirishlarini, o‘z-o‘zini nazorat etishlarini va tahlil etishlarini rag‘batlantirish; • talabalarni ijodiy faoliyatning turli shakllariga va o‘z-o‘zini boshqarishga keng jalb etish; • talabalarning respublika va oliy ta’lim muassasasi miqyosida tashkil etilayotgan ma’naviy va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishlari.

Oliy ta’lim muassasasi axborot manbai sifatida emas, balki ma’naviymadaniy qadriyatlarning milliy va umuminsoniy tamoyillari bilan talaba orasidagi vositachi vazifasini bajargan taqdirdagina, birinchidan, talabaning shaxsiy qiziqish, ijodkorlik, muloqot, o‘qish va bilimlar orttirish faoliyatlarini o‘z ichiga hayot faoliyati sifatidagi, ikkinchidan, madaniyatning bugungi kundagi holati va tarixiy rivojlanishini egallashning usuli sifatidagi o‘quv jarayoni mutaxassisning kasbiy kompetentliligini rivojlantirishning real shart-sharoitlariga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2013 yil.
2. Лобашев В.Д., Талых А.А., Зименкова Ф.Н. Элементы творческой деятельности в технологическом образовании студентов // Педагогика и психология образования, - М: МПГУ, №4, 2016.- С.59-65.
3. Исаева Т.Е. Классификация профессионально-личностных компетенций вузовского преподавателя. – М.: Педагогика. – 2005.
4. Базаров Т.Ю. Компетенция будущего: Квалификация? Компетентность (критерии качества). Зимняя И.Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. -2004. 13-б.
5. Зимняя И.Л. Ключевые компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Авторская версия. - М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. - 2004.

DEVELOPMENT OF TRANSPORT INFRASTRUCTURE TO ENSURE GROWTH OF REGIONAL ECONOMIES

Abdurakhmanova M.T
Lecturer
Oriental university, Tashkent, Uzbekistan

Аннотация. Транспортная система страны позволяет хозяйствующим субъектам и населению иметь возможность перемещаться по пространству, предоставляя им доступ к населенным пунктам, производственным районам и сырьевым базам. Расширение транспортной инфраструктуры будет служить средством реализации политики пространственного развития и эффективного использования ресурсно-сырьевой базы в соответствии с транспортной стратегией.

Ключевые слова: транспортная инфраструктура, экономический рост, региональное развитие, логистика, инвестиции, мобильность

Abstract. The country's transport system allows economic entities and population to be able to move through space, giving them access to settlements, production areas and raw material bases. The expansion of transport infrastructure will serve as a means of implementing spatial development policy and efficient use of the resource base in accordance with the transport strategy.

Keywords: Transport infrastructure, economic growth, regional development, logistics, investments, mobility

Transport infrastructure as the most important element of the transport industry is designed to meet the needs of economic entities and the population in transport, guaranteeing reliable goods and passenger flows. The infrastructure includes transport of all types: railways, inland waterways, motorways, tunnels, overpasses, bridges, railway stations, railway and bus stations, subways, airfields and airports, contact lines, communication, navigation and traffic control systems, as well as other buildings, structures, devices and equipment that ensure the functioning of the transport complex.

The global transportation system is diverse, with distinct regional variations in North America, Western Europe, the CIS, Asia, Latin America, and Australia. It is also possible to distinguish between the transportation systems of economically developed and developing nations. In the majority of developed nations, the density of the transportation network, which best describes its availability, is 50–60 km per 100 km of land; in developing nations, it is 5–10 km. Over 80% of the world's automobile fleet is concentrated in economically developed nations, which also house nearly two-thirds of all ports worldwide and handle three-quarters of

global cargo turnover. A high technical level is another characteristic of this transport subsystem [1].

Undoubtedly, the economic development of both individual enterprises and entire territorial entities can be hampered by any lag in the development and improvement of transport capacity. In this case, it is important to take into account not disparate transport routes belonging to different modes of transport, such as motorways, railways and water communications, but a common transport link between areas. This reduces freight delivery times and makes travelling for passengers more convenient both within and between districts.

The increasing speed of freight and passenger traffic will undoubtedly lead to an increase in the production activity of the territory where the points of departure and destination of cargoes are located, and, consequently, to the growth of the country's GDP, forcing regional authorities to think about the need to invest in the transport industry as the most important factor of economic growth.

The analysis of a number of sources has shown that the essential characteristics of the concept of ‘transport infrastructure’ are very diverse and differ in their structural content. Some authors reflect all the components included in the concept of ‘transport industry’ in this concept; a number of researchers understand ‘transport infrastructure’ only as a network of transport communications; other researchers include in the ‘transport infrastructure’ also enterprises that provide service and repair of both the infrastructure itself and vehicles.

The diversity of scientific approaches to the definition of this concept, its ambiguity require additional research in terms of the validity of including this or that element in its structure. Such studies are also necessary, because in order to ensure the sustainable functioning of the economy it is constantly necessary to solve the tasks of implementing infrastructure transport projects.

According to the author N.Y. Sandakov[4], ‘the development of transport infrastructure is influenced by both general factors inherent to all regions and specific regional factors’. The fact that transport infrastructure develops at different rates in each region confirms this statement. Thus, the study identifies the following factors: climatic, geographical, reflecting the terrain; environmental, including conservation areas; and social, mainly characterised by population density. The development of economic and technological potential, i.e. the presence of enterprises that generate demand for transport products, is a feature of this area.

According to A.B. Maximov [5], ‘for the most dynamic development of the economy of the country's regions, a necessary condition is the creation and

development of infrastructure that meets the specific characteristics of a particular region'. In his work, the author identifies the factors affecting the development of transport infrastructure: natural-climatic, geographical, resource, settlement, motorisation of the population, structural, administrative and legislative.

The socio-economic conditions prevailing in each region can be used as a basis for modelling both the aggregate risk arising from insufficient infrastructure development and, conversely, to assess the ability of each territory to pursue an active investment policy in terms of transport infrastructure development.

Each of the listed types of risk can be subjected to in-depth study and characterised by the probability of its occurrence and financial and economic losses to which it may lead. All types of risks are a consequence of lagging behind the demands of production and population in transport, the capacity and throughput capacity of the infrastructure. Economic losses will also be incurred by economic entities - commodity producers both in case of insufficient provision of production with raw materials and resources, and in case of delays in sales of finished products.

Key Findings:

1. Sustainable development of the economy of the country and its regions is achieved with the advanced development of transport infrastructure.

2. The economic content of the concept of transport infrastructure has found a deep study in the research of scientists.

3. It is proposed to consider the concept of 'transport infrastructure' as a single supporting balanced and connected transport network for all types of transport in its functional development of all economic entities.

4. In order to identify specific areas of transport infrastructure development, it is proposed to take into account the cumulative risk of failure to provide transport accessibility to entities operating in the territory and the population.

List of references

1. The World Bank: World Development Indicators. http://data.worldbank.org/indicator
2. Mottaeva, A.B. Methodology of spatial distribution of entrepreneurial structures of the region on the basis of transport infrastructure development: Monograph / A.B. Mottaeva. - SPb.: Asterion Publishing House. - 2013. - 301 c.
3. Sandakova N.Y. Research of factors affecting the development of transport infrastructure in the region // Infrastructural branches of the economy: problems and prospects of development. 2014. №6. URL:

https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-faktorov-vliyayuschih-na-razvitie-transportnoy-infras...
4. Maksimov, A.B. Transport infrastructure of the regions (in Russian) // Izvestiya BSU. 2007. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/transportnaya-infrastruktura-regionov

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI MA'NAVIY TADBIRLAR ORQALI KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Xudoyberdiyeva Nigora Hasan qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda ma’naviy kompetentlikni rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishning aksiologik va deontologik imkoniyatlari, “tarbiya”, “qadriyat”, “ma’naviyat”, “aksiologiya”, “deontologiya” kabi pedagogik atamalarning mazmun mohiyati, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishning aksiologiya hamda deontologiya tushunchalarining shaxs ma’naviyatini uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirilishdagi ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy kompetentlik, pedagogik deontologiya va aksiologiya, o‘quv-tarbiya jarayoni, yuksak axloq, kasbiy kompetentlik, mas’uliyat, ijtimoiylashuv, qadriyat.

Аннотация. В статье рассматриваются аксиологические и деонтологические возможности преподавания предмета методика воспитательной работы в развитии духовной компетентности будущих учителей, содержа- ние таких педагогических терминов, как “тарбия”, “ценность”, “духовность”, “аксиология”, “деонтология”, аксиология преподавания предмета методика воспитательной работы в развитии духовной компетентности будущих учителей в системе высшего образования, аксиология и деонтология преподавания предмета духовно- сти личности в гармонизированном развитии.

Ключевые слова: духовная компетентность, педагогическая деонтология и аксиология, учебно-воспитатель- ный процесс, высокая этика, профессиональная компетентность, ответственность, социализация, ценность

Annotation. The article will talk about the axiological and deontological possibilities of teaching the subject of methodology of educational work in the development of spiritual competence in future teachers, the essence of pedagogical terms such as “upbringing”, “value”, “spirituality”, “Axiology”, “deontology”, the

importance of teaching methodology in the development of spiritual competence of future teachers in the higher education system in the

Keywords: spiritual competence, pedagogical deontology and Axiology, educational process, higher ethics, professional competence, responsibility, socialization, value.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi ikki milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e’tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimizning ushbu anjumanda ta’kidlaganidek, «…diyorimiz jahon ilmfani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma’rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz, shu bilan birga zamonaviylashuv jarayonlarida inson kapitalini rivojlantirish va har tomonlama iqtidorli bo‘lgan salohiyatli kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biridir. Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish Yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz «Inson qadri va manfaatlari uchun» degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari bormoqda.

“Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq... Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir”, degan xulosasi esa BMTga a’zo barcha mamlakatlar vakillarining diqqatini o‘ziga qaratgani bejiz emas.

Ushbu davlat ahamiyatiga molik belgilangan vazifalar ijrosini sifatli ta’minlash uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimi sohasi zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi. Ya’ni, yetuk, salohiyati, kompetentli kadrlar tayyorlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodga har tomonlama halqaro talablarga javob bera oladigan darajada ta’lim-tarbiya berish, ularning bugungi kunda ehtiyojlarga asoslangan yo‘nalishlar bo‘yicha zaruriy bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlash, milliylik va o‘zlikni anglagan holda, buyuk ajdodlar merosiga asoslangan, dunyoviy va diniy dunyoqarashni o‘zida aks ettirgan ijtimoiy demokratik jamiyatning ongli fuqarosi bo‘lib ulg‘ayishlarini kafolatlash bugung kunning asosiy masalasidir.

Yuqoridagi dolzarblikni e’tiborga olgan holda biz avvalo “tarbiya”, “qadriyat”, “ma’naviyat”, “aksiologiya”, “deontologiya” kabi pedagogik

atamalarning mazmun mohiyatini ochib berishga so‘ng esa, oliy ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishda tarbiyaviy ishlar metodikasi fanini o‘qitishning aksiologik va deontologik imkoniyatlarini yoritib berishni lozim topdik. Zero, ushbu tushunchalar shaxs ma’naviyatini uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirilishini ta’minlaydigan mezonlar hisoblanadi.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon bo‘lib, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta’minlash yo‘lida ko‘riladigan chora - tadbirlar yigindisidir. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanib, odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «Tarbiya» atamasiga o‘ziga xos ta’rif berilgan bo‘lib, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig’indisini anglatadi.

Ma’lumki, tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, yosh avlodning o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Pedagogik odobni, burchni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Bunday muhitda o‘zaro fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirayotgan qarashlar bilan taqqoslash ularning to‘g‘riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish mavjud bilimlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratadi. Kasbiy mahoratni oshirish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada his etish va unga amal qilish haqida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, zamonaviy pedagog olimlarimizdan M.Ochilov, X.Ibragimov, D.Ro‘ziyeva, B.Xodjayev, O.Musurmonovalar o‘qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar. “Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo‘lmagan shaxs ta’lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini

ta’minlovchi fikrga ega bo‘lmaydi”, deb ta’kidlaydi O.Musurmonova o‘zining pedagogik mulohazalarida.

Pedagogik ta’limni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida ta’lim oluvchi shaxsiga yo‘nalganlik, insonni jamiyatda oliy qadriyat sifatida e’tirof etish ijtimoiy sohaning eng muhim va keng ko‘lamli yo‘nalishlaridan biridir. Ta’limni insonparvarlashtirish g‘oyasi pedagogikada aksiologik yondashuvning keng tatbiq etilishi natijasidir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan umumiy aksiologiyaning kategorial apparati pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi, uning ijtimoiy roli va shaxsni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladigan pedagogik aksiologiyaga e’tibor qaratishga imkon beradi. B.X.Xodjayev ta’kidlab o‘tganidek, pedagogik aksiologiya ta’limiy qadriyatlar (ularning tabiat va aloqadorligi) haqidagi fan sifatida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-mazmun-mohiyat bilan aloqador (ta’lim mazmuni va tashkiliy jihatlarini birlashtirganligi sababli, intellektual tashabbusni rag‘batlantiradi) – fikriy jarayon, obyektni aktuallashtirish, aniq dalil va isbotlarni belgilash, axborotni tanqidiy mushohada etish, ma’no- mazmunini tushunish, shaxsiy fikrning o‘sishi;

-baholovchi – pedagogik jarayon ishtirokchilarida borliq va ma’naviy hodisalarni adekvat baholashni rivojlantirishni aks etiradi; yo‘naltirish funksiyasi – “qadriyatlar iyerarxiyasi”ning ma’lum parametrlari asosida shaxsiy, kasbiy tavsifning muhim qoidalarini aniqlash imkoniyatlari bilan bog‘liq;

-me’yoriy (normativ) – pedagog va tarbiyachining aksiosferasining tarkibiy qismlari, o‘zida qadriyat tarzini aks ettiruvchi ularning o‘zaro munosabatlari tizimini “qonuniylashtiradi”;

-boshqaruvga doir – insonparvar mazmunga ega milliy va umuminsoniy qadriyatlar oqimidagi tizim subyektlari, ta’lim tizimi rivojlanishini yo‘naltiradi, ta’lim sohasidagi o‘zaro zaruriy harakatni hosil qiladi;

-nazorat – madaniy-tarixiylik kontekstida qadriyatning rivoji, shaxsda qadriyatga yo‘nalganlikni shakllantirish imkonini beradi.[3]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi
2. Бентам И. Деонтология, или Наука о морали. СПб., 1834. Т. I–II.
3. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik - T.:“Sano-standart, 2017 4. Юсупов Ф.М. Педагог, ищущий новое: штрихи к портрету // Вопросы психологии. 1991. - № 1. - С. 36 - 42.

4. Борисов В.В.,Ягупец С.Ю.Проектно-технологическая компетентность как составляющая профессиональ- ной компетентности будущего учителя технологий // Молодой ученый. — 2015. — №12. — С. 716-721.
5. Шарипова Ш. С. Профессиональная педагогическая компетентность учителя // Молодой ученый. — 2017. — №11. — С. 511-514.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MA’NAVIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY TA’LIMNING ASOSIY MEZONI

Xudoyberdiyeva Nigora Hasan qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma’naviyat, qadriyat tushunchalari, Bugungi kunda ta’limtarbiya ishlari jamiyat manfaatlarini ko‘zlab va uning rivojlanganlik darajasiga muvofiq ravishda amalga oshirilishi lozimligi, bunda yosh avlodni hayotga tayyorlash, bolalar, yoshlar va kattalarni mavjud shart-sharoitlarga moslashtirish hamda ta’lim sifatini oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirishning o‘ziga xos ahamiyati va zarurati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’limi,ma’naviy tarbiya, sifatli ta’lim, o‘qituvchi ma’naviyati, bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish, ma’naviy qadriyatlar, davlat siyosati.

Аннотация. В данной статье понятия духовности, ценностей, просветительской работы сегодня направлены на интересы общества и уровень его развития.

Что оно должно осуществляться в соответствии с жизнью подрастающего поколения подготовка, адаптация детей, молодежи и взрослых к существующим условиям и моральная компетентность будущих учителей в повышении качества образования обсуждается особая важность и необходимость развития.

Основные понятия: современное образование, духовное образование, качественное образование, духовность учителя, обладающего знаниями, умениями и квалификацией, духовного ценности, государственная политика.

Annotation. In this article, the concepts of spirituality, values, educational work today are aimed at the interests of society and its level of development. that it should be implemented in accordance with the younger generation's life preparation, adaptation of children, youth and adults to existing conditions and moral competence of future teachers in improving the quality of education the specific importance and necessity of development is discussed.

Basic concepts: modern education, spiritual education, quality education, teacher's spirituality, having knowledge, skills and qualifications, spiritual values, state policy.

Ta’lim modernizatsiyasi zamonaviy nazariya va amaliyot asosida tarbiyaning yangi modellarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy ta’lim qadriyat jihatidan yaxlit voqelik bo‘lib, bu inson shaxsiga samarali ta’sir ko‘rsatish natijalarida aks etadi. U madaniyatlarning uzatuvchisi bo‘lib qolmay, uni shakllantirish mexanizmi sifatida ham o‘z aksini jamiyat taraqqiyotida namoyon etadi.

Qadriyatlar bu umumiy maqsadlar va ularga erishish vositalari bo‘lib, bilimlar integratsiyasini ta’minlovchi fundamental me’yorlar vazifasini bajaradi, bu esa, individga hayotda muhim ahamiyat kasb etadigan holatlarda o‘zini tutishning maqbul shaklini tanlashga yordam beradi. Qadriyatlar – ta’lim oluvchi ichki salohiyatining individual rivojlanishi hamda yangi sifatlar va qobiliyatlarning shakllanishi ko‘rsatkichidir (inson faoliyatining ma’lum bir sohasida, xususan – kasbiy faoliyatda).

So‘nggi yillarda ta’lim tizimi, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy asoslarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari sifatida ta’lim sohasida kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi, ta’lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta’minlanishi, ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi, ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati1kabilar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi PQ- 3151- son “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “Talaba-yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalash, ularning kasbiy kompetentligi bilan insoniy fazilatlarini uyg‘unlashtirish, professoro‘qituvchilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uyg‘unligini amalda ta’minlash uchun fanlarning har bir mavzusidagi tarbiyaviy maqsaddan unumli foydalanilishini ta’minlash”1kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda oliy ta’lim muassasalarining ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish; davlat va

jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyati oliy ta’lim muassasalari tomonidan televideniye va ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazilishini ta’minlash1kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Ayniqsa, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da talabalarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq qator muhim yo‘nalishlar belgilab berildi:

-davlat va jamiyat oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, yurtparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirgan, insoniy fazilatlarga ega yoshlarni professional kasb egasi sifatida tayyorlash, bu borada yangicha yondashuvlarni talab etadigan ta’lim-tarbiya usullaridan foydalanish;

-yoshlarning qonun hujjatlari mazmun-mohiyatidan xabardorligi, huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish, ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish, inson huquqlari, gender tengligi, tinchlikparvarlik va millatlararo totuvlik, vijdon erkinligi, barcha millat va elatlarning tillari, urfodatlari va an’analarini hurmat qilish kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan birga milliy-axloqiy qadriyatlarnikamoltoptirish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faollik, mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;

-talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishi, ular tomonidan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etilishi holatlarining oldini olish, Vatanimiz istiqboli yo‘lida birlashtirish maqsadida ta’lim-tarbiyaning ta’sirchan usullari, zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ularning qiziqishini e’tiborga olish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

“Maktab – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiyasi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirish5 kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. (23.09.2020). // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sonli Qarori. www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-son Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018йил 14августдаги ПҚ3907-сон“Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатиданянги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллийбазаси,15.08.2018й.,07/18/3907/1706-сон;14.12.2019й.,06/19/5894/4161-сон.

TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI CHAKANA KREDITLASHNI ASOSIY XUSUSIYATLARI. BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR VA MOLIYA BOZORLARINING O‘RNI

Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi
Ma’mun universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida, xususan, bank tizimida ham xizmatlarni raqamli transformatsiya qilish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga ahamiyat berilmoqda. Mazkur tezisda ham banklarning chakana kreditlash amaliyotining asosiy xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kredit, raqamli chakana kreditlash, raqamli identifikatsiya, transformatsiya, online ariza

Аннотация. Во всех аспектах экономики, в частности, в банковской системе, придается значение обеспечению экономического роста за счет цифровой трансформации услуг. В данной статье также рассматриваются основные особенности практики розничного кредитования банков.

Ключевые слова: кредит, цифровое розничное кредитование, цифровая идентификации, трансформация, онлайн-заявка.

Abstract. In all aspects of the economy, in particular in the banking system, importance is attached to ensuring economic growth through the digital transformation of services. This article also discusses the main features of the practice of retail lending by banks.

Keywords: credit, digital retail lending, digital identity, transformation, online application.

Raqamli kreditlash jarayonlari banklarga moliyaviy va nomoliyaviy xizmatlarning kengroq spektrini taklif qilish imkonini berishi, shuningdek, kredit operatsiyalarini keskin tezlashtirishi mumkin. Texnologiyalar banklarda kreditni boshqarishda ma’lum vaqtdan beri foydalanilsa ham, dasturiy ta’minot platformalarining yangi avlodi yanada qiyinroq maqsadlarga erishish imkonini beradi. Masalan, kredit so‘rovlariga zudlik bilan javob berish uchun ochiq ekotizim yondashuvi orqali mijozlarga innovatsion tajriba bilan mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, to‘g‘ri va o‘z vaqtida zarur bo‘lgan tushunchaga ega bo‘lish uchun bir nechta manbalardan ma’lumotlarni yig‘ish, mijozlarning kreditga layoqatliligi va risklarni samarali boshqarish, har doim ortib borayotgan qat’iy tartibga solish talablari va xavfsizlik bo‘yicha ilg‘or amaliyotlarga rioya qilishni ta’minlash, kredit jarayonlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy mobil ilovalarni ishlab chiqish, ochiq va bulutli mahalliy arxitekturalardan foydalanish uchun mo‘ljallangan platformalardan foydalanishi kerak. Bu esa kreditlash jarayonlarini kengaytirish, unumdorligini oshirish va tezkorligini ta’minlaydi.

Tijorat banklarida chakana kreditlash amaliyoti asosan jismoniy shaxslarga shaxsiy, maishiy yoki kichik biznes maqsadlarida beriladigan kreditlar jarayoni tushuniladi. Texnologiya taraqqiyot davri davom etar ekan, samaradorlik, mijozlar tajribasi va risklarni boshqarishni yaxshilash uchun chakana kreditlash amaliyoti raqamli transformatsiyaga ehtiyoji ortib boraveradi[1].



1-rasm. Banklarda raqamli chakana kreditlashning asosiy xususiyatlari[58]

Yuqoridagi 1-rasmga ko‘ra tijorat banklarda raqamli chakana kreditlashning asosiy xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

1) Onlayn ariza berish xizmati tijorat banklarida raqamli ariza berish shakllarininig soddalashtirilgan amaliyoti bo‘lib foydalanuvchilar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi. Shunigdek, ularga veb-saytlar, mobil ilovalar hamda onlayn platformalar orqali kirishda samaralidir.

2) Avtomatlashtirilgan anderrayting tizmi kredit amaliyotining tez, samarali tasdiqlash uchun algoritmlar va ma’lumotlar tahlilidan foydalanishda kredit ballarining daromadlarni tekshirishda hamda boshqa tegishli omillar asosida tezkor qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3) Raqamli hujjatlashtirish amaliyoti tijorat banklarida barcha turdagi hujjatlarni elektron tarzda taqdim etishda hamda raqamli imzo hujjatlarini yuklashda qog‘ozbozlikni kamaytiradi.

4) Shaxsiylashtirilgan kredit amaliyotlari tijorat banklarida shaxsiy moliyaviy profillar asosida kredit foiz stavkalarini to‘lash shartlarini va kredit summalarini moslashtiradi.

[58] Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan.

5) Haqiqiy vaqtda tasdiqlash va to‘lash, kreditlarni tezda berish, tasdiqlash jarayonlari hamda pul mablag‘larini darhol o‘tkazish uchun raqamli to‘lov tizimlari bilan integratsiyalanadi.

6) Mobil foydalanish imkoniyati kredit olish va monitoring qilish uchun mobil qulay interfeyslar hamda ilova holati, to‘lov eslatmalari haqida bildirishnomalar va ogohlantirishlarni o‘z ichiga oladi.

7) Kreditni baholash modellari, risklarni baholash uchun ilg‘or kredit skoring algoritmlaridan foydalanishdan hamda kredit amaliyotlarini har tomonlama baholash uchun muqobil ma’lumotlar manbalarini birlashtirishdan iborat.

8) Shaffof shartlar, aniq va oson tushunarli shartlar, to‘lovlar, foiz stavkalari va boshqa to‘lovlarni oshkora qilishdir.

9) Moliyaviy agregatorlar bilan integratsiya qilish ariza beruvchining moliyaviy ahvolini yaxlit ko‘rish uchun moliyaviy ma’lumotlarni yig‘uvchilar bilan hamkorlik qilishda hamda yig‘ilgan moliyaviy ma’lumotlar orqali risklarni baholashda aniqlikni oshiradi.

10) Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish, bu ular bilan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishda elektron tizimlar hamda onlayn yordam orqali shaxsiylashtirilgan ma’lumotlarni qo‘llab-quvvatlash amaliyotlarini o‘z ichiga oladi va yuqoridagi 3-rasmda keltirilgan boshqa jihatlar banklarda raqamli chakana kreditlashning asosiy hususiyatlari sanaladi.

Kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va raqamlashtirish bir qator afzalliklarni beradi. Bu operatsion samaradorlikni oshiradi va kreditlash jarayonlariga sarflanadigan vaqtini qisqartiradi, bu esa bank mijozlarining xizmatlardan qoniqishiga olib keladi.[2] Ayniqsa keraksiz faoliyatni yo‘q qilish va soddalashtirilgan jarayon sikl vaqtini sezilarli darajada qisqartirishi hamda xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilashi mumkin. Bundan tashqari, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish tashkilotlarga raqamli transformatsiya natijasida yuzaga kelgan mavjud ekologik sharoitlarni ham saqlab qolishga va yaxshilashga xizmat qiladi [3]. Jarayonlarni robotli avtomatlashtirish (RPA) kabi texnologiyalarni joriy qilish orqali yanada samaradorlikni oshirish, balki turli xizmatlar uchun moslashtirilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarni ham taklif qiladi. Umuman olganda, kreditlash jarayonlarini raqamli tartibga solish operatsion samaradorlikni, mijozlar ehtiyojini to‘la qondirishi va o‘zgaruvchan biznes muhitiga moslashishni yaxshilaydi. Kreditlash jarayonlarini raqamlashtirish kreditorlar va qarz oluvchilar uchun juda ko‘p afzalliklarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Westerman G., Bonnet D., McAfee A. Leading digital: Turning technology into business transformation. – Harvard Business Press, 2014.

2. Dorin, Bayraktar., Antoniu, Gabriel, Pitic., Cantemir, Mihu. (2022). Streamlining banking processes by implementing rpa. Revista Economica, doi: 10.56043/reveco-2022-0011
3. Kristopher, Gerardi., Lara, Loewenstein., Paul, S., Willen. (2020). Evaluating the Benefits of a Streamlined Refinance Program. Housing Policy Debate, doi: 10.26509/FRBC-WP-202021

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIVLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH (AKT ASOSIDA)

Raimova Mehriniso Abdumalik qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kreativ kompetentligini rivojlantirishga oid tajriba sinov-natijalari, shaxsga xos kreativlik sifatlari, kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari, yo„llari hamda kreativ o„qitishning metod va strategiyalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, tajriba-sinov ishlari, kreativ kompetentlik, kreativlik sifatlari, kreativ metod va strategiyalar.

Аннотация. В данной статье описаны экспериментальные результаты развития творческой компетентности будущих учителей, качества индивидуального творчества, факторы и способы развития творческой компетентности, а также методы и стратегии творческого обучения.

Ключевые слова: будущий учитель, экспериментальная работа, творческая компетентность, творческие качества, творческие методы и стратегии.

Abstract. This article describes the results of experiments on the development of creative competence of future teachers, the characteristics of individual creativity, the factors and ways of developing creative competence, as well as methods and strategies of creative teaching.

Keywords: future teacher, experiments, creative competence, creative qualities, creative methods and strategies.

So'nggi yillarda ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan o'zgarishlar, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga yangi talablar qo'ymoqda. Zamonaviy ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasining roli ortib boprmoqda. Yangi ta'lim standartlarining kiritilishi OTM oldiga kompetentli, malakali bitiruvchilarni tayyorlash masalasini qo'ydi. Ular olgan bilim va malakalarini nostandart vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishlari hamda kasbiy faolityalarida

masalalarining orginal yechimini topish malakalariga ega bo‘lishlari taqozo qilinadi.

Ammo ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi uchun zarur bo‘lgan shunday kasbiy-shaxsiy sifatlar kreativlik va ijodiy qobiliyat sifatida, alohida o‘zlashtirilgan kompetensiyalar sirasiga kirmaydi.

“Kreativlik” atamasi - ruscha “креативность” - inglizcha “creativity” - lotincha create bo‘lib – yaratmoq, bunyod qilmoq, ijodga qobiliyat mavjud, degan ma’nolarni anglatadi.

Kreativlikning shakllannishi va o‘rganilishi masalalari bilan dunyoning ko‘pgina mamlakatlari olimlari shug‘ullanishgan, jumladan, D. Gilford, Ye.P. Torrens, S. Mednik, K. Rodjers, Dj. Renzulli, R. Sternberg, J. Teylor va b. Ular kreativlikni shaxsiy aspektda uning intellekt bilan aloqadorligida qarashgan hamda kreativlikni o‘rganishning diagnostik metodlarini tadqiq qilishgan.

Tadqiqotchi Ye.P. Torrensning fikriga ko‘ra, kreativlikni rivojlantirish tashqi majburan yuklangan cheklanishlar va stanadrlardan ustun kelish imkonini beradi. Kreativlik esa kamchiliklar, bilimdagi yetishmovchiliklar, ularning disgarmoniyasini o‘ziga olish qobiliyati sifatida qaraladi.

Ye.P. Torrens bo‘yicha, kreativlik – bu muammolarga, bilimdagi yetishmovchilikka, ularning disgarmoniyasiga, bu muammolarni aniqlash, uning yechimini topish, farazlarni tekshirish, qayta tekshirishda sezuvchanlik jarayonining paydo bo‘lishi tushuniladi.

Kreativlikning alohida jihatlarini tadqiqotchi S.Mednik ajratib ko‘rsatadi, uning ta’kidlashicha, verbal (og‘zaki) va noverbal kreativlikni ajratish kerak. Verbal kreativlik og‘zaki shaklda, jumladan, muammoli vaziyatlarda orginal g‘oyalarni gap orqali ifodalashda, so‘zlar o‘xshashligini topish imkoniyatida, noverbal kreativlik esa – badiiy obrazlar, turli rasmlar shaklida ijodiy qobiliyatning namayon bo‘lishidir [1].

E. Frommning fikricha, kreativlik – bu nostandart vaziyatlarda yechimni topish, anglash va ajablanish qobiliyati bo‘lib, bu yangilikni ochishga qaratilganlik va o‘z tajribasini chuqur anglab yetish qobiliyati sanaladi [2].

Tadqiqotchi Dj. Renzulli kreativlikka shaxs fe’l-atvori xususiyati sifatida qaraydi va u mahsulotni orginal usulda izlash, muammo yechimini topish, muammoga yangicha yondashuv tarzida ifodalanadi [3]. A. Maslou kreativlikka sifat, deb qaraydi va u hayotning barcha jabhalariga joriy qilinishi mumkinligini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, kreativlik sifat tarzida har bir kishiga tug‘ulgandan beriladi va u ko‘pchilik tomonidan muhit ta’sirida yo‘qotib boriladi.

A. Maslou ta’kidlashicha, intellektual qobiliyatlilik zaruriy bo‘lsada, kreativlikning paydo bo‘lishining yagona sharti ham emas. Kreativlikning

dolzarblashuvida bosh rolni, A.Maslou fikricha, motivlar, qadriyatlar va shaxsiy xususiyatlar, o‘ynaydi. Ijodiy shaxsni shunday, kognitiv qabiliyat, muammolarni his qila bilish, erkin hukm chiqara bilish kabi xususiyatlar tavsiflaydi [4].

Olimlardan D.B. Bogoyavlenskaya, I.P. Koloshina, A.M. Matyushkin, A.Ya. Ponomarev va b. kreativlikni intellektual tashabbusning faoliyat orqali, ijod jarayoni kontekstida paydo bo‘lishini ta’kidlaydilar.

D.B.Bogoyavlenskaya nuqtai nazaridan, ijod – bu intellektual faollikning oliy shakli, eng muhim sifat tavsifi va unga intellaktual tashabbus xizmat qiladi. Olimaning fikricha, kreativlik situativ-rag‘batlantiruvchi faollik bo‘lib, u ko‘rsatilgan muammo chegaralaridan chiqishga intilishda paydo bo‘ladi. Ijodning tizimlashtiruvchi omili, tadqiqotchi fikricha, intellektual faollik hisblanadi va u integral ta’lim sifatida, shaxsning yaxlit xususiyati sifatida tushuniladi hamda tizim intellektual va motivatsion komponentlari birligi va shaxsning situativ-rag‘batlantiruvchi faoliyati qobiliyatini ta’minlaydi [5].

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda “kreativlik” tushunchasini o‘rganishda “ijod”atamasi uchraydi va ishlatiladi. Tadqiqotchi N.M. Gnatko “ijod” va “kreativlik” tushunchalarini farqlaydi, ularni bir doira narsa-hodisalarining ikki taomoni sifatida qaraydi, unda ijod ushbu birlikning protsessual-natijaviy tomoni bo‘lsa, kreativlik – sub’ektiv-bog‘langanlik tomonidir [6].

Tadqiqotchilar A.K. Markova, L.M. Mitina, Ya.A. Ponomarev kabilar “ijod” va “kreativlik” tushunchalarini mazmunan bir-biriga yaqin, deb qarashadi. Ularning fikricha, kreativlik o‘z faoliyatida ijodiy yondashuv bilan ta’minlangan va u bilan bog‘liq.

“Ijod” va “kreativlik” tushunchalarini o‘rganishda uchta yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. “Kreativlik” va “ijod” tushunchalari sinonimlar sifatida qaraladi, ya’ni kreativlikni tadqiq qilish psixologik ijodda o‘rganiladi, ushbu tushunchalar farqlanmaydi, bir-biridan ajrim ko‘rilmaydi.

2. Kreativlik alohida hodisa sifatida o‘rganiladi va u ta’lim sub’ektiv-shaxsiy yangilik va mohiyat sifatida tushuniladi. Ijodga esa fenomen sifatida qaralib, u ijtimoiy madaniy kontekstda sub’ektiv faoliyatdan paydo bo‘lgan yangiliklar o‘zaro ta’siri jarayonlarini anglatadi. Boshqacha aytganda, kreativlik deganda sub’ekt uchun yangi imkoniyatlarning qurilishi, ijodda esa – umuman madaniyat uchun yangi imkoniyatlarning yaratilishi tushuniladi. Shunga yaqin nuqtai nazarni Ye.Pikard i M. Bodenlarning ijodida ko‘rishimiz mumkin (individual shaxsiy va jamoaviy kreativlik).

3. Kreativlik ijodni o‘rganishning alohida aspekti sifatida ko‘riladi va insonning ic hki resursi sifatida qaraladi. Jumladan Ya.A. Ponomarev, ijodning

yaxlit konsepsiyasini psixologik jarayon sifatida, kreativlik esa shaxsning ijodiy aspektlaridan biri sifatida taklif qilinadi [7].

Ko‘pchilik tadqiqotchilar ijodiy jarayonlarda motivatsiyaning muhim rolini ta’kidlashadi. Tadqiqotchi F. Berron fikricha: “Ko‘p insonlar kreativ bo‘lish qobiliyatlarga egadirlar, ammo hamma ham unda bo‘lolmaydi. Bunda asosiysi motivatsiyadir”. Ijodiy shaxs xarakteristikasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ta’kidlash kerakki, ular bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida albatta bo‘lishi kerak [8].

O‘quvchida ijodiy shaxsni faqat ijodiy fikr yurituvchi va harakat qiluvchi pedagog tarbiyalashi mumkin, chunki o‘quvchi shaxsida kreativlikni rivojlantiruvchi o‘qituvchining roli an’anaviy axborotlarni yetkazuvchi o‘qituvchidan farq qiladi. Uning oldiga boshqa vazifa qo‘yilgan: bilimni yetkazish emas, balki o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ochishdan iborat.

V.N. Drujinin, L.I. Larionova, A.M. Matyushkin, V.I. Panov, A.Ya. Ponomarev, Dj. Renzulli, V.D. Shadrikovlarning ishlarida o‘qituvchi qanday qilib bola ijodiy potensialini qo‘llabquvvatlashda yetakchi rolni o‘ynashi mumkinligi ko‘rsatib berilgan.

V.E. Inozemsev, N.V. Kuzmina, L.Ya. Miloradovlarning tadqiqotlarida kreativ o‘qituvchi qanday tayanch bilimga (loyihalash va materialni ijodiy qayta ishlash, uni ta’limning yakuniy natijasi bilan moslashtirish qobiliyatiga) ega bo‘lishi lozimligi asoslangan; ta’lim oluvchilarning ijodiy faolligini dars jarayonida tashkillashtirish va qo‘llab-quvvatlash; o‘quv-tarbiya vazifalarini ijodiy yechish nuqtai nazardan o‘z tajribalarini tahlil qilish ko‘nikmasiga egalik; ish jarayonini qayta shakllantirish, o‘quv ma’lumotlarini orginal tizimga solishi va uni ta’lim oluvchilar tushunish darajasida moslashtirish ko‘nikmasiga ega bo‘lishligini taqozo qiladi [9].

Pedagogik kreativlik psixologiya nuqtai nazardan shaxsning pedagogik vaziyatlar o‘zgarishlariga tayyorligi qaraladi, shuningdek, pedagogik kreativlikni rivojlantirish kasbiy faoliyat samaradorligi hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchi o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligini oshiradi.

Pedagogik kreativlik ko‘rsatkichlar orasida Ye.E. Щerbakova ijodiy kayfiyat, quvonch hissi, ish qobiliyati darajasi, muhabbat, bolalarga mehribonlik, iroda sifatlari, shuningdek, ijodiy qobiliyat, topqirlik, tafakkur, ijodiy kuzatuvchanlik kabilarni ajratib ko‘rsatadi [10].

V.G. Rindak tadqiqotlarida ta’kidlanishicha, ijodiy ishlayotgan o‘qituvchiga ijodiy mustaqillik, pedagogik jarayonlar rivojlanishini ko‘rish va prognoz qilish xos va uning faoliyat natijalari ham sifati, yangiligi, orginalligi va betakrorligi bilan ajralib turadi [11].

Tadqiqotchi I.P. Osobov pedagogik kreativlikni talabalar kasbiy rivojlanishi kompetentligi bilan bog‘liqlikda ko‘radi. Muallif ularning o‘zaro bog‘liqligini isbotlashicha, “pedagog kompetentligi uning nastandart qarorlar qabul qilishi uchun, pedagogik ijodni ko‘rsatish uchun, bilimlarni mustaqil egallashlari va ularni ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llashi uchun potensial kreativlikni amalyotga tatbiq qilish bazasini yaratadi” [12].

Shundan xulosa qilish mumkinki, kreativlik – pedagogik faoliyatning mohiyatli sharti, o‘qituvchi mehnatining ob’ektiv kasbiy zaruratidadir. Kreativlik bo‘lajak o‘qituvchi konstruktiv, nostandart tafakkur qobiliyatining ichki resursini, shuningdek, o‘z tajribasini anglashi va rivojlantirishi ifodalaydi.

Bu kreativlikning shaxsiy-xulq-atvor parametrlarini aniqlash hamda kreativlikni shaxsiy rivojlanish resursi sifatida ko‘rish, bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy rivojlanishi va kasbiy faoliyati kontekstida matnida ijobiy o‘sish dinamaikasini namoyish qilish imkonini beradi.

Aynan kreativlik bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy krizislardan konstruktiv chiqishini, professionalizmga barqaror o‘tishi, adaptiv, reproduktiv, evristik va kreativ shakllarda o‘zini namayon qilishi, o‘quvchi shaxsini loyihalashda namayon qilishi, kutilmagan vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishi, bolalar xususiyatidan kelib chiqib, o‘quv jarayonini tashkil qilishi, o‘z shaxsiy individualligini ijodiy akt sifatida ta’minlashi, avval bo‘lmagan yangiliklarni kiritishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. -СПб., 2000.
2. Фромм Э. Характер и социальный процесс // Психология личности. -М., 1982. - с. 48- 54.
3. Рензулли Дж. Модель обогащенного школьного обучения. -М.,1972.
4. Маслоу А.Г. Новые рубежи человеческой природы. -М., 2011.
5. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей. -М., 2002.
6. Гнатко Н.М. Проблема креативности и явление подражания. -М., 1994.
7. Пономарев Я.А. Психология творчества: перспективы развития // Психологический журнал. 1994. №6. -С.38 –50.
8. Макарова Л.Н., Подымова Л.С., Степыкина О.В. Развитие творческой индивидуалности учителя как психолого-педагогическая проблема // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. 2006. № 2(42). -С. 148-153.
9. Кузмина Ҳ.Б., Иноземсева В.Е., Милорадова Л.Я. Преподаватель высшей школы как субъект акмеологического творчества //

Акмеологические проблемы подготовки преподавателей. 1999. №2.- С. 65 - 75.
10. Щербакова Е.Е. Формирование педагогической креативности как фактор профессионального развития студентов // Мир психологии. 2006. №1. - С. 142-152.
11. Рындак В.Г. Творчество. Краткий педагогический словарь. -Оренбург, 2001.
12. Особов И.П. Педагогическая креативность и компетентность как факторы профессионального развития студентов // Гуманитарные научные исследования. 2011. № 3.

TA'LIMDA ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOSINI O'RGANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI

Matkarimova Maftuna
Nozimiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. O‘quv jarayoniga zamonaviy ta‘‘lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyati va zarurligini hamda o‘quv jarayonida ulardan foydalanishga tayyorgarlik xolatlarining tahliliy muammolari. Olib borilayotgan tahlillar natijasida fanlarni o'rganishda o'quv jarayoni samaradorliligini oshirish uchun an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni birlashtirishning mumkin bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, an'anaviy ta'lim texnologiyalari, o'rganish jarayoni, o'qitish usuli, ta'lim texnologiyasi va kompetensiyaviy muammolarning ilmiy-uslubiy asoslari.

Kalit so’zlari: interfaol, Ta’lim-tarbiya, innovatsiya, tafakkur, dunyoqarash, texnologiya, ilmiy-uslubiy, metod, ijod, texnik, illustratsiya, dastur.

Abstract. Analytical problems of the possibility and necessity of introduction of modern educational technologies in the educational process and the state of preparation for their use in the educational process. As a result of the analysis, it is possible to combine traditional and innovative approaches to increase the effectiveness of the educational process in the study of sciences, innovative educational technologies, traditional educational technologies, learning process, teaching methods, scientific-methodological bases of educational technology and competence problems

Keywords: interactive, education, innovation, thinking, worldview, technology, scientific-methodical, method, creativity, technical, illustration, program.

Аннотация. Аналитические проблемы возможности и необходимости внедрения современных образовательных технологий в учебный процесс и условий подготовки к их использованию в образовательном процессе. В результате проведенного анализа возможно объединение традиционных и инновационных подходов к повышению эффективности образовательного процесса по изучению предметов, традиционных образовательных технологий, процесса обучения, метода обучения, образовательной технологии и научно-методических основ компетентностных проблем.

Ключевые слова: интерактив, Образование, инновации, мышление, мировоззрение, технология, научный метод, метод, творчество, техническое, иллюстрация, программа.

Ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng miqyoda qo’llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi.

Ayni paytda interfaol ta’lim muhitini yaratish, o’quvchilarning tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning innovatsion metod va texnologiyalarini takomillashtirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kun ta’limida yaratuvchilik faolligini baxsh etish maqsadida zamonaviy ta’lim konsepsiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish vazifasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu sababli innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonidagi o'rni beqiyosdir.

O’quv jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish imkoniyati va zarurligini, shuningdek, o’qituvchilarining o„quv jarayonida ulardan foydalanishga tayyorgarlik xolatlari tahlili olib borilmoqda.

Olib borilayotgan tahlillar natijasida fanlarni o'rganishda o'quv jarayoni samaradorliligini oshirish uchun an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni birlashtirishning mumkin bo'lgan innovatsion ta'lim texnologiyalari, an'anaviy ta'lim texnologiyalari, o'rganish jarayoni, o'qitish usuli, ta'lim texnologiyasi va kompetentsiya variantlari ko'rib chiqilmoqda.

Ta'limda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosini o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari haqida ilmiy ishlar olib borga rus olimlardan V.F.Manuilov, N.V.Fedorov, M.M.Blagoveshchenskaya, yevropa olimlaridan R.M.Bottino, A.Cropley, M.T.Molfino, P.Forcheri, o‘‘zbek olimlaridan N.Azizxodjayeva, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, A.A.Burxonov, O„.Q.Tolipov, B.X.Xadjayev kabi yana birqancha olimlar tomonidan ilmiy ishlar olib borishgan.

Ta'lim tizimining hozirgi holati noan'anaviy ta'lim texnologiyalarining rolini oshirish bilan tavsiflanadi. O„quvchilar tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o'zlashtirish an'anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir. Ushbu

texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o'zgartiradi, o'rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o'qitish usullarini qo'llash, shuningdek, har bir kishining ta'lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvga asoslangan uchinchi avlodning yangi davlat ta'lim standartlarini (FSES HPE) joriy etish o„quvchining tobora faol ishtirok etishi asosida bir qator fanlarni o'qitish uslublarida sezilarli o'zgarishlarni nazarda tutadi. ta'lim jarayonining to'liq ishtirokchisi, uning katta mustaqilligi, aniq amaliy natijasiga qaratilgan mashg'ulotlar.

"Ta'lim texnologiyasi" tushunchasi keng qo'llanilishiga qaramay, o'zboshimchalik bilan ajralib turadi. Rus olimi D.A.Zagvyazinskiyning ta'kidlashicha, o'quv jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar turlari "aniqrog'i o'quv yoki pedagogik emas, balki o'qitish deb ataladi va ishlab chiqarish sohasidan olingan atamaning o'zi, albatta, ta'limda shartli ravishda qo'llaniladi va ta'lim texnologiyasining o'zi. ijtimoiy texnologiyaning bir turi sifatida ishlab chiqarish texnologiyasi kabi qattiq va oldindan belgilangan xususiyatga ega emas.

Texnologiya va metodologiyani farqlash muammosi hali ham juda ziddiyatli. Ba'zi olimlar texnologiyani metodologiyani amalga oshirish shakli deb hisoblashsa, boshqalari texnologiya tushunchasi metodologiyadan kengroq deb hisoblashadi. D.A.Zagvyazinskiy texnologiya va metodologiya ilmiy huquqiy qoidalar tizimiga asoslanishi kerak, deb hisoblaydi (ya'ni, ular tizimli xususiyatga ega), ammo ideal texnologiya qat'iy belgilangan retseptlar tizimiga ega bo'lib, ular maqsadga erishish uchun kafolatlanadi (ya'ni, instrumental). Metodologiya nazariy qoidalarni amalga oshirish usullarining xilma-xilligini, o'zgaruvchanligini ta'minlaydi va shuning uchun maqsadga kafolatlangan erishishni anglatmaydi, ya'niy, hatto ideal texnika ham yuqori instrumental xususiyatga ega emas.

Bizning fikrimizcha, ta'lim texnologiyasi - bu ishtirokchilar uchun qulay sharoitlarni ta'minlash va cheklovlarni hisobga olgan holda muayyan natijaga erishish uchun uni rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirish va sozlash bo'yicha o'quv jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi faoliyati tizimi.

An'anaviy ta'lim texnologiyalari bilimlarni etkazish va harakat usullarini tavsiflashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarga tayyor shaklda uzatiladi va reproduktiv assimilyatsiya qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim texnologiyalari guruhiga quyidagilar kiradi:

-Tushuntirish va illyustrativ o’qitish texnologiyasi;

-muammoli ta'lim texnologiyasi;

-dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyasi;

-modulli ta’lim texnologiyasi;

-katta blokli o'rganish texnologiyasi;

-ma’ruza-seminar-kredit tizimi;

-o'yinni o'rganish texnologiyasi va boshqalar.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'qituvchini o'quv faoliyatini tashkil etishning bunday harakatlari, usullari va shakllaridan foydalanishga yo'naltiradi, bunda asosiy e'tibor o'quvchining majburiy kognitiv faoliyatiga, tizimli fikrlash va ijodiy muammolarni hal qilishda g'oyalarni shakllantirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. muammolar. M.M.Blagoveshchenskaya, V.F.Manuilov, I.V.Fedorov bunday texnologiyalarning uch turini ajratib ko'rsatadi:

Shulardan biri radikal texnologiya (o'quv jarayonini yoki uning katta qismini qayta qurish); birlashtirilgan (bir qancha ma'lum elementlar yoki texnologiyalarni yangi texnologiya yoki o'qitish uslubiga birlashtirish); o'zgartirish (o'qitish usuli yoki texnologiyasini sezilarli darajada o'zgartirmasdan takomillashtirish).

Demak, oliy ta’limda innovatsion ta‟lim texnologiyalari deganda ta’limda fanning zamonaviy yutuqlari va axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan usullar tushuniladi. Ular o„quvchilarning ijodkorligi va mustaqilligini rivojlantirish orqali o’qitish sifatini oshirishga qaratilgan. Ular onlayn ta'lim olish imkonini beradi; talabalarning o'rganilayotgan fanga qiziqishini oshirish; o'qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirish (samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, tez o'zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashish, psixologik stressga chidamliligini oshirish, nizolarni hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish va boshqalar); yangi sotsiologik bilimlarni olish usullarini o'rgatish.

Bu guruhga quyidagilar kiradi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari;

guruh loyihalash texnologiyasi;

buyruq-modulli ish texnologiyasi;

axborot texnologiyalari;

salomatlikni saqlash texnologiyalari va boshqalar.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, o'qituvchilarning innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishda motivatsiyasi yetarli emasliligi nafaqat eng halokatli, balki o'zgartirishi eng qiyin bo„lgan omillardandir.

Bu omillarga sabab asosan o’qituvchilarda vaqt yetishmasligi, yuklamalarning to’g’ri taqsimlanmaganligi, o’qitish metodikasi sohasida malaka oshirish kurslarining muntazam ravishda tashkil etilmaganligidadir.

Binobarin, barcha ta’lim muassasalarining sa’y-harakatlari nafaqat o’qituvchilar mehnatini rag’batlantirish, balki o’qituvchilarning o’z-o’zini

takomillashtirish va o'z-o'zini anglashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali ushbu omilni tenglashtirishga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.Ishmuxammedov "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‟lim samaradorligini oshirish yo„llari" Toshkent-2004 y.
2. Abduxamidov S.M, "BOSHLANG„ICH SINF O„QUVCHILARIDA AHLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLARTIRISH". "Maktab va hayot" jurnali ISSN 2010- 5460, 2-son, 2019y, 17-bet.
3. Abduxamidov S.M, "BOLALAR UCHUN ART-TERAPIYA USULLARINING IMKONIYATLARI". "MUGALLIM HEM UZLIKSIZ BILIMLENDIRIO„" jurnali, № 2/1. Nukus: 2021-жыл, ISSN 2181-7138, 129-130-131-132-betlar.
4. Ishmuhamedov J. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta‟lim samaradorligini oshirish yo„llari" -T.: TDPU, 2004-yil.
5. Abduxamidov S.M, "Ethical Issues In The Works Of Bahauddin Naqshbandi". International Lournal of Reserch. ISSN: 2348-6848 Vol-5, Special issue-18. 2nd Edulndex, International Conference on Science Changes the World held on 28-29 th June 2018 at Edupedia Publications Pvt Ltd, New Delhi in Association with www.tadqiqod.uz of the Repablic of Uzbekistan. 96-97-98 pej.
6. Hakimova M.F. Pedagogik texnologiyalar. O‟quv qo‟llanma. T.TDIU., 2013, 230 - bet
7. Abduxamidov S.M, "METHODOLOGY OF IMPROVING INDEPENDENT LEARNING SKILLS OF FUTURE FINE ART TEACHERS (ON THE EXAMPLE OF STILL LIFE IN COLORFUL PAINTINGS)". International Journal of Psychosocial Rehablitation, Vol 24, Issue 05, 2020. ISSN 1475-7192. DOI:10.37200/IJPR/V2415/PR201880. Received: 18 Feb 2020/ Revised: 12 Mar 2020/ Accepted: 23 Mar 2020
8. Abduxamidov S.M, "TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF ARTISTIC AESTHETIC THINKING OF STUDENTS THROUGH ART WORKS". JournalNX. editor@journalnx.com, A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, Reserch for Revolution, ISSN №-2581-4230, Impact Factor-5.785. June – 2020. 684- 687-betlar.
9. Abduxamidov S.M, "ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОРҚАЛИ ТАЪЛИМ БЕРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ". УзМУ ва Ломоносов номидаги Москва Давлат университети филиали ҳамкорлигида "АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСИТАНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ" посвященной 75 – летию профессора Батыра

Рахманкуловича Кадырова. (Научно-практической конференции), 2018 йил 377-378-379- бетлар. УДК 159.922.8(575.1)(063), ББК 88.53, К 43, ISBN 978-9943-4812-5-1, Н 34.
10. Киселова М.В. “АРТ-ТЕХНОЛОГИЯ В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ”, СанктПетербург 2019г. УДК 159.9, ББК 88.4, К44.
11. Abduxamidov S.M. “Тасвирий санъатда тур, жанр ва оқимлар”, Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги қошидаги интеллектуал мулк агентлиги. DGU 2020 0868, DGU 59858, 04.06.2020 YIL. info@ima.uz. № ED-5-11. Mutaxasis N.A.Yakubov tomonidan berilgan. 1
12. Abduxamidov S.M. “Tasviriy va amaliy san’at (tasviriy san’at o’qitish metodikasi)”, O’zbekiston respublikasi, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 28 dekabrdagi 676-sonli buyrug’iga asosan 676-116-sonli Guvohnoma ro’yxatga olingan.

TA’LIM VA TARBIYADA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING INTEGRATSIYASI

Aglamova Shahzoda Sobirovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
pedagogika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqola ta’lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishning ahamiyati va imkoniyatlarini o‘rganishga qaratilgan. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sifatiga ijobiy ta’siri, talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishda va o‘quv jarayonini samarali tashkil etishda o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologiyalarni joriy etishda duch kelinadigan to‘siqlar va ularni yengib o‘tish bo‘yicha amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy texnologiyalar, ta’lim sifati, tarbiya, innovatsion yondashuv, texnologik integratsiya, o‘quv motivatsiyasi.

Аннотация. Статья посвящена изучению значения и возможностей интеграции современных технологий в процессы образования и воспитания. Положительное влияние инновационных технологий на качество образования, их роль в усилении учебной мотивации студентов и эффективном организации учебного процесса изучаются научно. Приводятся практические рекомендации по преодолению препятств, стоящих на пути внедрения технологий.

Ключевые слова: современные технологии, качество образования, воспитание, инновационный подход, технологическая интеграция, учебная мотивация.

Annotation. This article is dedicated to studying the significance and opportunities of integrating modern technologies into education and upbringing processes. The positive impact of innovative technologies on the quality of education, their role in enhancing students' learning motivation, and effectively organizing the learning process are analyzed scientifically. Practical recommendations are provided to overcome challenges encountered during the implementation of technologies.

Keywords: modern technologies, quality of education, upbringing, innovative approach, technological integration, learning motivation.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya sohasida zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamli o‘quv platformalari va boshqa innovatsion yechimlar ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida maydonga chiqmoqda. Ta'lim tizimida texnologiyalarni samarali qo‘llash nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va ularni zamonaviy kasblarga tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning ta'limga integratsiyasi jarayonida pedagoglar va rahbarlar duch keladigan muammolar ham yo‘q emas. Bu muammolar orasida texnologik infratuzilmaning yetishmasligi, moliyaviy cheklovlar va pedagoglarning texnologik savodxonligi yetarli darajada rivojlanmaganligi kabi masalalar mavjud. Shunday bo‘lsa-da, bu muammolarni yengib o‘tish uchun innovatsion yondashuvlar va strategik rejalashtirish talab etiladi. Jamiyatdagi integratsiya jarayonida insonning integratsiya – alohida elementlarni yig‘ib, ularni birlashtirish, yaxlit holga keltirish deb tushunish mumkin. Shuningdek, ko‘pchilik olim va metodistlar integratsiya muammosining mazmunmohiyatini aniqlash bo‘yicha fikr berganlar.Hozirgi kunda "Integratsiya" tushunchasining aniq ta'rifi metodik adabiyotlarda, bu muammo bo‘yicha shug‘ullangan olimlar tomonidan bir-biriga yaqin bo‘lgan ta'riflarda berilgan. Ta'limni integratsiyalashning asosiy maqsadi boshlang‘ich maktabdayoq tabiat va jamiyat haqida yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish va ularning rivojlanishi qonunlariga o‘z munosabatini shakllantirishdir. Mana shuning uchun kichik maktab o‘quvchisi predmet yoki voqea hodisalarni bir necha tomondan ko‘rishi muhim: mantiqiy va emotsional tomondan badiiy asarda hamda ilmiy-ommabop maqolada biolog, so‘z ustasi, rassom, musiqachi nuqtai nazaridan va boshqalar. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda yashirin aloqadorlik va bog‘lanishlarni aniqlay bilish, fanlararo bog‘lanish, ya'ni uzviylikni ta'minlash bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biridir. Mazkur maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari, ularning ta'lim sifatiga ta'siri, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari haqida so‘z

yuritiladi. Maqola o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim sifatini oshirishga doir tavsiyalarni taklif etadi.

Hozirgi kunda ta`lim tizimining yuqori sur`atlarda o`sishi pedagogic texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv – tarbiya jarayoniga kirib kelishi bilan bog`liq. Bugungi kunda ta`limning vazifasi o`quvchilarni axborot ta`lim muhitida mustaqil o`qish, izlanish, oqilona fikrlash va foydalanishni o`z ichiga oladi. Ta’lim tizimining modernizatsiyasi- jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, uning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olish bo’lgan talabini qondirish, ta’lim tizimini barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi.

Zamonaviy sharoitda ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor yo’nalishlari quyidagilar sanaladi.:

-elektron axborot-ta’lim resurslarini yaratish;

-o’qitishning mavjud va yangi texnologik shakllarini o’zaro muvofiqlashtirish;

-o’quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarini vujudga keltirish.

O‘quv fanlari integratsiyasi ilm-fandagi shu jarayonlardan farq qiladi. Bu ma’noda integratsiya – fanlarning differentsiatsiyasi tufayli tarixan tarkib topgan o‘quv fanlariga bo‘lib o‘qitish tizimining kamchiliklarini tuzatishga qaratilgan ularning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash shakli sifatida qaralishi mumkin. O‘quv fanlarini integratsiyalashning didaktik mohiyati turli o‘quv fanlari bo‘yicha yangi bilimlarni shakllantirishning kontseptual tuzilma va metodlarini aniqlash imkonini beruvchi pedagogik tadbirlar tartibi hamda qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tor ma’noda qaralganda, o‘quv fanlari integratsiyasi fan sohalari va ilmiy bilimlar o‘zaro sintezining uzviy davomi hisoblanadi. O‘quv fanlari integratsiyasining asosiy maqsadi sub‘ektiv yangi bilimlarni sintez qilishdan iborat bo‘lib, integratsiya jarayonlarining bosh vazifasi – sub’ektiv yangi ilmiy bilimlarni sintez qilishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishdan iborat. O‘quv fanlarini integratsiyalashgan holda o‘rganishda sub’ektiv yangi bilimlar sintezi qanday kechadi? – degan savol yuzaga kelishi mumkin. Didaktikada turli fanlarga taaluqli o‘quv materiallarini bitta kursga birlashtirish kabi integratsiyaning turli shakllari taklif qilinadi. Biroq, pedagogik tajribalar bu kabi shakllarning yetarli samara bermasligini ko‘rsatmoqda. Biz, ta’lim tizimida tarixan tarkib topgan fanlarga bo‘lib o‘qitish tizimi saqlanib qolishining tarafdorimiz. O‘quv fanlari nisbatan mustaqil bo‘lishi kerak, chunki ularning har biri o‘z tili, tushunchalar apparati, metodologiyasi, metodikasi, tadqiqot predmeti va kontseptsiyasiga ega alohida fan sohasini ifoda etadi. Shu bilan birga, ularni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganish bilan bog‘liq imkoniyatlar ro‘yobga chiqarilishi lozim.

Bunday imkoniyat jumladan fanlararo yondashuv asosida ta’minlanadi. Uni o‘quv fanlarini integratsiyalash shakli sifatida ham, sub’ektiv yangi bilimlarni sintez qilish metodi sifatida ham qarash mumkin. Biz fanlararo yondashuvni umumta’lim hamda maxsus fanlarni integratsiyalashda pedagogika fani uchun eng optimal yo‘nalish sifatida qaraymiz. Biz o‘quv fanlarini integratsiyalash natijasi fanlar o‘zaro bog‘lanmagan holda o‘rgatilganda shakllantirish mumkin bo‘lmagan sub‘ektiv yangi bilimlarning o‘zlashtirilishi, — degan kontseptual g‘oyaga tayanamiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim va tarbiya jarayoniga integratsiya qilish ta’lim sifatini oshirish, talabalarning o‘quv motivatsiyasini kuchaytirish va ularning zamonaviy kasblarga tayyorlanishini ta’minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola natijalariga ko‘ra, texnologiyalar ta’lim jarayonini interaktiv va samarali qilish imkonini berishi bilan birga, muayyan muammolarni ham keltirib chiqarishi aniqlangan.

Texnologiyalarni qo‘llashda duch kelinadigan asosiy to‘siqlar – bu pedagoglarning texnologik savodxonligi darajasining pastligi, infratuzilmaning yetishmasligi va moliyaviy cheklovlardir. Ammo bu muammolarni hal qilish uchun innovatsion yondashuvlar va strategik rejalashtirish muhim o‘rin tutadi. Ta’lim tizimida texnologik integratsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish zarur:

-Pedagoglarning texnologik ko‘nikmalarini rivojlantirish: O‘quv kurslari va treninglar orqali ularning texnologiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha malakasini oshirish.

-Infratuzilmani rivojlantirish: Ta’lim muassasalarini zamonaviy texnologik vositalar bilan ta’minlash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

-O‘quv jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish: Gamifikatsiya, interaktiv vositalar va sun'iy intellekt asosidagi ta’lim platformalarini faol qo‘llash.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar ta’lim va tarbiya jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda va ularni samarali qo‘llash orqali ta’lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: ―Fan va texnologiyalar‖ nashriyoti, 2008.
2. Azizxo‘jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.
3. G.I.XASANOVA ―Ta’lim jarayonida dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari. Jizzax: 2020. 420 bet

4. Xasanova, G. (2021). Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782
5. M.Usmonova . O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar ta’lim texnologiyalari. 2016 yil. 4-son.
6. M.Usmonova .Pedagogik jarayon loyihasi – mashg‘ulotlar samaradorligini ta’minlash vositasi sifatida Boshlang‘ich ta’lim va jismoniy madaniyat yo‘nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. Toshkent. 25 may, 2017 yil
7. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI: 2020: Arxiv №54

BO’LAJAK TARBIYA FANI O`QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Mahmudova Dilshoda
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik deontologiyaning rivojlanish bosqichlari keltirilgan bo‘lib, deontologiya tushunchasiga turli soha vakillarining qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: deontologiya, pedagogika, jismoniy tarbiya, rivojlanish tarixi, kasbiy burch, axloq.

Abstract. In this article, the stages of development of pedagogical deontology in future elementary school teachers are presented, and the views of representatives of different fields on the concept of deontology are analyzed.

Key words: deontology, pedagogy, physical education, history of development, professional duty, ethics.

Insonning muayyan kasbiy faoliyatdagi xulq-atvori normalariga oid ilk tadqiqotlar qadim zamonlarda amalga oshirilgan. Ularning paydo bo‘lishi axloq falsafiy ta’limoti doirasidagi axloqiy g‘oyalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq edi (Aristotel, Kvintilian, Platon, Sokrat, Seneka va boshqalar), axloqiy qonun, inson va jamiyatning burchi haqidagi tanqidiy falsafaning asosiy g‘oyalari rivojlanishi bilan eng yuqori axloqiy tartibning qadriyati sifatida (I. Kant), diniy-ahloqiy va axloqiy qarashlarning paydo bo‘lishi bilan, tabiat buddizmda, islomda, iudaizmda va nasroniylikda va boshqalarda, inson faoliyatini tartibga soluvchi birinchi professional qoidalar va me’yorlarni shakllantirish bilan (Avitsenna, Galen, Gippokrat va boshqalar).

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, deontologiyaning fan sifatida rivojlanishini davrlashtirishga turlicha yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, deontologiyaning psixologik va tibbiy jihatlarini o‘rganuvchi ishlarda uning rivojlanishining quyidagi davrlari ajratiladi: Gippokratgacha, Gippokrat va Gippokratdan keyin [2]. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik deontologiyaning ilmiy asoslari deyarli o‘rganilmagan, Ammo shuni ta’kidlash kerakki, pedagogik deontologiyaning ilmiy asoslari amalda o‘rganilmagan, umumiy va kasbiy pedagogikada, shuningdek, jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodologiyasida tushuncha shakllantirilmagan va deontologiyaning o‘rni belgilanmagan.

Deontologik bilimlar genezisini o‘rganishga bag‘ishlangan xorijiy va mahalliy ilmiy ishlarni tahlil qilish to‘g‘ri kasbiy xulq-atvor haqidagi fan sifatida deontologiyaga oid olimlarning ilmiy qarashlarini shakllantirish xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi (I.G. Aksenov, I. Bentam, M. P. Vasileva, A. A. Grando, G. M. Grigorev, E. V. Korobova, G. P. Medvedeva, N. M. Skoromets, G. F. Gaus, G. Gotsis, C. Larmor, D. Ladkin va boshqalar) [2].

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zarur kasbiy fazilatlari va uning deontologiyaning fan sifatida yashirin rivojlanishi davridagi xatti-harakatlari haqidagi g‘oyalarni tahlil qilish natijalari 1- jadvalda keltirilgan.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining zarur kasbiy fazilatlari haqidagi g‘oyalar evolyutsiyasining tarixiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, insoniyat jamiyatida g‘oyalar va o‘qituvchi va shifokorning kasbiy fazilatlariga qo‘yiladigan talablarning shakllanishi ko‘p jihatdan diniy-ma’rifiy xususiyatlar bilan belgilanadigan ijtimoiy-madaniy shartlilikka ega.

Biroq pedagogika tarixiga oid tarixiy materiallar va adabiyotlar tahlili o‘rganilayotgan davrda jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy fazilatlariga jamiyat tomonidan qo‘yilgan aniq talablarni aniqlab bermadi. Bu, bizningcha, ushbu turdagi faoliyatning ahamiyati va zarurligini jamoatchilik tomonidan e’tirof etilmayotganligi bilan bog‘liq. Deontologiya nafaqat kasbiy burch muammosini hal qilish yo‘llarini, balki kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida axloqni shakllantirish masalalarini, xodimning o‘z kasbiy faoliyati sifati, kasbiy sirlarga rioya qilish va saqlash uchun javobgarlik choralari va shakllarini ham ko‘rib chiqadi.

Kasbiy xulq-atvor qoidalari odatda ikki qismdan iborat:

- mafkuraviy, shu jumladan tashkilot xodimlari faoliyatining missiyasi va maqsadlari;

- normativ, shu jumladan kasbiy xulq-atvor standartlari va normalari.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz kasbiy xulq-atvor standartlari xulqatvorning axloqiy me'yorlariga juda mos kelishini ta'kidlaymiz. Shunday qilib, normalar va qoidalar odamlarning ijtimoiy munosabatlarini hukmronlik qiladigan jamoatchilik fikri asosida tartibga solish vositalari bo'lib, ularning faoliyati va xattiharakatlarini rag'batlantiradi. Ushbu normalar kasbiy burchni bajarish xarakterini belgilaydi, kasbiy faoliyatning ma'naviy oqibatlarining ta'sirini hisobga oladi. Jamiyat tomonidan xodimga qo'yiladigan asosiy axloqiy talab uning mehnat faoliyati ijtimoiy tartib, kasbiy maqsad va ijtimoiy talablarga qanchalik mos kelishini baholashdan iborat.

O'qituvchilarni innovasion tayyorlashning amaliyotdagi mavjud ahvoli o'rganilganda, bugungi xorijiy til o'qituvchilari va bo'lajak xorijiy til o'qituvchilari aksariyati innovasion pedagogik texnologiya ,ta'lim jarayoniga yangilik kiritish nazariyasining mohiyatidan xabardor emasliklari va o'z faoliyatlarini yangilash usullari va vositalarini bilmasliklari , ularga ta'lim-tarbiya jarayonida tajriba sinov ishlarini tashkil etish , ko'nikma malakalar yetarlicha shakllanmaganligi aniqlandi.

Shu sababli bugungi va ertangi xorijiy til o'qituvchisi o'zlarining innovasion faoliyatiga tayyorlash, o'zlarining deontologik (burch)larini chuqur anglashi, yetarlicha kompetensiyaga ega bo'lishi, bilim, malaka, ko'nikmalarini takomillashtirib kompetentli o'qituvchi bo'lishi bugungi davrning talabidir.

Ta'limning globallashuvi sharoitida o'qituvchilar faoliyatini zamon talablariga moslashtirib, ular o'rtasida raqobatga asoslangan mehnat sharoitlarini vujudga keltirish bu esa o'z navbatida bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining deontologik vazifasini va yuqori kompetentli o'qituvchi bo'lishni ta'minlaydi.

Barcha ta'lim muassasalarida jumladan, o'qituvchi tayyorlovchi oliy o'quv yurtlarida yoshlarni innovasion faoliyatga yo'naltirish orqali ta'lim sifat samaradorligini oshirish mumkin. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini innovasion faoliyatga tayyorlashda pedagoglarning psixologik tayyorgarligi va qiziqishini oshirish ularning shaxsiy kompetentligini namoyish etishga yo'naltirish muhim ahamiyatga egadir. Bugungi kunda keksa avlodning pedagogik kompetentligi bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning deontologik kompetentligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda tibbiyot xodimlari singari, ko'plab pedagoglar, professoro'qituvchilar o'z kasblariga sadoqatlilik bilan yuqori kompetentlik darajasida bajarmoqdalar. O'qituvchining deontologik madaniyati uzluksiz kasbiy va pedagogik ta'lim tizimida shakllangan ijtimoiy-pedagogik ta'limdir. Uning mohiyatiga ko'ra, u kasbiy-pedagogik burch talablari orqali o'qituvchining axloqiy jihatdan yo'naltirilgan ta'limining natijasidir va xatti-harakatlarda va kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi.

O'qituvchining deontologik madaniyatini shakllantirish kontseptsiyasi o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlik tamoyillariga, birgalikdagi samarali faoliyatga, kelajakdagi o'qituvchining deontologik tayyorgarligini shakllantirishga yo'naltirilgan. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining deontologik va kasbiy kompetentligi jahon standarti, O'zbekiston ta'lim standarti talablariga javob berishi kerak. Xorijiy til o'qituvchisi ijodkor, tashabbuskor, o'z kasbining fidoiy ijrochisi bo'lishi, kreativlik asosida samarali metod va vositalardan samarali foydalana olishi zarur. Bugungi pedagog kasbiy faoliyatini o'z burchlarini deontologik talablar asosida tashkil etishi va o'zida mavjud bo'lgan kompetentlikka tayanib, barkamol avlod tarbiyasiga e'tibor berishi lozim. O'qituvchilik burchini yuksak darajada anglash tuygusi muallimning xatti-xarakatlarini tartibga solib huquqini boshqarib turadi.

Dunyoda bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida deontologik kompetentligini shakllantirishning didaktik jihatlarini aniqlashtirish, innovasion faoliyatning asosi sifatida metodologik bilimlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Demak, bugungi va ertangi xorijiy til o'qituvchilari kasbiy deontologik va kasbiy kompetentlik sirlarini egallashga xarakat qilishlari lozim. Shundagina ta'lim soxasi yuksalish sari odimlaydi, deontologiyaning ravnaqi oshadi. Bo'lajak zamonaviy xorijiy til o'qituvchilari qiyofasida deontologik fazilatlar o'z aksini topgan bo'lishi lozim. Ko'pgina sharq va o'zbek mutaffakkirlari deontologiya bo'yicha o'z fikrlarini fanda bildirishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bentam I. Axloq va qonunchilik asoslari bilan tanishtirish. Axloq va qonunchilik tamoyillariga kirish. - M. : ROSSPEN, 2018.-415 p.
2. Veselova E.K.Psixologik deontologiya: Psixologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. Fanlar. - SPb., 2013. -402 b.
3. Ming yilliklar hikmatlari / muallif, - komp. V. Balyazin. - M., 2010. - 304 b.
4. Komenskiy Ya.A. Tanlangan pedagogik ishlar. - T. 1. - M.: Pedagogika, 2012. - 656 b.
5. Jurayev, S. S. U. (2021). Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida axloq masalasi va uning bugungi kundagi ahamiyati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(3), 11-14.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR

Samiyeva Sanobar Obid qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikka erishgan O`zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining shakllanishi va uning qonun bilan mustahkamlanishi, Oliy va o`rta maxsus ta'limning joriy etilishi, unga oid davlat qonunlari, ularga kiritilgan o`zgarishlar haqida asosiy ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** ajdodlar merosi, Milliy ma'naviy ruhni yangilash, Oliy ta'lim, o`rta maxsus ta'lim, boshlang`ich ta'lim, Ta'lim to`g`risidagi davlat qonunlari.

Аннотация. В данной статье освещены основные сведения о формировании системы образования в Республике Узбекистан и ее законодательном укреплении, введении высшего и среднего специального образования, соответствующих государственных законах, а также внесенных в них изменениях.

Ключевые слова: наследие предков, Национальное духовное обновление, Высшее образование, среднее специальное образование, начальное образование, Государственные законы об образовании.

Abstract. This article provides basic information about the formation of the education system in the newly independent Republic of Uzbekistan and its strengthening by law, the introduction of higher and secondary special education, the relevant state laws, changes in them.

Keywords: ancestor Heritage, National Spiritual Renewal, Higher Education, Secondary Special Education, Primary Education, State Laws on Education.

O`rta Osiyo, xususan, yurtimiz azal-azaldan ilm-marifat o`chog`i jahon sivilizatsi- yasi markazlaridan biri deb e'tirof etib kelingan. O`rta asrlardan xalqimiz ta'lim sohasida yuksak marralarga erishgan bo`lib, umumjahon madanyatida o`z o`rniga ega xalq sifatida fan sohasiga ulkan hissa qo`shishgan. Misol tariqasida IX-XII asrlarda Movarounnahrda ko`plab o`quv maskanlari bo`lib, ulardan chinakam olimlar, ulamolar yetishib chiqqan. Xususan, Xorazm Ma'mun akademyasi ham shu davrda yirik tadqiqot markazlaridan biri hisoblangan. Jumladan matematika faniga Algebra atamasini kiritgan Al-Xorazmiy ham bizning ajdodimiz ekanligi, azal-azaldan qonimizda yaratuvchanlik, o`qish, izlanishga bo`lgan qiziqishdan dalolatdir. Bundan tashqari yana bir buyuk ajdodimiz Abu Ali ibn Sino o`sha olis XI- asrda hali fantexnika inqilobi uyoqda tursin eng sodda tibbiy aparatlar bo`lmagan davrlarda murakkab dori-darmonlarni

tayyorlab tibbiy jarrohlik muolajalarni amalga oshirgani bilan dunyoga mashhurdir. Uning “Tib qonunlari” asari Yevropada “Injil” kitobidan keyin eng ko`p nashr etilgan kitoblardan biri bo`lib 500 yil davomida dunyoning ko`plab nufuzli oliy o`quv yurtlarida barcha talabalar uchun darshlik sifatida qo`llanib kelingan.

Buyuk mutafakkir Al-Farg`oniy astronomiya fanida birinchi bo`lib geliosintrik nazaryani asoschisi bo`lgan ya’ni Yerni Quyosh atrofida aylanishini aniq hisob-kitoblar bilan isbotlab bergan. Yana bir buyuk bobomiz Temuriyzoda Mirzo Ulug`bek XVasrdayoq Samarqandda observatorya barpo etib yulduzlar xaritasini tuzgan. U yulduzlar joylashuvini shu qadar aniq hi- soblaganki hozirgi fan-texnika bu ma’lumotlarni bugungi kun hisobi bilan atigi bir-ikki daqiqa farq qilinishini aniqladi. Bundan ko`rinib turibdiki bizning Ota-bobola- rimiz jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo`shgan shaxslar bo`lib yashab o`tganligi. Asosan ta’lim tizimi sobiq markazning hukumron mafkura manfaatlariga bo`ysundirilgan edi. Aytaylik aksaryat fanlar o`quv dasturiga kiritilmagan. Birgina O`zbekiston tarixi fanini oladigan bo`lsak ushbu fan xolis o`rganilmas, o`quv dasturida bu fanga ajratilgan soatlarning katta qismi sobiq ittifoq tarixini o`rganish- ga bag`ishlanar edi. O`quvchilar ongi vatanimiz tarixining noto`g`ri talqin qilingan hodisalari bilan to`dirilar edi. Milliy qadriyat va ma’naviyat toptalar, asl o`zbek olimlari va buyuk davlat arboblari,sarkardalari hayot va ijod yo`llari qoralangan. Mamlakatimiz mustaqillikga erishgandan so`ng barcha sohalarda tub o`zgarishlar amalga oshirila boshladi. Ayniqsa ta`lim sohasiga katta e’tibor qaratildi. Ta’lim-tarbiya tizimi takomillashgani sayin odamlarning ma’navyati, ongi, tafakkur doirasi shakllanib, yuksalib bordi.” Ta’lim tizimini har tomonlama shaklan va mazmunan isloh qilish, yangilash lozim edi. Zero, jamiyat yangi shaxsni tarbiyalashni talab etayotgan bir paytda odamlarning ongi,dunyo qarashi, bilim saviyasini o`zgartirmay, uni zamonaviylashtirmay turib yangi jamiyatni barpo etib bo`lmaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillik yillarida ushbu jihatlarni inobatga olgan holda odamlarda yangicha, milliy qadriyat va an’analari-mizga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ta’lim va tarbiyaga juda katta e’tibor qaratganlar. Jumladan u: Ta’lim O`zbekiston xalqi ma’naviyatiga yaratuvchilik faolligini baxsh etadi, Osib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkonyatlari unda nomoyon bo`ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o`tadi. Yoshlar, ularning iqtidorliligi va bilim olishga chanqoqligidan ta’lim va ma’naviyatini tushunib yetish boshlanadi, Shu bilan birga O`bekiston Respublikasining 1997-yil 29- Avgustda “Kadirlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonuni qabul qilingan bo`lib ushbu dastur “Ta’lim to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi

qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan. Ta’lim to`g`risidagi so`nggi ma`lumotlar keltirilishicha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-Sentyabr kuni “Ta’lim to`g`risida”gi qonunning yangi tahririni imzoladi deya xabar qildi adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19- Mayda Oliy majlis qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o`qishda qabul qilinib, 7-Avgustda Senat tomonidan ma’qullangan edi. Qonunga muvofiq ta’lim turlari quyidagilardan iborat.

-Maktabgacha ta’lim va tarbiya:

-Umumiy o`rta va o`rta maxsus ta’lim:

-Professional ta’lim:

-Oliy ta’lim:

-Oliy ta’limdan keying talim:

-Kadirlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish:

-Maktabdan tashqari ta’lim:

Umumiy o`rta ta’lim 1-11 sinflarni o`z ichiga oladi. O`rta maxsus ta’lim akademik litsiylarda to`qqiz yillik tayanch o`rta ta’lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi. Professional ta’lim boshlang`ich, o`rta va o`rta maxsus professional ta’lim darajalariga ajratiladi. Boshlang`ich professional ta’lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta’lim shaklida 2 yillik integiratsiyalashgan asosida bepul amalga oshiriladi. O`rta professional ta’lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to`lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilga-cha bo`lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo`yicha amalga oshiriladi. Orta maxsus professional ta’lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to`lov shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo`lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shakllari bo`yicha amalga oshiriladi. Qonunga ko`ra davlat oliy ta’lim,o`rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi. Nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inespeksiyasi tomonidan beriladi. Nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirila-di. Ushbu qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi. Eng samarali investetsiya bu ta’limga qilingan invistetsiyadir. Chunki jamiyat taraqqiyotini, uning ertangi kunini yituk malakali kadirlar belgilab beradi. Ta’lim tizimini takomillashtirish, ularning bilimini oshirish, sifat darajasini ko`tarishdir.

Xulosa qilib aytganda o`qish, o`rganish, bilim olish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda ana endi biz yoshlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu tashabbuslarga javoban har qachongidan ko`proq o`qib-o`rganib o`z ustimizda yanada ko`proq ishlab, Xalqimiz, vatanimizga tayanch bo`ladigan nafaqat tayanch balki ertangi kuniga ishonch bo`ladigan va kelajagini belgilab beradigan farzand,

kadr, mutaxasis inson bo`lib yetishishimiz har qachongidan zarur ekanligi mana bugungi kun taqozosi. Yana shuni qo`shimcha qilmoqchimanki vatanimiz mustaqilligidan keying yillarda oliy ta’lim tizimida bo`layotgan o`zgarishlar, aniq-rog`i abiturentlar uchun oliy o`quv yurtlariga kirish imkonyati oldingi yillarda bitta oliygohga imkoniyat bo`lgan bo`lsa 2019-yildan uchta oliygohga 2020-yildan esa bu imkonyat beshtaga yetganligi abiturentlar uchun katta yangilik bo`ldi. Albatta bu tadbirlar abiturentlarni o`ylab ularning imkonyatini oshirish va o`qishga qiziqishini jadallashtirishga katta turtki bo`ldi. Yangi ta’lim to`g`risidagi qonunda ko`rsatilgan yana bir o`zgarish bu bolalarning maktabga chiqishidagi yoshi burungi 6-7 yoshdan qatiy 7 yosh deb belgilanishini ko`rsatish mumkin.

Prezidentimizning xalqga qilgan murojatnomasida aytib o`tgan muhim gapini keltirib o`tmoqchiman. Murojatnomada jumladan shunday diyiladi. Maktab tizimida o`qituvchi degan nomni qadrini ko`tarish uchun uning ma’naviy va moddiy ta’minotini oshirish buning uchun esa ularga to`lanadigan oylik ish haqini oshirish, xususan, bir tumandan boshqa tumanga borib ishlaydigan o`qituvchi xodimlar uchun ularga oylik ish haqining 50% hisobida, boshqa viloyatga borib ishlasa 100% miqdorida ustama haqlari belgilanishi murojatnomada Prezidentimiz tomonidan ta’kidlab o`tildi. Maqolam so`ngida shuni misol qilib keltirmoqchimanki ilm o`rgangan kishi hech qachon yutqazmagan yutqazmaydi ham. Zero, xalqini, jonajon vatanini, mehribon Ota-onasini yaxshi ko`rgan, ardoqlagan inson aslo ertangi kelajagi uchun qayg`urmay qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. Science and Education. 1(7). 192-198
2. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. Science and Education. 1(8). 666-671
3. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. Academic Research in Educational Sciences. 1 (3). 1313-1321.
4. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.
5. С.А. Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Science and Education. 1(9). 458-461.
6. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги «Scientific Progress» Scientific journal 1(3). 9-14.

7. Khaydarov S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Page 41-43.
8. Ҳайдаров. С. (2021). Ёшларда ватанпарварлик ҳиссини тарбиялашда “Бобурнома” асарига ишланган миниатюраларнинг аҳамияти. Ҳалқаро илмийамалий конференцияси тўплами. 33-37 б.
9. Ҳайдаров. С. (2021). Заҳириддин Муҳаммад Бобур хорижлик татқиқотчилар нигоҳида: подшоҳлик мўйқалами. Ҳалқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 43-46 б.
10. Сулаймон Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. Science and Education, 1(6), 174-179.
11. С.А. Ҳайдаров. (2020). Педагог-ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш асослари. "Science and Education." Scientific journal. 1(7). 610-617 б
12. Ҳайдаров.С. (2021). Рақамли таълим муҳитида тарих дарсларида талабалар билимини назорат қилиш воситалари ва методлари. Ҳалқаро илмий-амалий конференцияси тўплами. 160-163 б.
13. Khaydarov S.A. (2019). Use of products of the fine arts in teaching history of Uzbekistan. International Journal of Research. 6(03).40-44
14. Khaydarov S.A. (2020). Pedagogic and didactic possibilities of using miniature works in historical lessons. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 24(8). 1475-1792

ILM-FAN VA TEXNIKA TARAQQIYOTI KONTEKSTIDA IJTIMOIY TENGSIZLIK MASALALARI

Aliyev Nozimjon Nurullajon o‘g‘li
Toshkent davlat transport universiteti doktoranti
Gmail: nozimjonoff@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilm-fan va texnika taraqqiyotining ijtimoiy tengsizlikka ta’siri falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Platon, Marks, Roulz kabi faylasuflarning tengsizlik va taraqqiyot masalalaridagi qarashlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar sabab yuzaga keladigan global muammolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tengsizlik, falsafiy yondashuv, adolat, iqtisodiy tengsizlik, texnologiya, global muammo, kapitalizm, resurslar taqsimoti, zamonaviy texnologiya, ma’naviy qadriyat.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние развития науки и техники на социальное неравенство на основе философских подходов. Рассмотрены взгляды таких философов, как Платон, Маркс, Рузвельт на вопросы неравенства и прогресса, а также глобальные проблемы, вызванные современными технологиями.

Ключевые слова: наука, технический прогресс, социальное неравенство, философский подход, справедливость, экономическое неравенство, технологии, глобальная проблема, капитализм, распределение ресурсов, современные технологии, духовная ценность.

Annotation. This article analyzes the impact of the development of Science and technology on social inequality on the basis of philosophical approaches. The views of philosophers such as Plato, Marx, Rowles on issues of inequality and progress are considered, as well as global problems caused by modern technologies.

Keywords: science, Technical Progress, social inequality, philosophical approach, justice, economic inequality, technology, global problem, capitalism, resource allocation, modern technology, spiritual value.

Ilm-fan va texnika taraqqiyoti ijtimoiy rivojlanishning eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lib, insoniyat tafakkurining eng yuksak yutuqlari bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu jarayon bir tomondan hayot sifatini yaxshilash, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, inson ehtiyojlarini qulay shakllarda qondirish imkonini bergan bo‘lsa, boshqa tomondan, ijtimoiy tengsizlik masalalarini chuqurlashtirishi ehtimoli bilan ham ajralib turadi. Zero, ilm-fan va texnika

natijasida yaratilgan yangi bilimlar va texnologiyalar jamiyatda resurslar, vakolatlar va imkoniyatlarning notekis taqsimlanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Eng avvalo, qadimgi yunon falsafasidan boshlab ijtimoiy tengsizlik masalasi turlicha nuqtayi nazarlarda muhokama qilingan. Platon o‘zining ijtimoiy tuzum haqidagi qarashlarida fuqarolarni uch tabaqaga – hukmdor-faylasuflar, soqchilar va mehnat ahli – bo‘lishga urg‘u bergan edi. Unga ko‘ra, jamiyatda tabaqalar o‘rtasidagi tabiiy tafovutni boshqarish va umumiy farovonlikka xizmat qildirish uchun hukmdor-faylasuflar o‘z aql-zakovati bilan rahbarlik qilishi, qolgan tabaqalar esa o‘z vazifalarini bajarishi lozim[1]. Platon tafakkurida bu tabaqaviy tartib “adolat” prinsipi bilan muvofiqlashtiriladi, chunki ilm-fan va texnik yutuqlar ham, avvalo, yuqori tabaqaning g‘oyaviy rahnamoligiga asoslanadi. Ammo bu qarash, tabiiyki, zamonaviy nuqtai nazardan ijtimoiy tengsizlikning qonuniylashuvi yoki shu jarayonni kuchaytirishiga oid savollarni tug‘diradi.

Aristotel esa jamiyatda adolatni ta’minlash uchun “o‘rtalik” prinsipiga tayanish zarurligini ilgari surgan. U ilmiy bilimlar va texnik malakalar muayyan qabila yoki jamoa ichida yagona shaxslar qo‘lida jamlanib qolsa, tabiiyki, boylik ham ular tomonidan nazorat qilinishi mumkinligini eslatadi. Binobarin, ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiy boylik manbaini ko‘paytirish bilan birga, muayyan guruhlarning jamiyatda ustuvorlik qilish yo‘lini ham ochib beradi. Bu yerda Aristotel muvozanatni saqlash uchun siyosatda adolatni, jamoada esa ma’naviy ahillikni qaror toptirish zarurligi haqida ogohlantirgan.

Sharqda esa Forobiy “Fozil odamlar shahri” nomli asarida ulamolar, ya’ni ilm sohiblari, ideal jamiyatning ma’naviy rahbarlari bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan[2]. Uning nazarda tutishicha, texnik va ilmiy yutuqlarga ega bo‘lgan shaxslar jamiyatni haqiqiy taraqqiyot sari yetaklay olishadi. O‘sha davrda ham Forobiy adolat prinsipiga alohida e’tibor qaratgan: ilm-ma’rifat hamisha umumiy manfaatga xizmat qilishi, ayrim tabaqalar manfaati uchun xizmat qilmasligi lozim. Zero, ilm-fan natijasi bo‘lgan texnologiyalar hamma uchun birdey imkoniyat yarata olsagina, jamiyatda tenglikni mustahkamlash mumkin.

Yangi davrga kelib, ilmiy-texnik taraqqiyotdagi shiddat uyg‘onish sharoitida moddiy boyliklar taqsimoti masalasi alohida dolzarblik kasb etdi. Xususan, Karl Marks yozganidek, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq holda turli ziddiyatlar, jumladan, sinfiy qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi[3]. Marks nazariyasida mashinalashtirish, mexanizatsiya, ilmiy ixtirolar va ularning amalda qo‘llanishi bevosita kapital egalarida to‘planadigan daromad manbaini oshiradi, ammo ishchi tabaqa esa yalpi iqtisodiy ne’matlardan kamroq bahramand bo‘ladi. Shu yo‘sinda Marks ilmiy-texnik taraqqiyot samarasi g’arazli niyatda ishlatilsa, tengsizlik yanada chuqurlashishi mumkinligini

ta’kidlaydi. Demak, ilmiy-texnik yutuqlar kapitalistik munosabatlar bilan uyg‘unlashgan sharoitda soha doimiy ravishda norozilik va nosog‘lom raqobatni keltirib chiqaradi.

Maks Veber esa industrial taraqqiyotda protestant axloqi va kapitalizm ruhi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilk bor atroflicha tahlil qilgan faylasuflardan biri sifatida, ma’naviy qadriyatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ochib bergan[4]. Uningcha, ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiyotda qo‘llanilganda, ayrim jamoalarda “mehnatsevarlik”, “tirishqoqlik” kabi fazilatlar usuvor aks etib, boylik yaratilishi imkoni oshadi. Biroq ayni fazilatlar va imkoniyatlar har doim ham barcha mintaqalarda yoki barcha tabaqalarda bir xil darajada namoyon bo‘lavermaydi. Natijada bir jamoa yoki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotga erishishi, boshqasi esa ortda qolib ketishi mumkin. Modomiki, ilmiy-texnik taraqqiyot mahalliy an’ana va axloq konsepsiyasi bilan uyg‘unlashmasa, iqtisodiy taraqqiyotda boshqa omillar ustun bo‘lib, turli iqtisodiy ne’matlar taqsimotida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bu esa, tabiiyki, jamiyatda tengsizlikni yanada chuqurlashtiradi.

Jon Roulz o‘zining ijtimoiy baravarlikka erishish uchun “adolatli taqsimot” tamoyilini taklif etadi[5]. U hech bir holatda ilmiy-texnik taraqqiyot natijasida paydo bo‘ladigan ne’matlardan ayrimlari butun jamiyat taraqqiyoti uchun “kam ta’minlanganlarga” ham imkon yaratishi kerakligini ajratadi. Ayniqsa, yangi texnologiyalardan olinadigan ulkan daromadlar jamiyatda qashshoqlikni kamaytirish, barcha uchun asosiy sharoitlarni yaxshilash maqsadida ishlatilsa, farovonlik umumiy darajada ko‘tarilishi mumkin. Shu tariqa Roulz, Marksdan farqli o‘laroq, asossiz adolatsizlikni butkul yo‘q qilishdan ko‘ra, yangi qoidalar yordamida “adolatli ne’matlar taqsimoti”ni axloqiy mafkura tariqasida ilgari suradi. Ya’ni, ilmiy-texnik taraqqiyot belgilangan siyosiy-huquqiy mexanizmlar ila chegaralanishi, shundagina jamiyatda nisbatan teng sharoit yaratish mumkin, degan tezis ishlab chiqadi.

Alvin Toffler esa yangi texnologiyalar, ilmiy ixtirolar olib keladigan shiddatli o‘zgarishlar bevosita ijtimoiy institutlarning turli ko‘rinishda isloh etilishini talab qilishini ta’kidlaydi[6]. Agar siyosiy-huquqiy bazalar va axloqiy meyorlar bu tendensiyaga tayyor bo‘lmasa, tengsizlik ortidagi ziddiyatlar shiddat bilan avj olishi mumkin. Masalan, raqamli iqtisodiyotda internet-startaplar yo‘nalishida ulkan imkoniyatlarga ega kishilar kutilmagan boylikka erishishi, shu bilan bir vaqtda boshqa bir katta aholi qatlami sanoat yoki qishloq xo‘jaligi sohalarida qolib ketishi ehtimoli bor. Natijada ilmiy-texnik taraqqiyot bilan bog‘liq iqtisodiy o‘sish bir chetdan “iqtisodiy parvoz” ko‘rinishida ko‘rinishi, ammo boshqa bir chetdan “qashshoqlik”ni ham keskinlashtirishi mumkin.

Bugungi sharoitda texnologiyalar ochiq jamiyatda ham, yopiq siyosiy tizimlarda ham qudratli vositalar sifatida mohiyat kasb etadi. Shu bois tengsizlik tagida yotadigan konseptual muammo – bu fan va texnika maxsulidan foydalanish, unga egalik qilish imkoniyati, axborot resurslariga kirish hamda raqamli ko‘nikmalar darajasi bilan belgilanayotganini ko‘ramiz. Jamiyatda har qanday shaxs yoki tabaqa eng yangi texnologiyalardan foydalanib, moddiy farovonlikni ortadigan, siyosiy ta’sir tepasiga chiqadigan bo‘lsa, bu barcha uchun birday sharoit yaratilmaganini anglatadi. Eng muhimi, ilmiy-texnik taraqqiyotdan manfaat ko‘rish uchun kifoyali darajada ta’lim, malaka, sarmoya va albatta, infratuzilma talab etiladi. Ushbu joydagi har qanday muammoga duch kelgan aholi katta ko‘lamda rivojlanish orqali qamrab olinmasdan, jamiyatda yangi iqtisodiy va siyosiy muammolar paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy-texnik taraqqiyot va ijtimoiy tengsizlik o‘rtasidagi o‘zaro munosabat turli zamonlarda turli yondoshuvlar bilan baholangan. Biroq, bevosita zamonaviy globallashuv sharoitida bu masala yanada tezkor hal etilishini taqozo qiladi. Ayniqsa, internet, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar avj olgan bir paytda, tengsizlik ne’matlarning noteng taqsimoti bilan birga axborot resurslaridan mahrum bo‘lgan qatlamlar muammosini ham keltirib chiqaradi. Demak, ilmiy-texnik taraqqiyotning ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashuvi uchun jamoaviy institutsional choralar, axloqiy meyorlar va huquqiy mexanizmlar bir paytning o‘zida ishlab turishi zarur. Shundagina insoniyat “ilmiy-texnik taraqqiyot”dan bahramand bo‘lar ekan, “tenqsizlik”ni chuqurlashtirmaslikka erishishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Платаон. Государство / Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ. ст. Е.Н Трубетский проект, 2015. - 398 с. - (Философские технологии); Лурье С. Я. Демокрит: Тексты, перевод, исследования. — Л.: Наука, 1970. С. 321.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2004. 110-b.
3. Karl Marks, Kapital, Politizdat, 1978, pp. 221.
4. Max Weber, The Protestant Ethic and the Spirit of Capitalism, Routledge, 2001, pp. 44.
5. John Rawls, A Theory of Justice, Harvard University Press, 1971, pp. 12.
6. Alvin Toffler, Future Shock, Random House, 1970, pp. 45.

ETYMOLOGY AND SEMANTIC NATURE OF THE “STEP” CONCEPT

Qayumova Mohinur Murodullayevna
Teacher at the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: m.qayumova26@gmail.com

Abstract. This article explores the etymological and semantic dimensions of the “step” concept, focusing on its usage in English and its cultural and linguistic connotations. Originating from Old English and Proto-Germanic roots, the term “step” historically conveyed a sense of substitution or relationship beyond blood ties, particularly in familial contexts. The study delves into its evolution in meaning, examining how “step” constructs such as stepmother, stepson, and stepchild have acquired semantic neutrality in modern English, contrasting with emotionally loaded interpretations in other languages. Through etymological analysis, comparative semantics, and discourse studies, the research highlights how cultural attitudes towards familial relationships influence the conceptual framing of "step" in language.

Keywords: step concept, etymology, semantics, familial relationships, linguistic pragmatics, cultural connotations

Introduction. The concept of “step,” as reflected in familial terms like stepmother, stepson, or stepchild, is deeply ingrained in the lexicon of English and many related languages. Derived from the Old English word steop- (meaning orphan), the term initially carried a strong emotional resonance, denoting children who lost one or both biological parents. Over time, its meaning evolved to describe a familial relationship formed through marriage rather than blood ties, marking a shift in its semantic and cultural significance.

The semantic nature of the “step” concept varies significantly across cultures and languages. While English terms like stepmother tend to be semantically neutral, languages such as Russian (мачеха) or Uzbek (o‘gay ona) often imbue the concept with negative connotations. This divergence raises important questions about how societal attitudes toward non-biological family members shape the semantics of the term.

This study aims to investigate the etymological roots and semantic nature of the “step” concept in English, contextualizing it within cultural and linguistic frameworks. By examining its historical origins and modern interpretations, the study sheds light on the broader interplay between language, culture, and familial structures.

Methods.

To analyze the etymology and semantic nature of the “step” concept, the study employed the following methodological approaches:

1. Etymological Analysis

Historical dictionaries, including the Oxford English Dictionary (OED) and Proto-Germanic linguistic sources, were consulted to trace the origins of the term step. The evolution of its usage in Old English and Middle English texts was documented to highlight changes in its meaning over time.

2. Comparative Semantics

The semantic properties of “step” were compared across English, Russian, and Uzbek to identify cross-linguistic variations. Particular attention was given to cultural connotations associated with the concept in each language.

3. Discourse Analysis

Examples of “step” terms in literature, media, and everyday communication were analyzed to understand their pragmatic usage in various contexts. The analysis included positive, neutral, and negative portrayals of “step” family members in different genres.

4. Corpus Linguistics

Large linguistic corpora, such as the British National Corpus (BNC) and Corpus of Contemporary American English (COCA), were utilized to examine the frequency and contextual usage of “step” terms in modern English.

Results

1. Etymological Findings

The term “step” originates from the Old English prefix steop- and the Proto-Germanic root steupa, both of which referred to orphans or bereaved children. Initially, the term denoted a situation of loss and replacement within familial structures.

By the Middle English period, “step” had evolved to denote familial relationships formed through remarriage. The term’s application expanded to include stepmother, stepfather, and other related terms.

2. Semantic Variations

In English, the term “step” has undergone semantic neutralization. Modern usage of stepmother or stepchild generally lacks emotional intensity, functioning primarily as a descriptive marker of familial relationships.

In Russian, the term мачеха (stepmother) retains a historically negative connotation, often associated with cruelty and familial discord, as depicted in traditional folklore.

In Uzbek, o‘gay ona (stepmother) carries similar negative connotations, reflecting cultural stereotypes and societal attitudes towards blended families.

3. Discourse Insights

In English-language literature and media, “step” family members are portrayed in both positive and negative lights, with an increasing trend towards neutral or positive depictions in contemporary works.

In Russian and Uzbek cultural narratives, stepmothers are often cast in villainous roles, perpetuating traditional stereotypes.

4. Corpus Analysis

Corpus analysis revealed that stepmother and stepchild appear frequently in neutral or legal contexts in English, emphasizing functional familial roles.

Comparative corpus studies indicated a higher frequency of emotionally charged usages in Russian and Uzbek texts, reflecting cultural attitudes.

Discussion

The etymology and semantic evolution of the “step” concept highlight the dynamic relationship between language and culture. In English, the neutralization of “step” terms reflects a shift towards acceptance of blended families as a normative social structure. This contrasts with the cultural resistance observed in Russian and Uzbek contexts, where linguistic expressions of “step” relationships are more emotionally laden. The historical trajectory of the term “step” in English suggests a broader linguistic trend of abstraction and functionalization, as familial roles are increasingly defined by social and legal relationships rather than emotional or biological ties. This development mirrors societal changes in attitudes toward family composition and diversity.

In contrast, the persistence of negative connotations in Russian and Uzbek highlights the role of cultural narratives in shaping language. Traditional folklore and societal norms continue to influence the semantic interpretation of “step” terms, underscoring the interplay between language, tradition, and societal values.

Conclusion

The study of the “step” concept’s etymology and semantic nature demonstrates the profound influence of culture on linguistic expression. In English, the term has evolved into a neutral descriptor, reflecting progressive attitudes toward family structures. However, in languages like Russian and Uzbek, the concept retains strong cultural connotations, revealing the enduring impact of traditional values. By examining the linguistic and cultural dimensions of the “step” concept, this study contributes to a deeper understanding of how language reflects and shapes societal attitudes toward familial relationships. Future research could explore how global cultural shifts influence the semantic evolution of “step” terms in other languages.

Bibliography

1. Oxford English Dictionary. (2025). "Step." Oxford University Press.
2. Harper, D. (2025). Online Etymology Dictionary. Retrieved from https://www.etymonline.com.
3. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese. Oxford University Press.
4. Fillmore, C. J. (1982). Frame Semantics and the Nature of Language. Annals of the New York Academy of Sciences.
5. Karasik, V. I. (2002). Language Circle: Personality, Concepts, Discourse. Volgograd: Peremena.
6. Rustamov, A. (2020). Lingvokulturologiya Asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
7. COCA. (2025). Corpus of Contemporary American English. Retrieved from https://www.english-corpora.org/coca.

АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ АНГЛОЯЗЫЧНОЙ СФЕРЫ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ НА ОБЩУЮ ЯЗЫКОВУЮ КАРТИНУ

И.Ф.Порубай
старший преподаватель, PhD,
Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье анализируются ключевые тенденции, формирующие современное общение в социальных сетях. Также рассматривается их влияние на язык в целом и делаются прогнозы относительно его дальнейшего развития. Особое внимание уделено как положительным, так и отрицательным аспектам языка социальных сетей, включая его влияние на уровень грамотности, соблюдение грамматических норм и эстетические качества речи.

Ключевые слова. Социальные сети, интернет-дискурс, дискурс в социальных сетях, сленг, дискурс.

В постоянно меняющемся пространстве социальных сетей язык находится в состоянии непрерывной трансформации, что отражает быстро развивающийся характер онлайн-коммуникации. Благодаря своей краткости, креативности и адаптивности, сленг социальных сетей стал неотъемлемой частью того, как люди выражают свои мысли, эмоции и идеи в цифровой среде. Этот язык стремительно меняется, следуя за культурными трендами, технологическими инновациями и потребностью в максимально эффективном взаимодействии в условиях ограниченного времени и пространства.

Современные тенденции сленга социальных сетей формируются под влиянием множества факторов. Культурные изменения и глобализация способствуют появлению новых выражений, которые часто пересекают языковые и национальные границы, объединяя пользователей по всему миру. Технологические достижения, такие как внедрение мультимедийных форматов и искусственного интеллекта, способствуют созданию новых форм коммуникации, что отражается в языке. Кроме того, пользователи социальных сетей стремятся к упрощению и ускорению общения, что приводит к широкому распространению сокращений, аббревиатур и новых лексических единиц.

Данное исследование подробно рассматривает ключевые тенденции, формирующие дискурс социальных сетей в настоящее время, анализируя, каким образом они влияют на общий язык и изменяют привычные нормы общения. Особое внимание уделяется изучению двустороннего воздействия: с одной стороны, языка социальных сетей на структуру языка в целом, а с другой — общей языковой культуры на развитие дискурса социальных платформ.

Кроме того, исследование ставит задачу спрогнозировать будущее развитие языка с учетом текущих изменений. Оно анализирует как положительные, так и отрицательные эффекты, вызванные влиянием социальных сетей на грамотность, правила грамматики и эстетическое восприятие языка. Среди положительных сторон можно отметить обогащение языка новыми словами и конструкциями, а также расширение языкового разнообразия за счет глобального взаимодействия пользователей. Однако негативные последствия, такие как упрощение языка, снижение уровня письменной грамотности и утрата сложных грамматических конструкций, также заслуживают пристального внимания.

Таким образом, язык социальных сетей выступает важным индикатором современных изменений в сфере коммуникации, отражая не только динамику цифровой эпохи, но и ключевые социальные и культурные процессы. Понимание этих изменений позволит лучше адаптироваться к новым реалиям и эффективнее использовать язык в условиях постоянно развивающейся онлайн-среды.

Особенностью, которую необходимо учитывать при рассмотрении тенденций и особенностей дискурса в социальных сетях, является его способность опираться на письменную форму, сохраняя при этом высокий уровень неформальности, что напоминает многие черты устной речи. [2, 184-185]

Одной из самых заметных тенденций в сленге социальных сетей является широкое использование сокращений и аббревиатур. Эта тенденция истекает из потребности в краткости на платформах, где ограничения по символам или быстрый темп общения требуют лаконичных выражений. Распространенные примеры включают «LOL» (lots of laugh), «BRB» (be right back), «OMG» (oh, my God) и «TBH» (to be honest). Эти сокращенные формы позволяют пользователям быстро и эффективно передавать сложные идеи.

Мемы стали краеугольным камнем общения в социальных сетях, выступая одновременно в качестве развлечения и средства передачи сложных идей или эмоций. Мемы часто включают в себя юмористические изображения, видео или текст, которые вирусно распространяются по платформам. Язык мемов динамичен, с регулярно появляющимися новыми форматами и фразами.

Мем, созданный автором, опирается на легко узнаваемых персонажей, известных личностей, сцены из фильмов и мультфильмов, а также другие элементы популярной культуры. Как правило, контекст изображения соответствует теме ситуации и смыслу сопровождающего текста. [3, 171-181]

Знаменитости и блогеры оказывают значительное влияние на эволюцию сленга в социальных сетях. Их огромное количество подписчиков и повсеместное присутствие на таких платформах, как Instagram, Twitter и TikTok, позволяют им быстро популяризировать новые термины и фразы. Например, такие термины, как «stan» (навязчивый фанат), «lit» (захватывающий или превосходный) и «slay» (успешно впечатлять) получили широкое распространение отчасти благодаря их одобрению влиятельными фигурами. Это явление подчеркивает роль личностей в социальных сетях в формировании современного сленга.

Современный сленг социальных сетей отражает стремительный характер изменений и культурное многообразие онлайн-коммуникации. С развитием технологий и появлением новых платформ языковая картина в социальных сетях будет неизбежно изменяться, определяя новые формы цифрового взаимодействия.

Не все эффекты положительны, поскольку было замечено, что виртуальное пространство общения все больше затрудняет для коммуникантов молодого возраста участие в грамматически правильном дискурсе за пределами цифровой среды, например, в более формальных реальных ситуациях. [1, 1112-1116]

Негативные эффекты, которые могут возникнуть при использовании социальных сетей, следующие:

Частое использование сокращений (например, «u» вместо «you», «lol» вместо «laugh out loud») и сленга может перерасти в официальную письменную речь, из-за чего людям, особенно студентам, становится сложнее различать неформальный и формальный языковой контекст.

Постоянное воздействие неправильного написания и грамматики может привести к снижению собственных навыков правописания и грамматики пользователя. Постоянное наблюдение за ошибками может привести к снижению чувствительности людей к ошибкам.

Стремительный темп социальных сетей поощряет быстрое чтение и беглый просмотр, а не глубокое, вдумчивое чтение. Это может повлиять на понимание и навыки критического мышления, которые имеют решающее значение для грамотности.

Социальные сети часто отдают предпочтение коротким, простым сообщениям. Это может привести к сокращению словарного запаса и чрезмерной зависимости от упрощенных выражений, что может ограничить способность выражать сложные идеи и мысли.

Дискурс в социальных сетях глубоко влияет на язык, стимулируя создание нового словаря, способствуя неформальному и визуальному общению и способствуя языковому разнообразию. По мере того, как социальные сети продолжают развиваться, их влияние на язык, вероятно, будет углубляться, отражая и формируя способы, которыми мы соединяемся и общаемся. Эта текущая трансформация подчеркивает важность понимания и адаптации к языковым сдвигам, вызванным цифровым взаимодействием.

Литература

1. Кучигина Светлана Каюмовна (2021). ЯЗЫК СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ. Вестник Удмуртского университета. Серия «История и филология», 31 (5), 1112-1116.
2. Смирнова Л.С. (2015). Язык социальных сетей: к проблеме изучения. Инновационная наука, (12-2), 184-185.
3. Porubay, I. F., & Sotvaldieva, H. M. (2022). The functions of memes in contemporary internet discourse. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2(11), 171-181.

YANGI O‘ZBEKISTON: YANGI TA’LIM TIZIMI VA YANGICHA YONDASHUVLAR TA’LIM TARAQQIYOTI ASOSI

Raimova Mehriniso Abdumalik qizi
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, yoshlar, vazirlik

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы, реализуемые в сфере развития системы высшего образования Республики Узбекистан.

Ключевые слова: высшее образование, молодежь, служение.

Abstract. This article discusses the reforms implemented in the field of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: higher education, youth, ministry

Ma’lumki, bugungi kunda mamlakatimizda har bir sohada keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘z navbatida, mazkur islohotlarning salmoqli qismini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tashkil etmoqda. So‘nggi yillarda ta’lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim tizimida islohotlar va amaliy chora-tadbirlar judayam keng ko’lamli amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta`kidlaganlaridek: Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu - ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Mutaffarkir olim Abu Nasr Farobiyning fikricha “Ta’lim - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Farobiyning ta’lim-tarbiya yo‘llari, usullari vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go‘zal fazilatlar ikki yo‘l - ta’lim va tarbiya yo‘li bilan hosil qilinadi. Ta’lim nazariy fazilatlarini birlashtirsa, tarbiya esa tug‘ma fazilat - nazariy bilimlar va amaliy kasb - hunar, xulq odob fazilatlarini birlashtiradi. Ta’lim so‘z va o‘rganish bilan tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi, deydi. Har ikkalasi birlashsa

yetuklik namoyon bo‘ladi, ammo bu yetuklik bilim va amaliy ko‘nikmalarni qay darajada o‘rganganligiga qarab paydo bo‘ladi, deb ko‘rsatadi.

Farobiy ta’limda barcha fanlarning nazariy asoslari o‘rganilsa, tarbiyada ma’naviy - axloqiy qoidalar, odob me’yorlari o‘rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

O‘zbekiston Respublikasining 30 yoshgacha bo‘lgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida2 Shunday ekan yoshlarning ongini, ma`naviyatini, salohiyatini, madaniyatini, bilim darajasini shakllantirmay turib biz kelajagimizga istiqbolimizga nazar tashlay olmaymiz. Bu bo‘yicha qator qonunlar qarorlar chiqarilayotgani hech kimga sir emas. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonuni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 30 yilga mo‘ljallangan konseptsiya va ta’lim to‘g‘risidagi bir qancha qaror va qonunlarning qabul qilinishi yoshlarimizning kelajagini o‘ylab, davlatimiz rivojini o‘ylab amalga oshirilayotgani bejiz emas.

Yurtimizda bugungi kunda eng dolzarb muammo va yechimlarni qamrab olgan 30-yilgacha mo‘ljallangan konseptsiyaning qabul qilinishi va amalga oshirilishi yurtimizda ta’lim sohasida ulkan o‘zgarishlar amalga oshishiga olib keladi. Ta’lim sifati O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son "Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Kontseptsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasida : Oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar, Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari,

Oliy ta`lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish , ta‘lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy - tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish ilm-fanning

innovattsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy - ma`rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy - texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash, konseptsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar xususida keng qamrovli masalalar qamrab olingan.

Statistik ma’lumotlarga koʻra, 2019 yil respublikada 114 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud boʻlib, ulardan 93 tasi mahalliy hamda 21 tasi xorijiy oliy ta’lim muassasasi va ularning filiallari hisoblanadi. Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi Oʻzbekistonda faoliyat koʻrsatayotgan OTM lar sonini ochiqladi. Qayd etilishicha, bugungi kunda Oʻzbekistonda 159 ta jumladan, Toshkent shahrida 72 ta, hududlarda 87 ta oliy ta’lim muassasasi mavjud.Shundan universitet 28 ta, institutlar 47 ta, akademiya 3 ta, konservatoriya 1 ta, filial 26 ta, xorijiy OTM va uning filiallari 30 ta, nodavlat OTM 24 ta. 59 Bundan koʻrinib turibdiki bugungi kunda ta`lim tizimidagi ijobiy oʻzgarishlar sezilarli darajada oʻsgan. Davlat oliy ta`lim muassasalari tegishliligi boʻyicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilgan: Xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari soni soʻnggi 3 yilda ikki barobar oshgan.2020-2021- oʻquv yili boshida respublika boʻyicha 20 ta xorijiy oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan. 3 Bu ma’lumotlar esa ta’lim tizimimiz uzviyligi toʻgʻri yoʻlga qoʻyilganini koʻrsatib turibdi. Davlat oliy ta’lim muassasalari tegishliligi boʻyicha vazirlik va idoralar tasarrufiga biriktirilishi- oliy ta’limda kadrlar sifatini oshirish, har bir yoʻnalish boʻyicha yetuk mutaxassislarning tayyorlanishi nazarda tutilgan. Xorijiy oliy ta’lim muassasalarining soʻngi 3 yilda 2 barobar oʻsishi ham buning isbotidir.

Bu oliy dargohlarning koʻlami yildan-yilga oʻsib borayotgani va mamlakatimizning rivojiga hissa qoʻshadigan turli yoʻnalishlarda kadrlar tayyorlayotgani bugun hech kimga sir emas. Kadrlar buyurtmachilari takliflari asosida Oliy ta’lim yoʻnalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga 329 ta ta’lim yoʻnalishi va 582 ta magistratura mutaxassisligi kiritildi. 2019-2020 oʻquv yilida 59 ta oliy ta’lim muassasasida sirtqi ta’lim, 10 ta oliy ta’lim muassasasida kechki ta’lim shakli joriy etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar soni bakalavriat ta’lim yoʻnalishi boʻyicha 410 ming, magistratura mutaxassisligi boʻyicha esa 13 ming nafarni tashkil qilib, soʻnggi 3 yilda 1,7 baravarga oshdi.

Talabalarning 54,8 foizi gumanitar va pedagogik, 25,2 foizi ishlab chiqarishtexnik, 5,2 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 4,4 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot, 4,5 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha tahsil olmoqdalar.

Magistratura talabalarining 40,8 foizi gumanitar va pedagogik, 23,3 foizi ishlab chiqarish-texnik, 13,3 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq, 5,9 foizi qishloq va suv xo‘jaligi, 13,5 foizi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot, 3,2 foizi xizmat ko‘rsatish bilim sohalariga oid ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olmoqdalar. 2019-2020 o‘quv yili uchun qabul parametrlari 121 mingtani tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 18 foizga, 2016 yilga nisbatan esa 92 foizga oshdi. Respublikaning 16 ta oliy ta’lim muassasasida 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

So‘nggi 3 yilda oliy ta`lim muassasalarining 1611 nafar professor-o‘qituvchisi xorijiy oliy ta’lim muassasalarida stajirovka o‘tashi va malaka oshirishi ta’minlandi. Xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalar magistratura mutaxassisligiga 112 nafar, doktoranturasiga 51 nafar yoshlar ta’lim olishga qabul qilindi.

"El-yurt umidi" jamg‘armasi orqali 46 nafar professor-o‘qituvchining Kanada, Buyuk Britaniya va Italiya davlatlarida stajirovka o‘tashi ta’minlandi. 2017-2019 yillarda ta’lim jarayoniga 1154 nafar xorijlik yuqori malakali pedagog xodim va olim jalb etildi (AQShdan 94 nafar, Yevropa mamlakatlaridan 445 nafar, Osiyo mamlakatlaridan 299 nafar, MDH mamlakatlaridan 316 nafar). Oliy ta’lim muassasalarida fan doktori ilmiy darajasiga ega professorlarning bazaviy lavozim maoshlari 2016 yilga nisbatan 3,2 baravarga oshirildi.

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini ta’minlashni va nazorat qilishni xorijiy tajribalar asosida oshirish, mazkur mavzu dolzarbligi va bugungi kunda zaruratini ko‘rsatadi. Kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash uchun o‘qitishni yangi zamonaviy ta’lim texnologiyalarga moslashtirish, zamonaviy metodlarni va tamoyillarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishda xorijiy tajribalar bugungi kunda zarur bo’ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim sifatini ta’minlash va modernizasiyalashtirishda avvalombor, zamonaviy o‘quv-metodik ta’minotni shakllantirish masalasi paydo bo‘ldi. Shu sababli davlatimiz tomonidan oliy ta’lim oldiga qo‘yayotgan masalalarni ijobiy hal etish uchun zamoaviy o‘quv-metodik ta’minotni yaratish dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Ta’lim sifati va ta’lim samaradorligi jamiyatda hayot sifatini ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat va jamiyat umumiy va kasbiy ta’limga

qanchalik ko’p mablag‘ sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, hayot sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Ta’lim samaradorligini belgilashda eng optimal qarorlar qabul qilish yuqori ta’lim sifatga erishishni talab etadi. Mamlakatimizning hozirgi davrdagi rivojlanish bosqichida oliy kasbiy ta’lim globallashuv jarayonlari davrida mamlakatning milliy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy xavfsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan shaxslarning shakllanishidagi, insoniyatning universallashuvi va postindustrial axborot jamiyatiga o‘tishidagi asosiy vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga hozirgi kundagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi asoratlari davom etayotgan bir pallada oliy ta’lim jamiyatni birlashtirishning, yagona ijtimoiy-madaniy makonni saqlab qolish, ijtimoiy nizolar va etnomilliy ziddiyatlarni yengib o‘tishning eng muhim salohiyatli omili sifatida olib qaralishi lozimdir. Yangicha ta’lim tizimlarining shakllanishi tendensiyalari aniq ravshan turibdiki, hozirgi zamon jamiyatining umumiy rivojlanishi tendensiyalar bilan belgilanadi.

Ta’lim sifati an’anaga ko‘ra o‘qitishning va ilmiy tadqiqotlarning OTM darajasidagi tabiiy elementi va olimlarning kasbiy faoliyatidagi ajralmas bir bo‘lagi bo‘lib sanaladi. Hozirgi kunda oliy ta’lim sifatini oshirish butun dunyoda ta’lim tizimidagi eng muhim va asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham oliy ta’lim sifatini baholashdagi yondashuvlarni tadqiq qilishga ehtiyoj tuǵiladi. Shunga ko‘ra, oliy ta’lim sifatini ta’minlash turli oqibatlarga va xususiyatlarga ega bo’ladi. Oliy ta’lim sohasidagi turli tadqiqotchilar ta’lim sifatini ta’minlashning adekvat(mos) tizimini ishlab chiqishda har doim ilg‘or tajribalarga tayanadilar. Ta’lim sifatini ta’minlash “jangovar harakat qoidalari” deb talqin qilinishi mumkin bo’lgan aniq oqibatlarga ega bo’ladi. Shu bilan birga tashqi intensiv nazorat zaruratini pasaytiradigan ta’lim xizmatlari sifatining shaffofligi borasidagi “yozilmagan qoidalar” ham mavjuddir.

Xulosa qiladigan bo’lsak, oliy ta’lim sifatini ta’minlash borasida shu paytgacha mavjud bo’lgan milliy va xorijiy tajribalar shuni ko’rsatadiki, hozirgi paytda OTMlarda alohida, tizimsiz tarzda o’tkaziladigan islohotlar va innovatsiyalar samarasiz bo‘lib, bu ko‘pincha oliy ta’lim sohasidagi umumiy samaradorlikka putur yetkazadi. Shuning uchun oliy ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha shu paytgacha to‘plangan xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimi yutuqlari bilan o’zaro uyg‘unlashtirgan holda ham faqat majmuaviy, tizimli va bir butun tarzda amalga oshirish mamlakatimizda oliy ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarishi shakshubhasizdir. Aqliy rivojlanishning barcha sohalarida shaxs ijtimoiy munosabatlar o‘zgaradi. Bu jarayonda o‘quv faoliyatining yetakchi roli kichik maktab yoshidagi o‘quvchining boshqa tadbirlarga faol qo‘shilishini istisno etmaydi, uning davomida bolaning yangi yutuqlari yaxshilanadi va

mustahkamlanadi. L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha boshlang‘ich maktab yoshining o‘ziga xos xususiyati shundaki, faoliyatning maqsadlari asosan bolalar uchun kattalar tomonidan belgilab beriladi.

Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi islohotlar bugungi kunda o‘zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Bu islohotlar bugun allaqachon natijasini ham ko‘rsatyapti. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar ta’lim tizimimizdagi ijobiy natijalar ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning yanada keng ko‘lamda davom etayotganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan.
2. https://www.unicef.org
3. https://daryo.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2-bob

O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASIDA TA’LIM ISLOHOTLARI: PEDAGOGIK AKSIOLOGIYALAR ASOSIDA BOLAJAK O‘QITUVCHILARNI SHAKLLANTIRISH

Abdullayeva I.N.
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Pedagogika mutaxassisligi 1- bosqich 101 guruh magistranti

Annotatsiya. O‘zbekistonning 2030 yilda rivojlanish strategiyasi ta’lim sohasidagi islohotlarni eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilaydi. Ushbu strategiya, ayniqsa, pedagogik kadrlarni tayyorlash va o‘qituvchilarning malakasini oshirish masalasiga alohida e’tibor qaratmoqda. Pedagogik aksiologiyalar, ya’ni ta’lim jarayonida tarbiya, ahloq va qadriyatlarni shakllantirishga asoslangan yondashuvlar, o‘qituvchilarning tarbiyaviy va pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada pedagogika OTMda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati, usullari va metodlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy malaka, poydevor, kreativ, pedagogic aksiologiyalar, metod, tarkibiy qism, yondashuv, qadriyatlar, axloqiy tamoyillar integratsiya innovatsion

Аннотация. Стратегия развития Узбекистана до 2030 года определяет реформы в сфере образования одним из важнейших направлений. В данной стратегии особое внимание уделяется вопросу подготовки педагогических

кадров и повышению квалификации учителей. Педагогическая аксиология, то есть подходы, основанные на формировании воспитания, морали и ценностей в образовательном процессе, играют важную роль в развитии учебно-педагогических способностей учителей. В данной статье представлена информация о значении, методах и методах формирования профессиональных качеств будущих учителей педагогического вуза.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, основа, креатив, педагогическая аксиология, метод, компонент, подход, ценности, этические принципы, интеграция, инновация.

Abstract. The development strategy of Uzbekistan in 2030 identifies reforms in the field of education as one of the most important directions. This strategy pays particular attention to the issue of training of pedagogical personnel and improvement of teachers' qualifications. Pedagogical axiology, that is, approaches based on the formation of education, morals and values in the educational process, play an important role in the development of educational and pedagogical abilities of teachers. This article provides information about the importance, methods and methods of forming the professional qualities of future teachers at the pedagogic higher education institution.

Key words: professional competence, foundation, creative, pedagogical axiology, method, component, approach, values, ethical principles, integration, innovation

O‘zbekiston hukumati tomonidan o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bolajak o’qituvchilarni tayyorlash ta’lim tizimining asosiy va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonning ahamiyati katta, chunki o’qituvchilar nafaqat bilim berish, balki yosh avlodni tarbiyalash, ularning insoniy fazilatlarini shakllantirish, ijtimoiy faollik va kelajakdagi muvaffaqiyatlar uchun poydevor yaratishda katta rol o’ynaydi.

Yaxshi tayyorlangan o’qituvchilar o’quvchilarga yuqori sifatli bilimlarni taqdim eta olishadi. O’qituvchilar nafaqat bilim, balki o’quvchilarni fikrlashga, muammolarni hal qilishga, kreativ yondoshuvni rivojlantirishga o’rgatadi. Yangi pedagogik yondashuvlar, xususan, ta’lim jarayonida o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik askiologiyalar – bu ta’lim jarayonida talabalarning tarbiyaviy, axloqiy va ma’naviy jihatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvlardir. Askiologiya so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “qadriyatlar” yoki “axloqiy tamoyillar” degan ma’noni anglatadi. Pedagogik aksiologiya, o‘qituvchining nafaqat ilmiy bilimlar berish, balki talabalarning axloqiy va madaniy jihatlarini shakllantirishdagi mas’uliyatini anglatadi. Bu yondashuvda ta’lim jarayoni nafaqat

kognitiv bilimlarni oshirish, balki ijtimoiy, ma’naviy va shaxsiy qadriyatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan.

O‘zbekistonning ta’lim tizimida pedagogik askiologiyalarni joriy etish, o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan yaxshi ma’naviy-madaniy qadriyatlarni singdirishiga imkon yaratadi. Bu orqali o‘quvchilar faqat bilim olmasdan, balki insoniy fazilatlar va jamiyatga foydali bo‘lish kabi muhim qadriyatlarni ham o‘zlashtiradilar.

Bolajak O‘qituvchilarni Pedagogik aksiologiyalar asosida shakllantirishning muhim tamoyillari:

O‘qituvchi – ta’lim tizimining eng asosiy shaxsi bo‘lib, uning pedagogik mahorati va axloqiy qadriyatlari nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasiga, balki jamiyatda yuksak ma’naviyat va ahloqiy qadriyatlarning shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, O‘zbekiston 2030 strategiyasida ta’lim tizimida islohotlar o‘tkazishda pedagogik askiologiyalarni integratsiya qilish zarurati keltirilgan.

Bu yondashuv bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish kerak:

1. Pedagogik Qobiliyatlar: O‘qituvchilar pedagogik askiologiyalar asosida nafaqat ilmiy bilimlar berish, balki o‘quvchilarning ma’naviy rivojlanishiga, axloqiy qarashlarining shakllanishiga ham hissa qo‘shishlari kerak.

2. Shaxsiy Qadriyatlar: O‘qituvchining shaxsiy ahloqiy qadriyatlari va mas’uliyat hissi yuqori bo‘lishi, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilar nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularning hayotiy qadriyatlar va jamiyatga munosabatini shakllantirishda ham o‘z mas’uliyatlarini his qilishlari kerak.

3. Innovatsion Pedagogik Yondashuvlar: Ta’lim jarayoniga yangi metodlar va texnologiyalarni joriy etish o‘qituvchilarni nafaqat bilim beruvchilarga, balki o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi mentorlar va maslahatchilarga aylantiradi. O’qituvchilar o’quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki hayotiy ko’nikmalarni ham o’rgatishadi. Ular o’quvchilarda axloqiy qadriyatlar, inson huquqlari, ijtimoiy adolat va etika bo’yicha to’g’ri qarashlarni rivojlantiradilar. Bolajak o’qituvchilarni tayyorlashda bu jihatlarning ham inobatga olinishi juda muhim.

Xulosa. O‘zbekiston 2030 strategiyasi doirasida ta’lim islohotlarini amalga oshirishda pedagogik askiologiyalarni integratsiya qilish, nafaqat bilimli o‘qituvchilarni tayyorlash, balki ularning ma’naviy va axloqiy jihatdan to‘g‘ri yo‘nalishlarni ko‘rsatishi uchun muhimdir. Oqituvchilar, o’z navbatida, jamiyatni ilg’or g’oyalar, bilim va ma’naviyat bilan boyitishga yordam beradi. Ularning tarbiyaviy va ta’lim beruvchi roli ijtimoiy tizimni yaxshilash, iqtisodiy

rivojlanishga yordam berish va kelajakda muvaffaqiyatli jamiyatni shakllantirish uchun juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Mahmudov, N. M. (2014). Pedagogik Aksiologiya. Toshkent: O’qituvchi.
2. O’zbekistonda pedagogik aksiologiya sohasida yozilgan ilmiy ishlar va tadqiqotlarni o’z ichiga oladi.
3. Tursunov, A. (2012). Pedagogika va Tarbiya Masalalari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. O’zbek pedagogikasidagi qadriyatlar va ta’limdagi axloqiy va ijtimoiy omillarni o’rganadi.
5. Pedagogik Yondoshuvlar
6. Ismoilova, G. (2021). O'qituvchilik faoliyatida innovatsion yondashuvlar. Farg'ona: Farg'ona davlat universiteti.
7. Pedagogik Yondoshuvlar
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes
9. Vygotsky o’qitish va tarbiya jarayonidagi kognitiv va ijtimoiy qadriyatlarning ahamiyatini ko’rib chiqadi.

Cu (II) IONI, KETOPROFEN VA MONOETANOLAMIN ASOSIDA OLINGAN ARALASH LIGANDLI KOMPLEKS BIRIKMALARNING BIOLOGIC XOSSASINI MOLEKULYAR DOCKING USULIDA NAZARIY O'RGANISH

T.R.Rustamov,
Xorazm Ma'mun akademiyasi, doktorant

X.M.Azizjanov,
Urganch davlat universiteti, dotsent

Z.Sh.Abdullayeva,
Urganch Ranch texnologiya universiteti, dotsent

O.I.Xudoyberganov
Xorazm Ma'mun akademiyasi, katta ilmiy xodim

Aralash-ligandli komplekslar odatdagi komplekslardan shu bilan farq qiladiki, ularda bir xil metall ioniga bog‘langan kamida ikki xil turdagi ligandlar mavjud. Kompleksning bashorat qilingan xususiyatlarining o‘zgarish potensiali bir nechta ligand turlari mavjud bo‘lganda ortadi [1]. Biologik va kimyoviy jarayonlarda, shu jumladan antioksidantlar [2], suvni silliqlash, ion almashinuvchi qatronlar va tirik organizmlarning elektr komponentlaridan metallarda fotosintez, aralash ligand komplekslari muhim ahamiyatga ega. Kundalik hayotimizda bioinorganik, tibbiyot, kimyo, fotokimyo, molekulyar biologiya kabi sohalar aralash ligand-metall komplekslariga bog‘liq.

Zamonaviy noorganik koordinatsion kimyogarlar va farmatsevtik tadqiqotlarning asosiy maqsadlaridan biri kasalliklarni davolash uchun yaxshiroq dori-darmonlarni topish va ishlab chiqish bo‘lib, bu dori-metall komplekslari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga olib keldi [3].

Monoetanolamin (2-aminoetanol, etanolamin, ETA, MEA) empirik formulasi C_2H_7NO bo‘lgan organik modda bo‘lib, bifunksional molekula hisoblanadi. Molekuladagi har bir uglerod atomlariga bog‘langan gidroksil (OH) va amin (NH_2) guruhlari uni aminospirt deyishga asos paydo qiladi. Molekulyar massasi 61.08 g/mol^{-1} ga teng bo‘lib, rangsiz yoki och sariq, ammiak hidli qovushqoq suyuqlikdir. Suyuqlanish harorati 10.3ºC, qaynash harorati esa, 170ºC ni tashkil etadi. pKa qiymati 9.50 ga teng bo‘lib, reaksiyalarda kuchsiz asoslik xossasini namoyon qiladi.

Molekulyar docking usuli biologik faol kompleks birikmalarning o‘zaro ta’sirini va ularga xos xususiyatlarni aniqlash uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu usul birikmalar orasidagi bog‘lanishlarni tahlil qilishga yordam berib, dori

vositalarining maqsadli molekulalar bilan qanday o‘zaro ta’sir qilishini tushunishga imkon beradi.

Molekulyar docking — bu kompyuterda biologik molekulalar, masalan, oqsillar va kichik ligandlar orasidagi o‘zaro ta’sirni modellashtirish uchun ishlatiladigan usuldir.

Bu jarayon molekulalarning energetik jihatdan eng qulay o‘zaro ta’sir konfiguratsiyalarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu usul ligand va oqsil retseptori o‘rtasidagi bog‘lanishni tahlil qilib:

- biologik faollikni tushunish va optimallashtirish imkonini beradi;
- Maqsadli molekulaning faol joylarini topish va ularga mos keluvchi ligandlarni aniqlaydi;
- Ligandning maqsadli molekula bilan bog‘lanishining erkin energiyasini tahlil qilish orqali bog‘lanish quvvatini baholaydi;

Dori molekulalari uchun optimal kimyoviy strukturalarni yaratishga yordam beradi.

Molekulyar doking dastlab, kichik molekula (ligand) va maqsadli makromolekula (oqsil) o‘rtasida amalga oshirish uchun mo‘ljallangan edi, ammo so‘nggi o‘n yillikda oqsil-oqsil, nuklein kislota (DNK va RNK)-ligand biriktirishiga qiziqish ortib bormoqda va natijada nuklein kislota-oqsil-ligand dokingini amalga oshirgan holda sintezlarni oldindan rejalashtirish va olingan moddalarni ta’sir sohasini aniqlash jadal davom qilmoqda [4].

Molekulyar doking usuli mikrob oqsillari bilan ham bog‘lanuvchi ligandlarni o‘rganish imkonini beradi. Shuni inobatga olgan holda, ketoprofen va uning metallokomplekslari Streptococcus pyogenes serotype bakteriyasiga qarshi antibakterial faolligi tahlil qilindi. [Cu(Ket)2(MEA)2] tarkibli kompleksi va ketoprofen ligandi bilan solishtirish maqsadida inson organizmida yallig’lanish kasallilarini keltirib chiqaruvchi Streptococcus pyogenes serotype bakteriyasi reseptori oqsili (ID: 186103) bilan bog‘lanishi CB-DOCK serverida (Xitoy) amalga oshirildi. Oqsil-molekula ta’sirlashish energiyalari 1–jadval va 1-rasmda keltirilgan.



a) b)

1-rasm. Birikmaning oqsil molekulasi bilan bog'lanishining umumiy ko'rinishi (a) va oqsil tarkibidagi aminokislotalar bilan bog'lanishi (b)

Hisoblash ishlarida ta'sirlashish jarayonlarida energiyaning kichik bo'lishi bog'lanish mustahkamligini ko'rsatuvchi faktor hisoblanadi.

1-jadval

Hisoblangan eng yuqori bog'lanish energiyalari

Docking amalga oshirilgan birikmalar	Minimal bog'lanish energiyasi (kkal/mol)	Molekula egallagan bo'shliq hajmi	Bog'lanish markazi		
			x	y	z
[Cu(Ket)2(MEA)2]	-11	11307	-4	2	-5

Olingan nazariy tahlil natijalariga asosan yallig'lanish kasalliklariga qarshi qo'llaniluvchi ketoprofen moddasiga nisbatan [Cu(Ket)2(MEA)2] tarkibli kompleks birikmasining oqsil bilan bog'lanish energiyasi minimal qiymatni tashkil etdi. Demak, kelajakda ushbu kompleks birikmani amaliy qo'llash imkoniyati yuqori bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

Rodnikova M. N. et al. The structure of crystalline monoethanolamine and a model of its structural rearrangement on crystal melting //Russian Journal of Inorganic Chemistry. – 2013. – vol. 58. – №. 12. – P. 1501 -1505.

Frauenkron M. et al. Ethanolamines and propanolamines //Environmental Protection. – 2012. – vol. 421. – №. 8. – P.18-26

Stanzione F., Giangreco I., Cole J. C. Use of molecular docking computational
tools in drug discovery //Progress in Medicinal Chemistry. – 2021. – vol. 60. – P. 273-343. https://doi.org/10.1016/bs.pmch.2021.01.004

ЯЗЫКОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ СОВРЕМЕННОЙ АВТОСПОРТИВНОЙ МЕДИАСФЕРЫ

И.Ф.Порубай
старший преподаватель, PhD, Ферганский государственный университет

Аннотация. В данной статье изучаются современные особенности языка, применяемого в автоспортивных медиа, включая интернет-ресурсы и социальные платформы. Рассматриваются лексические и стилистические черты, присущие этому медиаконтенту. Особое внимание уделяется анализу терминологии и выражений, используемых в автоспортивной журналистике и социальных сетях, что позволяет определить ключевые характеристики данного языкового феномена.

Ключевые слова: спортивный язык, язык автоспорта, язык автоспорта, сленг, жаргон, терминология, профессиональный язык, автоспорт, спорт

Одним из самых интересных видов дискурса в современном обществе является так называемый спортивный дискурс. Дискурс различных видов спорта представляет интерес по многим причинам, первой из которых является, прежде всего, сама природа спорта как человеческой деятельности. Он является неотъемлемой частью культурной жизни общества, отражением стремлений человека как члена этого общества к саморазвитию и соревнованию. Конечно, как и любая другая сфера, сфера спорта как глобальное, интернациональное явление имеет свой дискурс, базирующийся на нескольких направлениях, связанных с его коммуникативной средой. [3, 52-58]

Язык автоспорта исключительно разнообразен и сформирован многочисленными участниками его динамичной экосистемы. Спортсмены привносят специализированный лексикон, полученный из их технических знаний и опыта на трассе, предполагая понимание тонкостей характеристик автомобиля, стратегии гонки и физических требований вождения. Медиаорганизации, включая СМИ и цифровые платформы, играют ключевую роль в формировании того, как развивается язык автоспорта, предоставляя комментарии и анализ, которые уравновешивают доступность для новых поклонников с технической глубиной для энтузиастов. Интернет-сервисы и социальные сети еще больше усиливают это языковое разнообразие, предоставляя фанатам пространства для участия в дискуссиях, обмена контентом, принятия или создания новой терминологии в обиходе. Спортивные подкасты, аналитики и комментаторы вносят свой вклад в эту

эволюцию, разбирая сложные аспекты спорта, часто создавая фразы или переосмысливая существующие, чтобы лучше передать атмосферу, интригу и нюансы гоночного мира. Спортивные журналисты обогащают лексикон посредством статей и анализа, в то время как спонсоры влияют на язык посредством брендинга и маркетинговых усилий, которые связывают термины автоспорта с более широкими коммерческими повествованиями. Фан-клубы и сообщества также играют важную роль, популяризируя сленг, мемы и разговорные выражения, которые отражают культуру энтузиастов автоспорта. Глобальный охват медиаплатформ автоспорта в сочетании с изначально международным характером спорта способствует широкому распространению его терминологии. Трансграничная привлекательность таких событий, как Формула-1, MotoGP и чемпионаты по ралли, способствует языковому заимствованию, когда термины из одного языка или культуры перенимаются в другой.

Язык автоспорта и средства массовой информации, которые его освещают, представляют собой синтетическое явление, состоящее из языковых слоев, которые представляют различные аспекты: технологии, спортивную журналистику, трансляции, правила спорта, сленг фанатов и т. д. [4, 159-168]

Помимо статистики, автоспортивные СМИ приняли нарративное повествование, чтобы «очеловечить» спорт. Репортажи о личных путешествиях водителей, соперничестве команд и исторических моментах добавляют глубину и эмоции освещению. Язык этих повествований сочетает техническую экспертизу с мастерством повествования, предлагая фанатам многогранный взгляд на мир автоспорта — от триумфов и трагедий на трассе до инноваций, формирующих его будущее.

Важно отметить, что стиль языка автоспортивных СМИ во многом схож с традиционной журналистикой, унаследовав общепринятые стилистические приемы. К ним относятся:

Использование настоящего простого времени в заголовках:

“Ferrari brings modified version of new car...”; («Ferrari представляет модифицированную версию нового автомобиля...»);

Использование инфинитива в заголовках: “Magnussen to depart Hass after 2024 F1 season”, “Muller to leave Peugeot’s hypercar squad after 2024 WEC season” («Магнуссен покинет команду «Хасс» после сезона «Формулы-1» 2024 года», «Мюллер покинет команду Peugeot по гонкам на гиперкарах после сезона WEC 2024 года») и т. д. [1]

Язык медиа в сфере автоспорта опирается на специфическую лексику автоспорта в контексте, представляя связанные со спортом концепции:

«shakedown» (тестирование автомобиля),

«stint» (время, которое гонщик проводит в гонке),

«double header» (выходные с гонками и в субботу, и в воскресенье),

«photofinish» (чрезвычайно близкий финиш между лидером и вторым призером в гонке),

«post-race» (события, произошедшие после гонки, которые могут повлиять на гонку или стать следствием гоночного события),

«spin» (потеря контроля над автомобилем)

«upgrade» (техническое усовершенствование автомобиля в ходе чемпионата)

3. Журналисты используют как узкоспециализированную автомобильную терминологию (downforce, recovery system, restrictor (прижимная сила, система восстановления, ограничитель)), так и общеупотребительные автомобильные термины, понятные всем носителям языка (engine, wheel, tires, speed, brakes, chassis (двигатель, колесо, шины, скорость, тормоза, шасси)). Лексика автоспорта тесно связана с автомобильной терминологией и тем самым представляет собой особый вид лексической системы. То есть автоспортивный дискурс характеризуется синкретизмом, гибридностью, обнаруживая включение автомобильного дискурса и органическое сочетание с ним. [5, 213-218] Этот аспект отражает многогранную природу языка автоспорта, который отражает как терминологию, так и нетерминологическую часть: фанатский и профессиональный сленг и жаргон. [2, 36-40]

В СМИ, связанных с мотоспортом, можно использовать множество образных фраз. К ним относятся такие фразы:

“hit the seiling” (достичь максимума своего потенциала),

“heading the battle” (лидирующий в гонке или чемпионате),

“look for the title” (иметь надежды или планы выиграть чемпионат),

“snag the win” (попытаться обогнать соперника, чтобы выиграть гонку),

“prevail” (лидировать большую часть времени в гонке/чемпионате),

“favorite” (гонщик/команда, имеющая наибольшие шансы на победу),

“unveil” (чтобы представить новую машину/команду/гонщика широкой публике, прессе),

“incident” (авария или столкновение во время гонки, в которой никто не виноват),

“stretch fuel” (экономия как можно больше топлива во время гонки),

“maiden victory” (первая в истории победа гонщика/команды),
“dominate” (иметь преимущество перед другими в гонке/чемпионате).
[1]

В заключение следует отметить, что язык автоспортивных медиа претерпел значительную трансформацию, превратившись из простого описательного инструмента в сложное, насыщенное данными повествование, которое увлекает и информирует фанатов по всему миру. Интеграция передовых технологий, разнообразных форматов контента и многоязычной доступности отражает приверженность спорта инновациям и адаптивности. По мере появления новых технологий и изменения предпочтений аудитории язык и средства автоспорта, несомненно, будут развиваться и дальше, гарантируя, что спорт останется динамичной и вдохновляющей силой для поколений энтузиастов по всему миру.

Литература

1. Веб ресурс https://www.motorsport.com/
2. Кобыскан Александр Степанович (2016). О СТАТУСЕ ПЕРЕХОДНОЙ ЛЕКСИКИ В АВТОГОНОЧНОМ ПОДЪЯЗЫКЕ. Педагогический журнал Башкортостана, (5 (66)), 36-40.
3. Порубай, И. Ф., Ибрагимова, Э. И., & Зокиров, М. Т. (2022). О НЕКОТОРЫХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ СПОРТИВНОГО ДИСКУРСА. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 52-58.
4. Порубай, И. Ф. (2022). Лексические Свойства Современного Автоспортивного Дискурса (На Примерах Английского И Русского Языков). Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 3(11), 159-168.
5. Рогалева Ольга Сергеевна (2014). Лексика автоспорта в современных СМИ: семантика и функционирование. Коммуникативные исследования, (2), 213-218.

TA’LIM OLUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-HUQUQIY JIHATLARI

Berdibayeva Gulshat Sultamuratovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
sport universiteti Nukus filiali
“Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi
assistent o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo miqyosida ekologik ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar hamda ularda ekologik muammolarning oldini olish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha fikr-mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, ekologik muammolar, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik madaniyat, zamonaviy texnologiyalar, integratsiya, normativ-huquqiy hujjatlar, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiya.

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta’lim-tarbiya jarayonlarining tub mohiyati ta’lim oluvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash va ularning ekologik madaniyatini rivojlantirish orqali ta’lim samaradorligiga erishish, shuningdek, sifatni boshqarish paradikmasini joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Tabiatni asrash va undan to‘g‘ri foydalanish borasidagi globar muammolar yuzasidan bir nechta yirik xalqaro tashkilotlar talablaridan kelib chiqib, ta’lim oluvchilarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirish, ularning tabiatga nichbatan ijobiy munosabatini shakllantirish dolzarblik kasb etmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash, umumiy o‘rta ta’lim tizimida ekologik ta’limni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarorida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy masala sifatida aholi zrtasida ekologik madaniyatni keng targ‘ib qilish hamda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik ta’lim-tarbiya berish sifatini yanada yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashda sifat ko‘rsatkichlarini yaxlitlashtirish bo‘yicha manzilli va maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalar ta’lim oluvchilarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning mazmunini fanlararo integratsiya asosida optimallashtirish hamda ta’lim oluvchilarning innovatsion faoliyatini takomillashtirishni taqozo etadi. Shuningdek, konsepsiya ekologik ta’limning dolzarbligini mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof-muhitni beqarorlik va izdan chiqishidan asrash,

aholining geoekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasida nazarda tutilgan ekologik ta’limning majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayoganligi, davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmaganligi, ekologik ta’lim asosida ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liqligi ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev mamlakatimizda ta’lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etish masalalariga to‘xtalib, “Ta’lim-tarbiya sohasida ham belgilanayotgan islohatlarni hayotga tatbiq qilishda va keyingi yillarda to‘plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o‘zgaruvchan ietimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarur” deya ta’kidladilar. Bu esa, barcha fan yo‘nalishlari kabi, ekologik ta’limni takomillashtirishni oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarga joriy etish hamda ularning ekologik savodxonligini rivojlantirish zaruratini belgilab beradi.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, tabiat ne’matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta’sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bu masalada Prezidentimizning 2018-yil 3-oktabrda “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3956-sonli Qarori tasdiqlandi. Bugun insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatlariga guvoh bo‘lib turibmiz. Mavjud ekologik muammolar tabiat boyliklaridan ekologik omillar hisobga olinmagan holda foydalanish natijasida o‘tgan asrning ikkinchi yarmida avj ola boshladi. Ayni chog‘da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa’y-harakatlar ularni hal etishda yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning yangi bosqichida geoekologik muammolarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, so‘ngi yillarda sohaga oid ko‘p qonun va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir. “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, o‘rmonlar maydonini kengaytirish kabi vazifalar “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot

Strategiyasi”ning 79-81-maqsadlarida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” 1992 yil 29 yanvar, O‘RQ-754-XII-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi** “Ekologik ta’limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **434-son Qarori.**
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-oktabrda “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3956-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-76-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. *Баринова И.И.* Современный урок географии и экологии // Экологическое образование для устойчивого развития: теория и педагогическая реальность: Материалы X Юбилейной Всероссийской научно- практической конференции. - Н. Новгород: НГПУ, 2009.-С. 34-38.
7. Церцек Н.Ф. Экологическое образование и просвещение в зеркале социологии // – Вестник экологического образования в России. – 2004. – №2.

MUNDARIJA

Qudratov E.Sh. Ekoturizmni iqtisodiy - ijtimoiy tizim sifatida o‘rganishning nazariy asoslari ...3
Majidova L.B. Fransuz va o'zbek bolalar adabiyoti, ertak janri ...6
Sadullayeva Sh.B. Ijtimoiy adolat va tenglik ...9
Inatullayeva S. Intellekt taraqqiyotiga ta’sir etuvchi omillar ...15
Xushvaktova N.A. Ishni sudga qadar yuritishda jamoatchilik vakili – mutaxassis imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish ...16
Meyliqulova M. Milliy o‘quv dasturi - hayot va fan zarurati ...20
Mamatojiev Sh.I. Pillachilik-muammolar va takliflar ...23
Sodiqova S.I. Reklama matnining lingvistik xususiyatlari ...26
Avezova N. Til ko‘ngil oynasidir ...29
Maxmudova Z.A. Zahiriddin Muhammad Bobur saltanatida ma’muriy boshqaruv tizimi ...31
Mamatkulova X.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’yektlari tarmoqlar kesimidagi sonining tavsifiy statistikasi ...33
Qurbonova Z.M. Anglicisms ...36
Хамроев С.Б. Тактика современного метода терапии когнитивных нарушений при параноидной шизофрении ...40
Axmedova A.K. “Adabiy qahramon”ning zamonaviy talqinlari ...42
Хамроев С.Б. Факторы способствующие формирования депрессивных расстройств в среднем возрасте ...46
Pirimqulov J.P. O‘simlikchilik tarmog‘ini innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar ...47
Ziyadullayeva R. Iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari ...51
Abdullayeva Sh. Terminological apparatus of functional and cognitive semantics ...53
To‘rayeva I.Sh. O’zbek nasri va she’riyatida o’zbek to’ylarining uyg’unligi ...56
Махамадалиева Г.З., Гулмирзаев Ж.А., Хамидова Ф.И., Исхаков Э.Д. Множественная миелома и клинический случай поздней диагностики синдрома шерешевского-тернера ...59
To‘xtayev N. Hanafiy mazhabida fiqhiy hukmlarning joriy etilishida urfning o‘rni ...63
Berdimuratova R. Linguistic-cultural and linguistic-stylistic features of uzbek language cosmonomies ...67
Yusupov O'.A. Ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarda anemonim hodisalarining tarjimasi borasidagi tushunchalar ...71
Toshbekova M.M. Features of the study of phytonymic vocabulary in the direct nominative meaning ...74
Toshpo‘latov T.M. Axborot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyasi ...77
Saloxiddinov Z.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari ...80
Saloxiddinov Z.N. Iqtisodiy siyosatning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati ...83
Nazarmatova Yo.M. Ingliz tilini o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish usullari ...86
Sotvoldiyeva N. Kompyuter lingvistikasi fanida mashina tarjimasining ahamiyati ...90
Valiyeva F.O. Bank samaradorligini baholashda foydalaniladigan an’anaviy indikatorlar ...93
Ismoilova U.M. Tarixiy va badiiy asarda iqtibos san’atining qo’llanishi alisher navoiy asarlari misolida ...95

Ismoilova U.M. “Tarixi Anbiyo va Hukamo” asaridagi she’riy parchalar badiiyati.....97
Inobiddinova Sh.V. Peganum Harmala L.(isiriq)ning flavonoid tarkibini tekshirish 100
Ibragimov Sh. Tijorat banklarining biznes modellarini makroiqtisodiy muhit sharoitlariga moslashtirish: integratsiyalangan yondashuv 102
Sotimov D.Q. O'zini o'zi band qiluvchi jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning aqsh tajribasi va undan soliq siyosatimizda foydalanish imkoniyatlari.....106
Matqurbonova I.Q. Kino san`atining kechasi, buguni va kinomatografiyaning hayotimizdagi o’rni 109
Mamarajabov B. Bank moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirishning dolzarb asoslari va rivojlanish yo’llari 111
Qovulova N.M. Buyraklar. ularning tuzulishi va funksiyalari. buyrak anomaliyalari va tasnifi 115
Berdimuratova R. O'zbek tili kosmonimlarining imkoniyatlari.....118
Адилбекова Д.Б., Абдалиева М.П.,Калмурзаев Е.К., Маматвалиев Б. Морфологическая характеристика сосудисто-тканевых структур желудка потомства, рожденных в условиях сахарного диабета у матери.....122
Адилбекова Д. Б., Абдалиева М.П.,Калмурзаев Е.К., Маматвалиев Б. Морфологическое состояние желудка потомства у потомства, рожденных от матерей с сахарным диабетом в ранние периоды постнатального развития 124
Turayeva N.M. Aeronavigatsiyada axborot monitoring tizimi.....126
Хуррамова Б. Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида эстетик хусусиятларнинг ифодаланиши 127
Kakabayeva G. Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasi. O‘qish va yozish faoliyatining turlari 130
Kakabayeva G. Boshlang‘ich sinflarga matematika kursini o‘rganishga tayyorlash va matematikani o‘qitish metodikasi.....134
Maxmatqulova S. Xalqaro tijorat arbitrajining huquqiy maqomi.....137
Allamuratov M. Sh.Seytovtiń «Xalqabad» romanındaǵí fonetikaliq qubílíslar 139
Po‘latova S.M. Masofaviy ta’limda zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish.....141
Muminov O.O. Qizilqumning shimoliy sharqiy qismida olib borilgan tadqiqotlar.....144
Mamajonova D.A. The use of percussion instruments in the development of uzbek music performance 148
Бахрамова Н.Н. Ноанъанавий мойли экинлар уруғларининг лаборатория унувчанлигини баҳолаш 151
Qilichev T.M. Zamonaviy professional boksda yangi tendensiyalar va raqamli texnologiyalar 153
Umarov A.Y. Budjet tashkilotlarida xarajatlarni smeta orqali rejalashtirishtirishning uslubiy jihatlari.....157
Qo’chqorov J.F., Toirov A.T., Gadayev A.M. Mushaklardagi trigger nuqtalarning anatomik xususiyatlari, differensial diagnostikasi va davolash usullari 162
Turdaliyev K.Y. Tezkor-qidiruv faoliyatida axborot tizimlari: muammo va yechimlar 165
Aliyev Sh. Kashfiy Termiziy devonining adabiy tahlili 169
Buzrukova M. Gastroturizm diskursida pragamtik mo‘ljalning voqelanishi.....173
Mukumov M.Kh. The evolution of scientific discourse: lexicon and interdisciplinary dynamics 176

Abduraxmonov G., Almardonov Sh. Bir jinsli bo‘lmagan yuqori chastotali elektromagnit to‘lqinining yarimo‘tkazgich muhitga ta’siri.....181
Avezov H.K. O‘zbekistonning barqaror ekologik muhit yaratish maqsadida xalqaro hamjamiyatga integratsiyalashuvi bosqichlari 185
Усманова Муниса Ш. Значимость обучения иностранному языку как средству межкультурной коммуникации.....188
Umirov J.I. Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etilishi 192
Abduhamitova D. Konstitutsiya-inson huquqlari himoyachisi 196
Saidova N.Dj. Jontemir ijodida poetik sintaksis masalasi (Jazba she’riy to‘plami tahlilida) 200
Солиева З.Б. Мартин Хайдеггернинг ижтимоий онтологияси.....202
Нишонбоева Х. Химический состав орехового сырья 204
Niyazova N.I. Integration of artificial intelligence (ai) in language education. 206
Пулатова Н., Жалилов Ф. Стандартизация растительного сырья алоэ вера 210
Ibragimova S.K. Oliy ta’lim muassasalarida boshqaruv faoliyatini tashkil etishning didaktik asoslari.....211
Usmonov M.D., Saidniyazov I.Q., Urolov B.E., Usmonov S.Sh. Yashirin iqtisodiyotning jamiyatga tasiri 215
Axmanova M.M. Splitting gibbs measures of $_p$-SOS model on cayley tree 218
Tursunova M.S. Bir o‘lchovli funksiyalarning bir sinfi uchun dinamik tizimlar.....221
Madaminova M. Shavkat Rahmon she’riyatining lirik kechinma obyektiga ko’ra tahlili 224
Rozikov U.A., Djurayeva Ch.G. An integral equation related to a measure in innovative economy 227
Dauletova Z.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirishning pedagogik jihatlari 230
Abdurakhmanova M.T Development of transport infrastructure to ensure growth of regional economies 233
Xudoyberdiyeva N.H. Bo'lajak o'qituvchilarni ma’naviy tadbirlar orqali kasbiy sifatlarini rivojlantirish 236
Xudoyberdiyeva N.H. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’limning asosiy mezoni 240
Axmedova D.K. Tijorat banklarida raqamli chakana kreditlashni asosiy xususiyatlari. barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda investitsiyalar va moliya bozorlarining o‘rni 242
Raimova M.A. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativlik madaniyatini rivojlantirish (akt asosida).....247
Matkarimova M. Ta'limda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish muammosini o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslari.....251
Aglamova Sh.S. Ta’lim va tarbiyada zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi.....257
Mahmudova D. Bo’lajak tarbiya fani o`qituvchilarining deontologik madaniyatini shakllantirish 261
Samiyeva S.O. O`zbekiston respublikasida ta’lim sohasidagi islohotlar 265
Aliyev N.N. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti kontekstida ijtimoiy tengsizlik masalalari.....270
Qayumova M.M. Etymology and semantic nature of the “STEP” concept.....274
Порубай И.Ф. Анализ влияния англоязычной сферы социальных сетей на общую языковую картину 277

Raimova M.A. Yangi O‘zbekiston: yangi ta’lim tizimi va yangicha yondashuvlar ta’lim taraqqiyoti asosi.....281
Abdullayeva I.N. O‘zbekiston 2030 strategiyasida ta’lim islohotlari: pedagogik aksiologiyalar asosida bolajak o‘qituvchilarni shakllantirish 286
Rustamov T.R., Azizjanov X.M., Abdullayeva Z.Sh., Xudoyberganov O.I. Cu (II) ioni, ketoprofen va monoetanolamin asosida olingan aralash ligandli kompleks birikmalarning biologic xossasini molekulyar docking usulida nazariy o’rganish.....290
Порубай И.Ф. Языковые тенденции современной автоспортивной медиасферы 293
Berdibayeva G.S. Ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-huquqiy jihatlari.....297